

**SH.S.SHOYIMOVA,
SH.R.MIRZAYEVA, U.D.QARSHIBOYEVA**

KASBIY TA'LIM METODIKASI

ISBN 978-9943-14-747-8



9 789943 147478



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**SH.S.SHOYIMOVA, SH.R.MIRZAYEVA,
U.D.QARSHIBOYEVA**

KASBIY TA‘LIM METODIKASI

**Bilim sohasi: Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy ta‘minot – 500000
Ta‘lim sohasi: Sog‘liqni saqlash – 510000**

**“Kasb ta‘limi” – 5111000
“Tibbiy-biologik ish” – 5510900
“Oliy hamshiralik ishi” – 5510700**

ta‘lim yo‘nalishlari uchun darslik

**TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2020**

UO‘K: 377
KBK: 37.24
K 45

Darslik

Kasbiy ta‘lim metodikasi / Sh.Shoyimova, Sh.Mirzayeva, U.Qarshiboyeva.
– Toshkent: «TURON-IQBOL», 2020. – 240 b.

Taqrizchilar:

D.I. Ro‘ziyeva – TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrası mudiri, p.f.d,
professor;

L.Yu. Akramova – ToshDSI “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti,
p.f.n.

Mazkur darslikda kasbiy ta‘lim metodikasining nazariy-metodologik va ilmiy-amaliy asoslari, fanning predmeti, maqsad va vazifalari, kasbiy va tibbiy ta‘limda tutgan o‘rni, O‘zRning uzluksiz ta‘lim tizimida kasbiy ta‘lim islohotlari, ta‘lim mazmuni, kasbiy ta‘lim o‘qituvchisining uslubiy ishlari, tibbiy ta‘limda darslarni tashkil etish, kasbiy ta‘limning didaktik tamoyillari, kasbga tayyorlashning muhim masalalari, o‘qituvchining kasbiy faoliyati va pedagogik mahorati, kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash xususiyatlari, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish vazifalari hamda imkoniyatlari, kasbga tayyorlashda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik va innovatsion o‘qitish texnologiyalari yoritilgan.

Darslik tibbiyot oliy o‘quv yurtlari “Kasb ta‘limi”, “Tibbiy-biologik ish” va “Oliy hamshiralik ishi” yo‘nalishlari talabalari uchun “Kasbiy ta‘lim metodikasi” fanidan tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil «30» iyundagi «359»-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat etildi (Guvohnoma raqami – 359-524).

ISBN 978-9943-14-747-8

© «TURON-IQBOL», 2020

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi borasida harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturlari ishlab chiqildi va bu borada bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan harakatlar strategiyasi asosida huquqiy, demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan jamiyatni barpo etish asosida, yuksak ma'naviyatli, zamon talablariga mos, raqobatbardosh, malakali yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash zarurligi muhim masalalardan biri ekanligi ta'kidlandi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonini milliy an'ana va qadriyatlarimizni singdirgan holda samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada 1997-yilda respublikamizda qabul qilingan tarixiy hujjatlar "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo'lib, asosiy maqsadi komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdir. Mazkur qonun va dasturni ro'yobga chiqarish uzluksiz ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ta'lim taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. "Iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to'g'ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o'zlari rivojlantiradi", – deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning

¹ O'zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvidagi nutqi.

bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi Prezidentimiz tomonidan keskin tanqid qilingani ta'limning dolzarb masalasi ekanligini ifodalaydi. Shu bilan birga, ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratilmaganligi, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o'ringa ega emasligi e'tirof etildi². Ta'limga ko'plab innovatsiyalarning joriy etilayotgani mavjud muammolarni bartaraf etishda salmoqli natijalarni ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ta'lim jarayoni zamon talablariga hali to'liq javob bermayapti va bu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq amalga oshirishni davr taqozo etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlar asosida professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlash, malakasini oshirish, oliy ta'lim tizimiga ilmiy-texnologik ishlanmalar va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash bo'yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunda jahonga o'z nomini tanitmoqda, xalqaro hamkorlikka keng yo'l ochilib iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan yuksalmoqda. Davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishida zamon bilan hamqadam, yetuk mutaxassislar, raqobatbardosh yangi avlod kadrlariga ehtiyoj baland. Bunda bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash ta'limi, ilg'or

² O'zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 24-oktyabr kuni oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.

texnologiyalarni qoʻllagan holda ularni oʻqitish va tarbiyalash, rivojlangan davlatlar taʼlim tajribasidan foydalanish alohida muhim oʻrin tutadi. Shu jumladan, tibbiy taʼlimda boʻlajak mutaxassislarga “Kasbiy taʼlim metodikasi” fanini oʻqitish orqali ularni kasbiy rivojlantirishda ham mazkur maqsad-vazifalar oʻz ifodasini topadi.

Mazkur darslikda “Kasbiy taʼlim metodikasi” fanining tuzilmasi va mazmuni bayon etilgan, uning asosini Oʻzbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda bajarilgan ishlanmalar tashkil etadi. Darslikning tuzilishi, mavzularning bayon etilishida tanlangan stilistik uslub, yangidan kiritilgan maʼlumotlar uning talabalar tomonidan maqbul tarzda idrok etilishiga imkon beradi. Ushbu darslikni pedagog va talabalarga taqdim eta turib, kitob maʼlum darajada tibbiy taʼlimda oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Mualliflar guruhi kitobxonlar, talaba va magistrilar, professor-oʻqituvchilar tomonidan bildiriladigan har qanday fikr va mulohazalarni qabul qiladi hamda keyingi nashrlarda, albatta, ularni inobatga oladi.

Mualliflar

I BOB.

KASBIY TA'LIM METODIKASI FANIGA KIRISH

Bobning qisqacha mazmuni: kasbiy ta'lim metodikasi fanining shakllanish tarixi, fanning kasbiy va tibbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda tutgan o'rni, fanning predmeti, maqsadi, vazifalari va metodologik asoslari, ilmiy-tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi, O'zR uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy ta'lim islohotlari.

Tayanish iboralar: kasbiy ta'lim metodikasi, o'qitish metodikasi, metodologiya, didaktika, kasb-hunar ta'limi, kasbga tayyorlash, mutaxassislik, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, tadqiqot usullari.

1.1. Kasbiy ta'lim metodikasi fanining shakllanish tarixi

Ta'lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosidir. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi (KHT) tizimiga ishchi-mutaxassis yoshlarni tayyorlash uchun har doimgidan ham mas'uliyatli vazifa yuklatilmoqda: yangi avlod uchun qanday tafakkur turi xos bo'lishi, qanday qadriyatlar tizimi ular uchun hal qiluvchi o'rin tutishi, kasb-hunarga qanday o'rgatish, bo'lajak mutaxassisda aynan qanday sifatlarni rivojlantirish zarurligini aniqlash hamda ushbu faoliyatni samarali amalga oshirish lozim.

Bugungi davr kasb ta'limini rivojlantirish uchun o'tmishdan bizgacha yetib kelgan o'qitish va tarbiyalashning qadimgi modellarini, tajribalarni bilish zarur, aks holda ayon bo'lgan bilimlarning qaytadan kashf qilinishi yoki xatolarning yana takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Kasbiy ta'lim-tarbiyaning hozirgi kundagi ko'plab muammolari avvallari ham bo'lgan. Tarix ma'lum darajada takrorlanadi, uning tajriba va saboqlarini kelajak uchun o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat madaniyatining ilk o'choqlari – Sharqdagi qadimgi Hind, Xitoy, Kushon hamda Baqtriya ilm-fani va madaniyati G'arbdagi Rum-Yunon madaniyatiga zamin yaratgani, Sharq uyg'onish davridan so'ng G'arb uyg'onish davri bo'lgani ham tarbiyada ko'p asrlik ilm-fan va tajribalarga asoslanish, yosh avlodni hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanilgan usul va vositalarga tayanish zarurligini anglatadi. Taniqli venetsiyalik sayyoh Marko Polo

o‘z esdaliklarida “Nur Sharqdan taraladi” degan edi. Biz o‘z tariximizni qanchalik chuqur o‘rgansak, madaniy merosimizga, tarbiyaviy an‘analimizga e‘tiborimizni qaratsak, kelajak avlodga shunchalik to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya bergan bo‘lamiz.

Hozirgi zamon kasb-hunar ta‘limi tizimi insoniyat jamiyatining uzoq o‘tmish tarixida to‘plangan tajribasi, olimlar, mutafakkirlar, pedagoglar, ishlab chiqarishning turli sohalaridagi insonlar mehnatiga asoslangan. Markaziy Osiyoda mehnat tarbiyasi, ustoz-shogird munosabatlari va kasb-hunar egasini tayyorlashning fundamental asoslari VIII–XIII asrlardanoq yaratilgan edi.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida yoshlarning kasb-hunar ta‘limi va tarbiyasiga juda katta e‘tibor berganlar. Ular komillik, ma‘naviy barkamollikka inson o‘z mehnati bilan ham erisha olishi mumkinligini e‘tirof etganlar. Shuning uchun ham mehnat hamda kasb-hunar ularning asarlarida inson hayotining moddiy va axloqiy negizi, inson baxtining manbasi, deb hisoblangan.

Sharqda o‘g‘il bolalarga kasb-hunar sirlarini o‘rgatish odatda 12 yoshdan boshlanib, u 8-10 yil davom ettirilgan. Ustoz-shogird o‘zaro munosabatlari o‘sha vaqtlarda shartnoma tuzish orqali tasdiqlangan.

Avval shogird yordamchi bo‘lib xizmat qilgan, hovli va ustaxonaning tozaligini saqlash, yarim mahsulotlar tayyorlash va shu kabi yumushlarni bajargan, faqat 2-3 yillik qora ishdan so‘ng usta mustaqil ravishda unga biror-bir ish bajarishga ruxsat bergan. Usta shogirdiga nafaqat o‘z kasbini o‘rgatgan, balki uni hayot davomida tarbiyalab ham borgan. Agar shogird usta ko‘ngliga o‘tirsas, usta unga “usta” nomini olishi va o‘zi mustaqil holda ustaxo qurishi uchun pul ishlab topish imkonini yaratib beradi. Ko‘p hollarda ustalar yaxshi shogirdlarni qo‘yib yuborishni xohlamasdilar va ularni o‘z qizlariga uylantirar edilar, shu bilan bir qatorda, o‘g‘il qilib olardilar. Shundan so‘ng, usta xom ashyoga ma‘lum miqdorda mablag‘ sarflab, shogirdga mustaqil ravishda ishlash imkonini berardi. Shu yo‘l bilan shogird tayyorlagan mahsulotini sotib, undan tushgan mablag‘larni “usta” nomini olishga bag‘ishlangan marosimi uchun olib qo‘yardi.

Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, ustozlar shogirdga hunarmandlik sirlarini o‘rgatish bilan bir vaqtda, unda shaxsiy sifatlarni shakllantirish, o‘zini qanday tutish, atrofda qilarga qanday muomala qilish, asbob-uskunalar va buyumlarga qanday munosabatda bo‘lish haqida an‘anaviy ko‘rsatmalar berardilar.

Hunarmandchilik risolalari “Udumlar nizomi” bo‘lib (uncha katta bo‘lmagan 16-18 varaq hajmdagi kitobcha), usta-hunarmandlar va shogirdlarining ma’naviy hayotlari hamda mehnat faoliyatlarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjat sifatida foydalanishlari uchun mo‘ljallangan. Hunarmandchilik risolalari hozirgi zamon kasb-hunar sohasidagi o‘quv-me’yoriy hujjatlarining namunasi.

Barcha risolalar juda katta ruhiy-ma’naviy kuch-quvvatga ham ega: ular bajarilishi majburiy bo‘lgan ma’naviy qonun-qoidalarni – farzlarni o‘rgatadi va ushbu hunarga ega insonlar bu qonun-qoidalarga rioya qilishlari shart bo‘lgan.

Bu to‘g‘rida Kaykovus mana bunday deydi: “Yodingda saqla, o‘g‘lim, biror narsaga qodir bo‘lmagan inson, doimo foydasizdir va u hech kimga yordam bera olmaydi. U bamisoli poyaga ega, lekin soya bermaydigan tikanakdir. Na o‘ziga, na boshqalarga foyda bermagan, kasb-hunarsiz odam ham xuddi ana shundaydir. Insonning nasl va nasabi, kelib chiqishi qanchalik baland bo‘lmasin, agar u kasb-hunarga ega bo‘lmasa, odamlar tomonidan izzat va hurmatda bo‘lmaydi. Agar unda oliyanoblik va biror-bir narsaga qodirlik ham bo‘lmasa, bu yanada yomonroqdir. Chunki buyuklik nasl-nasabining go‘zalligi va oliyanobligida emas, balki aql va mahoratdadir. Agar sen ota-onangga mos bo‘lmasang, faqat ular bergan narsalar bilan mag‘rurlanma. Agar sen oliyanoblik durdonalariga va mahoratga ega inson bilan uchrashib qolsang, unga qattiq chirmashib ol, chunki bunday insonlar boshqalarning qiyinchiliklarini yengillatish qobiliyatiga egadirlar”.

“Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan 548–529-yillar orasida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Bu kitob 12 ming ho‘kiz terisiga bitilgan. Unda olamdagi barcha – diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo‘yicha teran mulohazalar mavjud. Kitobda shunday jumlar bor: “... Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yet eshiklarga ta’zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o‘tadilar, bu noz-ne‘matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to‘q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo‘lajak!”

Qur’oni Karimda ilmga katta e’tibor berilgan va “ilm” so‘zi 765 o‘rinda tilga olib o‘tiladi. Ilm o‘rganishdan murod mansab, hurmat-obro‘ olish, ilmi bilan faxrlanish yoki axmoqlar bilan tortishish emas, balki o‘qigan ilmiga o‘zi amal qilib, so‘ng xalq va Vatan oldidagi burchni ado etishdir.

Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. aytadilarki: “Har bir musulmonga ilm olish farzdir”, “Bir soat ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan afzaldir”, “Ilmni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, “Olim yoki ilm oluvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l, beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lasan”, “Ilmning boshi jim turish, keyingisi eshitish, uchinchisi, yod olish, to‘rtinchisi, unga amal qilish, beshinchisi, uni targ‘ibot qilishdir”.

Insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo‘shgan, zaminu zamonlarda barcha avlodlarga ma‘naviy ozuqa baxsh etgan Imom al-Buxoriy axloq va odobga oid hadislar mujassamlangan, ahamiyatiga ko‘ra Qur‘oni Karimdan keyingi ikkinchi diniy manba deb e‘tirof etilgan “Al-Jome‘ as-Saxih” kitobidan keyin yaratgan “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asarida quyidagi rivoyatni keltiradi: “Abdulloh ibn Abbos r.a. aytadilar: Rasululloh: “Kishilarga ilm o‘rgatinglar, ularga qiyin emas, yengil yo‘lni ko‘rsatinglar, qachon jahlingiz chiqsa, jim turishga o‘rganing”, – dedilar.

Abu Nasr Forobiy – o‘rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisidir. Olim ta‘lim faqat so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga o‘rganishdan iborat deb hisoblaydi.

Demak, Forobiy ta‘lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Ta‘lim so‘z bilan, bir narsani uqtirish, o‘rgatish bilan amalga oshiriladi, yoshlar nazariy bilimlarni shu ta‘lim yordamida egallaydilar. Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi, yoshlarga u ma‘lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Forobiy ta‘lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat – odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi, deb hisoblaydi.

Ibn Sino bolalarni alohida o‘qitishdan ko‘ra, jamoa tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va uning ustunligi haqida gapirib shunday yozadi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e‘tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O‘quvchilar birga bo‘lganda, doim o‘zaro gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar”. O‘qituvchi bolalarga ta‘lim berishga kirishishdan

avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi ham lozim. Avvalo, u o'quvchining nimaga moyil va qodir ekanligini tekshirib ko'rishi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya etishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari tarbiyaviy, pand-nasihatdan iborat hikoya va hikmatlar to'plamidir. Uning fikricha: "...Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib, foydalanmagan, ikkinchisi esa ilm olib, amal qilmagan odam".

Sa'diy odam birorta sohada bilim egallashni boshladimi, uni oxirigacha yetkazishni maslahat beradi: buning uchun u, birinchidan bilishga qiziquvchan, hamma yerda va hamma vaqt yangilikka intiluvchan bo'lishi kerak; ikkinchidan, bilimni quruq o'rganishni emas, balki munozara yo'li bilan haqiqatni aniqlab, ongli suratda o'zlashtirishi kerak deydi. Uning fikricha, munozarasiz bilim rivoj topmaydi.

Sa'diy o'z asarlarida mehnat tarbiyasiga katta e'tibor beradi: har bir yosh avlod oilasidagi ahvolidan qat'iy nazar, hunar o'rganishi kerakligini aytadi. "Guliston" asarida Sa'diy bir otaning o'z o'g'liga hunar o'rganish kerakligini uqtirganini bayon etadi. Ota deydi: "Aziz o'g'lonlarim, hunar o'rganinglar, ... hunar qaynar buloq, tunganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa qadrlanadi va uying to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, o'zgalar qo'liga qaraydi".

Ulug' shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumiyl aql haqida so'z yuritar ekan, uni inson vujudida bir amr deb biladi. Uning ta'kidlashicha, "Mabodo vujud raiyatlariga unga bo'y sunsa, barcha ishlar tekis ketadi. Agar aksincha esa, hammasi ishdan chiqadi". Inson ana shunday holatga tushmasligi uchun, vujud raiyatlariga aqlga bosh egishlari zarur. "Chunonchi, tikuvchilik do'koniga ishga berilgan yosh bola ustaga itoat qilishi lozim. Modomiki bolaning maqsadi ushbu kasbni o'rganmoq ekan, demak, u o'z tasarrufidan voz kechib, ustaning amriga "labbay" deb javob berishi shart".

"Amal hamda ilm mavjuddir,– deydi mutafakkir, – Ba'zilarning amali bor-u, ilmi yo'q. Ba'zilarda esa, aksincha. Agar insonda ham amal, ham ilm bo'lsa, u o'ta muvaffaqiyatli zotdir".

Olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo xalqlari hunarmandchilikda yuksak darajaga yetishganligining asosiy sabablaridan biri, hunarmandchilik ustaxonalarida nafaqat yuqori saviyali, balki yuqori ma'naviyatli mutaxassislar yetishtirib chiqarilganligidir.

Qadimiy grek faylasufi Aflotun "Agar kosib yomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo'qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi xolos, ammo agar yoshlar tarbiyachisi o'z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi" deb aytgan.

Moskvada fir'avn Tutanxamon qabridan topilgan xazinalar ko'rgazmasi namoyish qilinganida yig'ilganlar turli materiallardan tayyorlangan buyumlarning go'zalligi va betakrorligidan hayratga tushgan edilar. Ular bir necha ming yillar ilgari yasalgan edi.

Barcha davrlarda ham qo'li gul mohir ustalar, kasb-hunar egalari bo'lgan. Qadimda ular tomonidan shogirdlar individual tayyorlangan. O'rta asrlarga kelib yoshlarni kasb-hunarga ommaviy tayyorlashga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Qal'a, saroy, masjid va madrasalar qurish uchun ishonchli matematik bilimlar, qurilish toshi yoki g'isht, eritma tayyorlash uquvlari, qurilish texnikasidan foydalanish, devorlarga ishlov berish uchun loy va bo'yoqdan foydalanish texnologiyasini egallash uslublarini bilish talab qilinardi. Temirchilik, kemasozlik, tikuvchilik, hunarmandchilik ishlab chiqarishlarida – hamma joyda savodli, o'z ishining ustasi, mehnatkash, turli xildagi ishlar texnologiyasini biladigan odamlar zarur bo'lgan.

Manufaktura davriga o'tish yirik korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ularda mehnat suv, so'ng bug' energiyasida ishlaydigan mexanizmlar bilan yangicha tashkil qilina boshlandi. Bunday obyektiv jarayonlar yoshlarga mehnat tarbiyasidan tashqari ba'zi bir umumiy bilim, uquv va ko'nikmalarni berish zarurligini ko'rsatdi.

Rossiya kasb ta'limi tizimi shakllangan birinchi Yevropa davlatlaridan biri edi. Ishlab chiqarish ta'limi tizimi D.K.Sovetkin rahbarligida Moskva texnik bilim yurti o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan, xorijda "rus tizimi" nomi bilan o'rganilgan.

Sobiq sovet davrida kasb ta'limi taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy hayotidagi hodisalar bilan bog'langan. 1919-yilda "Kasbiy-texnik bilimlarni yoyish chora-tadbirlari to'g'risida" dekret e'lon qilinadi. Unda kasbiy ta'limga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan edi:

- u mukammal bo‘lib, hunarmandchilik xarakterida bo‘lishi kerak emas;
- umumiy va texnik bilimlarga asoslanishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob berishi;
- o‘qitishni ishlab chiqarish mehnati bilan bog‘lashi zarur.

Ishchilarning texnik savodsizligini yo‘qotish uchun 1920-yili “O‘quv kasbiy-texnik itoatkorlik to‘g‘risida” dekret qabul qilindi. U 18 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan ishchilarga, agar ular avval hunarmandchilik yoki texnik bilim yurtida o‘qimagan bo‘lsa, majburiy texnik ta‘lim berishni ko‘zda tutar edi. Bu dekret ta‘limning barcha shakllari – kasbiy-texnik maktablar, kasbiy-texnik kurslar, o‘quv-namunaviy ustaxonalar va maktab-klublarni rivojlantirish uchun qudratli turtki bo‘ldi.

Kasbiy-texnik maktablar quyi texnik va hunarmandchilik bilim yurtlari, hunarmand o‘quvchilar maktabi va quyi hunarmand maktablari negizida tashkil qilingan. Unda ishlab chiqarish ta‘limi o‘qituvchi va ustalaridan iborat eski xodimlar mehnat qilardilar, o‘quv hujjatlari (o‘quv rejalari, dasturlar, ishlab chiqarish ta‘limi rejalari) ham saqlab qolingan. 4 yil o‘qitish davomida ular to‘laqonli malakali ishchilarni tayyorlab chiqarishar edi.

Kasbiy-texnik kurslar malakali ishchilar tayyorlashning eng keng tarqalgan shakli edi. Ular o‘z vazifalari, o‘qish muddatlari, tashkiliy shakllariga ko‘ra farq qilgan. Ularni 3 turga ajratish mumkin:

- mutaxassislikka ega bo‘lmaganlar va sanoat yoki transportdagi muayyan mehnat turiga tayyorlanadiganlar uchun kurslar;
- mutaxassislikka ega bo‘lganlar uchun malaka oshirish kurslari;
- ustalar tayyorlash uchun maqsadli uzoq muddatli kurslar.

O‘quv-namunaviy ustaxonalar qishloq ehtiyojlari uchun hunarmandlar (temirchi, duradgor, g‘ildirak ustasi va h.k.) tayyorlashga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qitish muddati 3 yilga teng edi.

Maktab-klublar kasbiy-texnik o‘qish shakli sifatida boshlang‘ich holida o‘zini oqlamadi, biroq keyinchalik fabrika-zavod shogirdlik maktablariga aylantirilgandan so‘ng yangi turdagi ommaviy muassasalardan biriga aylanib qoldi. 1921-yildan 1929-yilgacha ular muayyan korxonalar tarkibida bo‘lib, ular uchun kadrlar tayyorlab berar edi.

Shu bilan birga ishchilarni korxonalar qoshida tayyorlash sanoatning shiddat bilan rivojlanib borayotgan muhim tarmoqlarini malakali

ishchilar bilan ta'minlash imkonini bermas edi. Hayot keng miqyosda ishchi kuchini ishlab chiqarishni va undan xalq xo'jaligida rejali foydalanishni talab qilar edi.

1940-yili oktabr oyida "Davlat mehnat rezervlari to'g'risida" farmon qabul qilindi. U iqtisodning yetakchi tarmoqlarini malakali ishchilar bilan to'ldirish uchun mustahkam asos yaratdi. Har yili qishloq va shahar yoshlaridan 800 mingdan 1 mln.gacha odamni tanlab olish va ularni ishlab chiqarish kasblariga o'qitish zarur deb hisoblandi. Farmonda o'qish muddati 2 yil bo'lgan hunarmanchilik va temiryo'l bilim yurtlari hamda o'qish muddati 6 oy bo'lgan sirtqi bo'lim fakultetlari (FZO) maktablarini tashkil qilish ham ko'zda tutilgan edi. Xuddi shu tizim rejali ravishda malakali ishchi kuchini yaratish tarixida yangi sahifa ochdi va urush yillarida frontga ketganlarning o'rnini 2480 ming bitiruvchi bilan to'ldirdi. Shu yillari tashkil qilingan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan maxsus hunarmandchilik bilim yurtlari ota-onasini yo'qotgan yuz minglab bolalarning omon qolishiga yordam berdi.

Urushdan keyingi yillarda kasb ta'limi tizimini takomillashtirish ishlari davom etdi. 1958-yilda turli xildagi FZO maktablari, tog'-kon bilim yurtlari, hunarmandchilik, temiryo'lchilik o'quv yurtlari va h.k. tayyorlash shakllari o'rniga yagona turdagi o'quv muassasalari — 8 yillik umumta'lim maktablari negizida shahar va qishloq kasbiy-texnik bilim yurtlari tashkil etildi. Shahar professional texnik o'quv yurtlari (GPTU) da o'qish muddati 1 yildan 3 yilgacha, qishloq xo'jaligi professional texnik o'quv yurtlari (SPTU)da esa — 1 yildan 2 yilgacha qilib belgilandi. Har bir o'quv yurti bir yoki bir necha yaqin-atrofdagi zavod, sovxoz, kolxoz va h.k.larga birlashtirib qo'yilar edi, ularning bazasida o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyotini o'tashar edi.

Tizimning keyingi taraqqiyot bosqichi (1969) PTUlarining 8 yillik maktabni tugatganlar uchun o'quv yurtlariga aylantirish bo'ldi. Faqat endi o'qish muddati 3—4 yillik bo'lib, to'liq o'rta ma'lumotli malakali ishchilar tayyorlanar edi.

Bugungi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi yangi avlod mutaxassis kadrlarini tayyorlashga qaratilgan. Ular yuqori umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy istiqbolli hayotga tez moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Bular zamonaviy ishlab chiqarish talablarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Yangi turdagi o'quv muassasalari hisoblangan kasb-hunar kollejlarda

ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, jismoniy va aqliy sog'lom kichik mutaxassislar tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Zamonaviy terminologiya kontekstida kasb-hunar ta'limi va madaniy tarbiya ta'lim oluvchilar shaxsining jismoniy, aqliy va ma'naviy imkoniyatlarini uzluksiz rivojlantirish va shakllantirish jarayoni sifatida qaralgan. Zero, ajdodlarimiz tomonidan ham inson mohiyati jismoniy, aqliy va ma'naviy uyg'unlik tarzida qabul qilingan. Har qaysi davr va zamonlarda insonning ruhiy-ma'naviy fazilatlarini rivojlantirmasdan turib kasb-hunarga mukammal o'rgatish mumkin emasligi e'tirof etilgan. Shu o'rinda Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Umar Hayyom, Ibn Xoldun, Kindiy va boshqa mutafakkirlar komil shaxs timsolini qanday tasavvur qilganliklarini yodga olish kifoya.

Mamlakatimiz kasb-hunar ta'limi tizimini yangi sifat darajasiga ko'tarish, yoshlarga munosib ta'lim berish, ularni zamonaviy texnologiyalarning barcha turlaridan foydalanishga, tizimli va ijodiy fikrlashga, zamonaviy hayot o'zgarishlariga moslashishga, raqobatbardosh mutaxassis bo'lishga o'rgatish, kasbga xos sifatlarni rivojlantirish kasbiy ta'lim pedagoglarining vazifasidir.

1.2. Kasbiy ta'lim metodikasi fanining kasbiy va tibbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda tutgan o'rni

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan.

Bu muhim hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarda respublikamizda kasb-hunar kollejarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari belgilangan. Ushbu o'quv muassasalarida yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bir tomondan o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv yurtining kasbiy-metodik axborot bazasi, zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Kasb-hunar kollejarida o'qitish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun yuqori malakaga ega bo'lgan pedagoglar hamda qobiliyatli, mahoratli mutaxassislarni jalb qilish, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari,

pedagogik va axborot texnologiyalari bilan samarali ishlashga o'rgatish zarur.

Kasb-hunar kolleji o'qituvchilari oldiga tayyorlanadigan malakali ishchi kadrlarda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomi va madaniyati, burch his-tuyg'ularini tarbiyalash, kelajakda har tomonlama rivojlangan kasb egasi bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratish vazifasi qo'yiladi.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda shifokor-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish ta'limi tajribalarini tatbiq eta olishlari katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarini tayyorlash maqsadiga ega Kasbiy ta'lim metodikasi fani katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ta'lim metodikasi fani talabalarning pedagogika, psixologiya, kasbiy pedagogika, kasbiy psixologiya, ta'lim texnologiyalari hamda tibbiy mutaxassislik fanlaridan olgan bilim, ko'nikma, malakalarini amalga tatbiq etish, kasb-hunar kollejarida umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, o'qitishga oid hujjatlar, ishlanmalar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o'rgatuvchi fan hisoblanadi. U o'z oldiga har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq aniq maqsadni qo'yadi.

Yaqin kelajakda belgilangan maqsadlarga erishish uchun eng avvalo yuqori malakali, jahon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar talab etiladi. Hozirgi davrda samarali o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqatgina chuqur bilimni emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qitishning turli zamonaviy uslublarini bilish, yangi tajribalarni o'zlashtirish hamda o'z ustida tinmay izlanishni talab qiladi.

Kasbiy ta'lim metodikasini tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega. Yuqori malakali umumiy amaliyot shifokori – pedagog mutaxassis kadrlarini tayyorlashning muhimligini hisobga

olgan holda, tibbiy ta'lim o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi masalalarga yetarli darajada e'tibor qilish, shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatadigan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik mahoratini takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu kursning mazmunida asosiy e'tibor kasb ta'limining ilg'or o'qitish usullari, shakllari va tajribalarini o'rganishga qaratilgan.

Kasbiy ta'lim metodikasi – ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida kasbiy faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

Kasbiy ta'lim metodikasi fani pedagogika, didaktika, metodika, tibbiy ta'lim sohasida mavjud amaliy va nazariy bilimlardan tashkil topgan bo'lib, unda bo'lajak tibbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayoni aks ettirilgan. Fanning mazmunini yanada chuqur yoritish maqsadida fanning asosiy tushunchalariga ta'rif berish lozim.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insonning mehnat faoliyati turi.

Kasb o'ziga mehnat faoliyatining tor doirasi bilan xarakterlanuvchi ixtisosliklarni mujassamlashtiradi. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisosliklar mavjud bo'lishi mumkin (masalan, o'qituvchilik yoki shifokorlik kasblari). Kasb va ixtisoslik shaxsning muntazam ravishda ma'lum turdagi ish bilan shug'ullanishini ifodalaydi. Mamlakatimizda insonlarning kasb va ixtisoslik tanlashlari ixtiyoriy hamda istalgan kasbni egallash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayot va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida bilim, kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari o'zlashtiriladi, shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o'zgaradi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma'lumot o'zlashtirish jarayonidir.

Ta'lim ilm berish va tarbiyalashni o'ziga qamrab olib, respublikaning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat,

oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim haqidagi g'oyalarga ko'ra kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

Metod – (yunon. “methodos” – tadqiqot yoki bilish yo'li; yo'l-yo'riq, usul orqali maqsadga erishish) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari va yo'llari majmuasidir. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida o'qitish mazmuni va maqsadlariga maksimal mos kelishi kerak. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko'rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

Metodika – metod va usullarning yig'indisidan iborat bo'lib, biror bir harakatni amalda bajarilishidir. U o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish usullari, vositalari, nazorat qilish va baholash metodlari, o'qitish natijalarini o'zida mujassamlashtiruvchi pedagogikaning fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani uni o'qitish o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

O'qitish metodikasi – bu turli usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun ma'lum fan bo'yicha nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir.

Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish metodikasi talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishga tatbiq etilgan holda o'quvchilarga o'qitish metodlarini o'rgatishdan iborat. O'quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, kasb-hunar kolleji o'quv hujjatlarini to'g'ri yuritish kabi muammolarni yechishga yordam beradi.

Metodologiya – (yunon. “methodos” – tadqiqot yoki bilish yo‘li; yo‘l-yo‘riq, usul orqali maqsadga erishish, “logos” – nazariya, ta‘limot) bilish faoliyati usullari, vositalari yig‘indisi va mantiqiy tartibi haqidagi ta‘limot ma‘nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Didaktika – (yunon. “didaktikos” – o‘qitish, o‘qishni o‘rgatish, “didaskalos” – o‘qituvchi) bu ta‘lim va o‘qitish nazariyasidir. Didaktika tarmog‘i ta‘lim va o‘qitish jarayonining muammolarini o‘rganadi, o‘qitishning maqsad va vazifalari, mazmuni, shakllari, metodlari va tamoyillarini ishlab chiqadi.

Kasbiy tarbiya – inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni.

Kasbiy ta‘lim – muayyan soha yoki kasbga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim.

Mahorat – o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha kasbiy amaliy harakatlarni kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Kasbiy mahorat – ta‘lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta‘lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta‘limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta‘lim oluvchilarning muayyan ish yoki amallar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon.

1.3. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari va metodologik asoslari

Kasbiy ta‘lim metodikasi fanining predmeti – kichik mutaxassislarni tayyorlash jarayonini loyihalashtirish, modellashtirish va tashkil etish, kasbiy ta‘lim pedagogining o‘quv-uslubiy faoliyatini amalga oshirish qonuniyatlari hisoblanadi.

Kasbiy ta‘lim metodikasi fanining maqsadi bo‘ljak tibbiy ta‘lim mutaxassislarini tayyorlash, ularda umumkasbiy va maxsus fanlardan ta‘lim berish metodikasi, o‘qitishning ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalariga oid bilim, kasbiy faoliyatni tashkil etish hamda kasbga yo‘naltirishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Kasbiy ta'lim metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

– kasb-hunar ta'limi muassasalari, tibbiyot kollejlari, korxonalar va tashkilotlarda samarali mehnat faoliyatini amalga oshira oladigan yetuk mutaxassis tayyorlash;

– talabalarga pedagogik-psixologik hamda tibbiy bilim, ko'nikma, malakalarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida tatbiq etishni o'rgatish;

– kasb etikasi, muomala madaniyati va kasb mahoratini shakllantirish;

– o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Kasbiy ta'lim metodikasi – kasb ta'limining metodologik asoslari, kasbiy ta'lim-tarbiya, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish metodikasi haqida nazariy-amaliy ma'lumotlar beradi. Ushbu fan mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, tayyorlanadigan malakali ishchi kadrlarda pedagogik-psixologik bilimlarni rivojlantirish, ilg'or o'qitish texnologiyalarini o'rgatish, ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda mehnat intizomi va madaniyatini, jamoada samarali ishlash xususiyatlarini tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Mazkur kursni o'rganishda talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

• kasbiy ta'lim metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, kasb ta'limining metodologik asoslari, ilmiy-metodik mohiyati va ilmiy-tadqiqot metodlarini;

• DTS, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi mazmunini bilish;

• tibbiyot kasb-hunar kollejlari umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish;

• dars rejasini tuzish, fanning o'quv dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;

• umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish shakllari, vositalari va usullarini tanlash;

• umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida interfaol usullarni samarali tatbiq etish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

• umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash;

• Darslarni tahlil qilish metodikasini egallash.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining metodologik asoslari quyidagi davlat hujjatlarida o‘z ifodasini topadi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”.

Qomusiy qonun O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Respublikamizning asosiy qomusi VI bo‘lim 26 bob va 128 moddadan iborat. Konstitutsiyaning bevosita ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq 41- va 42-moddalariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zR Konstitutsiyasining 41-moddasida: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir; 42-moddasida: Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi, deb belgilab qo‘yilgan.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni 1992-yil 2-iyulda joriy etilgan. Unga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX-sessiyasida — 1997-yil 29-avgust kunida yangi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilingan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 5 bob va 34 moddadan iborat. Birinchi bob umumiy qoidalar deb nomlanib, unda qonunning maqsadi, ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ko‘rsatilgan. Jumladan, Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida belgilab berilgan. Unga ko‘ra ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e‘lon qilingan.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishi: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

I. Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

1.1. Shaxs.

1.2. Davlat va jamiyat.

1.3. Uzluksiz ta'lim.

1.4. Kadrlar tayyorlash tizimidagi fan.

1.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish.

II. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash.

2.2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

2.3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish.

2.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar.

2.5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar.

2.6. Ta'lim tizimini boshqarish.

2.7. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.

2.8. Ta'lim tizimini moliyalash.

2.9. Moddiy-texnika ta'minoti.

2.10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish. (monitoring).

2.11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.

2.12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

2.13. Fan va ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish.

2.14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish.

2.15. Ta'lim bilan kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

III. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora- tadbirlar. Uzlüksiz ta'lim tizimi quyidagilarni qamrab oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim (qo'shimcha ta'lim).

Ta'limning uzluksizligi inson tug'ilgandan boshlab toki umrining oxirigacha ta'lim olish, ya'ni "hayot davomida ta'lim olish" tamoyilini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Bunday tizim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 6–7 yoshgacha maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi hamda bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim 9 yillik (I–IX sinflar) o'qishdan iborat uzluksiz ta'limning majburiy mustaqil turidir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar) va o'rta ta'lim (V–IX sinflar)ni qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Kasb-hunar ta'limi – talabalarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

Oliy ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim quyidagi ikki bosqichdan iborat: *bakalavriat* va *magistratura*.

Bakalavriyat – umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim.

Magistratura – bakalavriyat negizida o‘qish muddati kamida ikki yil bo‘lgan aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta’lim.

Bakalavr, magistr – oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalardir.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim – Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Qo‘shimcha kasbiy ta’lim – malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi. Bunda mutaxassis kasbiy ko‘nikma va malakalarini, bilimlarini yangilaydi hamda kasbiy faoliyatini o‘z sohasiga tegishli yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitadi.

Maktabdan tashqari ta’lim. Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun maktabdan tashqari ta’lim yo‘lga qo‘yilgan. Bunga turli o‘quv kurslari, ijodiyot va texnika saroylari, rivojlantirish markazlari, musiqa maktablari, sport maktablari, san’at maktablari, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va b. kiradi.

Kasb-hunar ta’limining metodologik asoslarisiz uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalari, ishtirokchilari, natijalari hamda bu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish mumkin emas. Kasb ta’limining metodologik asoslari uning me’yoriy hujjatlarini aniqlashga imkon beradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan bo‘lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish hamda hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va

sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarining samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet-el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilmoqda.

Birinchi bosqich (1997–2001 yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-metodiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001–2005-yillar) – Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi hamda:

- Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi;

- Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi;

- Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tajriba jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi;

- Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi;

- Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Bu bosqichda ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-metodiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi. Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyatini anglash uchun bu – dasturni qabul qilishga qanday sabab va oqibatlar turtki bo‘lganligini, 1997-yilgacha mavjud bo‘lgan eski ta‘lim-tarbiya tizimining kamchiliklari va muammolari tahlil qilib ko‘rish kerak. Eski kadrlar tayyorlash tizimining kamchilik va muammolari quyidagilardan iborat edi:

- kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi;
- o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi;
- sifatli o‘quv-metodik, ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi;
- ta‘lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi.
- ta‘lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya‘ni uzluksiz ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas;
- amaldagi ta‘lim tizimi zamonaviy, taraqqiyot topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotganligi;
- mutaxassislar tayyorlash, ta‘lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog‘lanmaganligi.

Yuqoridagi kamchilik va muammolarni hal qilishni ko‘zda tutgan quyidagi omillar mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga turtki bo‘ldi:

- Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi;
- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta‘lim ustuvorligi qaror topganligi;
- milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an‘analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;
- O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyektini va obyektini, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul olishning kafillari.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarining kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchiligini ta'minlaydi.

1.4. Fanning ilmiy-tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Kasbiy ta'lim metodikasi nazariy fan sifatida kasb-hunar ta'limi va tarbiyasi sohasida samarali natijaga erishish darajasini oshirish muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi hamda o'zining muntazam rivojlanishini kadrlar tayyorlash orqali ta'minlab turadi. Muammolarni hal etishda turli ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanadi va boshqa fanlar bilan bog'liqliklarga ham ega.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega, ular orqali fanning mazmuni boyib, yangilanib boradi. Ilmiy tadqiqot ishlari fanni rivojlantirishga, ayrim pedagogik hodisa va jarayonlarni tekshirib o'rganishga, muammolarni hal qilish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Hozirgi kunda quyidagi ilmiy-tadqiqot usullarini ta'lim taraqqiyotiga samarali hissa qo'shadi, deb hisoblash mumkin:

1. Nazariy usul – ilmiy adabiyotlar, ommaviy matbuot, internet materiallari, darsliklar, o‘quv-metodik ishlanmalar, ko‘rsatmalar bilan ishlash, manbalarni o‘rganish va nazariy tahlil qilish asosida olib boriladigan pedagogik izlanish. Bu usul muammolarning qay darajada o‘rganilgani, qay biri atroflicha ochilganligi, qaysi masalalar yechilmaganligini bilish imkoniyatini beradi.

2. Kuzatish usuli – pedagogik hodisani, jarayonni ma’lum pedagogik maqsad asosida kuzatish. Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig‘ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, mukammallashtirish, samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Kuzatish usuli asosan tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’lim-tarbiya ta’siri ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu usul tadqiqotchi pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etishidan tashkil topadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o‘quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashi shakllanishini, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fanlarining boyishiga sabab bo‘ladi.

Qayd qilish usuliga ko‘ra kuzatishlar turlarga bo‘linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayonda kuzatuvchining xatti-harakatlari kabilarni yozib qo‘yish imkonini beradi. Bilvosita qayd qilish usuli, biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo‘llash vositasida natijani olishga imkon beradi. Fan-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari turli xil texnika vositalari (videotasvir)dan foydalanish orqali tobora ko‘p qo‘llanilmoqda.

3. Suhbat usuli – material yig‘ish va kuzatish davomida to‘plangan axborotlarga aniqlik kiritish, tekshirish maqsadida suhbat olib boriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalaniladi. Odatda, suhbat usuli o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli

tartibda ish olib borganda qo'llaniladi. Bunda suhbat usulini tatbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish, savol-javob texnikasini egallaganligi va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshning ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtirishi g'oyat muhimdir.

Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqti va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni, kimligi, imkon darajasida shaxsiy-individual xususiyatlaridan xabardor bo'lishi;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- 5) suhbatdoshga bosim o'tkazmaslik, eshita olish;
- 6) suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Suhbat usulidan farqli ravishda intervyu olish usuli oldindan belgilangan savollarni izchillik bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar audio ko'rinishida yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasida intervyu olishning ko'p usullari mavjud.

4. Test va so'rovnomalar usuli – bu usul qisqa vaqt ichida ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketa tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlar ichida yetakchi usul test va so'rovnoma savollaridan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa usuli yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka va guruhli fikrlarini, dunyoqarashlarini, qiziqishlarini, kelajak rejalarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test sinovi talaba yoki mutaxassisning bilimi, qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati borligini, iqtidorini aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimlarni baholashning pedagogika nuqtayi nazaridan yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan hamda baholash jarayonini kompyuter yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining aniqligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, umumiy javoblar ichida to'g'ri javobning borligi va bu talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, javobni topishda xotira, ichki tuyg'u va topqirlik qo'l kelishidir. Test savollarining

sifati, maqsadga muvofiqligi, ishonchliligi va xolisligi, keng tarqatish imkoniyati ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi hamda mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

5. Ta'lim oluvchilar ijodini o'rganish usuli – talabalarning o'ziga xos individual faoliyatlari, qobiliyatlariga oid omillar tahlil qilinadi. Pedagogik tadqiqot usullari ichida ta'lim oluvchilar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish usuli mavjud. Bunda ularning o'ziga xos yakka tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Maqsad ta'lim oluvchilarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirishdir. Shu sababli ularning turli yozma ishlari, o'zlashtirish imkoniyatlari, ijodiy ishlari, taqdimotlari, rejaları, turli yozma hisobotlari, topshiriqlarni bajarishga yondoshuvi ularni o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Natijada, ta'lim oluvchilardagi qobiliyat, iqtidor va talantlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlari namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: fan olimpiadalari, tanlovlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, forum, konferensiyalar va h.k.

6. Eksperiment-tajriba usuli (lot. “experimentum” – sinash, tajriba qilish) – qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samarasini aniqlash maqsadida pedagogik eksperiment amalga oshiriladi. Eksperimental-tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba ishlari ta'lim-tarbiya o'rtasidagi qonuniy bog'lanishlarni aniqlash, natijalarni hisoblash asosida yangi usullarni tatbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining tuzilishi, amalga oshirilishini va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. Eksperiment usuli sharoitga qarab uch xilda o'tkaziladi:

1. Tabiiy eksperiment.
2. Laboratoriya eksperimenti.
3. Amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar mavjud:

1) Ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash lozim;

- 2) Ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq obyekt belgilash, amalga oshirish borasida qo‘shimcha usullarni aniqlash;
- 3) Tajriba ishi o‘tkazish vaqtini va muddatini aniqlash;
- 4) Tajriba uchun lozim bo‘lgan vositalarning tayyorligi;
- 5) Eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.

7. Matematik-statistik usul – oldingi usullar natijasida to‘plangan materiallarni tahlil qilishda va umumlashtirishda qo‘llaniladi. Bunda har bir usulning natijalari aniq baholanadi hamda ishonchli xulosalarga kelinishi ta‘minlanadi. Pedagogik tadqiqot statistika ma‘lumotlarisiz, ularning empirik tahlilisiz o‘zligini namoyon eta olmaydi. Chunki ta‘lim sifati ko‘rsatkichlari, u yoki bu qo‘llanilayotgan usullarning barcha natijalari va samaradorlik foizlari statistika usuli orqali aniqlanadi. Bu o‘z navbatida kelajak rivojlanish rejalarini tuzishga imkon beradi.

8. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish usuli – ilg‘or tajribali, malakali pedagoglar faoliyati (oddiylari ham) bevosita va bilvosita o‘rganiladi. Bunda pedagogik faoliyatdagi yutuq va kamchiliklar aniqlanadi, o‘zaro tajriba almashinadi hamda malaka oshiriladi.

9. Tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish usuli – masalan, tadqiqotchilarning ilmiy ish natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy seminar, forum yoki konferensiyalarda ma‘ruza va dokladlar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, darslik, qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar yozishi, kitoblar nashr qilishi tushuniladi.

Fanning ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa ta‘lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, rivojlantirilib, boyitib boriladi.

Kasb ta‘limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o‘tkazishdan maqsad, bo‘lajak kichik mutaxassislarni o‘zi tanlagan kasbga o‘qitish va o‘rgatishning samarali metodlarini ishlab chiqish hamda amalda qo‘llash, texnik vositalardan foydalanishga doir masalalarni yechishni o‘rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o‘qituvchidan fanning mazmun-mohiyatini chuqur bilish, muammolarini aniqlash, ularni hal etishga ijodiy yondoshish talab etiladi. Ko‘pchilik bo‘lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug‘ullanadilar. Mustaqil ishlar uchun materiallar, maqola va tezislari, fan bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar, ishlanmalar, maketlar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma‘ruzalari bilan qatnashib, o‘zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlarni o'rganish va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlashi. Bunda o'rganilayotgan muammo to'g'risida turli mualliflarning fikr-mulohazalari, farqli ravishda kiritgan takliflari, adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani, muammoni yechish uchun olib borilgan izlanishlar aniqlanadi.

2. Kuzatish metodi orqali o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, qiyinchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari o'rganiladi. Ilmiy izlanishlar orqali yangiliklar tajriba-eksperiment usuli yordamida bosqichma-bosqich o'qitish jarayoniga tatbiq etiladi. Natijalar esa kuzatish, suhbat, test, so'rovnomalar orqali o'rganilib boriladi. Matematik-statistik ma'lumotlarni tahlil etish metodi yordamida dalillarni taqqoslash orqali asoslangan taklif beriladi.

3. Tadqiqot natijalarini to'plash, rasmiylashtirish va o'quv jarayonida tatbiq etish bilan muayyan ta'limiy muammo bo'yicha ilmiy izlanish nihoyasiga yetadi.

Aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida Kasbiy ta'lim metodikasining ham boshqa turli fanlar bilan bog'liqliklari yaqqol ko'rinadi. U keng ko'lamlı ijtimoiy hodisa bo'lib, ko'p fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunda har bir fan o'z maqsad va vazifalariga muvofiq yo'nalishlarda pedagogik texnologiyani chuqur o'rganishi natijasida uni takomillashtirish yo'l-yo'riqlarini belgilab boradi.

Kasbiy ta'lim metodikasi fani boshqa fanlardan ajratilgan holda rivojlana olmaydi, ta'lim-tarbiya jarayonining obyekti va subyekti shaxs bo'lganligi sababli insonni o'rganuvchi, uning taraqqiy etishi masalasiga taalluqli barcha fanlar bilan uzviy bog'liqlikda hamkorlik qiladi.

Kasbiy ta'lim metodikasi fanining metodologik asosini pedagogika fani tashkil etadi. O'qitish jarayoni, barkamol shaxsni tarbiyalash, qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyati xususiyatlari, kasb-hunar ta'limiga oid bilimlar tizimi bu ikki fan maqsadlarini birlashtiradi.

Psixologiya fani inson ruhiyatining rivojlanish qonuniyatlarini, ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishi, ularda mustaqillik va kasbga ijodiy yondashish hissini rivojlantirish qonuniyatlarini ochib beradi. Bugungi zamonaviy davr sharoitida inson resurslari va uning bilish faoliyati imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoni mahsuldorligini

oshirishda psixologik bilimlarga hamda kasbiy ta'limning psixologik asoslarini o'rganishga kuchli ehtiyoj seziladi.

Yosh davrlari psixologiyasi fani inson psixikasining rivojlanishi qonuniyatlari va xususiyatlari, hamda rivojlanishning bosqichlari to'g'risidagi fandır. Yosh davrlari psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrida insonlarda vujudga keladigan psixik holat, jarayon va sifatlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Pedagog kasbga o'rgatishda (loyihalashtirishda) ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga xos bo'lgan psixologik jihatlarni hisobga olishi zarur.

Kasbiy pedagogika fani orqali samarali o'zlashtirilgan shaxsni kasbiy tayyorlash, kasbiy ta'lim, kasbiy o'qitish, kasbiy tarbiya va kasbiy rivojlantirishning ilmiy asoslari, kasbiy faoliyatdagi pedagogik vazifalarni hal qilish kabi nazariy-amaliy bilimlar kasbiy ta'lim metodikasi fani yordamida yanada to'ldiriladi. Kasbiy ta'lim metodikasi fani bo'lajak shifokor-pedagoglarga kasbiy o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslarini o'rganish, ta'limni kasbga bog'lash va kasbiy tayyorlash maqsadlariga uyg'unlashtirish, ijodiy fikrlash, kasbiy faoliyatga oid metodikalardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda kasbiy takomillashish maqsadlariga erishishda yordam beradi.

Kasbiy psixologiya kasbiy faoliyat bilan bog'liq psixologik jarayonlar, holatlar, qonuniyatlarni o'rganadigan, insonning kasbga moslashishi, kasbda o'zini to'liq va samarali namoyon qilishi, mehnat jarayonidan qoniqish hosil qilishiga yordam beradigan fan sifatida Kasbiy ta'lim metodikasi fani bilan chambarchas bog'liq. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish, kasbiy faoliyatdagi jismoniy va ruhiy zo'riqishlarning oldini olish kabi masalalarda kasbiy psixologiyaning o'rni muhim hisoblanadi.

Iqtisod fani ham Kasbiy ta'lim metodikasi fani bilan bog'liq. Chunki, kasbiy ta'limning qay darajada rivojlanganligi ishlab chiqarishning, pirovard natijada davlat iqtisodiyotining qanchalik rivojlanishini belgilab beradi. Iqtisodiyot sohasi o'z navbatida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlab, ularni ishlab chiqarish faoliyati bilan ta'minlaydi. Pedagoglarda iqtisodiy bilim va salohiyat mavjudligi, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi sifatlari kasbiy ta'limning natijaviy bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy ta'lim metodikasi fani **odam anatomiyasi va fiziologiyasi** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Mazkur ikki fan insonning biologik mohiyatini tushunishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, kasb

ta'limida o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchi, eng avvalo ta'lim oluvchining jismoniy-fiziologik o'sishi va ruhiy rivojlanishining biologik qonuniyatlarini bilishi, biologik mavjudot sifatida o'quvchining organizmida kechayotgan fiziologik jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini hisobga olishi kerak.

Har qaysi fanni o'qitishda metodikasiz kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu kasbiy ta'lim metodikasi fanining ko'pgina fanlar bilan bog'liqligini, uning bilim manbai turli mutaxassislik fanlari, kasblarni o'rgatishda keng qo'llanilishini e'tirof etadi.

1.5. O'zR uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy ta'lim islohotlari

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sifatini yaxshilash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, xalqaro standartlarni yurtimiz ta'lim tizimiga joriy etish hamda innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu vaqtgacha o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida yutuqlar bilan birga qator muammolar ham kuzatildi. Bu ayrim kasb-hunar kollejlarining aholi yashash joylaridan uzoqda joylashganligi, moddiy-texnik bazasi talab darajasida emasligi, darslik va o'quv qo'llanmalarining yetishmasligida namoyon bo'ldi. Kasb-hunar kollejlarida kadrlar tayyorlash tizimi muammolari hududlardagi iqtisodiy tarmoqlarning real ehtiyojidan ortda qolayotganida ko'zga tashlandi. Shu sababli ham ushbu tizimga ma'lum o'zgartirishlar kiritilishiga ehtiyoj tug'ildi. Ta'lim borasida eng ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, amaliyotda qo'llashni rejalashtirgan O'zbekiston ham bir paytlar iqtisodiyoti u qadar rivojlanmagan mamlakatdan qisqa vaqt ichida yuqori texnologiyalar mamlakatiga aylangan, ushbu sohada «katta sakrash»ni amalga oshirgan, o'z ta'lim tizimiga to'g'ri o'zgartirishlar kiritgani, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Singapur davlatlari ta'lim siyosati kabi tezkor rivojlanish yo'lini tanlamoqda.

Bu borada har bir tayyorlov yoʻnalishi boʻyicha rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqiladi, milliy kvalifikatsion ramkalar belgilanadi va kasbga oid standartlar joriy etiladi. Professional standart maʼnosi shuki, deylik, bitta ish oʻrni ishchidan qanday malaka va koʻnikma talab qiladi, ushbu holat oʻrganilib, shu asosda modulli oʻquv rejaları paydo boʻladi. Taʼlim jarayoni esa doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Bundan maqsad – kasb-hunar taʼlimi tizimini iqtisodiyot rivojlanishining muhim komponentiga aylantirish, yuqori malakali ishchi, kasb egalari, iqtisodiyotning oʻrta boʻgʻini mutaxassislarini tayyorlash.

Umumiy taʼlim dasturlari: maktabgacha taʼlim, boshlangʻich taʼlim (I–IV sinflar), umumiy oʻrta taʼlim (I–IX sinflar) umumtaʼlim muassasalarida, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi (X–XI sinflar yoki 2 yil akademik litseylarda) umumiy oʻrta taʼlim muassasalari va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalarida, professional taʼlim tizimi (6 oydan 2 yilgacha kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarda) boshlangʻich, oʻrta va oʻrta maxsus professional taʼlim muassasalarini qamrab oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining oʻziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi toʻqqiz yillik umumiy oʻrta taʼlimdan soʻng ikki yillik oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi, uning asosida esa professional taʼlimni joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy taʼlim dasturlaridan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi dasturlariga izchil oʻtilishini taʼminlaydi.

Umumiy oʻrta taʼlim negizida oʻqish muddati ikki yil boʻlgan majburiy oʻrta maxsus taʼlim uzluksiz taʼlim tizimidagi mustaqil turdir. 2018-yil 1-yanvardan boshlab umumiy oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining X–XI sinflari oʻquvchilariga kasbiy taʼlim berish tashkil etildi, unga koʻra bitiruvchilarga “kasb malakasi diplomi” beriladi³.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev maktab bilan kollejlarda oʻrtasidagi bogʻliqlikni mustahkamlash, xususan, maktablarda tajriba sifatida 11 yillik taʼlimni qayta tiklash, ularning qoshida oʻquv-kasb kursi tashkil etish zarurligini taʼkidladi. “Yuqori sinflarda bolalar shaxs boʻlib,

³ OʻzR Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 10–11-sinflari oʻquvchilariga kasbiy taʼlim berishga ixtisoslashtirgan oʻquv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 868-sonli qarori.

jamo'a bo'lib shakllanadi, — deydi davlatimiz rahbari. Ayni o'sha paytda ularni o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi. Maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish kerak", — deydi Shavkat Mirziyoyev⁴. Ushbu tashabbus keng jamoatchilik tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining iqtidorli o'quvchilarini akademik litseyga tanlab olishda ularning psixologik-pedagogik jihatdan rivojlanganligi tekshiriladi (dastlabki tanlov) hamda qabul qilish bo'yicha saralash imtihonlari (test sinovlari yoki ijodiy imtihonlar) o'tkaziladi.

Akademik litsey o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini jadal o'stirish, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va muayyan mutaxassislikka yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, tibbiyot, yuridik va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Shunday o'quvchilar borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

⁴ O'zR Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 17-iyul kuni bo'lib o'tgan umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.

O‘zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 6-sentabr kuni qabul qilingan “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli farmoniga muvofiq, yurtimizda professional ta’lim dasturlari nufuzli xalqaro tashkilot – YUNESKO tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashgan holda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtiriladi. Xususan, 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizda yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi. Bu orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlanib, ish beruvchilar keng jalb qilinadi.

Farmonga asosan, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga Xalqaro tasniflagich bo‘yicha asosan ta’lim dasturlaridan tashqari quyi darajadagi ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash huquqi berildi. Unga ko‘ra, tizimda mos ravishda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat kasb-hunar ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi.

Ushbu farmondan kelib chiqqan holda, ayni paytda sog‘liqni saqlash tizimidagi 78 ta tibbiyot kollejlari negizida o‘rta kasb-hunar ta’limi bosqichida – 59 ta kollej, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bosqichida – 16 ta texnikum joriy etilishi, 3 ta kollej tugatilishi belgilandi³.

O‘rta kasb-hunar ta’limiga yo‘naltirilgan 59 ta kollejda kamida umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi ta’lim shaklida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bosqichidagi 16 ta texnikumda esa kadrlar tayyorlash kamida umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo‘lmagan muddatda kunduzgi ta’lim shaklida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida tayyorlanadi.

Kasb-hunar kolleji, texnikum va kasb maktablari tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida professional ta’lim beradi, o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqur rivojlantirish, tanlangan kasb-hunar yo‘nalishi bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beradigan hamda 1 yoki 2 yil

davomida professional ta'limni tashkil etadigan o'quv yurtlaridir.

Kasb-hunar kollejlari, texnikum va kasb maktablari zamonaviy asbob-uskunalar, o'quv-uslubiy qurollar, ko'rgazmali-didaktik vositalar, axborot texnologiyalari va kompyuterlar bilan jihozlanishi bilan ham tubdan farq qiladi. O'quv binolari, ustaxonalarning zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, kasb-hunar kollejlarida ishchi kadrlar emas, balki keng ixtisoslikdagi kichik mutaxassislar tayyorlanadi. Yana bir afzalligi – bunday o'quv yurtlarida har bir hududning o'ziga xos geografik shart-sharoitlari va mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlari hisobga olingan holda kadrlar tayyorlanadi.

Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi. O'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimiga quyidagilar kiradi:

- mulkchilik shakllari va bo'ysunishidan qat'i nazar davlat ta'lim standartlariga muvofiq kasbiy ta'lim dasturini amalga oshiruvchi oliy ta'lim muassasalari;

- oliy ta'limning rivojlanishiga xizmat qiladigan tadqiqot ishlarini olib boradigan ilmiy pedagogik muassasalar;

- oliy ta'limni boshqaruv organlari va uning tasarrufidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar.

Oliy ta'lim ikki bosqichga ega – bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim. Ushbu ta'lim turi oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magistratura – aniq ixtisoslik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim. Undagi tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlarining quyidagi tiplari belgilanadi:

– **universitet** bilim sohalari va yo‘nalishlarining keng tarmoqlari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturini amalga oshiradi;

– **akademiya** bilim va yo‘nalishlarning muayyan sohasi bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturini amalga oshiradi;

– **institut** bitta bilim sohasi miqyosida muayyan yo‘nalish bo‘yicha oliy, shuningdek, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim dasturini amalga oshiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarning oliy ta‘limda o‘qish talablari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ko‘plab xorijiy ta‘lim muassasalarining ochilishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun imkon yaratilmoqda.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim turida ham xalqaro standartlarga muvofiq holda ko‘pgina yangiliklar amalga oshirildi. Nihoyasiga yetkazilgan magistrlik darajasi negizida ikki darajali doktorantura ta‘limi joriy etildi (har bir bosqichda o‘qish 3 yil davom etadi). Doktoranturaning maqsadi – muayyan mutaxassisliklar bo‘yicha oliy kvalifikatsiyali ilmiy kadrlarni shakllantirishdir. Boshlang‘ich doktorantura ta‘limida fan sohasidan kelib chiqqan holda dissertatsiya himoya qilish yakuniga ko‘ra falsafa doktori “PhD” (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasi beriladi. Undan keyingi bosqich doktoranturada dissertatsiya himoyasi uchun fan doktori ilmiy darajasi “SsD” (Doctor of Science) beriladi. Ushbu ilmiy darajalarga erishish uchun mutaxassislar mustaqil tadqiqotchi sifatida ham ilmiy faoliyat olib borishlari mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta‘limi mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini muntazam yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta‘limida o‘qigan mutaxassislarga ta‘lim muassasalaridagi o‘qish natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Kasbiy ta'lim metodikasi fani qanday rivojlanish bosqichlaridan o'tgan?
2. Sharqda kasb-hunar ta'limi qanday ko'rinishda amalga oshirilgan?
3. Rossiyada kasb-hunar ta'limining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Kasb ta'limi metodikasi fani nimalarni o'rganadi?
5. Kasb ta'limi metodikasi fanining asosiy tushunchalariga ta'rif bering.
6. Kasb ta'limi metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Kasb ta'limi metodikasi fanining metodologik asosini nimalar tashkil etadi?
8. Kasb ta'limi metodikasi fani qanday ilmiy tadqiqot usullari yordamida rivojlanadi?
9. Kasb ta'limi metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini izohlang.
10. O'zR uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga oid qanday islohotlar amalga oshirilgan?

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Kasbiy ta'lim metodikasi fanining tibbiy va kasbiy ta'limdagi o'rni.
 2. O'zR uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limi islohotlari.
- Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.


II BOB. KASBIY TA'LIM O'QITUVCHISINING USLUBIY ISHLARI

Bobning qisqacha mazmuni: o'qituvchining uslubiy ishlari, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua yaratish talablari hamda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, darsni tahlil qilish xususiyatlari va ahamiyati, dars tahlili turlari, kasbiy ta'limda o'zaro darslar, ochiq darslar, ko'rgazmali darslar va mahorat darslari.

Tayanch iboralar: umumkasbiy va maxsus fanlar, o'quv-uslubiy majmua, kasbiy ta'lim jarayoni, o'qitish jarayoni, ta'lim shakllari, ta'lim turlari, ta'lim usullari, zamonaviy ta'lim turlari, dars tahlili, ochiq, o'zaro, ko'rgazmali va mahorat darslari.

2.1. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua yaratish talablari

Kasbiy ta'lim o'qituvchisining uslubiy faoliyati o'quv-uslubiy va ilmiy-uslubiy yo'nalishda amalga oshiriladi:



“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirish hamda yosh avlodni yuqori saviyada tarbiyalashni ta'minlash maqsadida milliy qadriyatlar singdirilgan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar yaratish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar qatoriga kiradi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning

tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'yimoqda. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv-uslubiy majmualarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga mos keladigan hamda Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"ning asosiy vazifalaridan biri sifatida o'quv-uslubiy majmualarining yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, psixologik-pedagogik va metodik talablarni ishlab chiqish, o'quv-uslubiy majmualaridan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakat miqyosida zamonaviy o'quv-metodik majmualarni tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan.

O'quv-uslubiy majmua (keyingi o'rinlarda O'UM) – muayyan fan yoki kasbni to'liq va sifatli o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlar va o'qitish vositalari majmui bo'lib, davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

O'UM an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Quyida O'UMga bo'lgan an'anaviy didaktik talablar keltirilgan:

1. Ta'limda ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi so'nggi yutuqlarning hisobga olinishi O'UM mazmunining chuqurligi va ishonchligini ta'minlaydi. O'quv materiallarini O'UM yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari asosida amalga oshiriladi. Masalan, tajriba, eksperiment, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, tahlil va sintez, modellashtirish metodi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek, tizimli tahlil metodlari.

2. O'qitishning erishuvchanlik talablari – O'UMda amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning yoshi hamda individual xususiyatlariga xos o'quv

materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruratini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, aks holda ta'lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik qiladi.

3. O'qitishning muammoliligini ta'minlash talablari – ta'lim olish faoliyatining tavsifi shartlashtirilgan. Agar ta'lim oluvchi muammoli topshiriqlar va mashqlarni bajarishga harakat qilsa, uning fikrlash faolligi ortadi. Ushbu didaktik talabning O'UM yordamida bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalardan ko'ra, sezilarli ravishda yuqori bo'ladi.

4. O'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash talablari – ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan obyektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruratini bildiradi.

5. O'qitishning ongliligi, ta'lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta'minlash talablari – o'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb qilish bo'yicha ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashlari uchun O'UM bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda ta'lim oluvchi uchun o'quv faoliyati yo'naltirilgan maqsad va mazmuni anglatadi. Fanlar bo'yicha O'UM tizimli faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqilishi kerak.

6. O'UMdan foydalanishda o'qitishning tizimliliigi va ketma-ketligi talablari – o'rganiladigan fan sohasidan bilim va ko'nikmalarning ta'lim oluvchilar tomonidan tizimli o'zlashtirilishini anglatadi. Bilim, ko'nikma va malaka – ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va amalda qo'llanilishi zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurligi aniqlandi:

- o'quv materialini tizimlashtirilgan tartibda tavsiya qilish;
- o'quv materiallari yuzasidan shakllanadigan bilim va ko'nikmalarning rivojlanib borishiga erishish;
- o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash;
- o'quv materiali va ta'lim beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish;
- bilim berish jarayonini mantiqiy ketma-ketlik asosida qurish;
- O'UM tavsiya qilgan axborotlarni o'qitishning mazmuni va uslubi, ta'lim oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanish kerak, masalan, mazmunli o'yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni, haqiqiy jarayonlar va obyektlar modellarini tavsiya qilish yo'li bilan amaliy faoliyatga bog'lashni ta'minlash.

7. O'UMdan foydalanishda bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga doir talablar – talabalarning o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishlari uchun, ularning chuqur fikrlash, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

8. O'UMda o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari bajarilishi talablari.

Ta'lim vazifasidagi an'anaviy nashrlarga qo'yiladigan didaktik talablardan tashqari, O'UM yaratish va joriy qilishda zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarning ustunliklaridan foydalanish kabi quyidagi o'ziga xos didaktik talablar qo'yiladi:

1. Moslashuvchanlik talablari – O'UMta'lim oluvchi individual imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida o'quv materiallari ta'lim oluvchi bilim va ko'nikmalari hamda uning psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. O'UM moslashuvchanligining uchta darajasi mavjud. *Birinchi daraja* – talabalarning o'zlariga qulay bo'lgan individual tempga mos holda o'quv materialini o'rganish imkoniyati hisoblanadi. *Ikkinchi daraja* – ta'lim oluvchi holatining diagnostik tahlili bo'lib, uning natijalari asosida ta'lim berishning mazmuni va usublari taklif etiladi. *Uchinchi daraja* – ochiqcha yondashuvga asoslanadi, unda foydalanuvchilarning guruhlanishi ko'zda tutilmaydi va mualliflar ta'lim oluvchilarning imkoni boricha barcha kontingenti uchun ko'proq variantlar ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

2. O'qitishning interfaol talablariga o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilan O'UMning o'zaro hamkorligini ta'minlash kiradi. O'UM vositalari interfaol muloqot va teskari aloqani ta'minlashi kerak. Muloqotni tashkil etishning muhim sharti bo'lib, foydalanuvchi harakatiga O'UMning reaksiyasi hisoblanadi. Nazorat teskari aloqa asosida amalga oshiriladi va keyingi bajariladigan ishlar yuzasidan tavsiyalar beradi, ma'lumotnoma va tushuntiruvchi axborotlar kiritish amalga oshiriladi.

3. O'UMning o'quv axborotini taqdim qilishida kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish talablari. Zamonaviy elektron vositalar imkoniyatlari o'quv axborotini namoyish qilish sifatini tahlil qilishni ko'zda tutadi.

4. O'UM bilan ishlashda ta'lim oluvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish talablari. Fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi.

5. O'UM – o'quv materialini namoyish qilishning tizimlilik va funksional bog'liqligi talablariga javob berishi kerak.

6. O'UM – ta'lim berishning to'liqligi va uzluksizligini ta'minlashi lozim.

O'UM maketi uning barcha tarkibiy qismlarining ixchamlashtirilgan va muayyan tizimga solingan shaklidir. Maket O'UMning tarkibiy qismlarini vizuallashtirish va o'zaro bog'lashni amalga oshirish imkonini beradi.

O'UMning maketi rasmiy hujjat sifatida quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- me'yoriy hujjatlar komponentlari – titul varag'i, kelishuv varag'i, mavzuviy rejasi, fan dasturi, fanning ishchi dasturi;

- mazmuni belgilovchi komponentlari – elektron o'quv qo'llanma, laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlari mazmuni, mustaqil ishlar mazmuni, elektron lug'at;

- metodik komponentlari – o'qituvchiga mo'ljallangan metodik komponent, talabaga mo'ljallangan metodik komponent;

- baholash komponentlari – baholash mezonlari, joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha savollar, kurs ishi mavzulari va h.k.

O'UM komponentlari:
I. Dasturiy komponent
– Titul varag'i
– Fanning namunaviy dasturi
– Fanning ishchi dasturi
II. Fanning mazmunini belgilovchi komponent
– Elektron o'quv qo'llanma
– Amaliy (laboratoriya) ishlar bo'yicha qo'llanma
– Seminar mashg'ulotlari bo'yicha qo'llanma
– Mustaqil ishlar bo'yicha qo'llanma
III. Metodik komponent
– O'qituvchiga mo'ljallangan metodik qo'llanma
– Talabaga mo'ljallangan metodik qo'llanma
IV. Baholash komponenti
– Joriy nazorat bo'yicha savol va topshiriqlar
– Oraliq baholash bo'yicha savol va topshiriqlar
– Yakuniy baholash bo'yicha savol va topshiriqlar
– Kurs ishlari mavzulari
– Reyting baholash mezonlari
– Test savollari banki

O'UMning qo'shimcha qismlari elektron manbalar – elektron kitoblar, xrestomatiyalar, jurnallar, test topshiriqlari, Internet saytlari kabi manbalardan iborat bo'ladi.

O'UM bilan bir qatorda kasb ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotning texnologik xaritasini ham tuzishi lozim.

Texnologik xarita – bu integrallashgan darslarni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o'rganish usullari, yo'llari, ko'rsatmalari hamda ko'rgazmali – texnologik topshiriqlar yig'indisi.

Texnologik xarita o'quv predmetlarini samarali va sifatli o'qitishni ta'minlaydigan va ta'limdan kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beradigan, interaktivlik, tizimlilik, algoritmiklik, texnologiklikni namoyon qiladigan uslubiy mahsulotning yangi ko'rinishidir.

Texnologik xarita o'quv jarayonini loyihalashtirishga mo'ljallangan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro pedagogik faoliyatini rejalashtirishning zamonaviy shakli bo'lib, darsning barcha bosqichlarini batafsil ishlab chiqishga, maqsad bilan natijani muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Texnologik xarita an'anaviy reja-konspektning grafik ko'rinishi bo'lib, unda dars maqsadidan tortib yakuniy natijagacha bo'lgan o'quv faoliyati jarayoni aks ettiriladi.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi – bu o'quv jarayonidagi o'rganilayotgan mavzu rejasiga mos o'quv topshiriqlarini mantiqiy izchillikda (bosqichma-bosqich) o'rganish algoritmidir va u quyidagi algoritmik bosqichlar asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi: darsning maqsadi va vazifalari; muayyan o'quv mashg'ulotining o'qitish natijalari va qo'yilgan maqsadni bosqichma-bosqich amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishish; o'rgatish texnologiyasining uslubiy vositalari (usullar, shakllar va o'qitish vositalari). Shuningdek, O'MTXda o'quv jarayonining qaysi bosqichida, qanday hajmda ma'lumotlar berish va bunda qanday usul va vositalardan foydalanish lozimligi ham e'tiborga olinadi.

Texnologik xarita darslarni tizimli tashkil qilish (dars maqsadi, vazifalari va natijalarini belgilash, o'qitish shakli, usullari, vositalarini tanlash, baholash mezonlari va usullarini aniqlash, topshiriqlar tuzish va h.k.) va uni samarali amalga oshirish bosqichlarini aniqlab beradi.

Texnologik xarita namunasi:

Mashg'ulot mavzusi	...
O'quv mashg'uloti shakli va turi Mashg'ulot rejasi	Ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya mashg'uloti 1. ... 2. ... 3.
Mashg'ulot maqsadi	Talabalarda ... bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ...
O'qituvchi vazifalari - ... tushuntiradi; - ... yoritib beradi; - ... bayon etadi; - ... izohlaydi; - ... o'rgatadi; - ... yo'naltiradi; - ... mohiyatini ochib beradi; - guruhni faollashtiradi va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etadi	O'quv faoliyati natijalari Talaba: - ... bilib oladi; - ... tushunib oladi; - ... o'rganadi; - ... qo'llaydi; - ... tahlil qiladi; - ... umumlashtiradi; - ... fikrini ifodalaydi; - guruh ishida faol ishtirok etadi va hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi
O'qitish usullari	Og'zaki: muhokama, so'rov Interaktiv: ... interaktiv usuli, ... grafik organayzeri, ... muammoli o'qitish usuli, ... Ko'rgazmali: videoma'ruza, taqdimot ...
O'qitish vositalari	Interaktiv doska / videoproektor, ma'ruza matni, tarqatma materiallar, magnit doska / flipchater / A2 formatli qog'oz, marker, flomaster, rangli ruchka, taqdimot...
O'qitish shakli	ommaviy, guruhiy, frontal (kichik guruhlar), individual
O'qitish sharoitlari	Kompyuter, proektor yoki interaktiv doska yordamida taqdimot qilish hamda kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Og'zaki nazorat, yozma nazorat, test, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi va baholash mezonlari asosida baholash

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat bosqichlari		Tavsiya etiladigan metod va vositalarlar
	O'qituvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	
Kirish	Tashkiliy qism; dars mavzusi, maqsad-vazifalarini, asosiy terminlarni e'lon qiladi; tarqatma materiallari va baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar va asosiy ma'lumotlarni qayd etadilar, tarqatma materiallari va baholash mezonlari bilan tanishadilar	og'zaki
Motivatsiya (faollashtirish)	Mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslaydi, mavzuga oid bilimlarni esga tushirish, mustahkamlash, talabalarni faollashtirish, qaytuvchan aloqani o'rnatish maqsadida tezkor savol-javob, interaktiv usullar yoki aqliy gimnastikalarni o'tkazadi ...	Savol-javob / muhokamada faol qatnashadilar	og'zaki yozma interaktiv
Asosiy	Mavzuga oid tushuncha yoki axborotlarni ma'lum bir izchillikda, mantiqiy qismlarga bo'lgan holda, bosqichma-bosqich bayon etadi; mavzuga oid asosiy tushuncha va tayanch ma'lumotlarga urg'u beradi, ularni ajratib ko'rsatadi hamda yodda saqlab qolish bo'yicha ko'rsatmalar beradi; o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash maqsadida savol, topshiriqlar beradi, turli (noan'anaviy) usullarni qo'llaydi; beriladigan topshiriqlarni bajarish uchun ko'rsatma beradi; dastlabki o'zlashtirish natijalarini va berilgan	Tinglaydilar va kerakli ma'lumotlarni qayd etadilar Savollarga faol javob beradilar Muhokama qiladilar Topshiriqlarni kichik guruhlarda ishlash asosida	Munozarali ma'ruza Nazorat savollari Kichik guruhlarda ishlash: "Aqliy xujum" / "Klaster" / "Baliq

	natijalarini va berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi; topshiriqlarni bajarish davomida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni muhokama etadi, tuzatadi hamda to‘ldiradi. O‘zlashtirilgan bilimlarni test yordamida tekshiradi ...	asosida bajaradilar Bajarilgan ish natijalarini taqdimot qiladilar Test topshiriqlarini bajaradilar	“Baliq skeleti” ... taqdimot Test topshiriqlari
Yakuniy	Kutilgan natijalarga erishilganlikni tekshiradi, talabalarining o‘quv faoliyatini tahlil qiladi, ularning tayyorgarligi, faolligi hamda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlariga muvofiq baholaydi; mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi; mustaqil o‘rganish uchun mavzular, savol va topshiriqlar beradi	Tinglaydilar Yozib oladilar	Baholash mezonlari Mustaqil o‘qish uchun mavzular, savol va topshiriqlar

Shu bilan birga, kasb ta‘limi o‘qituvchisining ilmiy-uslubiy ishlariga darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik (uslubiy) ko‘rsatma va metodik qo‘llanmalar tayyorlash ham kiradi.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi va didaktik talablari asosida belgilangan, muayyan o‘quv fanining mavzulari mazmuni to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

O‘quv qo‘llanma – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o‘zlashtirishini ta‘minlovchi ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg‘ulotlar olib borishga mo‘ljallangan nashr.

Metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko‘rsatilgan va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga

mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo'llanma – professor-o'qituvchilar va boshqa bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foyalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

2.2. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish

Kasbiy ta'limda o'qitish jarayoni. Ta'lim oluvchilarning kasb ta'limi olishlarini ta'minlovchi pedagogik jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bu o'qitish jarayonidir. Jarayon (lot. “processus” – oldinga harakat, o'zgarish, rivojlanish) bu biror-bir natijaga erishishdagi harakatlar ketma-ketligi, taraqqiyot elementlarining bir-biri bilan qonuniy va uzluksiz almashishidir. O'qitish jarayoniga quyidagi ta'riflarni berish mumkin:

Kommunikativ nuqtayi nazardan o'qitish jarayonini bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxs va ularni qabul qiladigan inson orasidagi muloqot sifatida ta'riflash mumkin.

Faoliyat nuqtayi nazaridan yondashilsa, o'qitish jarayoni – bu ta'limning yetakchi funktsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan pedagog va talabaning o'zaro bog'liqlikdagi faoliyatidir.

Boshqarish nuqtayi nazaridan o'qitish jarayoni – bu pedagog tomonidan talabaning o'qish, o'rganish, rivojlanish faoliyatini tashkil etishdir.

Barcha ta'riflarda ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan o'zaro binar faoliyat mavjud. Bunda ulardan birortasini birlamchi deb olish shu jarayonning buzilishiga, natijasizlikka olib keladi.

Agar o'qitishni asosiy, yetakchi faoliyat deb olsak, u holda bunday faoliyat turi talabani yangi rivojlanish darajasiga ko'tara olmaydi. O'rgatuvchi asosiy shaxs emas, balki talabaning o'qish va o'rganishini ta'minlovchi yordamchidir.

Yetakchi ma'no hosil qiluvchi faoliyat sifatida o'qish, o'rganish turadi. Chunki u bo'lmasa yoki yetarli darajada bo'lmasa, u holda o'qituvchining faoliyati ma'noga va natijaga ega bo'lmaydi.

Pedagoglar ularning faoliyati yordamchi va yo'naltirish xarakterida bo'lishi, talabaning faolligini tashkil qilish va o'rganishlariga yordam

berishdan iborat ekanligini yodda tutishlari lozim. Zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida asosiy urg'u o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatidan o'quvchining o'rganish, bilish faoliyatini boshqarish faoliyatiga ko'chiriladi.

Shunday qilib, o'qitish – bu pedagog tomonidan talabalarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltirish faoliyatini tashkil qilinishidir. Bunda birinchi o'rinda “nimani o'rgatish” emas, balki “qanday o'rgatish” kerak degan savol turadi.

O'qitish jarayonini asosiy harakatga keltiruvchi kuch – bu talabalarda mavjud bo'lgan bilim va ijtimoiy tajriba bilan ularning oldiga qo'yilayotgan yangi masala orasidagi ziddiyatdir.

Bu ziddiyatni anglash talabalarni hamkorlikka undaydi. Natijada o'zi uchun yangi bo'lgan tajribalarni o'zlashtiradi va ularda rivojlanish ro'y beradi. Shunday qilib, hamkorlikdagi faoliyat xarakteri, muammolarni yechish usullari talabalarning rivojlanishi va ularning oldinga intilishlarining asosiy sifati hisoblanadi.

Hamkorlikdagi faoliyat turi va xarakteriga ko'ra turli xildagi o'qitishga ajratiladi. An'anaviy reproduktiv o'qitish usuli talabalar tomonidan yangi vazifalarni yechish uchun bilim va faoliyat usullarini ko'chirishga va qabul qilishga asoslangan. Bunda ularni o'zlashtirishga ehtiyoji bormi yoki yo'qmi hisobga olinmaydi. Natijada ijtimoiy tajriba (o'qituvchi bergan mavzusi) qisman o'zlashtiriladi (asosan bilim va faoliyatning stereotip usullari). Ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyat munosabatlari o'zlashtirilmaydi, ya'ni o'qitishning rivojlantiruvchi masalalari yetarlicha yechilmaydi.

Zamonaviy innovatsion (produktiv) o'qitish usuli pedagog tomonidan o'quvchi, o'rganuvchilarning intensiv, mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil qilishga asoslangan. Shunday faoliyat asosida ular aniq tafakkur, hayotiy va kasbiy muammolarni yechadilar, mustaqil izlanadilar, yangi bilimlarni kashf etadilar. Ijtimoiy munosabatlar tizimida insonning o'z-o'zini o'zgartirishi, rivojlantirishi ro'y beradi.

O'qitish jarayonining rivojlantirish imkoniyatlarini yetarlicha baholamaslik, o'qituvchining talabalar tomonidan faqatgina bilim va stereotip faoliyat usullarini o'zlashtirishga e'tibor berishi talabalarda reproduktiv fikrlash usulining shakllanishiga olib keladi (xotira, diqqat va qabul qilish rivojlanadi), produktiv va ijodiy tafakkur, shaxsning emotsional sohasi kam rivojlanadi. Oqibatda nostandart masalalarni, murakkab kasbiy muammolarni yechishni talaba eplolmaydi.

O'qitish jarayonining strukturaviy komponentlari.

Shaxs komponenti. O'qitish jarayoni subyektlari – pedagog va talaba. Bir tomondan, o'qitishni tashkil etish pedagogdan muayyan pedagogik mahorat darajasini talab qiladi. Ikkinchi tomondan, bu jarayonni tashkil qilishda boshlang'ich yo'llanma bo'lib talabalarning o'rganish imkoniyatlari va ularning o'qishga tayyorlik darajasi, motivatsiyasi, bilish ehtiyojlari va qiziqishlari xizmat qiladi.

Maqsad komponenti. O'qitish maqsadlari O'MKHT davlat ta'lim standarti, malakaviy tavsifnoma, mutaxassis modelida professional shaxsi va faoliyatiga qo'yiladigan talablar bilan aniqlanadi. Shu bilan birga ular bu talablar o'quvchilarning real imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari bilan, o'qitiladigan kurs mazmuni bilan solishtirish asosida aniqlashtiriladi. Shunday qilib, maqsadlar ierarxiyasi quriladi va unga o'quv jarayonining shaxs komponenti hisobiga aniqlik kiritiladi.

Mazmun komponenti. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'qitish mazmuni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan iborat bo'ladi. Uning minimumi O'MKHT DTSi bilan aniqlanadi. DTS asosida kasb ta'limi muassasasining o'quv rejaları hamda muayyan o'quv fani dasturlari ishlab chiqiladi. O'quv materialining mazmunini tanlashda pedagog o'quvchilarning o'rganish imkoniyatlari va qiziqishlarini ham hisobga oladi.

Operatsion-faoliyat komponenti (o'qitish shakllari, metodlari, uslublari, texnologiyalari). O'qitish maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish muayyan metod, usul, texnologiyalar, tashkiliy shakllar yordamida o'quvchi bilan o'zaro aloqani tashkil qilish asosida amalga oshiriladi.

Didaktik sharoitlar. Agar o'qitish jarayonini samarador amalga oshirishni ta'minlaydigan tashkiliy, moddiy va psixologik sharoitlar yaratilmasa, bu jarayon amalga oshmasligi mumkin. Tashkiliy sharoitlar – bu o'qitish rejimlari va vaqt chegaralari, o'quv jarayonining tashkiliy strukturasi, uning fazoviy joylashuvi (o'quvchilarning o'quv auditoriyalarida joylashuvi va h.k.). Tashkiliy sharoitlar faqatgina o'quv jarayoniga qo'yiladigan talablar (o'quv reja, dars jadvali) bilan emas, balki umumgigiyenik talablar, o'quvchilarning fiziologik xususiyatlari va ehtiyojlari (turli xildagi faoliyat turlarining almashuvi, ovqatlanish tartibi, bioritmik vaqti, talabalarning ortiqcha zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik va h.k.) bilan ham aniqlanadi. Moddiy sharoitlar o'quv jarayonini o'qitish vositalari bilan ta'minlanganligi bilan bog'liq: o'quv

jarayonining texnik ta'minlanganligi, ko'rgazmali qurollarning bo'lishi, pedagogning o'quv-metodik kompleksi, talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish uchun qo'llanma va ishlanmalar. Psixologik sharoitlar o'quv jarayonida kommunikativlikni ta'minlash va pedagogning muloqotni boshqara olish qobiliyati bilan hamda o'qitish jarayonida qulay psixologik muhitni tashkil qilish bilan bog'liq.

Nazorat-to'g'rilash komponenti o'qitish jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Uning ahamiyati har qanday tizimli boshqarishda muhim element bo'lgan qaytuvchan aloqa zarurligi bilan aniqlanadi. O'qitish natijalarini nazorat qilish o'quv jarayonining samarasini aniqlashga uning barcha boshqa komponentlariga o'zgarish kiritish imkonini beradi.


Baholash-natijaviy komponent o'qitish jarayonining yakuni va natijasi o'qitish maqsadlarini amalga oshishi va ularga mos natijalarga erishish bilan bog'liq. Shuning uchun o'qitishning har qanday sikli uning natijalarini tahlil qilish bilan yakunlanadi va shularga asoslangan holda yangi bosqich uchun maqsad va vazifalar belgilanadi. O'qitishning har bir bosqichiga yakun yasash nafaqat natijaviylikni baholash uchun, balki o'quvchi va pedagogning o'zini refleksiya va tahlil qilish xususiyatini rivojlantirish, har ikkisida ham oldinga intilish va mukammallikka bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirish uchun zarur. Shunga mos ravishda o'qitish jarayonining yakuniy bosqichi o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'quvchilar hamda pedagog faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan komponentlar har qanday didaktik tizimning zaruriy strukturaviy elementlarini tashkil etadi va o'qitish jarayonining mantig'ini, uning asosiy bosqichlarini aniqlab beradi.

Ta'lim jarayonining mazmuni shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarni hal etish ta'lim mazmuni, shakli, metod va vositalarining samaradorligiga bog'liq. Ta'lim shakli, metod va vositalari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim, dunyoqarashni hosil qilishga xizmat qiladi.

Qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan

shakllarini topishga urinishgan. Hozirgi vaqtda Respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda (2.1-rasm):



2.1-rasm. Ta'limni tashkil etish shakllari

An'anaviy ta'lim o'zida XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yashab ijod etgan buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) tomonidan asoslangan sinf-dars tizimi mohiyatini aks ettiradi. Mazkur tizimning mohiyati quyidagilardan iborat: 1) o'quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajalariga ko'ra guruhlanib, umumiy ishni bajaradi; 2) o'quv predmetining mazmuni bir qator bo'lim va mavzularga, bo'lim, mavzular esa bir qator baravar va izchil joylashtirilgan qismlarga ajratilib, ular birin-ketin ma'lum jadval bo'yicha darslar ko'rinishida keladi.

Dars – o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli, bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqtda muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayoni


Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Darsda o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, jumladan: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Dars tuzilishining oddiy va murakkab bo'lishi o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida guruhning xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:



Dars deganda o'qituvchining o'quv guruhiga (brigadaga) uyushgan tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o'zgarmas o'quvchilar bilim mashg'ulot o'tkazishi tushuniladi. Dars kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida ham ta'limni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi.

Har bir dars jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarini egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud:

1. Yangi bilimlarni o'rganish darsi. Bunday darslarda mavzu va ko'zlangan maqsad aytilib, yangi o'quv materialini bayon etiladi va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uyushtiriladi, uyga topshiriqlar beriladi, darsning bu xili o'quv materialini o'zlashtirish oson hollarda o'tkaziladi.

2. Umumiy yoki aralash dars. Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi-uy topshiriqlarini va o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilar bilimlarini puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.

3. Bilimlarni mustahkamlash darsi. Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, bilimlar esga solinadi, faktlar va natijalar o'quvchilarning xotirasida mustahkamlanadi. Natijada bilimlar ancha puxtalashadi.

4. Sinash-tekshirish darsi. Bunday darslarda mavzu, bo'lim yuzasidan og'zaki savol-javoblar, test yordamida yozma grafik usulda tekshirish ishlari o'tkaziladi. Ulardan ko'zlanadigan maqsad – har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasini asosli baholash uchun kerakli ma'lumotlar olish, ya'ni bilimlarni qanchalik ongli va puxtaligini aniqlashdan iborat.

5. Muammoli dars. Bu darslardan maqsad o'quvchilar qo'yilgan muammolarni yecha olish yoki yecha olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar o'quvchilar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

Darsning ana shu asosiy turlari strukturasi quyida keltiriladi:

I. Yangi bilimlarni o'rganish darsi: 1. Tashkiliy qism. 2. Yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash. 3. Uyga topshiriq berish. 4. Darsni yakunlash.

II. Umumiy yoki aralash dars: 1. Tashkiliy qism. 2. Uyga topshiriqni tekshirish. 3. O'quvchilar bilimini og'zaki (yakka tartibda) tekshirish.

4. Yangi o'quv materialini bayon qilish. 5. Yangi o'quv materialini mustahkamlash. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

III. Bilimlarni mustahkamlash darsi: 1. Tashkiliy qism. 2. Uyga topshiriq'ini tekshirish. 3. O'quvchilardan so'rash, o'quv materialini mustahkamlash. 4. Uyga topshiriq berish. 5. Darsni yakunlash.

IV. Sinash-tekshirish darsi: 1. Tashkiliy qism. 2. O'qituvchining topshiriq'ini tekshirish. 3. O'quvchilarning savollariga javob berish. 4. O'quvchilarning topshiriqlarini bajarishni tekshirish. 5. Bajirilgan ishlarini o'qituvchiga topshirish. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

V. Muammoli dars: 1. Tashkiliy qism. 2. Muammoni bayon qilish. 3. Muammoni hal qilish yo'llarini ko'rsatish va hal etish. 4. Natijalarni muhokama qilish. 5. O'qituvchining izohlashi va umumlashirishi. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi va pedagogik jihatdan to'g'riligi.
2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy, shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.
3. O'qitishning yaxlit dars, uning ma'lum qismlari, vazifalari, mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarini tanlash.
4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda birga olib borish.
5. O'qituvchining rahbarlik roli bilan o'quvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish.
6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.
7. O'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
8. Zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.
9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.
10. Darsda o'quvchi erkinligini ta'minlashga erishish

Bugungi kunda ta'limni tashkil etish tizimida yakka tartibda ta'lim olish o'ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda. Yakka tartibdagi ta'lim o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan chuqur bilim olish; ma'lum fan yoki predmet bo'yicha yuzaga kelgan o'zlashtirilmaslik holatini bartaraf etish, uzoq vaqt sog'liqni saqlash muassasalarida davolangan yoki tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan o'quvchilarning o'quv dasturi talablarini bajarishlariga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi. Yakka tartibda ta'lim olishning asosiy ko'rinishlaridan biri – repetitorlik ta'limi keng ommalashib bormoqda.

Ayni vaqtda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va yangi turdagi o'quv muassasalari faoliyatida o'qitishning an'anaviy shakllarining asosiysi sifatida ma'ruzadan keng foydalanilmoqda.

Ma'ruza o'quvchilarga nazariy bilimlarni verbal (og'zaki) yetkazib berish shakllaridan biri bo'lib, ma'ruza darslarini tashkil etish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladi.

Ma'ruza darsi tajribali, ilmiy darajaga ega, yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladi. Ma'ruzada faqat fan, o'quv predmeti asoslariga doir ma'lumotlar berib qolmasdan, balki o'quvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalab borish talab etiladi. Ma'ruza jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirishga qaratiladi.

Ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

ma'ruza-hikoya; ma'ruza-suhbat;
ma'ruza-munozara; muammoli ma'ruza; obzor
ma'ruza; klinik ma'ruza; ma'ruza-konferensiya va b.

Ma'ruzalar yozma tayyorlanadi. Shu bois ma'ruzachi o'qituvchida ma'ruza mavzusi yuzasidan reja va ma'ruza matni (konspekt) bo'lishi lozim.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ma'ruza 45 daqiqa, bir akademik soatdan iborat bo'ladi. Umumiy qoidaga muvofiq ma'ruza bir dars davomida oxiriga yetkazilmay qolgan bo'lsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza materiallari tushuntirib bo'lingach, ta'lim oluvchilar bilan savol-javob

o'tkaziladi. Har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ijtimoiy va gumanitar predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil etish keng qo'llanilmoqda.

Seminar – o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning faol hamkorligi asosida tashkil etiluvchi ta'lim shakllaridan biri bo'lib, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng, chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari, shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.


Seminar mashg'uloti ta'lim oluvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, uni guruh bilan muhokama qilish yo'li bilan olib boriladi. Bu turdagi mashg'ulotlarga 2–3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadi, material yig'adi, turli kuzatishlar o'tkazadi, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadi.

Seminar mashg'uloti o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. U o'quvchilar ishini yo'naltirib turadi, mavzuga oid savollar yuzasidan tashkil etilgan muhokamani yakunlaydi. Zarur qo'shimcha mulohazalarni bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi. Ma'ruza qilgan, muhokamada qatnashgan o'quvchilarning faoliyatlari baholab boriladi.

Seminar mashg'uloti o'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, mustaqil ishlash, fikrlashga o'rgatish, darsni faollashtirish, o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini o'stirishda muhim o'rin tutadi. O'qitishning noan'anaviy shakllari doirasida amaliy mashg'ulotlar alohida o'rin tutadi.


Amaliy mashg'ulotlar maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma, malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan ta'lim shakli.

Bu ta'lim mashg'ulotlari ikki yo'nalishda tashkil etiladi. Ya'ni (2.2-rasm):



2.2-rasm. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy turlari

O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida olib boriladigan amaliy-tajriba mashg'ulotlari asosan laboratoriya xonalari, tematik xonalar, maxsus jihozlangan xonalar va o'quv tajriba maydonida olib boriladi. Bunday mashg'ulotlar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi (2.3-rasm):



2.3-rasm. Amaliy mashg'ulotlarning turlari va ularning tavsifi

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quv rejasiga fakultativ mashg'ulotlar ham kiritiladi.

Fakultativlar — o'quvchilarning qiziqish, xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shakli.

Ta'lim muassasasi ma'muriyati, pedagogik jamoa oldiga har bir o'quvchi (talaba)ning fakultativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo'lib qoladi. Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqilligi, faolligini oshirishga, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda o'qiladigan ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda o'quvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmasini egallaydi, murakkab bo'lmagan tajriba, tadqiqotlar o'tkazish metodikasini o'zlashtiradi, tajriba qurilmalari, texnikani ishlatish malakasini hosil qiladi. Fakultativ mashg'ulotlar majburiy fanlar yuzasidan bo'lgan mashg'ulotlar bilan mustahkam aloqadorlikda tashkil etilishi kerak.

Noan'anaviy dars shakllaridan biri ekskursiya hisoblanadi.


Ekskursiya bevosita kuzatish asosida muayyan jarayon, voqea-hodisa yoki faoliyat mazmunini yorituvchi bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlovchi ta'lim shakli.

Ekskursiyalar sinf-dars tizimi, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi. Ushbu farq quyidagilardan iborat:

- 1) o'qituvchi o'tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya obyektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda mashg'ulotni maxsus tayyorgarlikka ega ekskursivod olib boradi;
- 2) ekskursiya muddati turlicha bo'lib, doimiy o'quv jadvaliga amal qilish talabiga bo'ysunish shart hisoblanmaydi;
- 3) o'qituvchi yoki ekskursivodning rahbarlik usuli, o'quvchilarning faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiya davomida bir o‘rindan ikkinchi o‘ringa ko‘chib yuriladi. Shu bois o‘quvchilardan intizomga qat’iy rioya qilish talab etiladi. O‘quvchilar obyektни kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradi, zarur ma’lumotlarni yozib boradi. Ekskursiya yakunida o‘qituvchi bugungi kuzatganlarini avval o‘zlashtirilgan materiallarga bog‘lab suhbat o‘tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida bayon yoki insho yozdirish maqsadga muvofiq.

Bu kabi mashg‘ulotlar quyidagi to‘rt yo‘nalishda uyushtiriladi (2.4-rasm):



2.4-расм. Экскурсияларнинг асосий йўналишлари

Ta’limning noan’anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra stoli, rolli o‘yinlar, matbuot konferensiyasi muayyan predmetning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ilgari surish, uni asoslash, himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarni tashkil etishda maqsadning aniqligi, o‘qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Musobaqa, tanlov-viktorina va mo‘jizalar maydoni shaklida o‘tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni faollikka undaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida quyidagi zamonaviy ta’lim turlari qo‘llaniladi:

Ta'lim turlari

Muammoli ta'lim; mujassamlashtirilgan ta'lim; modul ta'limi; rivojlantiruvchi ta'lim; tabaqalashtirilgan ta'lim; dasturiy ta'lim; kompyuter ta'limi; mustaqil ta'lim, hamkorlik ta'limi, individual ta'lim; faol o'qitish

Zamonaviy sharoitda qo'llanilayotgan ta'lim turlari

Mujassamlashtirilgan ta'lim o'quv materiallarini o'quvchilarning bilish xususiyatlariga imkon qadar moslashtirishni ifodalaydi. Unga ko'ra mashg'ulotlar yaxlit mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'zlashtirishga yo'naltiriladi. O'quv materiallarini bu tarzda o'zlashtirish bilish imkoniyatlari turlicha bo'lgan talabalar tomonidan mavzu mohiyatining puxta anglanishiga yordam beradi. Metodni qo'llashda o'quvchilar qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari qo'llaniladi.

Modul ta'limi o'quv materiallarini boblar, bo'limlar yoki paragraflar majmui tarzida o'rganilishini ta'minlaydi. Bob, bo'lim yoki paragraflar majmui bloklar tarzida yaxlitlanadi. Bu ta'lim turini qo'llash o'quvchi (talaba)larni yangi pedagogik bilimlar, zamonaviy PT hamda ilg'or didaktik vositalardan xabardor qilishda samarali sanaladi. Mazkur ta'lim turidan o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni o'quv materiallari bilan ta'minlash va o'quv faoliyatlari yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalanish mumkin. Modul ta'limi o'quvchilarni masofada ham samarali natijalarni beradi. Bunda o'quvchilar bloklarda chop etilgan yoki kompyuter varianti ko'rinishidagi o'quv materiallari bilan ta'minlanadilar. O'quvchilar o'quv materiallarini o'rganganlaridan so'ng ularga nazariy bilimlarini mustaqil baholash, ularni mustahkamlashga xizmat qiladigan topshiriq (mashq)lar yuboriladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim talabalarning ichki imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Ushbu ta'lim turiga ko'ra mashg'ulotlarda amaliy treninglardan keng foydalaniladi. Amaliy treninglar talabalarda pedagogik bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam berish bilan birga ularning imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. O'quv mashg'ulotlarida rivojlantiruvchi ta'lim elementi sifatida taqdimot metodidan foydalanish ham kutilgan natijalarni beradi. Bu metod talabalarda pedagogik faoliyatni tashkil

etishga nisbatan ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Taqdimot metodidan seminar mashg'ulotlarda talabalarning bilimlarini baholash maqsadida foydalanish mumkin.

Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. O'quvchilarga individual ravishda o'quv materiallarini o'zlashtirishga imkon beradigan mazkur ta'lim turini qo'llashda ham DTSda belgilangan me'yordan kam bo'lmagan BKM o'zlashtiriladi.

Mustaqil ta'lim o'quvchilar tomonidan turli fanlar asoslarining mustaqil o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Ta'lim tizimida mustaqil ta'limdan foydalanishda o'qituvchi bilimlarni o'zlashtirish manbalarini o'quvchilarga tavsiya etadi, ularni izlash bo'yicha zarur ko'rsatmalarni beradi hamda mustaqil ta'limni samarali, maqsadga muvofiq tashkil etishga yordam beradigan metod, vositalardan xabardor qiladi.

Hamkorlik ta'limining mohiyati o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida birgalikda ishlashlari, bir-birlarini chuqur tushuna olishlari, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilishlari, ta'lim maqsadiga erishganlik natijalarini hamkorlikda tahlil qilishidan iborat.

Individual ta'lim o'qitishning eng qadimgi turi hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchining bevosita individual munosabatiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Faol o'qitish (yoki interfaol ta'lim) ta'lim tizimida tobora ommalashayotgan ta'lim turi sanaladi. U ta'lim subyektlari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyati asosida tashkil etiladi. Shuningdek, o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash, muammoli vaziyatlar yechimlarini birgalikda izlash ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. Interfaol ta'lim jarayonida bahs-munozara, muammoli vaziyat, trening, debat, intervyu, taqdimot, namoyish va o'yin texnologiyalaridan maqsadli foydalanish kutilgan natijani beradi.

Muammoli ta'lim zamonaviy ta'lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg'or PT hisoblanadi. Undan ta'lim amaliyotida foydalanish talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, ilmiy farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va ma'lum xulosalarga kelish kabi

ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarga pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid topshiriq va masalalarni tavsiya etish ularda bilish faolligi va ijodiy qobiliyatni shakllantiradi. Ta'limning bu turida muammoli topshiriqlar, shuningdek, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo'llaniladi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu ta'lim turining maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Unga ko'ra o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi.

Kompyuterli ta'lim o'qitish jarayonini maxsus ta'lim dasturlariga muvofiq tashkil etilishini nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limda kompyuterdan foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi: o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash; idrok etish qobiliyati (qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash, axborotni to'plash, analiz, sintez qilishni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tibor)ni kuchaytirish.

Kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi, bu vaqtni tejash imkonini beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.

So'nggi yillarda innovatsion ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega: 1) oldindan ko'ra bilish, ya'ni o'quvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur; 2) o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishda global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.

Bugungi kunda masofaviy ta'lim (lot. "distantia" – masofa)dan foydalanishga ehtiyoj oshmoqda. Masofaviy o'qitish o'quvchi qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar, muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu maqsadni amalga

oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televidenie hamda radio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televidenie va ovozli pochta, ikki tomonlama videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali ta'lim o'qituvchi va ta'lim oluvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan holda (jumladan, uzoq hududlarda yashovchilar uchun) o'qish imkonini yaratadi.

O'yin texnologiyalari talabalarda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari (o'quvchi, ota-ona, pedagogik jamoa vakili, ekspert, ijtimoiy tashkilotlarning xodimlari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalar tomonidan zarur nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga imkon yaratadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'yin texnologiyalarining asosiy shakllari sanaladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda **tanlab o'qitish (tabaqalashtirilgan ta'lim)** shakli yuzaga keldi (AQShda Batov tizimi, Yevropada Mangeym tizimi).

Yevropa va AQShda XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **individual ta'lim** ta'lim tizimida eng radikal hisoblangan. Bu tizim **Dalton-reja** nomi bilan pedagogika tarixiga kirdi. Uni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining samaradorligi har bir o'quvchining imkoniyati, qobiliyatiga bog'liq; ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining asosi hisoblanishi; o'qituvchining vazifasi faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, laboratoriyaning ustaxonalar bilan almashtirilishi; darslarning bekor qilinishi; o'qituvchining yangi materialni tushuntirishligi, o'quvchining laboratoriya (ustaxona)larda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari.

XX asr 20-yillarida **ta'limning loyihali tizimi** targ'ib qilindi. Tizimning mazmuni o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzusini tanlab olishlarini ifodalaydi. Loyiha ishlari real hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhleri jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-maishiy jihatlarini aks ettirish kerak bo'lgan.

O'tgan asrning 60-yillarida amerikalik professor pedagog Lloyd Tramp ishlab chiqqan **Tramp rejasi** ommalashdi. Ta'limning bu shakli mashg'ulotlarni katta (100-150 nafar kishilik) auditoriyada 10-15 kishidan iborat guruhlarda yoki o'quvchilarning har biri bilan individual ishlarni olib borish g'oyasini ilgari suradi. Ma'ruzani tashkil etishga turli texnik vositalardan foydalangan holda o'quv vaqtining 40 foizi, seminarlarga 20 foizi va laboratoriyalarda individual ravishda mustaqil ishlarni bajarishga 20 foizi ajratiladi.

Yevropada o'rta asrlarda dastlabki universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza-seminar tizimi** asoslandi. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, maslahat va ixtisoslik bo'yicha amaliyot bugungi kunga qadar ma'ruza-seminar o'qitishning asosiy shakllari bo'lib kelmoqda. Ushbu tizim odatda oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim amaliyotida faol qo'llaniladi. O'zbekistonda ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari amaliyotida ham samarali foydalaniladi.

Ta'limning turli shakllaridan samarali foydalanish muhim didaktik vazifa sanaladi. Ta'lim amaliyotida ta'limning **jamoaviy (ommaviy), guruhli va individual** shakllaridan foydalaniladi.

Kasb-hunar ta'limida darslarga qo'yiladigan talablar.

Zamonaviy dars, masalan, umumkasbiy va maxsus fanlari bo'yicha dars qanday bo'lishi lozim? Eng avvalo, u hozirgi vaqtda pedagogika, psixologiya, ta'lim metodikasi erishgan yutuqlarga asoslanishi, shuningdek, o'rganilayotgan kasb sohasidagi fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish tendensiyasini hisobga olish kerak. Uning mazmuni va metodikasi hozirgi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalarini hal qilishga qaratilishi lozim.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: g'oyaviy-siyosiy talablar, didaktik, psixologik, ma'naviy-axloqiy, gigiyenik, texnik talablar.

G'oyaviy-siyosiy talablar deganda darslarning g'oyaviyligi va hayotga yo'nalganligi, ta'lim jarayonida hukumat qarorlarini amalga oshirish tushuniladi.

Didaktik talablar – bu dars yaxshi rejalashtirilgan, tayyorlangan, tashkil etilgan, yaxshi jihozlangan bo‘lishi va jadal sur’atlarda o‘tkazilishi kerak.

Darsni tuzishga aniq maqsadni ko‘zlab, ilmiy asoslangan holda yondoshish – bunda pedagog va o‘quvchilar birga ishlaydigan aniq sharoitning eng yaxshi varianti tanlanadi va quyidagilari o‘z ichiga oladi:

- dars vaqtidan to‘g‘ri va ratsional foydalanish;
- darsning maqsad va vazifalarini belgilash, asosiy va ikkinchi darajali vaifalarni ajratib olish;
- o‘qituvchi tizimning umumiy va har bir elementi uchun o‘quv materialini belgilab olishi, o‘quv materialini tanlashda darsning maqsadi, kasb xususiyati, fan-texnika taraqqiyotining yutuqlarini hisobga olishi;
- asosiy didaktik tamoyillar va hozirgi zamon ishlab chiqarish talablarini hisobga olish;
- ta‘limning maqbul metod va usullarini tanlash (metodlar o‘rganiladigan predmetning maqsadi, o‘ziga xosligi, ta‘limning optimal sharoitlarini hisobga olib tanlanadi);
- zarur ko‘rgazmali qurollar hamda ta‘limning o‘qitish vositalarini tanlash.

Darsda o‘quvchilarning guruhiy va individual ish shakllarini birga qo‘shib olib borish zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilimlarnigina berib qolmay balki ularni mustaqil ravishda bilimlarini to‘ldirish va chuqurlashtirishga o‘rgatish, darsning barcha bosqichlarida bilish faoliyati va faollikni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish kerak.

Dars paytida o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilish, ya‘ni qaytuvchan aloqani o‘rnatish zarur.

Psixologik talablar quyidagilardan iborat: pedagoglar o‘quvchilarning yoshga oid va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. Masalan, o‘qituvchi pastki kurslarda odatda ta‘limning asosiy shakli sifatida suhbat, hikoya qilish, yuqori kurslarda esa ma‘ruza, seminar mashg‘ulotlari, muammoli xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlarni tanlaydi.

Ta‘limda individual yondashish tamoyili o‘qituvchilardan o‘quvchilarning xotira, fikrlash, tayyorgarlik darajasi, o‘qishga munosabat, kasb ta‘limi muassasasiga kirish sabablari, qiziqish va

mayllari kabi psixologik va fiziologik xususiyatlarni hisobga olishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy talablar eng avvalo pedagogning shaxsiyatiga taalluqlidir. Kasb ta'limi o'qituvchisi axloqiy jihatdan qat'iyatli, siyosiy jihatdan savodli, g'oyaviy e'tiqodli, xushmuomalali bo'lishi, o'z kasbini, fanini, o'quvchilarni sevishi, o'z nutqi, ko'rinishiga e'tibor berishi lozim, bunday sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarni o'z shaxsiy ibrati, namunali yurish-turishi bilan tarbiyalaydi.

Gigiyenik talablarga harorat rejimi, yorug'lik, ozodalik normalariga rioya qilish, o'quv auditoriyalari, kabinet, laboratoriya, ko'rgazmali qurollarning estetik jihatdan yaxshi jihozlanishi kiradi.

Darsga bo'lgan texnik talablar – bu xavfsizlik texnikasi, yong'inga qarshi texnika, o'smirlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha talablar. Har bir laboratoriya, o'quv-amaliy va simulyatsiya xonalari xavfsizlik texnikasi va yong'inga qarshi texnika bo'yicha instruksiyaga ega bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi darslarni shunday rejalashtirishi, tayyorlanishi, tashkil qilishi va o'tishi lozimki, bunda o'quvchilarning har bir darsda kasbga doir ta'lim olishi, tarbiyalanishi, bilish xususiyatlarini rivojlantirishi uchun yaxshi sharoit ta'minlansin.

2.3. Darsni tahlil qilish xususiyatlari va ahamiyati

Dars tahlili turlari

Bugungi jadal rivojlanish davri va sog'lom raqobat sharoitida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar yanada kuchaydi. O'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi aksariyat ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlari sezilarli darajada susaygan. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida maqsadga muvofiq muloqotning tashkil etilmayotganidadir. Shuningdek, hamkorlik pedagogikasi va ta'lim sohasidagi psixologlar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir. Umuman olganda, pedagog o'zining kuchli va zaif tomonlarini har doim anglashi, tahlil qilib borishi kerak. Ayrim pedagoglar o'zlarining zaif tomonlarini, ayniqsa, bilimining kuchsizligini sezdirmaslik uchun ta'lim oluvchiga ortiqcha talablar qo'yib, noto'g'ri muloqot usullarini qo'llaydilar. O'qituvchining bo'sh tomonini ta'lim oluvchilar tez anglab yetadi, bunday ruhiy kayfiyatni esa ba'zan o'qituvchi sezmaydi.

Hozirgi kunda pedagogik fanlarda ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish muammosi turibdi. Ta'limning bugungi sharoitida

o'qituvchi va ta'lim oluvchining tashqi qiyofasi ham ba'zan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Lekin bularning ichida eng muhimi va ta'lim oluvchi uchun eng ahamiyatli – o'qituvchining kasbiy bilimdonligi, yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqligi hamda uning so'zi bilan ishining muvofiq kelishi, o'quvchilarni izlanishga, bilimlarni mustaqil egallashga, har bir fanning mohiyatini tushunishga, ijodiy yondoshishga undashi, erkin fikrlashi va mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishi, pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullarni to'g'ri tanlab ishlata olishi bilan belgilanadi.

Ko'p yillik ish tajribasi va kuzatishlar shuni taqozo etadiki, o'qituvchi muntazam o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi kerak. Pedagogik mahoratini oshirib borishi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishi uning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati, uning mahorati hamda mashg'ulot samaradorligi uning darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Dars tahlili – o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan faoliyat bo'lib, u faqat o'qituvchi mehnati natijasini baholabgina qolmay, uning bilimi va mahoratini kengaytiradi, yangi ish shakli hamda usullarini egallashga yordam beradi.

O'qituvchi faoliyati va uning darslarini kuzatish, tahlil etishni ko'pincha o'quv yurti rahbariyati yoki o'qituvchi-metodistlar amalga oshiradilar. Odatda o'qituvchining darsiga kirish lozim deb topilsa, o'qituvchilik kasbi odobiga ko'ra, qachon qaysi darsga kimlar kirishi haqida (ayniqsa tashqaridan kelgan shaxslarni darsga kiritishdan oldin) ogohlantirilishi lozim. Bunday holda ba'zi bir anglashilmovchiliklar va psixologik to'siqlarning oldi olingan bo'ladi.

O'qituvchi darsiga kirish va tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan shaxs, avvalambor, dars tahliliga kirgungacha tayyorgarligini, dars tahliliga kirish va uni kuzatish vaqtidagi hamda dars tugagandan keyingi harakatlarini aniq belgilab olishi kerak.

Dars tahlili xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchini o'z ustida ishlashga yo'naltiradi;
- o'zaro tajriba almashish, ilg'or tajribalarni o'rganishga yordam beradi;
- o'qituvchining pedagogik faoliyati, o'quv-metodik ishi bilan tanishtiradi;
- o'quv jarayonini faollashtiradi va motivatsiyani rivojlantiradi.

Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari:

Darsning **tashkiliy tahlilida** dars o'tiladigan xona, auditoriyaning darsga tayyorlik holati, tozaligi, jihozlangani, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik holati, talabalar davomatiga e'tibor beriladi. Darsni tahlil qiluvchi tomonidan tashkiliy tahlil birinchi taassurot asosida yuzaki berilmaydi, darsga tayyorgarlik butun mashg'ulot davomida kuzatiladi va tahlil etiladi.

Darsning **didaktik tahlili** turida o'rganilayotgan mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rsatmaliligi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, didaktik vosita va tarqatmalardan o'rinli foydalanish, qaytuvchan aloqaning ta'minlanishi tahlil qilinadi.

Darsning **metodik (uslubiy) tahlilida** darsning maqsad va vazifalari, dars shakli, unda qo'llanilgan o'qitish usullari, tayyorlangan ko'rgazmalar, tatbiq etilgan pedagogik texnologiyalar tahlil etiladi. Birinchidan, o'qituvchining mavzuni qanday usullar asosida o'quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olganda yetkazib bera olishi, o'quvchilarga fikrlash va izlanish uchun sharoit yaratishi, ikkinchidan, pedagogik tajribalari qay darajada ekanligini namoyish etish. Mana shu ikkinchi qismida o'qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati ko'zga tashlanishi lozim. Ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu faoliyatdan boshlanadi.

Darsning **psixologik tahlili**. Guruhdagi psixologik muhit, ta'lim oluvchilarning kayfiyati, fanga bo'lgan qiziqishi, o'quv motivatsiyasi, faolligi, o'zaro muloqoti, ruhiy holati, jarayonlari va xususiyatlarining e'tiborga olinishi va rivojlantirilishi tahlil qilinadi.

Darsning **pedagogik tahlili** ancha mas'uliyatli bo'lib, o'qituvchining pedagogik mahorati – tashqi qiyofasi, ta'lim oluvchilar guruhi bilan muloqoti, madaniyati, pedagogik texnikasi, tarbiyaviy ta'siri, nutq mahorati, favqulodda vujudga kelgan vaziyatlardan chiqq olishi, o'zini boshqara olishi kabilar tahlil qilinadi.

Darsning **yakuniy tahlili** yoki xulosa qismida o'qituvchining darsni yakunlashi va xulosa yasashi, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berishi, mashg'ulot maqsadiga ko'ra natijalari tahlil etiladi hamda darsni tahlil qiluvchining mutaxassis sifatidagi mulohaza, taklif, tavsiya va yo'l-yo'riqlari bayon etiladi.

Dars tahlilini amalga oshirish uchun quyidagi mashg'ulotlar tashkil qilinadi:

O‘zaro darslar o‘qituvchilar jamoasi tarkibida reja asosida istalgan o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi, o‘zaro darslarda ixtiyoriy tarzda tahlilchi sifatida qatnashishi mumkin.

Ko‘rgazmali darslar kafedraning yetakchi katta o‘qituvchisi, dotsent va professor-o‘qituvchilari tomonidan tashkil etiladi.

Mahorat darslari malaka oshirish kurslarini o‘qib tugatgan, anjuman yoki seminarlarda qatnashgan, stajirovkadan o‘tgan, yangi bilim va tajribalar bilan kelgan o‘qituvchilar tomonidan tashkil etiladi.

Ochiq darslar yosh yoki ish faoliyatini yangi boshlagan o‘qituvchilar tomonidan tashkil etiladi.

Amaliyot darslarida amaliyotda bo‘lgan talabalarga biriktirilgan o‘qituvchilarning darslari ular tomonidan tahlil etiladi.

Dars tahlilida quyidagi jarayonlar kuzatiladi:

- guruh va talabalarning darsga tayyorgarligi;
- o‘qituvchining tashqi qiyofasi, muomalasi;
- uslubiy material (ma‘ruzalar matni, kalendar-mavzu rejasi, fanni o‘qitish texnologiyasi, guruh jurnali, tarqatma materiallar)ning mavjudligi;

- darsning tashkil etilishi va boshqarilishi;
- ko‘rgazmali va texnik vositalardan foydalanganligi;
- test va tarqatma materiallardan foydalanish;
- mavzuning talabalar tomonidan muhokama qilingani va mustahkamlanganligi;

- ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashi va nutqini rivojlantirish;

- ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- yo‘naltiruvchi, muammoli savollar qo‘yilishi, javoblar sifati;
- talabalar bilimini xolisona baholash va izohlash;
- darsga yakun yasash, xulosa qilish.

Dars tahlili o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv materiali maqsadi va mazmunini tahlil etish;
- talabaning o‘qish, o‘zlashtirish faoliyatini tahlil etish;
- o‘qituvchining pedagogik mahoratini tahlil etish;
- ta‘lim turi, metodlari va shakllarini tahlil etish;
- ta‘lim jarayonida foydalaniladigan vositalarni tahlil etish.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Tibbiy ta'limda umumkasbiy va maxsus fanlar tarkibiga qanday mutaxassislik fanlari kiradi?
2. O'quv-uslubiy majmua nima?
3. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha O'UM o'z ichiga qanday komponentlarni oladi?
4. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha O'UM qanday talablarga javob berishi lozim?
5. Kasbiy ta'limda o'qitish jarayonining mohiyatini tushuntiring.
6. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha qanday o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi?
7. O'qitish jarayoni qanday strukturaviy komponentlardan iborat?
8. Asosiy ta'lim shakllarini sanab bering.
9. Zamonaviy dars qanday talablarga javob berishi lozim?
10. Zamonaviy ta'lim turlariga nimalar kiradi?
11. Kasb-hunar ta'limida darslarga qanday talablar qo'yiladi?
12. Dars tahlili qanday faoliyat?
13. Dars tahlilining xususiyatlarini aytib bering.
14. Dars tahlili qanday turlarga bo'linadi?
15. Dars tahlili uchun kimlar tomonidan qanday darslar tashkil qilinadi?

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Umumkasbiy va maxsus fanlardan o'quv-uslubiy majmua yaratish talablari.
2. Kasbiy ta'limda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.
Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.

III BOB.

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI NAZARIY O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Bobning qisqacha mazmuni: kasbiy ta’limning didaktik tamoyillari, kasbga yo’naltirish, kasb tanlash xususiyatlari, kasbga tayyorlashning muhim masalalari, kasbiy ta’lim mazmuni, mutaxassislik fanlarini nazariy o’qitish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning didaktik tizimi, kasbiy ta’limda pedagogik malakaviy amaliyot.

Tayanch iboralar: didaktik tamoyillar, kasbga yo’naltirish, kasb tanlash, kasb ta’limi mazmuni, kichik mutaxassis, mutaxassislik, kasb, ixtisoslik, davlat ta’lim standarti, tasniflagich, o’quv reja, malaka tavsifnomasi, o’quv dasturi, nazariy o’qitish, malakaviy pedagogik amaliyot.

3.1. Kasbiy ta’limning didaktik tamoyillari

Didaktika ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o’rganuvchi pedagogikaning bo’limi bo’lib, uning ma’nosi ta’lim nazariyasini anglatadi. Ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta’lim qoidalarini, metodlari hamda tashkiliy shakllarini o’z ichiga oladi. Didaktika o’z oldiga o’qitishning o’quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo’yadi. Kasbiy ta’limning asosiy vazifasi yosh avlodni nazariy-amaliy bilimlar, kasbiy ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Demak, didaktika ta’lim jarayonining “kimni o’qitish”, “nimaning o’qitish” va “qanday o’qitish” kabi savollariga javob beradi. Umumiy didaktika o’z navbatida, o’quv fanlariga oid metodikalar bilan mustahkam bog‘lanadi va ularning ma’lumotiga tayanib, o’qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi.

Kasbiy ta’lim jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishda didaktik tamoyillarni hisobga olish zarur. O’qituvchilarning o’qitish qonuniyatlarini bilishigina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishi muhim ahamiyatga ega. O’quv jarayonini tashkil etishda o’qitishning asosiy qoidalariga tayanish kerakligini chuqur anglagan taqdiridagina

bunga erishishi mumkin. Bu qoidalar **o‘qitish prinsiplari** yoki **didaktik tamoyillar** deb ataladi.

Kasbiy ta’limning didaktik tamoyillari – o‘qitish nazariyasining boshlang‘ich qoidalari bo‘lib, unga pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchilari amal qilishi kerak.

M.N.Skatkin kasbiy ta’limning didaktik tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o‘quv fanlari orasidagi o‘zaro aloqadorlik, joriylik.

M.G.Ogorodnikov esa o‘z tadqiqotlarida ilmiylik, g‘oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta’limning hayot bilan aloqasi kabilarni tamoyillar sifatida ajratib ko‘rsatgan.

Kasbiy ta’limning didaktik tamoyillarining majmuasi mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Faollik tamoyili
2. O‘qitishda nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi tamoyili
3. Ko‘rsatmalilik tamoyili
4. O‘qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili
5. Ilmiylik tamoyili
6. O‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili
7. O‘qitishning tushunarli bo‘lishi tamoyili
8. Namunalardan foydalanish tamoyili
9. Ta’lim oluvchilarning yoshga oid va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili
10. Bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning puxta bo‘lishi tamoyili
11. Didaktik reduksiya tamoyili.

Faollik tamoyili – talaba o‘zi faol harakat qilgan vaziyatda yaxshi o‘rganadi va o‘zlashtiradi. Shuning uchun o‘quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, ta’lim oluvchi ilm olishga, mustaqil o‘rganishga ongli munosabatda bo‘lsin, ana shunda samarali o‘zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o‘rnashib boradi. Natijada talabalarning o‘qish va o‘zlashtirish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabati, qiziqishi ham ortadi. Buning uchun, o‘qituvchi uslubiy ko‘nikmalarga va pedagogik qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak.

O‘qitishda nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo‘lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog‘langanligi

sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshirib, chuqurroq o'rganib yanada mustahkamlaydilar hamda nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

Ishlab chiqarish ta'limi ham talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichi bo'lib, tanlagan kasblariga doir egallagan nazariy bilimlari asosida mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni, narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilishi mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, taktil sezish va b. foydalanishni talab etadi. O'qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanilsa, o'rganilayotgan bilim real holatda har tomonlama idrok qilinsa, shunchalik mustahkam va chuqur bo'ladi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali vositalarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini aynan o'tilayotgan mavzuga jalb etadi. Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida talabalarning yangi mavzuni tushunishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, takrorlash hamda amaliy faoliyatida tatbiq qilinishi lozim.

O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri o'quvchilarga kasbiy bilim berish, ularning aqliy o'sishi hamda dunyoqarashining shakllanishi uchun sharoit yaratadi. O'qitish jarayoni ta'lim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi, ya'ni o'quvchilarda dunyoqarash, axloq, mehnat, estetik qarashlar, tasavvurlar, ishonch, ijtimoiy faollik, xatti-harakat usullari, munosabatlar, ehtiyojlar, madaniyatlar tizimi kabi shaxs fazilatlarini shakllantiriladi. Ta'lim talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi hamda mustaqilligiga, bilimga qiziqishini oshirishga, o'z oldiga

maqsad qo'yish va unga erishishga yordam beradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifasini mohiyati uning mazkur obyektiv jarayonga belgilangan maqsadga yo'nalganlik va jamoaviy ahamiyatlilik baxsh etib yondoshishdan iborat.

Biroq, o'qitish jarayonidagi tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsiy fazilatlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, guruh bilan hamkorlikdagi ishlari ham tarbiyaviy ta'sirga ega.

Ilmiylik tamoyili talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari hamda kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ushbu tamoyilga asoslanish bu – o'quvchilarning ta'limiy ishlarini faollashtiruvchi, aqliy qobiliyatlarini o'stiruvchi, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatuvchi usullarni tanlash va kasbiy atamalardan foydalanishga odatlantirishdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni ilmiy bilish shakllarining rivojlanish bosqichlarini to'g'ri tashkil qilishni talab etadi. Bu bosqichlar ilmiy shakllarini izchil mantiqiy bilishni izlanuvchidan talab qiladi. Bu ilmiy izlanish (bilish) shakllari ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariya va ilmiy oldindan ko'ra bilishidir.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi hamda talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi, uning ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar, albatta, nazariy tasdiqlangan va amalda sinovdan o'tgan bo'lishi kerak.

Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi. O'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi uchun o'quv materialining har bir tarkibiy qismi mantiqiy ravishda bir-biri bilan

bog'lanishi shart. O'quv materiali mantiqiy bog'lanishda o'rganilgandagina mustahkam yodda saqlanadi. Muntazamlik prinsipi fanlar bo'yicha tuzilgan dasturlarda, o'quv rejalarida, darslik, o'quv qo'llanma va metodik tavsiyanomalarda amaliyotga tatbiq etiladi. Tizimli va izchil bo'lishi qoidasi hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki aloqalar, nazariy qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu prinsip o'rganilayotgan materialdan yetakchi tushunchalarni aniqlashni, ularning boshqa tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatishni, ta'limdagi ba'zi bir umumiy qonunlarni yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbaini ochib beradigan ma'lum bir muntazamlikka, ketma-ketlikka rioya etishni talab etadi.

Tizimli va izchil bo'lish qoidasi amalga oshirilayotganda albatta fanlararo integrativ bog'lanishlikni ko'zda tutish muhimdir. Albatta ushbu qoida o'quv-tarbiya jarayonida bevosita qo'llanilayotgan paytda ijodiy yondoshishni talab etadi. Ya'ni har bir pedagogik holat uchun maqsadga muvofiq bo'lgan muntazamlikni tanlashni nazarda tutadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili o'rganilayotgan material mazmuni, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, individual xususiyatlariga va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi deganda uni oson o'zlashtiriladigan bo'lishini tushunmaslik kerak. Haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay, o'zlashtira oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarlilik talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish ularning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni avvalgi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunib o'zlashtirishlari lozim.

Ta'lim oluvchilarning yoshga oid va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni, ularga o'z vaqtida yordam berishni, ularning tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyati namoyon bo'ladigan shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish uchun o'qituvchi ularning tavsifnomasi bilan tanishishi va har biri bilan suhbat o'tkazishi kerak.

Pedagogning ta'lim oluvchilarning yoshga oid va individual xususiyatlarini o'rganishi hamda hisobga olishi ta'lim-tarbiyaviy ta'sir kuchini oshirish uchun sharoit yaratadi. Talabaning bunday xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarni dars va darsdan tashqari vaqtda kuzatadi, ularning bilimi, o'quv faoliyati natijalarini tekshiradi, ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va o'jiz tomonini bilib olishga, qiziqishlari, nutqi, xotirasi, diqqati, tafakkuri, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va iroda sifatlarini aniqlab olishga harakat qiladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni puxta, mustahkam o'zlashtirish tamoyili. Malakalarni puxta o'zlashtirish tamoyiliga ko'ra, o'qituvchi amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar samaradorligini nazorat qilib turadi. Malakalar puxta o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'rganilgan materiallar muntazam ravishda takrorlab boriladi, yangi materialni mustahkamlash tartiblari qo'llaniladi.

Ushbu tamoyil ishlab chiqarish ta'lim jarayonida quyidagicha amalga oshiriladi:

- mutaxassislikni mustahkam egallash maqsadida mehnat usullarini ko'p marta takrorlash;
- mehnat usullarini o'rgatish vaqtida o'quvchilarning turli malakalarni mustaqil egallashlariga ahamiyat berish;
- o'quvchilarda o'quv adabiyoti va ma'lumotnomalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning nazariy va ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari, avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarining xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishda asos bo'lish uchun ular puxta o'zlashtirilgan bo'lishi va talabalarining xotirasida saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyilining talablari shulardan iborat bo'lib, bularga rioya qilmaslik talabalarining o'qish faoliyati va o'zlashtirish jarayoni sustlashishiga sabab bo'ladi. O'qitish tamoyillari bir qatorda o'qitishning

asosiy qoidalari ham bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishda amalga oshirilishi lozim: osondan – qiyinga, soddadan – murakkabga, tushunarli dan – tushunarsizga, yaqindan – uzoqqa, aniqdan – mavhumga, umumiydan – xususiyga.

Didaktik reduksiya tamoyili. Talabani ning bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishi uchun o‘quv material i kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o‘quv materialining hajmi juda katta bo‘lsa, undan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Majmuaviy va murakkab topshiriqlar osonlashtirilishi lozim, lekin ma‘nosi o‘zgarmasligi shart. Shuning uchun, agar faqat boshlang‘ich bilimlar berish kerak bo‘lsa, o‘quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga hamda nihoyatda ko‘p, keng va murakkab o‘quv material i bilan talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o‘qituvchi murakkab bilim, narsa, hodisa va jarayonlar xususiyatlarini oson usulda tushuntira oladi.

3.2. Kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash xususiyatlari va kasbga tayyorlashning muhim masalalari

Zamonaviy ishlab chiqarishda inson mehnati vazifalarining o‘zgarishi yosh mutaxassislarni tayyorlashda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Ta‘lim oluvchilar ongida kasb-hunar egallash, bunda ijtimoiy ahamiyati muhim bo‘lgan kasb-hunar fazilatlariga ega bo‘lish zarurligini shakllantirish o‘ta murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

Ma‘lumki, agar kasb to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, inson uchun mehnat zavq, quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir.

Ongli kasb tanlash o‘smirlar yetarli darajadagi umumiy va politexnik tayyorgarlikka ega bo‘lgan taqdirdagina mumkin bo‘ladi. O‘quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo‘naltirishdan avval uning shaxsini o‘rganish lozim, buning uchun uni kuzatish, o‘quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, suhbat, test, intervyu olish mumkin. Kasbga yo‘naltirishda turli kasblar, ularga qo‘yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to‘g‘risida o‘quvchilarga ma‘lumot berish katta ahamiyatga ega.

Kasb tanlash – jiddiy va mas‘uliyatli ishdir. O‘z hayot yo‘lini jiddiy suratda belgilab olish oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi.

O'quvchilarning kasb-hunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko'nikmalarini o'rganish lozim.

Ishchi mutaxassislarni tayyorlash har doim ham jiddiy masala bo'lib kelgan, chunki ishlab chiqarishning muvaffaqiyatlari ularning malaka darajasiga bog'liq bo'lgan. Barcha rivojlangan davlatlar uchun ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida jismoniy mehnatning solishtirma og'irligi barqaror kamayib borish tendensiyasi bilan xarakterlidir.

Ko'pchilik rivojlangan davlatlarda xavfli va zararli ishlab chiqarish, monoton va bir xildagi ish bilan bog'liq bo'lgan kam malaka talab qilinadigan ishlar mashina va robotlarga yuklatilmoqda.

Mehnat funksiyalarining o'zgarishi yoshlar uchun turli xildagi ishlarning o'ziga tortish mezonini aniq ajratib berdi. Bajarish jarayoni qiziqarli va ijodiy kuch-g'ayrat talab qiladigan ish faoliyati asosiy o'ringa qo'yilmoqda. Bu mehnat faoliyatining turli yo'nalishlari – sanoat va qishloq xo'jaligidan tortib to' xizmat ko'rsatish sohalarigacha tegishlidir.

Dunyo olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga shiddat bilan kirib kelish tendensiyasi tez orada barcha joylarni qamrab oladi. Odat bo'lib qolgan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari o'tmishga aylanmoqda yoki tubdan o'zgarimoqda. Ko'pgina kasblarga kelajakda ehtiyoj bo'lmasligi sababli yo'q bo'lib ketishi, aksincha, insonlarning talab va ehtiyojlariga ko'ra yangi kasblar yuzaga kelishi kutilmoqda. Zamonaviy kichik mutaxassis qadimgi hunarmand – ishchilarning eng yaxshi sifatlarini saqlab qolgan holda yangi texnologiyalarga moslashishi va uni egallashga tayyor bo'lishi lozim.

Shunday qilib, mamlakat sanoati va xalq xo'jaligi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi yoshlarga kasb sirlarini o'rgatishda yangi yondashuvlarni anglashdan iboratdir.

Bu qadimdan o'quvchilar uchun har doim zarur bo'lgan va ishlab chiqarishning istiqbolli talablarini hisobga oladigan qator sifatlarni shakllantirishdan voz kechishni bildirmaydi. Ular quyidagilar edi:

- ishlab chiqarish va texnologik intizomni tarbiyalash;
- jihoz va asbob-uskunalar bilan ishlay olish;
- olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish;

· ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi, mehnatni tashkil qilish to'g'risida, kasbni egallash va ishlab chiqarish malakasining keyingi rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hajmda chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish.

Hozirgi bosqichda bo'lg'usi mutaxassisdan ishlab chiqarishning o'zgarib borayotgan sharoitlariga oson moslasha oladigan va faol harakat qiladigan, ijodiy o'ylaydigan shaxs sifatleri talab qilinadi. Boshqacha aytganda, zamonaviy mutaxassis quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim: mehnat faoliyati davomida o'zini ongli ravishda o'zgartirish va rivojlantirish, kasbga o'zining individual ijodiy ulushini qo'shish, unda o'ziga xos o'rinni egallash. Demak, malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo'nalishi yoshlarga faqatgina bilim berishdan iborat bo'lmay, balki hayotning o'zi belgilab beradigan ustuvor vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir.

So'nggi yillarda ishlab chiqarish hayotining jonlanishi natijasida malakali kichik mutaxassis xodimlar yetishmasligi sezilmoqda. Shuning uchun e'tiborni kasb-hunar ta'limiga qaratish va uning mazmunini yangilash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ishlab chiqarishda oddiy ishchi yoki oliy ma'lumotli mutaxassis emas, balki aynan malakali va yuqori malakali kichik mutaxassislar yetishmayapti. Bu vazifani hal qilish yaqin davrlarning eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.

XXI asr ta'limi bo'yicha YUNESKO tomonidan taqdim etilgan ta'lim bo'yicha Xalqaro komissiya ma'ruzasida **ta'limning to'rtta asosiy tamoyili** ko'rib chiqilgan. Ular qisqa satrlarda bayon qilingan bo'lib, chuqur mazmunga ega:

– **bilim olishni o'rganish** – shaxsning shakllanishi va keyingi rivojlanishi, yangiliklarni uzluksiz kuzatib borish va mustaqil o'rganishni ko'zda tutadi;

– **ishlashni o'rganish** – ishni oddiygina bajarish emas, balki har qanday buyurilgan ishga faoliyatli yondashuv tushuniladi (har bir bosqichdagi ish natijalari va o'z faoliyatini baholash, tahrirlashni bilish);

– **yashashni o'rganish** – tez o'zgarayotgan zamon sharoitlariga moslasha olish, o'zini shaxsiy va oilaviy hayotga, kelajakdagi kasbiy faoliyatga ijodiy safarbar qila olish;

– **birgalikda yashashni o'rganish** – dunyoga, insonlarga, o'ziga nisbatan qadr-qimmatni shakllantirish (jamiyat a'zosi sifatida individning barqaror ijtimoiy muhim jihatlari tizimini tarbiyalash).

Hozirgi zamonda ta'limning global maqsadi insonni har tomonlama rivojlantirishdir. Birinchi o'ringa o'quvchining ichki salohiyatini hisobga olgan holda uning shaxsini rivojlantirish masalasi chiqadi. Bu faqatgina umumta'lim uquvlarga tegishli bo'lmay balki kasbiy o'qitishga ham tegishlidir. Agar avvallari u predmetga yo'naltirilgan – asosiy maqsadi shu predmet sohasining mazmunini uzatish bo'lgan bo'lsa, hozir esa o'quvchini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishga o'tishdan iborat bo'lmoqda. Didaktikada u “shaxsga yo'naltirilgan ta'lim” atamasi bilan ma'lumdir.

Ta'limning yangi mazmuniga yuqoridagilar bilan birga mezonlarni o'lchash ham kiradi:

- inson qanchalik kasb talablariga mos keladi va kasb qanchalik inson talablariga, uning motivlari va layoqatlariga mos keladi;

- inson qay darajada kasbning me'yor va qoidalarini o'zlashtirib oldi va unda qay darajada o'zini namoyon qilishga, o'zini kasb vositalari yordamida rivojlantirishga intiladi;

- insonda o'sish istiqbollari bormi va uni izlaydimi, boshqa odamlarning kasbiy tajribasini qabul qilishga tayyormi;

- inson o'z muvaffaqiyatlarini miqdoriy va sifat jihatdan baholay oladimi va unga tayyormi, ularni ball, mezonlarda qanchalik obyektiv baholay oladi.

Ko'rinib turibdiki, mutaxassisga o'z ishlab chiqarish majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar majmuasi ma'lum tarzda tashkillashtirilgan o'qitish sharoitlarida shakllantirilishi mumkin. Bu yerda ko'zlangan maqsad – yangi jamiyat mutaxassisini tayyorlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar to'g'ri tanlanishi muhim.

Kasbiy psixologiya bo'yicha mutaxassislar professionalning muvaffaqiyat bilan ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha sifatlarni uchta blokka birlashtirish mumkin deb hisoblashadi. Xuddi shularni o'qitish jarayonida hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki insonning professionalizmi faqatgina uning ishlay olishida emas. Zamonaviy kichik mutaxassisning faoliyatini ko'rib chiqish va unga baho berishda bu kasbda uni nima harakatga keltirayapti, nima uchun ushbu ish bilan shug'ullanayapti, u qanday qadriyatlardan kelib chiqadi, o'zining qanday ijodiy resurslarini ixtiyoriy ravishda va ichki tuyg'u bo'yicha o'z mehnatiga qo'shadi. Mana shuning uchun ham bo'lg'usi kichik mutaxassisni o'qitish va shakllantirishda quyidagi shaxsiy sifatlar tarbiyalanishi lozim:

• **emotsional-qadriyatli sifat** — o‘qish, mehnatga bo‘lgan munosabat; axloqning o‘zlashtirilgan me‘yorlari (insonlarga munosabat); dominant ehtiyojlar, rag‘batlar va h.k.;

• **faollik-irodaviy sifat** — ishlab chiqarish vaziyatlariga kirish va undan chiqish uchun o‘zlashtirilgan usullar; to‘siqlarni yengish tajribasi va irodali bo‘lish; natijalarni nazorat qilish va tahrirlash usullari; ijodning o‘zlashtirilgan protseduralari va h.k.;

• **obrazli-bilimli sifat** — obrazlarni umumlashtirish qobiliyatlari, fantaziya va xayollarni rivojlantirish; refleksiya tajribasi; fikriy amallar va fikriy kommunikatsiyani rivojlantirish.

Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda bolalik davrlaridan boshlab yoshlarda ijodiy salohiyatni shaxsga xos bo‘lgan majburiy sifat tarzida shakllantirish kerak. Sivilizatsiyaning barcha durdonalari ijodkor insonlar tomonidan ixtiro qilingan texnologiya va texnik vositalar asosida yaratilgan. Ko‘pgina rivojlangan davlatlar mavqeini undagi mutaxassislarning mohir qo‘llari tutib turadi. O‘tgan asrning boshlaridayoq amerikalik tadbirkor Endryu Karnegi shunday degan edi: “Menga fabrikamni qoldirib, odamlarni olib ketsangiz — tez orada fabrika pollari o‘t bilan qoplanadi. Mendan fabrikalarimni olib, odamlarimni qoldirsangiz — tez orada bizda oldingisidan ham yaxshiroq zavod va fabrikalar bo‘ladi”. Shubhasiz, Endryu Karnegi fabrika faoliyatining asosiy boyligi deb tushungan odamlarni ko‘zda tutgan edi. Shu o‘rinda Janubiy Koreya mehnat vazirining aytgan gapini eslash o‘rinli bo‘ladi: “Koreyaning qazilma boyliklari yo‘q, lekin uning gullab yashnashi uchun xizmat qilayotgan yaxshi mutaxassislari bor”.

Barcha rivojlangan davlatlardagi olg‘a siljishlar insoniyatni taraqqiyotning yangi pog‘onalariga ko‘taruvchi shunday shaxslar tufayli yuz beradi.

Kasb ta‘limini rivojlantirish funksiyalari. Shaxsga yo‘naltirilgan kasb ta‘limini amalga oshirish uning barcha vazifalarini qayta ko‘rib chiqish, ichidan eng asosiylarini belgilab olishini ko‘zda tutadi. Bu vazifalarga:

- kognitiv;
- shaxsni rivojlantiruvchi;
- ijtimoiylashtirish va professionallashtirish;
- madaniy insonparvarlik;
- texnologik vazifalar kiradi.

Kognitiv vazifa. Bu vazifa ta'limni talabalarning umumfan, kasbiy va ijtimoiy bilimlar, ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyat asoslari sifatida egallashlarini o'z ichiga oladi. Ta'limning kognitiv funksiyalarini amalga oshirish ilmiy bilimlarini kasbiy faoliyatning muayyan sharoitida ongli qo'llay bilishda namoyon bo'ladi. Talaba egallashi zarur bo'lgan kasbga oid bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi kasb ta'limi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari tomonidan belgilab berilgan va o'quv rejalari hamda har bir fan dasturlarida o'z aksini topgan. Ta'limda yetakchi o'rinda turgan ushbu funktsiya bugungi kunda o'zining birinchi darajali o'rnini yo'qotib ta'limning qolgan boshqa funksiyalarini (mutaxassis shaxsini rivojlantirish, uni ijtimoiylashtirish va professionallashtirish, texnologiyalashtirish, umumkasbiy madaniyatning egasi sifatida shakllanishini) amalga oshiruvchi vosita va shart sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shaxsni rivojlantirish. Raqobatga bardoshli, professional mobil mutaxassisni axborot-texnologik jamiyat sharoitida tayyorlash, kasb ta'limi tizimidan bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishga ko'proq e'tibor berishni talab qiladi. Psixologiyada rivojlanish, shaxsdagi son va sifat o'zgarishlarning (uning fiziologiyasi, ruhiy jarayonlarning, motivatsion namoyon bo'lishi) qaytarilmas jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Ilmiy-texnik rivojlanishning istiqbol o'zgarishlarini oldindan bashorat qilayotgan sotsiologlar ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish xotiraning cheksiz, ulkan resurslarini yaratishini ta'kidlamodalar. Shunday qilib, inson o'z xotirasida o'ziga kerakli bo'lgan kasbiy bilimlarni saqlash zaruriyatidan ozod bo'ldi. Rivojlangan tafakkur, axborotni topishi va qayta ishlash qobiliyati, axborotni boshqarish, undan ijobiy foydalanish kasbiy faoliyat samaradorligining asosiy sharti bo'lib qolmoqda. Axborot, kompyuter savodxonligi, umumfan ko'nikma va malakalarini shakllantirishi, o'z kasbiy faoliyatini bashorat qilishi, loyihalashtirishi, tahlil qilish imkonini beruvchi metodologik bilimlarni egallash, ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Ushbu funktsiyaning yana bir tarkibiy qismi shaxsning motivatsion muhitini, uning keyingi mehnat faoliyatiga, ta'limni davom ettirishiga, o'z ustida muntazam ishlashiga ruhan tayyorgarlikni ta'minlovchi ma'naviy va kasbiy ehtiyojlarini rivojlantirishi hisoblanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra kasbning eskirish me'yori industrial rivojlangan mamlakatlarda 8 yilni, ayrim sohalarida 5 yilni tashkil etadi, ya'ni har yili har bir mutaxassis bilimining 20–30%i keraksiz bo'lib qoladi.

Kasbiy mobillikning bundan yuqori darajasi insonni o'z kasbini yoki kasbining mazmunini o'zgartirishga majbur qiladi, uni yangi bilimlarni egallashga, o'z bilimlarni boyitishga, chuqurlashtirishiga undaydi. Bunday sharoitda kasb ta'limi ko'p yo'nalishli, o'z kasbiy faoliyatining turi va mazmunini o'zgartirishga tayyor mutaxassislarni yetkazib berishni ta'minlashi kerak.

Mamlakatimizning dunyo iqtisodiy turmushiga dadil kirib borishi, O'zbekiston mutaxassislarining xalqaro mehnat bozoriga chiqishi kasb ta'limi jarayonida nafaqat maxsus, o'rganish qobiliyatini, balki shaxsning muloqotga, hamkorlikka kirishish qobiliyati, shaxsiy tashabbusi, tadbirkorlik qobiliyati, intuitsiyasi, mustaqilligini ham rivojlantirishini talab qiladi. Kirishimlilik imkoniyatlari nafaqat texnik vositalarni bilish, balki ko'proq chet tillarini o'rganish bilan ta'minlanadi. Korxonalarda, laboratoriyalarda, konstruktorlik byurosi bo'limlarida ishlab chiqarish faoliyati uchun tayyorlangan o'rta kasbiy ma'lumotga ega, texnik-mexanik, mexanik-konstruktor, texnik-texnolog, sinovchi texnik lavozimlarida ishlayotgan texnik, muhandislik fani va texnikasi sohasida yangi intellektual mahsulot yaratish jarayonida ishtirok etishi kerak. Shuning uchun kasb ta'limi olish jarayonida uning ijodiy ongi rivojlantirilishi, o'z-o'zini o'qitish, rivojlantirish baholash usullarini, loyiha-texnologik faoliyatini amalga oshiruvchi bilim va ko'nikmalarini egallashi lozim.

Shaxsni ijtimoiylashtirish va professionallashtirish. Ta'lim ma'naviy ishlab chiqarishning maxsus muhiti bo'lib, uning eng muhim vazifasi insonni ijtimoiy mavjudot sifatida ishlab chiqarishdan iborat.

Ijtimoiylashtirish — bu shaxsni ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy amaliyotga jalb etish jarayonini va natijalarini, inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallanishi va amalda qo'llanishini bildiradi.

Ijtimoiylashtirish shaxsning nafaqat ijtimoiy sharoitga ko'nikishi, balki uni o'zgartirishga faol intilishini ham nazarda tutadi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiylashtirishning yetakchi mexanizmi bu moslashish emas, balki o'z o'rnini, o'zligini topish hisoblanadi. Ta'lim, jumladan, kasbiy ta'lim yoshlarga atrofni o'rab turgan olamda, jamiyat me'yorlari va qadriyatlarini tizimida, siyosiy hayotida o'z o'rnini topishga, kasbiy tanlovni amalga oshirishda yordam berishi kerak. Shaxsni ijtimoiylashtirish zaruriyati kasbiy ta'lim mazmuniga ma'lum talablarni qo'ydi, u shaxsning barcha hayotiy munosabatlari boyliklarini modellashtiradi va qayta ishlab chiqaradi.

Professionalashtirish ijtimoiylashtirishning tarkibiy qismidir. Bu insonning professional sifatida shakllanishi, uning professional munosabatlar va professional faoliyati tizimiga jalb etish jarayoni va uning natijasidir. U ta'limning talaba tomonidan kasbiy faoliyat mazmuni va qadriyatini belgilash va qabul qilishga, o'zini ushbu faoliyatning subyekti sifatida anglashga, uning kasbiy rivojlanishi maqsadlarini loyihalashga va unga erishish usullarini egallashga faol yo'naltirilgan bo'lishini talab qiladi. Talabani maxsus amaliy faoliyatga jalb etmay, ta'lim yondashuvlarini amalga oshirmay turib, professionalashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu vazifani tatbiq etishni qiyinlashtiruvchi eng qiyin muammolardan biri bu akademik, an'anaviy ta'limning jamiyat ijtimoiy amaliyoti va tanlagan kasb amaliyotidan uzoqligidadir, bu esa talabani mehnat dunyosiga, tanlangan kasb olamiga yotsirab qarashga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi vaziyati ijtimoiylashtirish va professionalashtirish jarayonlari xarakterining murakkablashuvi bilan ajralib turadi. Kasb ta'limi jarayonida talabaning kasbiy o'zligi muammosi – iqtisodning bir me'yorda emasligi, yosh mutaxassislarga talabning kamligi bitiruvchilarda ishonchsizlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Kasb ta'limi oldida quyidagi vazifalar turadi: o'quvchining keyingi hayotiy va kasbiy o'zligini anglashga, ishlab chiqarishning turli sohalarda ishlashga, faoliyat sohasini o'zgartirishga, hayotda uchraydigan ijtimoiy, shaxsiy muammolarni yechishga bo'lgan qobiliyatini shakllantirish.

Ushbu vazifalarni yechish uchun kasb ta'limi o'quvchilarga hayotiy yo'lni tanlashga, o'z maqsadlarini, o'z imkoniyatlarini anglashga, o'z yo'lni loyihalashtirishga, shaxslararo va kasbiy munosabatlar tizimida o'zligini anglashga, muloqot ko'nikmalari va malakasini egallashga, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishga, bo'lajak mutaxassisning boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga, ijtimoiy professional qarorlar qabul qilishga tayyorgarlik ko'rishga yordam berishi lozim.

Shunday qilib, saralash va professionalashtirish muvaffaqiyati kasb ta'limi shaxsning individualligini rivojlantirish, uning ijodiy salohiyatini takomillashtirish o'quvchining ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lishiga bog'liq.

Madaniy-insonparvar funksiya. Ta'lim jamiyat intellektini qayta ishlab chiqishning jamiyat madaniyatini asrash, rivojlantirishning asosiy sotsiogenetik mexanizmi bo'lib, uning sivilizatsion oldinga harakati

xarakterini belgilab beradi. Madaniy-insonparvar funksiya individning madaniyat kishisi sifatida, shakllanishini ta'minlaydi, uning rivojlanishini ijtimoiylashuvi, uning shaxsiy, fuqarolik va iqtisodiy barhayotligi sifatini belgilab beradi.

“Madaniyat” tushunchasi juda katta mazmun va ma'no kuchiga ega. Sotsiologlar uning 500 ga yaqin ta'rifini keltirganlar.

Insonning istalgan faoliyati, jumladan, kasbiy faoliyati ham madaniy hisoblanadi, chunki unda nafaqat moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratilishi, balki insonning shaxs sifatida o'sishi, uning ma'nan boyishi amalga oshadi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilari kasbiy faoliyat turlarini tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, bitiruvchilarning moddiy va ma'naviy madaniyatga mutaxassis sifatida ehtiyoji oshib bormoqda.

Tashkiliy boshqaruv faoliyat muammolari insonlarning xohish va manfaatlarini e'tiborga olib hal qilish, jamoada madaniy munosabatlarni shakllantirish imkonini beruvchi yuqori darajali boshqaruv madaniyati talablari asosida amalga oshiriladi.

Mutaxassis faoliyatining intellektual sohasi (hisob-analitik, nazorat-baholash, ilmiy-tadqiqot uslubi) uning ijodiy qobiliyatini tatbiq etishni, intellektual, moddiy buyum, amaliy faoliyatning madaniy usullarini egallashni talab qiladi. Shu bilan birga madaniy-gumanistik funksiya mutaxassisini nafaqat kasbiy madaniyatning shakllanishida namoyon bo'ladi. Madaniyatni fan, san'at, ta'lim kabi tarkibiy qismlariga bo'lish shartlidir. U inson faoliyati taraflarining bir butunligini anglatadi.

Shuning uchun ta'limni gumanitar, tabiiy ilmiy, texnik yo'nalishlarga bo'lish unchalik ham o'zini oqlamaydi. Jamiyatda ishlab chiqarishning istalgan sohasida mutaxassis nafaqat kasbiy, balki, umumiy madaniyat (ma'rifiy-ma'naviy, estetik, ekologik, siyosiy, iqtisodiy va h.k.) darajasiga ega bo'lishi kerak. Ushbu talablar kasb ta'limining fanlararo integrallash xarakterida, uni insonparvarlashida o'z aksini topadi.

Texnologik funksiya. O'rta maxsus kasb ta'limining ushbu vazifasi mutaxassislarning rejalashtirish, tashkillashtirish, boshqaruvning quyi va o'rta bo'g'inining ekspluatatsion, hisob-analitik, sertifikatsion nazorat-baholash, ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. O'rta maxsus ta'lim muassasasida o'qiyotgan talaba o'quv-o'rganish

faoliyati davomida mohiyatan texnologik bo'lgan bilimlar tizimi, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish vositalari va usullarini egallaydi.

Ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasi boshqaruv faoliyatining mantig'i yuqori darajada tizimli bo'lib, ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishni tashkil etishni talab qiladi.

Ta'lim mazmuni tobora integrallashib, kompleksli, tizimli va texnologik bo'lib borar ekan, o'zini ta'lim jarayonida texnologik funksiyalar vositasida namoyon etadi. Maxsus fanlardan nazariy bilimlar berish jarayoni texnologik kasbiy ishlab chiqarish faoliyatining umumlashtirilgan yo'naltirilgan asoslarining shakllanishida o'ziga xos bosqich bo'lib bormoqda.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida talabalarning mustaqil o'quv-o'rganish faoliyati ta'limda, aqliy rivojlanishda va tarbiyada kasbiy-pedagogik masalalarni yechishda texnologik siljish jarayoni aks etadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini texnologik funksiyasining namoyon bo'lishi fenomenlari mutaxassis shaxsning shakllanishiga maxsus kasbiy-texnologik yondashuv zaruriyatini tasdiqlaydi.

Kasb ta'limi tizimi rivojlanishining asosiy qonuniyati va sharti uning asosiy funksiyalarining birligi va o'zaro aloqasidir. Ularning uyg'unligi va amaliy kasbiy faoliyatga tatbiqi davlatning kasb ta'limi sohasida ijtimoiy siyosatigagina bog'liq emas. Bu har bir o'qituvchidan o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi, vazifalari va boshqa komponentlar tizimini aniqlash orqali ushbu funktsiyalarni tatbiq etishni talab qiladi.

Mutaxassislarni tayyorlash vazifalarini amalga oshirishga yondashuvlar. Hozirgi tarixiy davr yoshlarga kasb ta'limi berish bilan shug'ullanadigan muassasalar uchun turli xil qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnika, asbob-uskunalar, jihozlar, axborot bazasi va moliyalashtirish masalalarida muammolar mavjud.

Ishchi kasblarining mavqei yoshlar o'rtasida uncha yuqori emas. Hattoki kasb-hunar o'quv muassasalariga boradiganlar ham moliyaviy, mavqe-obro', mashhurlikka erishish bo'yicha yaxshi natijalarni ko'rsatadigan mutaxassisliklarni tanlashadi. Masalan, dasturchi, operator, blogger, musiqachi, qo'shiqchi, kotiba-referent, sartarosh, stilist, vizajist, tikuvchi, barmen, biznesmen, oshpaz, uqalovchi, usta va h.k. Mehnat bozorida esa birinchi navbatda quruvchi, texnolog, agrosanoat majmuasi kichik mutaxassislari kabilar zarur.

Analitiklarning ma'lumotlariga ko'ra, 85% bitiruvchi yoshlar oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish, 15%i esa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida o'qish istagini bildirishgan. Joylardagi ish bilan bandlik xizmatlari ma'lumotlari esa teskari – 85% bo'sh ishchi o'rinlar kichik mutaxassislarga, 15%i esa oliy ma'lumotli mutaxassislarga to'g'ri keladi.

Bir joyda mutaxassislarning yetishmasligi, boshqa ishlab chiqarishda esa ularning ortiqchaligi jamiyat iqtisodiga va axloqiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun O'MKHT tizimiga davlat va jamiyat diqqat-e'tiborini tortish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Kasb-hunar kollejlari (KHK)ning mavqeini ko'tarish, ularda yaratilgan shart-sharoitlar, kam ta'minlangan oila farzandlari uchun yotoqxonalar, tibbiy xizmatlar haqida yoshlarga ko'proq axborot berish lozim bo'ladi. O'MKHT kasbiy o'sish, o'zini anglash uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini tushuntirish zarur.

Pedagogik fikrlashning yangi ko'rinishi bo'lgan hamkorlik pedagogikasi o'qitish jarayonida muhim omil bo'lishi mumkin. U barcha turdagi ta'limiy muassasalar, barcha kasbiy ta'lim, o'qitish va tayyorlash shakllari uchun yaroqlidir. Uning mazmuni pedagoglarning o'quvchilarga singdiradigan oddiygina fikrlariga asoslanadi: "Sen mutaxassislikni egallaysan, u kelajakda sen va sening oilang farovonligini ta'minlash usuli, istiqbolli hayot, atrofdagi insonlarga yordam berish, jamiyat uchun foydali inson bo'lish kafolatidir. Bilim va ko'nikmalarni qanchalik egallashing, malakang darajasi sening sa'y-harakatlaringga bog'liq bo'ladi, men (pedagog) esa bunda senga yordam berish uchun hammasiga tayyorman".

Shu bilan birga, faqatgina bilimga chanqoq, mehnatkash, ijodiy fikrlovchi o'quvchilarga mo'ljal qilish kerak emas. O'MKHT o'quv muassasalari tarkibida o'qishni istamaydigan, unga o'rganmaganlar ham yo'q emas. Biroq ular bizning farzandlarimiz, mamlakatimizning bo'lajak fuqarolari va pedagoglarga ularni haydash, jamiyatdan chiqarib tashlash huquqi berilmagan. Kasb ta'limi pedagoglarining vazifasi har bir o'quvchini o'quv va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga faol jalb qilishdan iborat. Turli xil xususiyatlarga ega o'quvchilar bor ekan, demak layoqatli mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashga ham turlicha yondashuvlar bo'lishi lozim.

3.3. Kasbiy ta'lim mazmuni.

Kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi

Ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida doimo yangi konsepsiya va yondashuvlar aniqlanadi. Kadrlar tayyorlashning sifatli tizimini yaratish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'rta malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassislarining bazaviy bilimi, ko'nikma va malakalariga nisbatan ham yuksak talablar qo'yimoqda. Bunda kasb-hunar ta'lim mazmunini yangilash va takomillashtirish asosiy element bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish haqidagi" 5-sonli qarori asosida ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi" 187-sonli qarori asosida tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari Respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, xalqaro tajribalarga va chet el ekspertlarining maslahatlariga hamda standartning strukturasi va mazmuniga qo'yilgan metodologik, texnologik talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Yevropa ta'lim fondining "Standart" doirasida o'tkazilgan xalqaro simpoziumida O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartiga qoniqarli baho berilib, xalqaro standart talablariga mos ekanligi, ya'ni mehnat bozori va ishlab chiqarish talablariga, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga, o'quv va baholash xususiyatiga yo'naltirilganligi ta'kidlandi.

Davlat ta'lim standartlarini o'quv muassasalariga joriy etish samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda ta'lim standarti, uning tarkibi, maqsad-vazifalari nima ekanligini, standartning mazmuni nimani belgilashga qaratilganligini puxta aniqlab olish lozim.

Davlat ta'lim standartlarining umumiy xarakteristikasi

Davlat ta'lim standartlari ta'limning ma'lum bosqichida yoshlarning sifatli bilimga ega bo'lishi uchun davlat kafolatini belgilaydi va tasdiqlaydi.

Davlat ta'lim standartlari — ta'limning ma'lum yo'nalishi bo'yicha umumta'lim va kasbiy fanlardan bosqichma-bosqich bilimga ega bo'lish talablari, qoidalari va tamoyillari kabi asosiy tushunchalarni belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Davlat ta'lim standarti — O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida yuridik kuchga ega bo'lib, idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha davlat va nodavlat ta'lim muassasalariga joriy qilinadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standarti (O'MKHT DTS) — aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim faoliyatini aks ettiruvchi mexanizmdir. Standart ma'lum bir faoliyatda sifatni oshirishning kuchli vositasi bo'lib, real natijaga erishish maqsadini ifodalaydi.

O'MKHT Davlat ta'lim standarti — ta'limning yagonaligini, uzluksizligini, uzviyligini ta'minlashga, moliyaviy va moddiy-texnik vositalardan oqilona foydalanishga qaratilgan.

O'MKHT Davlat ta'lim standarti — o'quvchilarning yetarli o'quv yuklamasi me'yorini ko'rsatib, o'quv rejalari va dasturlari soni ko'payishining oldini olib, o'quvchilarni ortiqcha yuklamalardan himoya qiladi.

Standartlar yangi o'quv reja va dasturlari, o'quv qo'llanma, darsliklar va boshqa me'yoriy hujjatlar yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim standartlari ochiq va qulay bo'lib, ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o'quv rejalarni tuzishda o'quv reja va dasturlari mazmuniga 15–20 foizgacha o'zgartirish kiritish huquqini beradi.

O'MKHT Davlat ta'lim standartlarining maqsadi — o'qitishning mazmuni va qo'yilayotgan talablarning darajasi ta'lim olayotganlar uchun ochiq va ko'rgazmali bo'lishini, o'quvchilar uchun ham, ish beruvchilar uchun ham ish joyiga nomzodning tayyorgarlik mazmunini bilishi kerakligini ta'minlaydi.

O'MKHT Davlat ta'lim standartlarining mutaxassislarni tayyorlash sifati bo'yicha qulay talablarni o'rnatish; ko'nikma va malakalarni baholash hamda nazorat qilish mezonlarini belgilovchi hamda kasbiy faoliyatni o'zlashtirish bosqichiga qo'yiladigan mos talablarni o'rnatuvchi o'quv-me'yoriy hujjatlarni yaratish; xalqaro standart talablariga mos DTS talablarini uyg'un ta'minlashdan iborat.

O'MKHT Davlat ta'lim standartlarining asosiy tamoyillari:

- uzluksizlik va uzviylik;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini, fan, texnika va yangi texnologiyalar rivojlanishi istiqbollarini, xalqaro standartlar darajasining hozirgi zamon holatini hisobga olish;

- ishlab chiqarish, fan va ta’lim integratsiyasi;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsad va vazifalarini amalga oshirish.

“O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari”ning asosiy komponentlari

O‘zbekiston Respublikasi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari uchta komponentdan va ularning tarkibiga kiradigan strukturalardan iborat.

Quyida har bir komponentning mazmuni yoritilgan:

1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlari “Asosiy qoidalari” — O‘MKHT mazmuni va tizimiga, mutaxassislarni tayyorlash uchun ishlab chiqilgan o‘quv rejaları va tarmoq ta’lim standartlariga, ularni realizatsiya qilish sharoitlariga, o‘quv yuklamasi va boshqa me’yoriy hujjatlarga qo‘yilgan umumiy talablarni belgilaydi.

2. O‘MKHT muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilgan talablar — standartni modernizatsiya qilishning asosi hisoblanadi. Bitiruvchilarga qo‘yilgan talablarga kasbiy mahoratning to‘liq mujassamlanganligini, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalarning, universal bilimlarning to‘liq tizimi hamda u yoki bu faoliyat turida bitiruvchining mustaqil qobiliyatini namoyon etishda shaxsiy mas’uliyat va tajribaga ega bo‘lishni ta’minlash kiradi. O‘quvchilarning mustaqil bilim olish xususiyatini, fikrlash, tahlil qilish, o‘zi o‘rganish, shaxsiy va kasbiy masalalarni yechish uchun axborot manbalari topish, zamonaviy axborot texnologiyalari, maxsus adabiyotlar va spravochniklardan foydalana olish, faoliyat davrida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish, kasbiy faoliyat davrida mumkin bo‘ladigan o‘zgarishlarga, mehnat bozorining tez o‘zgarishi chog‘ida zarur bo‘lganda yangi ixtisoslikka tez moslashishga, o‘ziga, o‘z kuchiga va imkoniyatlariga ishonish hamda boshqalar kiradi.

3. O‘MKH ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat Tasniflagichini ishlab chiqishga qo‘yilgan talablar — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro‘yxati.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat Tasniflagichi O‘zbekiston

Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

Mehnat bozorining tez o'zgaruvchan infratuzilmasi bilan mos tarzda tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun ochiq va qulay; Tayyorlov yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar va ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan; O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida yuridik kuchga ega bo'lib, idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalariga joriy qilinadi.

Mazkur standartda quyidagi atamalar qo'llanilgan:

Kichik mutaxassis — bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasi.

Kichik mutaxassis:

— tegishli ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning unumli faoliyat ko'rsata olishini ta'minlaydigan nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan;

— mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs.

Malaka — xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning mavjudligi. Xodimning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, kategoriya yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat sohasi — kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalar nomlari bilan moslashtiriladi.

O'MKHT muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari — aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyati aniq sohasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlarining nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar

majmuasini, ikki va undan ortiq mutaxassisliklar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Ixtisoslik — birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar kodi — kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagich — tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashning tizimlashtirilgan ro'yxati.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat Tasniflagichi (klassifikator) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan talablar, Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlari asosida tuzilgan. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar Tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar kodi kasb faoliyati sohalariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ro'yxatining raqamli belgisini ifodalaydi.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohaları, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarni tasniflash quyidagi yettita raqamli sonlar bilan kodlanadi:


birinchi raqam — uzluksiz ta'lim tizimida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bosqichi (Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi asosida);

ikkinchi raqam — bilim sohaları kodi;

uchinchi va to'rtinchi raqamlar — tayyorlov yo'nalishlari kodi;

beshinch, oltinchi va yettinchi raqamlar — kasblarning tartib raqamini ifodalaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi qoidalarida:



Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqam bilan belgilangan. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash quyidagi sohalar bo'yicha amalga oshiriladi:

- 1) gumanitar soha;
- 2) ijtimoiy soha, iqtisod va huquq;
- 3) ishlab chiqarish va texnik soha;
- 4) qishloq va suv xo'jaligi;
- 5) sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot;
- 6) xizmatlar sohasi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari standartlari quyidagilarni aniqlaydi:

- qo'llanish sohasi;
- me'yoriy hujjatlarga havolalar;
- o'quv predmeti standartining maqsad va vazifalari;

— o‘quv predmetining umumiy xarakteristikasi;
— uzluksiz ta‘lim tizimida umumta‘lim fanlari mazmunining zaruriy va yetarli hajmi;

- umumiy va haftalik yuklamaning maksimal hajmi;
- standartning bajarilishini nazorat qilish.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda umumta‘lim fanlari bloki standarti yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi uchun umumta‘lim fanlari bilan birgalikda yoshlarni huquqiy, iqtisodiy, informatsion, estetik, ma‘naviy-axloqiy va jismoniy tarbiyalashga qaratilgan. Dasturlarning asosini milliy mustaqillik tamoyillari, demokratiya, xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullari tashkil etadi.

Kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi va ixtisosligi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish va oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirish yuridik huquqini beruvchi belgilangan namunada “kichik mutaxassis” diplomi beriladi.

Kasbiy tayyorgarlikning zarur va yetarli hajmi tizimi quyidagi holatlardan tashkil topgan:

1. O‘quv sikllari
2. Predmetlar tarmog‘i.
3. O‘quv elementlari va ularni o‘zlashtirish darajalari.

O‘MKHT Davlat ta‘lim standartlarida o‘quv elementlari va ularni o‘zlashtirishning 3 ta darajasi mavjud:

1-daraja — avval o‘rganilgan manbalar, xususiyatlar, jarayonlar bilan tanishish, yordamga tayangan holda amallarni bajarish;

2-daraja — namunaviy amallarni mustaqil ravishda yoddan bajarish;

3-daraja — avvaldan o‘rganilgan namunaviy amallar asosida bajarilishi lozim bo‘lgan yangi faoliyat algoritmini yarata olish, samarali faoliyat ko‘rsatish.

Tarmoq standartlari — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Standartlar — O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatlashtirish markazining me‘yoriy hujjatlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zdavstandart” tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

O‘MKHT DTS ning amal qilish muddati

Hozirgi kunda mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish texnologiyalarining keskin o'zgarishi, ilm-fanning intensiv o'zgarishlarini hisobga olib, mavjud standartlarni qayta ko'rib chiqish va yangilab turishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun standartlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish jarayonida standartlarga baho berishni va nazorat qilishni kuzatib borish zarur. Standartlarni baholash mezonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- O'quvchilar tomonidan mazkur standartga talab qancha?
- O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini baholashda, o'quv jarayonini tashkil etishda qanday muammolar mavjud?
- Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish istiqboli qanday?
- Egallagan kasb bo'yicha mehnat faoliyatiga o'tishda qanday qiyinchiliklar mavjud?
- Ish joyini o'zgartirish darajasi qanday?
- Mazkur standartning eskirish darajasi qanday?

Buning uchun ko'p yillar davomida bitiruvchilar faoliyatini va ish beruvchilar bilan aloqasini kuzatish zarur.

Standartning joriy etilishini nazorat qilish shaklini, sifatini ta'minlash tamoyillari, ya'ni bitiruvchilarga bo'lgan talablar qancha yuqori bo'lsa, ularning ish bilan ta'minlanish imkoniyati oshadi.

Tarmoq standartlarining ta'lim jarayonida amal qilish muddati 5–8 yil qilib belgilangan.

Umuman olganda standartning joriy etilishi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqaruv organi nazorati ostida o'quv muassasalari pedagogik jamoasi tomonidan amalga oshiriladi va bunda *o'qituvchi* asosiy rol o'ynaydi.

O'qituvchi: doimo o'qitish vositalarini takomillashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va o'z malakasini oshirish ustida ishlaydi. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning bunday shakllari tabiiy holda ta'limning natijasiga, ya'ni standartning qanday amalga oshirilishiga bog'liq.

O'quvchi: birinchidan, "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilariga qo'yilgan talablar"ni, malaka tavsifnomasi va kelgusidagi faoliyat doirasi bilan tanish bo'lishi; kasb-hunar kompetensiyasi, shaxsning ijtimoiy sifati belgilari, aniqlik, mas'uliyat, moslanuvchanlik, guruhda ishlay olish qobiliyati, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, og'zaki nutq va yozma suhbat darajasi, to'g'ri yechimni topa olish

xususiyati, axborotlarni topa olish, kompyuter bilan ishlay olish kabi va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

Ish beruvchi: bitiruvchining keyingi faoliyatida ish bilan ta'minlanish uchun uning kasb-hunar mahoratini aniqlashda muhim rol o'ynaydi; ta'lim jarayonida teng huquqli hamkor hisoblanib, ta'lim berish mazmunini aniqlash, o'quv jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etadi; muammolar muhokamasida va xulosalar qabul qilishda kollegial ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, ish beruvchining ta'lim standartlarini joriy qilishdagi rolini quyidagi ishlar orqali baholash mumkin:

- soha bosqichida yoki kollejlarning o'zida homiylik kengashlarini tuzish;

- ta'lim muassasasining nazariy va amaliy mashg'ulotlarida o'qituvchi, ustoz-murabbiylar sifatida faol ishtirok etish;

- ta'lim muassasasi bitiruvchilarining joriy va davlat attestatsiyasida hamda bitiruvchilarga diplomlarni taqdim etish jarayonida ishtirok etish.

Oila: o'quvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida ularning xohish va qiziqishini belgilab, ularning ta'lim jarayonida to'liq ishtirokini ta'minlashda mas'uliyatli bo'lishi; ta'lim standartlarining ochiqililigini va ko'rgazmaliligini e'tiborga olib, kasb-hunar tavsifnomasi, kelgusi kasbiy faoliyat to'g'risida yetarli axborotlarga ega bo'lish, zaruriyat bo'lganda mutaxassislar tayyorlash dasturlari va o'quv rejasi mazmunini bilishi zarur.

Oliy o'quv yurtlari: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi, shifokor-pedagoglarining zamonaviy texnologiyalar va yangi bilimlarga ega bo'lishi uchun malakalarini oshiradi; ta'lim berish mazmunini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi; o'quv, ilmiy-uslubiy bazalarni yaratishda ishtirok etadi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv muassasalari kafedralariga davlat ta'lim standartlarini joriy qilishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash ilmiy-uslubiy rahbarlik qilish va amaliy yordamlar berishni olib boradi.

Jamoatchilik: vasiy tashkilotlar, hududiy davlat organlari, tadbirkor-ishbilarmonlar, jamoatchilik tashkilotlari, fondlar va homiylik kengashi vakillari Davlat ta'lim standartlarini samarali joriy qilishda faol ishtirok etadilar; ishlab chiqarish talablariga mos mutaxassislarning shakllanishiga

imkoniyat yaratadi va nihoyat kadrlarning raqobatbardoshligi va sifatini baholaydi.

O'quv reja — davlat hujjati bo'lib, unda o'quv fanlarining miqdori va nomlari, ularni kurslar bo'yicha o'rganish izchilligi, barcha o'quv fanlarining, fakultativ mashg'ulotlarning haftasiga ajratilgan o'quv vaqtini soatlarda o'lchanadigan o'quv normalari ko'rsatilgan va davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan bo'ladi. Rejada har bir o'quv yilining necha hafta davom etishi, yil davomida o'quv fani necha soat o'qitilishi, amaliyotlar ketma-ketligi va nazorat turlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Ma'lum mutaxassislik bo'yicha o'quv rejaları davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqiladi. Davlat ta'lim standartlarida ma'lum mutaxassislik haqida ma'lumotlar jamlangan bo'lib, mutaxassislikning xalq xo'jaligidagi o'rni, rivojlanish istiqbollari, malakali mutaxassisning ish faoliyati, ish vositalari va qurollari, faoliyat turlari, natija, mehnat funksiyalari, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga talablar jamlangan bo'ladi.

O'quv fanlari majmui, turkumi, hajmi, o'zlashtirish ketma-ketligi, mamlakat kasb-hunar ta'limi rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi bir qancha tamoyillar asosida belgilab olinadi. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tizimlilik, umumiy va kasbiy ta'lim bog'liqligi, o'quv hujjatlarining unifikatsiyasi hamda integratsiyasi va boshqalar.

Tizimlilik tamoyiliga asosan, barcha o'quv rejalar predmet-sikli strukturaga ega. Ushbu tamoyilga asoslanish ilmiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish, ularning mantiqiy bog'liqligi, o'quv jarayoniga ketma-ket joriy etish imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quv rejasidagi o'quv fanlari ikki siklga ajratilgan: umumta'lim fanlari va kasbiy fanlar. O'quv rejaning umumta'lim fanlari siklidagi fanlar barcha o'quv rejaları uchun bir bo'lib, uning asosida ta'limning barcha bosqichlaridagi uzviylik tamoyili yotadi.

O'quv rejasining ilmiy-pedagogik asoslari quyidagilardan iborat:

- shaxsni har tomonlama uyg'un kamol toptirish;
- ta'lim mazmunining ilmiyligi, tizimliliği, tushunarliliği;
- o'quv fanlarining o'rgatilishi davomiyligi va izchilligi;
- ta'lim mazmunining amaliyot bilan bog'liqligi.

Kasbiy fanlar majmuini shakllantirish davlat ta'lim standartida belgilangan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablar asosida amalga oshadi. Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi davlat

ta'lim standartlarida ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Buning uchun kasbiy fanlar majmuida nazariy bilimlar va ishlab chiqarish ta'limini, o'quv amaliyotini ajratib olish zarur.

Kasbiy fanlar mazmuni fanlarning qonun va qonuniyatlari, nazariyalariga asoslanib tanlab olinadi, so'ngra tizimlashtirilib, o'quv fanlariga birlashtiriladi.

O'quv rejalarning bajarilishi qonuniy holatdir. Uni tuzishda fanlarni o'qitishning umumlashtirilgan tizimini ishlab chiqib, har bir fan komponentlari muvofiqlashtirilgan (kelishilgan holda) tarzda ma'lum tartibga keltirishga (fanlararo munosabat va h.k.lar); o'quvchilarning intilishi, qiziqishi, ulardagi jiddiy faoliyatni yuksaltirishga qaratilgan omillarni ishlab chiqish ko'zda tutilishiga e'tibor berish zarur.

O'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar ularni o'rganish tartibi, har bir o'quv faniga ajratilgan vaqt, maslahat va sinovlar barcha o'quv guruhlariga uchun majburiydir.

O'quv rejasi o'quv yurtining turi, maqsadi va vazifalarini, o'quvchilarning soni va o'qish muddatini belgilovchi davlat hujjatlari asosida ishlab chiqiladi.

O'quv rejasiga kirgan hujjatlarni malaka tavsifnomasi, mavzular rejasi va o'quv dasturlari tashkil etadi.

Malaka tavsifnomasi — ishchining bilimi hamda kasbiy saviyasiga qo'yiladigan asosiy talablar mujassamlangan normativ hujjatdir. Unda ishchi u yoki bu kasb faoliyati doirasidagi ishlarni ongli va to'g'ri bajarishi uchun egallashi zarur bilimlar ifodalanadi.

Malaka tavsifnomasida kasb va ixtisoslarning aniq nomlari, texnik va maxsus bilimlar, mehnat ko'nikma va malakalari, malaka oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ifodalanadi. Bu hujjatlar o'quv rejasi va dasturlarini tuzishda asos bo'ladi, shuningdek, bitirish imtihonlarida o'quvchilarning bilimlarini sifatli aniqlash uchun xizmat qiladi.

Mavzular rejasi — o'quv dasturining bir qismini tashkil etib, unda mavzularning tartibi va nomi, ularning o'tish uchun, shu jumladan, nazariy, laboratoriya amaliy mashg'ulotlari va ishlab chiqarish ta'limi uchun ajratilgan vaqtlar ko'rsatiladi.

Dars rejasi asosiy o'quv-rejalashtirish hujjatlaridan biri bo'lib, uni o'qituvchi o'quv dasturi va istiqbolli mavzular rejasi asosida tuzadi. Unda darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlari, o'qitish va tarbiyalash

masalalari ko'rsatiladi hamda darsning tarkibi va elementlari, har bir elementga ajratilgan vaqt, o'qituvchi tomonidan izohlanadigan o'quv materialining ketma-ketligi va mazmuni, mustaqil ishlarning xarakteri va mazmuni, uy topshirig'i va boshqalar ifodalanadi.

O'quv dasturlari fanning hajmini, uni o'qitishning mazmuni va tartibini belgilaydi. Yangi o'quv reja va dasturlarida materiallar o'quv yillari bo'yicha taqsimlangan, ikkinchi darajali materiallar chiqarib tashlangan, o'quvchilarni yangi texnika bo'yicha bilim va malakalar bilan qurollantirish, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarida o'qitish, yangi texnologik jarayonlar bilan tanishtirish ko'zda tutilgan. Asosiy e'tibor ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash ishlariga qaratilgan.

O'quv dasturi — davlat hujjati bo'lib, ma'lum fan mazmuni, bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, bo'lim va mavzularni o'rganish ketma-ketligini belgilab beradi.

Namunaviy o'quv dasturi o'quv rejasi asosida tuziladi. Fanning mazmuni namunaviy o'quv dasturida to'raligicha ochib beriladi. O'quv dasturi o'quv rejasi kabi bajarilishi shart bo'lgan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida mavzular nomi va ularning qisqacha mazmuni, har bir mavzuning o'ziga xos tavsifi tavsiflanadi; nazariy, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarning nisbati belgilanadi; asosiy va qo'shimcha adabiyotlarning ro'yxati ko'rsatiladi. Dasturni tuzishda fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi ham qaraladi.

Ishchi o'quv dasturi — namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqiladi. Ishchi dasturda fanning o'qitish muddati, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar hajmi, mazmuni, ularga ajratilgan vaqt, boshqa fanlar bilan aloqasi, fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalar, nazorat usullari va shakllari, ko'rgazmali qurollar va adabiyotlar yoritiladi.

Dasturda fanning mazmuni berilishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida qo'llanilishi tavsiya etiladigan shakl va usullar ham keltirilishi mumkin. Dasturda ko'rsatilgan mavzu mazmuni, o'zlashtirish ketma-ketligiga uslubiy kengash qaroriga asosan zarurat bo'lganda o'zgartirish kiritish mumkin. Bunda dasturda ko'zda tutilgan soatlar va bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi bajarilishi shart.

3.4. Umumkasbiy va maxsus fanlarni nazariy o‘qitish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning didaktik tizimi

Nazariy ta‘limning vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bitta maqsadga, ya‘ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta‘limi o‘quv muassasalaridagi o‘quv jarayonining mustaqil, ammo o‘zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Nazariy ta‘lim darslarining tashkiliy shakllarini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega. Bunda darsni o‘tish joyi va tartibi, o‘quvchilarning faoliyati hamda darsda ularni guruhlariga ajratish, dars davomida o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi aloqa mohiyati ko‘zda tutiladi. Darslarning tashkiliy shakllari kasb-hunar kollejining ta‘lim-tarbiyaviy vazifalari bilan belgilanadi hamda o‘qitish usullariga bog‘liq bo‘ladi.

Ta‘limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg‘ulotlarning soatlari ma‘lum nisbatda bo‘lishi lozim. Bunda o‘quvchilar o‘rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o‘zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

Shunday qilib, nazariy ta‘lim o‘quvchilarning umumiy bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘rganishlarini o‘z ichiga olib, ularda o‘rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqurroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Bilim — o‘quvchilarda pedagogik jarayon, mustaqil o‘qish, hayot va ishlab chiqarish tajribasi natijasida shakllanadigan, xotirasida saqlanib qoladigan fanlar hamda real voqelik hodisalari haqidagi, tabiat va jamiyat qonuniyatlari haqidagi tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalardir.

Umumkasbiy fanlar o‘z mazmuni va o‘quv jarayonidagi o‘rni jihatidan umumiy ta‘lim va maxsus turkumdagi fanlar o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi.

Maxsus fanlar — o‘quvchilarning muayyan kasbga doir apparatlar, asbob-uskunalar, materiallar va shu kabilarning tizimi haqida, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish haqida bilim olishini ta‘minlaydi.

Ishlab chiqarish ta‘limining asosiy vazifasi — kelgusida malakali mutaxassis bo‘lib yetishadigan o‘quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko‘rsatishga tayyorlashdan, ya‘ni bilimlarni amaliyotga

tatbiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Ko'nikma — o'rganilgan bilim va ma'lumotlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish, ya'ni o'quvchilarning mehnat jarayonidagi harakat (yoki harakatlar majmuasi)ni muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan foydalanishi va shu tufayli mehnatda ijobiy natijalarga erishishi, ongli va to'g'ri bajarishga tayyor (qobiliyatli) bo'lishidir.

Malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda o'z-o'zidan bajarish qobiliyatini ifodalaydi va bu narsa o'quvchilarda ko'p marta takrorlash — mashqlar natijasida yuzaga keladi.

Kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati, kasbiy tajribadir.

Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlar ta'lim turlarini tavsiflash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish ta'limi — malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib unga umumiy o'quv vaqtining katta qismi ajratiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi darsining tuzilishi uchta asosiy elementni: kirish instruktaj, o'quvchilarning mashqi (mustaqil ishi) hamda ularga ustozning joriy instruktaj berishi, yakunlovchi instruktajni o'z ichiga oladi.

Kirish instruktajining asosiy vazifasi — bo'lajak o'quv ishlab chiqarish jarayonining maqsadlari, uning shart-sharoitlari, bajarish vositalari, usullari va xususiyatlari, shuningdek, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari haqida to'la va keng tasavvur berishdan iborat. Ustozning o'quvchilarga joriy instruktaj berishining asosiy vazifasi — o'quv ishlab chiqarish ishlari bajarilayotganida ularning faoliyatiga rahbarlik qilish, o'quvchilarning erishgan muvaffaqiyatlarini nazorat hamda tahlil qilish, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish va baholashdan iborat. Yakunlovchi instruktajdan maqsad — darsga yakun yasashdir.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy muammolari.

Kasb-hunar ta'limida ishlab chiqarish ta'limi ishlab chiqarish va o'qitish muammolari bilan chambarchas bog'langan.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy muammolaridan biri —uning mazmunini ishlab chiqish hisoblanadi.

· Ishlab chiqarish ta'limida nazariy va amaliy bilim berish mazmunini qayta ko'rish.

· Ishlab chiqarish ta'lim tizimi bo'lib, u mazmun, o'qitish usullari va o'qitish jarayonini birgalikda hal etishni taqozo etadi.

Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'z dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi bilan farqlanadi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (laboratoriya, o'quv bazalari, korxonalarda ishlash va o'qitish usullari va b.) bilan amalga oshiriladi.

Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari asosida bir-biriga o'xshashlik bo'lsada (ko'p hollarda bir xil didaktik prinsiplar, metodik usullar qo'llaniladi), kasbiy ta'lim nazariy va amaliy o'qitish jihatlarini bilan tubdan ajraladi. Chunki, bunda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi.

3.5. Kasbiy ta'limda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil qilish hamda o'tkazish

Talabalarning malakaviy pedagogik amaliyoti bakalavriat yo'nalishlari fanlarining nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan, o'qish jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkaziladigan qismidir.

Malakaviy pedagogik amaliyot — ta'lim turlari uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir. Amaliyotchi-talabalar malakaviy pedagogik amaliyot davrida o'quv-tarbiya jarayonining barcha tomonlarini tahlil qiladi va bu malakaviy pedagogik amaliyot kasb-hunar kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi-talaba amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasida shart-sharoit va ichki tartib qoidalariga moslashish, pedagogik jamoa bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va OTMni tamomlagandan keyin ish bilan ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Qabul qiluvchi ta'lim muassasasi — davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda o'quv ishlab chiqarish majmua (birlashma)lari bo'lib, OTM amaliyotchi-talabalar malakaviy pedagogik amaliyotni o'tashi uchun belgilangan qabul qiluvchi muassasa bilan o'rnatilgan tartibda uch tomonlama shartnoma tuzilgan, amaliyot reja-jadvali va dasturlarining

bajarilishini ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi.

Qabul qiluvchi muassasadan amaliyot rahbari – amaliyotchi-talabalarga malakaviy pedagogik amaliyot davomida ularni muassasa ichki tartib qoidalari bilan tanishtiruvchi, kasbiy, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi, malakaviy pedagogik amaliyot davrida talabning kasbiy layoqatini baholash mas'uliyati yuklangan qabul qiluvchi muassasa (muassasa rahbari tomonidan tayinlangan xodim) rahbari.

Amaliyotchi talaba – bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malakaviy pedagogik amaliyot o'tashi uchun buyruq rasmiylashtirilgan talaba.

Malakaviy amaliyotning maqsadi, muddati va mazmuni Davlat ta'lim standartlarida (DTS), o'quv rejaları va amaliyot dasturlarida belgilanadi hamda DTSda ko'zda tutilgan turli shakllarda tashkil qilinadi.

Talabalar o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fanlardan universitet auditoriyalarida olgan nazariy bilimlarini ishlab chiqarish korxonalarida hisoblangan tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi amaliy holat bilan bog'lab o'rganishlari va uni chuqurlashtirishlari malakaviy amaliyotning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotni o'tish davrida talabalar quyidagi talablarga amal qilishlari talab qilinadi:

1. Mutaxassislik fanlari bo'yicha olgan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va ularni malakaviy amaliyot davrida mustahkamlash.

2. Amaliyot obyektining boshqaruv tuzilishini o'rganish.

3. Tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari va mutaxassislarining xizmat vazifalarini o'rganish.

4. Mutaxassislik yo'nalishida tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan fanlardan dars o'tishning pedagogik amaliyotini o'rganish.

5. Tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalari va uning bo'limlari, kichik mutaxassislik yo'nalishlari faoliyatini to'la o'rganish.

6. Tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalari va uning bo'limlari, kichik mutaxassislik yo'nalishlari faoliyatini tahlil qilish.

Talabalarining malakaviy amaliyoti oliy ta'lim muassasasining tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalarining tashkilot, firma, qo'shma korxonalar va boshqalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil qilinadi.

Shartnomalar asosida talabalar amaliyot o'tish uchun tegishli obyektlarga yuboriladilar.

Amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish uchun javobgarlik fakultet dekani, kafedra mudiri zimmasiga yuklanadi hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan nazorat qilinadi.

Amaliyot obyektlari ayrim talabalar yoki talabalarning katta guruhlarini amaliyot o'tashini hisobga olib tanlanadi.

Mutaxassislik kafedrasini mudiri har yili 1-dekabrda kechikmagan holda navbatdagi kalendar yili uchun amaliyot obyektlari bilan shartnomalar tuzadi. Amaliyot boshlanishidan ikki oy oldin talabalar amaliyotini o'tkazish dasturi va kalendar jadvalini amaliyot obyektlari bilan kelishib oladi. Amaliyot rahbarlari kafedraning tajribali professor, dotsent va o'qituvchilaridan tayinlanadi. Fan, texnika va madaniyatning eng yangi yutuqlari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan uslubiy ishlanmani ishlab chiqish, uni amaliyotda qo'llash va shunga o'xshash masalalar bo'yicha amaliyot obyektlari ma'muriyati bilan birgalikda mutaxassislarning ma'ruzalari tashkil etiladi. Talabalar amaliyotini tashkil etish tartibi va o'tkazilishi hamda amaliyot muddati va mazmuniga talabalarni rioya qilishlari nazoratga olinadi.

Talabalar amaliyotining umumiy rahbarligi amaliyot obyekti rahbarining buyrug'i bilan korxonaga yoki muassasaning mas'ul xodimlaridan biriga yuklatiladi.

Tibbiyot kasb-hunar ta'limi muassasalari kafedralari, bo'lim, laboratoriya kabilarda esa talabalar amaliyotining bevosita rahbarligi amaliyot obyekti boshlig'ining buyrug'i bilan ko'rsatilgan tarkibiy bo'limning yuqori malakali mutaxassisi, uslubchisi zimmasiga yuklanadi.

Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyot obyektlari rahbariyati:

– talabalar amaliyotini amaliyot dasturi va Nizomga muvofiq tashkil qiladi va o'tkazadi;

– dasturga muvofiq talabalar amaliyotining samaradorligini ta'minlash maqsadida ularni ish joylari bilan ta'minlaydi;

– talabalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'sh ish joylari mavjud bo'lgan holda amaliyotchilarni tegishli ish haqi bilan lavozimlarga qabul qilishi mumkin;

– amaliyotni o'tashda oliy ta'lim muassasasining grafigi asosida, kelishilgan oy-kunlik ish jadvaliga amal qiladi;

– talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi;

– kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlashda yordam ko'rsatadi;

– hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha majburiy ko‘rsatmalar beradi, zarur bo‘lgan hollarda talabalarni mehnatning xavfsiz usullariga o‘rgatadi va bu haqida hujjatlar rasmiylashtiriladi;

– amaliyotchi talabalarning mazkur amaliyot ob‘ektida joriy qilingan ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilishlarini ta‘minlaydi va nazorat qiladi;

– yaqin atrofda joylashgan boshqa xo‘jalik sub‘ektlari, muassasa, tashkilotlarga birgalikda tashriflar o‘tkazadi;

– zarur bo‘lgan hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot ob‘ekti rahbarining buyrug‘i bilan jazo choralari ko‘radi va bu haqda filial direktoriga xabar qiladi;

– amaliyot o‘tayotgan talabalar baxtsiz xodisaga uchragan holda to‘la javobgarlikni oladi.

Talaba malakaviy amaliyot o‘tishda:

– amaliyot dasturida ko‘zda tutilgan topshiriqlarni to‘liq bajarishi;

– amaliyot ob‘ektining ichki mehnat tartib qoidalariga bo‘ysinishi;

– mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o‘rganishi va qat‘iy rioya qilishi;

– bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu ta‘lim muassasalari pedagoglari qatori javobgarlikni olishi;

– kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

– amaliyot rahbariga barcha topshiriqlarni bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo‘yicha sinov topshirishi shart.

Talaba malakaviy amaliyotga borgan kundan boshlab korxonada va tashkilotning ichki tartib qoidalariga to‘la bo‘ysunadi, ularning barcha talablarini bajaradi va jamoat ishlarida faol qatnashadi.

Malakaviy amaliyot davrida talaba tibbiyot kasb-hunar ta‘limi muassasalarining kafedralarida va boshqa bo‘linmalarida ishlaydi hamda u joyda ishlaydigan pedagog-o‘qituvchi funksiyasini bajaradi. Talaba malakaviy amaliyot davrida tibbiyot kasb-hunar ta‘limi muassasalari guruh rahbarining, mutaxassisligi bo‘yicha fan o‘qituvchisining, bo‘lim rahbarlarining faoliyatini to‘la o‘rganadi va hisobotlar tuzishda qatnashadi.

Malakaviy amaliyot davrida talaba tibbiyot kasb-hunar ta‘limi muassasalarining barcha yig‘ilish va tadbirlarida o‘zi qatnashadi va bo‘lajak o‘qituvchi sifatida u quyidagilarga majbur:

– tibbiyot kasb-hunar ta’limi muassasalarida tashkil etiladigan seminarlarda, tadbirlarni tashkil etishda qatnashish va ularni mustaqil ravishda olib borishga o’rganish;

– mutaxassislik fanlaridan amaliy, ma’ruza, laboratoriya darslarini olib borishi va suhbat, muzokarlarda qatnashish;

– reja asosidagi ishlarni amalga oshirishi, hisobot tayyorlashi va h.k.

Talabalarning malakaviy amaliyoti asosan biror ta’lim muassasasining tashkiliy tuzilmasini mukammal o’rganib chiqishga qaratiladi. Jumladan: tibbiyot kasb-hunar ta’limi muassasalarining boshqaruv tuzilmasi, o’quv bo’limining ishlari, yo’nalishlarning o’quv rejasi, o’qitiladigan fanlari, o’quv-uslubiy ishlar (darsliklar, o’quv qo’llanmalari, elektron o’quv qo’llanmalari, ularning bo’limlari, qo’llanilishi, ahamiyati) bilan tanishish. Fanlarning o’quv va ishchi dasturlari bilan tanishish. Mutaxassislikka mos fanlardan ishchi dasturlarni tuzishni o’rganish. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar (turli tadbirlarning rejalari, ularning o’tkazilish bosqichlari, tadbirga ishtirokchilarni taklif qilish va hokazo) bilan tanishish, guruh rahbarining ish rejasi bilan tanishish, uning ish rejasini tuzishni o’rganish.

Shifokor-pedagog talaba pedagogik amaliyotga chiqquniga qadar quyidagi bilim va malakalarga ega bo’lishi lozim:

– fanning kalendar reja va dars ishlanmasini tuza olishi;

– darsga tayyorlanishda turli adabiyotlardan foydalana bilishi;

– darslarni tahlil qila olishi;

– mavzuni tushuntirishda turli usullardan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishni bilishi;

– zamonaviy interaktiv doska (IPboard, Activboard va boshqa)lardan foydalanishni bilishi;

– nutqning aniqligi, tibbiyotga oid terminlarni to’g’ri talaffuz etishi, nutqni tezligi hamda to’g’riligini boshqara olishi;

– umumkasbiy va maxsus fanlarga oid ilmiy va ommabop ma’ruzalar tayyorlab, chiqishlar qilishi.

– kolleжда mutaxassisligi bo’yicha guruhdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishi, turli tadbirlar, konkurslar, olimpiada, viktorinalarni o’tkaza olishi va h.k.

Amaliyot davomida talaba tibbiyot kasb-hunar kolleji umumkasbiy va maxsus fanlari o’qituvchisining ishi murakkab va sharafligi ekanligini ko’radi, ishda ro’y beradigan qiyinchiliklarni bartaraf etish usullarini o’rganadi. Amaliyotchi talabada pedagogik va kasbiy sifatlar shakllanib

boradi. Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining darsda qo'llaydigan pedagogik texnologiyalarni o'rganishi bilan, o'zi oldindan bilgan pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaliyotchi talaba pedagogika va kasbiy pedagogika, psixologiya va kasbiy psixologiya, kasbiy ta'lim metodikasi, ta'lim texnologiyalari fanlariga oid bilimlarni eslaydi, ularni hayotiy tajriba yangiliklari bilan boyitadi.

Pedagogik amaliyot davrida talabalar quyidagilarni amalga oshiradilar:

- kasb-hunar kollejida har kuni qat'iy reja asosida ishlash, shundan kamida 2 soat dars kuzatish, tahlil etish;
- umumta'lim va maxsus fanlar bo'yicha darslarni hamda darsdan tashqari tadbirlar rejasini tuzish;
- umumta'lim va maxsus fanlar mavzulariga oid asbob va moslamalarni, ko'rgazmali qurollar, o'quv filmi, texnik vositalar mavjudligini aniqlash, ularni ishga yaroqliligini tekshirish, yetarli bo'lmasa, mavzuga oid ko'rgazmalar, slydlar tayyorlash;
- o'qitadigan mavzularning dars ishlanmalarini tuzish, kerak bo'lganda kasb-hunar kolleji umumta'lim va maxsus fanlar o'qituvchisidan yoki amaliyot rahbaridan tegishli metodik maslahatlar olish;
- birlashtirilgan guruh rahbari va guruh jurnali bilan tanishish, ulgurmayotgan talabalar bilan ishlash tadbirlarini ishlab chiqish;
- uslubiyotchi umumta'lim va maxsus fanlar o'qituvchisi bilan birga boshqa shu yo'nalish bo'yicha o'qituvchilarining darslarini kuzatish, muhokamasida ishtirok etish;
- amaliyot rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish tadbirlarini belgilash va rejasini tuzish;
- birlashtirilgan guruh talabalari bilan tanishish, amaliyot rahbari bilan kelishib ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar yoki devoriy gazetalar tayyorlashni bilish;
- amaliyot vaqtida ko'rgazmali qurollar, texnik vositalardan foydalanishni o'rganish, mavzuga oid sayohatlar tashkil etish;
- darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirni amalga oshirish, turli tadbirlarga faol qatnashishi;
- kasb-hunar kolleji reyting Nizomiga asosan o'quvchilarni baholab borish;
- kasb-hunar kolleji jamoasi oldida o'z-o'zini boshqara olishi,

biriktirilgan guruhdan kamida 1–2 talabani kuzatib, unga psixologik tavsifnoma yozishi, tanlagan mavzusi bo‘yicha referat yozish kabilar.

Amaliyotchi talabalarning pedagogik amaliyot davrida kundalik daftarida:

- amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasi;
- dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar tahlili;
- biriktirilgan talabalar guruhi ro‘yxati, psixolog-pedagogik tavsifnoma uchun zarur ma‘lumotlar;

– o‘tkazilgan barcha tadbirlar va ishchi rejalar yozib boriladi. Kundalik daftar amaliyotchi talaba bilan doimo birga bo‘lishi talab qilinadi. Pedagogik amaliyot tugaganidan so‘ng amaliyotchi talaba pedagogik amaliyot davrida bajargan ishlari to‘g‘risida kafedraga hisobot topshiradi.

Pedagogik amaliyotchi talabaning hisobotida quyidagilar yoritilishi zarur:

- kollej tarixi va kasb-hunar kolleji jamoasi to‘g‘risida ma‘lumot;
- kasb-hunar kollejida olib borilgan o‘quv-tarbiyaviy ishlar, ishlab chiqarish ta‘limi va maxsus fanlar bo‘yicha o‘tilgan dars soatlari, mavzusi, dars konspektlari;
- darsdan tashqari o‘tkazilgan tadbirlar va ularning rejasi;
- o‘tkazilgan reyting darsi va o‘quvchilarga qo‘yilgan reyting ballar to‘g‘risida ma‘lumot;
- pedagogik amaliyot to‘g‘risida amaliyotchi talabaning xulosasi.

Hisobot kollej amaliyot rahbari tomonidan imzo qo‘yib, muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Amaliyotchi talabalar pedagogik amaliyot davrida bajargan ishlari bo‘yicha hisobotlarni asosan kasb-hunar kolleji va institut tomonidan tayinlangan amaliyot rahbarlari ishtirokida himoya qiladilar.

Pedagogik amaliyot yakunida amaliyotchi talabalarning reyting ballarini hisoblashda:

- amaliyotchining kundalik daftari sifati;
- o‘qitilgan mavzularning samaradorligi, mavzular bo‘yicha test savollarining to‘g‘ri tuzilganligi;
- pedagogik amaliyot davomida amaliyotchining zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan o‘rinli hamda mustaqil foydalana olishi
- amaliyotchi talabaning bajargan ishlari bo‘yicha hisobotning to‘la-to‘kisligi hisobga olinadi.

Kafedra tomonidan tayinlangan amaliyot rahbari talabalar kelishiga zaruriy tayyorgarlikni tashkil etish uchun amaliyot obyektlariga amaliyot boshlanishidan oldin boradi, amaliyotni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy tadbirlar (shartnoma, amaliyotga yuborish buyrug'i, amaliyotni o'tkazish jadvali, tartiblari, xavfsizlikka rioya etish qoidalari haqida ko'rsatmalar berish va h.k.) o'tkazilishini ta'minlaydi, talabalarning kafedra topshiriqlarida ko'zda tutilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi, amaliyot obyektlarida talabalarning mehnat va maishiy xizmat sharoitlari me'yordagidek ta'minlanganligini, talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi, amaliyot yakunlari bo'yicha talabalar ilmiy anjumanlarida va amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi, talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, ularning amaliyot o'tish davridagi bajargan ishlari haqida tavsiyanoma beradi. Talabalar o'tagan amaliyot natijalari hisobotini, amaliyotni tashkil qilishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, amaliyotni takomillashtirish haqida takliflar kiritilgan yozma hisobotni kafedra mudiriga taqdim etadi. Amaliyotni tashkil etishda uchragan barcha muammolarni amaliyot obyekti rahbariyati tomonidan birlashtirilgan rahbar bilan birgalikda hal etadi.

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga institutdan tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobotda talabaning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot obyekti bo'limlarining qisqacha izohi (fakultet, bo'lim, laboratoriya va b.), ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining xavfsizligi to'g'risidagi masalalar va xo'jalik subyektlarining faoliyati ko'rsatkichlari o'z aksini topishi lozim.

Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini institut tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi.

Komissiya tarkibiga o'tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o'qituvchi, oliy ta'lim muassasasi tomonidan birlashtirilgan rahbar va imkoni bo'lsa, amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Malakaviy amaliyotning mazmuni uning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, yuqori malakali mutaxassis, ya'ni kichik mutaxassislarga tibbiyot yo'nalishida dars beradigan o'qituvchilar bo'lib yetishishiga ko'maklashishdan iboratdir. Chunki talaba malakaviy amaliyot davrida institut auditoriyalarida egallagan nazariy bilimlarini amaliy ish bilan to'ldirib, mustahkamlab mustaqil ishlashga o'rganadi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Kasbiy ta'limning didaktik tamoyillari majmuasiga nimalar kiradi?
2. Kasbiy ta'limning didaktik tamoyillariga misol keltiring.
3. Ta'lim bo'yicha Xalqaro komissiya ma'ruzasida ta'limning qanday asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan?
4. Ta'limning yangi mazmuniga qanday mezonlar kiradi?
5. Kasb ta'limini rivojlantirishning qanday vazifalari mavjud?
6. Kasbiy ta'lim mazmuni deganda nimani tushunasiz?
7. Davlat ta'lim standartlari qanday vazifani bajaradi?
8. Kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi qanday tuzilishga ega?
9. O'quv rejasi, malaka tavsifnomasi, o'quv dasturlari qanday hujjatlar, ular qanday kuch va asosga ega?
10. Kompetensiya nima?
11. Kasb ta'limida malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish xususiyatlarini so'zlang.
12. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishga qanday talablar qo'yiladi?

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, malaka tavsifnomasi va o'quv dasturlari bilan tanishib chiqing.
2. DTSdan kasbiy malaka va ko'nikmalarga bo'lgan talablarni yozib oling.
3. Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.

IV BOB.

O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATI VA PEDAGOGIK MAHORATI

Bobning qisqacha mazmuni: o‘qituvchining faoliyat uslubi, usullari va shakllari, kasbga yo‘naltirish faoliyati, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik mahoratni oshirish manbalari va shart-sharoitlari, o‘qituvchining professional bilimdonligi: ilmiy, pedagogik, psixologik, uslubiy tayyorgarligi, talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda o‘qituvchining mahorati.

Tayanch iboralar: kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, kasbiy faoliyat turlari, kasbiy faoliyat uslublari, pedagogik mahorat, kasbiy bilimdonlik, pedagogik tajriba, professiogramma, pedagogning kasbiy potentsiali, ideal pedagog sifatlari, qayta tayyorlash, malaka oshirish, pedagog portfoliosi.

4.1. O‘qituvchining kasbiy faoliyati turlari va uslublari

Mamlakat istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash faoliyatiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. O‘qituvchilik kasbining yosh avlodni shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatiga mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday fikrni aytib o‘tgan: “Baxt-saodatga erishuv va tug‘ma qobiliyatlarning rivojlanishi o‘z-o‘zicha bo‘lavermaydi, balki bu masalada qandaydir muallim yoki rahbarga muhtojlik seziladi”.

Har bir pedagog, albatta, unga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar asosida pedagogik kasbning xususiyatlari, vazifalari, burch va mas‘uliyatlarini yuqori darajada anglagan holda, uzluksiz ilmiy va o‘quv-uslubiy izlanishlar natijasida ixtisoslik fanlarini to‘lato‘kis egallashi, ta‘lim oluvchilar shaxsini, ongi va fikrlashini rivojlantirishning turli usul va uslublardan foydalanishi orqaligina bu kasbning professional mutaxassisiga aylanishini mumkin.

Pedagog ixtisosligini tanlagan har bir inson o‘zining kasbiy tayyorgarligiga javob berishi bilan birga pedagog, o‘qituvchi, tarbiyachi, ustoz-murabbiylik mavqeiga ega bo‘lishi uchun juda ko‘p

majburiyatlarni olishi zarur. Pedagoglik kasbining sharafliligi uning o'zi tanlagan kasb-hunar yo'nalishidagi mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlar va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlar, psixologiya va pedagogika fanlari asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi, ta'lim oluvchilarga har tomonlama samarali ta'sir ko'rsata olishidadir. Bo'lajak o'qituvchi kelajakdagi pedagogik faoliyati uchun o'z imkoniyatlarini baholashi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida va pedagogik jarayonda qanday kasbiy sifatlarni shakllantirishi kerakligini anglashi zarur. Bu talabalardan doimo tashkilotchilik, kommunikativlik xususiyatlarini, pedagogik-psixologik bilimlarini rivojlantirib borishlarini va ulardan pedagogik amaliyotlarda samarali foydalanishga intilishlarini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega", – deb ta'kidlanadi. Haqiqatan ham tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, kasb tayyorgarligi bor, yuksak axloqiy fazilat sohibi bo'lgan inson pedagogik faoliyat bilan shug'ullana oladi. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiyning "Tarbiyachilik san'ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi. Odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma insonlar tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof etishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat bilan ko'nikma, malaka kerak deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi", – deb ta'rif berishi o'qituvchi faoliyatining mashaqqatli ekanligini anglatadi.

Pedagogik faoliyat jamiyatdagi funksiyalari, kasbiy sifatlari va xususiyatlariga ko'ra, psixologik jihatlari bo'yicha inson-inson tipiga oid kasblar faoliyati – psixolog, jurnalist, yurist, aktyor, rejissor, olim, rahbar, murabbiy-trenerlar faoliyatiga yaqin. Pedagog mehnatining xususiyatlari ijtimoiy-biologik mavjudot – insonni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, kelajak hayot va mehnatga tayyorlash uchun mo'ljallangan. Uning predmeti – inson, obykti – inson, mehnat quroli – inson, mehnat mahsuli ham – inson, ya'ni pedagogik faoliyatning maqsadi, o'qitish va tarbiyalash uslublari inson omillariga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu sababli ham pedagogik faoliyat ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyatini psixologik-pedagogik jihatdan tadqiq etishda e'tirof etiladiki, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati samaradorligiga pedagogning shaxsiy fazilatlari va uning kasbiy tayyorgarligi juda katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining ilmiy jihatdan bilimdonligi, uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlari ta'lim oluvchilarga tarbiya berish, ularda ongli tarzda faollikni, ijodkorlikni hamda mustaqil ravishda bilishga bo'lgan intilish faolligini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tarbiyachi sifatida o'qituvchi shaxsining roli hamda uning shaxsiga xos fazilatlarning ta'lim oluvchilarga ko'rsatadigan ta'siri masalasi hozirgi kunda dolzarbdir. O'qituvchining dunyoqarashi – undagi pedagogik madaniyatning hamda tarbiyachi sifatidagi mahoratning muhim komponenti hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi bugungi kunda ta'lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi kunning eng dolzarb va keskin muammolari yuzasidan bahs-munozaralar o'tkaza olish, mustaqil mushohada yurita olish, to'g'ri xulosa chiqara olishni rivojlantirish mahoratini egallab olishi g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi faoliyati, uning boshqa sohalardagi bilimlardan xabardor bo'lishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy voqea-hodisalarni to'g'ri idrok qila olishi va ularga to'g'ri baho bera bilishi, ijtimoiy faol pozitsiyada bo'lishi, guruh jamoasi va har bir ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini o'rgana olishi, ularning xulq-atvori va xatti-harakatlariga xolis baho bera olish mahorati katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining nufuzi uning o'qitish faoliyati, jamoa o'rtasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan muloqoti – o'z axloqiy idealiga muvofiq xatti-harakatlari bilan belgilanadi. U o'z ta'lim oluvchilarida o'qish, rivojlanish uchun yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyatni his qilish odatini shakllantirishi, ularning intellektual kamolotga erishib, ma'naviy jihatdan yetuk inson bo'lib tarbiyalanishiga erishishi kerak.

Kasbiy ta'lim pedagogining faoliyati turlari:

- o'qitish, kasbga yo'naltirish faoliyati;
- o'quv-uslubiy faoliyat;
- tashkiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati;
- ma'naviy va axloqiy-tarbiyaviy faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati (tibbiy-davolash ishi).

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda mavjud ilmiy tadqiqotlar asosida ta'lim oluvchilar ishiga rahbarlik qilish faoliyatida uchraydigan quyidagi besh xil ish uslubi ajratib ko'rsatiladi: avtokrat (o'z hukmini o'tkazish); avtoritar (ma'muriy); demokratik (hamkorlik, ta'lim oluvchilar mustaqilligini rag'batlantirib borish); rad etish (ta'lim oluvchilarning faoliyatiga rahbarlik qilishdan, o'z vazifalarini bajarishdan amalda chetlashish); noizchil (ta'lim oluvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar tizimi, o'quv faoliyatini ayni vaziyatga, voqea-hodisalarga ko'ra tashkil etish) usullari shular jumlasidandir. Har bir usulning psixologik-pedagogik xususiyatlarini, ularning ta'lim oluvchilar xulq-atvori va xatti-harakatlariga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish zarur.

Real hayotda va pedagogik faoliyatda o'qituvchining rahbarlik qilish usuli turli subyektiv va obyektiv omillarning ta'siri ostida shakllanib boradi. Bunday omillar – pedagogik faoliyatning bir subyektivi sifatida o'qituvchining yuksak darajadagi pedagogik madaniyati qaror topishi uchun zarur shartlardandir. Ta'lim oluvchilar jamoasidagi psixologik muhit va kommunikativ madaniyat o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan qiladigan muloqot uslubi va uning pedagogik taktiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik faoliyat individual emas, balki o'zaro faoliyatdir, shuning uchun ikki tomon ham faol bo'lishi shart. Pedagogik faoliyatning asosiy va yakuniy natijasi – ta'lim oluvchi shaxsini, uning qobiliyatini va layoqatlarini rivojlantirishdan iborat. O'qituvchining vazifasi o'qitish, o'rgatish va tarbiyalash emas, balki o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarini boshqarishdir, ya'ni o'rganishga yo'naltirish, rivojlanishga yordam berish, tashabbuskorlik va faollikni rag'batlantirishdir. Bu yondoshuv Suqrot usulidan kelib chiqqan bo'lib, uning mohiyati shundaki, ta'lim oluvchilarga tayyor bilim, ma'lumot, haqiqatni e'lon qilish emas, balki ta'lim oluvchining o'zida yangi fikr va g'oya uyg'onishiga yo'naltirishdan, yordam berishdan iborat. Suqrot pedagoglarni "Fikrlar doyasi" deb atagan edi. Kuchli pedagog o'quv jarayonini shunday tashkil qiladiki, eng qiyin sharoit va murakkab vaziyatlarda ham talabalarning rivojlanishiga erishadi. Haqiqiy o'qituvchi har bir talabaning ruhiyatini biladi, uning ongiga yo'l topa oladi, unda yangi fikrlar uyg'otib, faollashtiradi.

Pedagog faoliyatining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik vaziyatlarni o'rganish va o'zlashtirish.
2. Pedagogik maqsad va vazifalarni aniqlash.

3. O‘quv materiali mazmuni ustida ishlash.
4. Axborot va manbalarni pedagogik tahlil qilish.
5. Talabalarda o‘quv hamda ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.
6. Talabalarning ruhiy funksiyalari va holatlarini o‘rganish
7. Talabalarning o‘qish motivatsiyalarini rivojlantirish.
8. Ta’lim-tarbiya usullari va shakllaridan foydalanishni bilish.
9. O‘z pedagogik faoliyatini rivojlantirish rejasini yaratish.
10. Muloqotda psixologik xavfsizlik sharoitlarini yaratish.

Pedagoglar kasbiy faoliyatining individual uslubini farqlash asosida muayyan mezonlar belgilanadi. Birinchidan, usulning mazmuni xususiyati (pedagog asosan o‘zining mehnatida jarayonga yoki natijaga yo‘nalgan, o‘z faoliyatida ularni yo‘naltirilganlik va nazorat-baholash bosqichlaridan ajratgan). Ikkinchidan, uslubning dinamik xususiyatligi (qayishqoqlik, barqarorlik, o‘zgaruvchanlik va boshqalar). Uchinchidan, natijaviylik (ta’lim oluvchilarning o‘quv ko‘nikmalari va bilim darajasi, shuningdek, o‘rganilayotgan fanga nisbatan o‘quvchilarning qiziqishi). Pedagogik faoliyatning individual uslubi ajratilgan turlari ushbu mezonlarni birga kelishiga qarab, qator o‘ziga xosliklar bilan xususiyatlanadi.

1. Hissiy-improvizatsion uslub (HIU). HIUda pedagoglar asosan o‘qitish jarayoniga yo‘nalganligi bilan farqlanadi. Yangi materiallarni tushuntirishni bunday o‘qituvchilar qiziqarli, mantiqan tuzadi, biroq tushuntirish jarayonida ko‘p hollarda o‘quvchilar bilan qaytuvchan aloqa bo‘lmaydi. HIU o‘qituvchilari so‘rash vaqtida ko‘p sonli o‘quvchilarga, asosan kuchlilarga va uni qiziqtirganlarga murojaat qiladi. Ularni jadal sur‘atda savol-javob qiladi, norasmiy savollar beradi, biroq ularni gapirishga qo‘ymaydi, javoblarni qayta ishlab, mustaqil shakllantirguncha kutib turmaydi. Bunday pedagoglarga o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish yetishmasligi xususiyati xos. Darsda ishlash uchun ko‘proq qiziqarli materiallarni tanlab oladi; qiziqarsiz, biroq muhim ma’lumotlarni o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishlari uchun qoldiradi. HIU o‘qituvchilar pedagogik faoliyatida o‘quv materiallarini takrorlash va mustahkamlash, o‘quvchilar bilimini nazorat qilish yetarlicha ta’minlanmaydi. Shu bilan birga HIU o‘qituvchilar yuqori tezkorlik, turli xil o‘qitish usullaridan foydalanishi bilan farq qiladi. U ko‘pincha jamoaviy muhokamalarni olib boradi, o‘quvchilarning tezkor javob berishini faollashtiradi. Bu o‘qituvchining

ko'pincha darsda o'zining faoliyati natijalarini va o'ziga xosliklarini tahlil qilishni bilmasligi va tushunmasligida namoyon bo'ladi.

2. Hissiy-metodik uslub (HMU). HMU pedagoglari uchun o'qitish jarayoni va natijalarga yo'nalganlik xos, ular ta'lim-tarbiya jarayonini adekvat rejalashtiradi, yuqori tezkorlik, biroz intuitivlik va refleksivlikning ustunligi xos. Bunday pedagoglar jarayonga, shuningdek, ta'lim natijasiga yondoshib, barcha o'quv materiallarini bosqichma-bosqich ko'rib chiqadi, o'quvchilarning bilim darajasini diqqat bilan kuzatadi. Uning faoliyatida o'quv materiallarini doimiy takrorlash va mustahkamlash, o'quvchilar bilimini nazorat qilish aks etadi. Bunday pedagoglar yuqori tezkorlik bilan farq qiladi, u darsda ish turini ko'p o'zgartiradi, jamoaviy muhokamalarni qo'llaydi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda boy metodik usullarni qo'llaydi. HIU pedagoglari ham, HMI pedagoglari ham oxirgilardan farqli o'laroq bolalarni o'yin-kulgu bilan emas, balki fanning qiziqarli tomonlari bilan faollashtirishga harakat qiladi.

3. Mulohaza-improvizatsion uslub (MIU). MIU pedagoglari uchun ta'lim jarayoni va natijalariga yo'nalganlik, ta'lim-tarbiya jarayonini adekvat rejalashtirish bilan tavsiflanadi. MIU pedagoglari hissiy pedagoglarga qaraganda o'qitish usullarini tanlashda yaratuvchanlikni kamroq namoyon qilishadi, har doim ham ishni yuqori sur'atini ta'minlay olmaydi, jamoaviy munozaralarni kam olib boradi, dars vaqtida o'quvchilarning keskin javoblari kam bo'ladi. MIU pedagoglari o'zlari kam gapirishadi, asosan savol-javob vaqtida o'quvchilarga bilvosita yo'l bilan (aytib turish, aniqlashtirish va boshqalar) ta'sir qilib, javobni to'liq shakllantirishga imkon berishni ma'qul ko'rishadi.

4. Mulohaza-metodik uslub (MMU). Asosan ta'lim natijasiga va ta'lim-tarbiya jarayonini adekvat rejalashtirishga yo'naltirilgan, MMU pedagoglari pedagogik faoliyati usul va vositalarini qo'llashda konservativizmni namoyon qilishadi. Yuqori uslubiylik (tizimli mustahkamlash, o'quv materiallarini takrorlash, o'quvchilar bilimini nazorat qilish) kam sonli standart ta'lim uslublarini qo'llab, o'quvchilarni reproduktiv faoliyatga qaratilgan, diskussiya elementlarini qo'llab jamoaviy munozaralarni kam olib boradi. So'rash jarayonida MMU pedagoglar kam sonli o'quvchilarga murojaat qiladi, ularning har biriga javob berish uchun yetarlicha vaqt beradi, bunda akademik nuqtayi nazaridan kuchsiz o'quvchilarga alohida e'tibor beradi.

O'quv pedagogik faoliyat. Bu faoliyat jamiyat talablariga mos

ravishda oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltiriladi. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni uchun o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarining uzviy bog'liqligi, o'quvchilar faolligi va mustaqil ishlari ijodiy potentsial bo'lgan shaxs ahamiyatini oshirish xarakterlidir.

Kasb ta'limidagi pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo'shib olib boriladi. Nazariy faoliyat yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog'lanadi. Amaliy faoliyat muayyan vaziyatlarni yangilashga va pedagogik vazifalar tizimini hal qilishga yo'nalgan bo'ladi.

O'qituvchi konkret fanni boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro bog'lagan holda uning o'qitilish maqsadi va vazifalarini belgilaydi, o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini jonlantirishni ta'minlaydigan o'qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlarini o'ylab topadi.

O'qituvchi o'quv-pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi uning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishidir.

Kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda, N.V.Kuzmina va Z.F.Yesarova tadqiqotlariga tayanadilar. Ular quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- konstruktivlik;
- tashkilotchilik;
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

Konstruktivlik komponenti ilmiy-tadqiqot, o'quv-tarbiya ishlarida loyihalash yoki konstruksiyalash malakalarida ko'rinadi.

Loyihalash malakasi — bu ilmiy izlanishni yoki o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual malakalaridir. O'qituvchining loyihalash malakasi Z.F.Yesarova tomonidan tadqiq etilgan.

Kasb ta'limi o'qituvchisi faoliyatini tavsiflash va baholash uchun quyidagi sathlardan foydalaniladi:

- **reproduktiv.** Bunda o'qituvchi faqat o'zining axborotlarini loyihalashtiradi, lekin auditoriyadagi o'quvchilarning bilim saviyalarini hisobga olmaydi;

- **moslashuvchan.** Bu sathda o'qituvchi o'quv axborotlarini auditoriyadagi o'quvchilarning bilim saviyalariga mos qilib modellashtiradi;

- **lokal-modellashtirish.** Bu sathda o'qituvchi axborotlarni bayon qilibgina qolmaydi, balki ayrim masalalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini modellashtira olishi lozim;

• **tizimli-modellashtirilgan bilim.** Bu sathda konkret fanni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘z faoliyati va o‘quvchilar faoliyati tizimini modellashtiradi;

• **tizimli-modellashtirilgan faoliyat.** Bu sathda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga barcha o‘quv-tarbiya ishlari tizimini modellashtira oladi.

Tashkilotchilik faoliyati. Bunday faoliyat ilmiy izlanish va o‘quv-tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish va tashkil etish malakasida ko‘rinadi. Tashkilotchilik faoliyati o‘zining vaqtini; o‘quvchilarning individual ishi, guruh va jamoa ishini; birgalikdagi tadqiqotlarini amalga oshirish uchun kadrlarni tanlab olish va ularning vazifalarini belgilab berishni tashkil etish malakasida namoyon bo‘ladi.

Tashkilotchilik faoliyatining asosiy vazifasi shu faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini integratsiyalashdir.

Ilmiy-bilish faoliyati. Bu faoliyat atrof-olamni va o‘zini chuqur hamda har tomonlama bilish malakasida ko‘rinadi. O‘qituvchi o‘z tadqiqotlari, ta‘lim oluvchilarning ilmiy faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qiladi.

Kommunikativlik faoliyati. Bu faoliyat kasbdoshlari va o‘quvchilar bilan maqbul o‘zaro munosabatlarni belgilash malakasini ko‘zda tutadi.

4.2. Kasb ta‘limi o‘qituvchisining pedagogik mahorati

Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining pedagogik faoliyati muvaffaqiyatini aniqlovchi professional xislatlari tizimidir.

Pedagogik mahorat — doimiy izlanish va ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat o‘qituvchining shaxsiy madaniyati, kuchli nazariy-amaliy bilimlar egasi ekanligi, o‘qitish va tarbiyalash usullaridan mohirona foydalana olishi, pedagogik qobiliyatlari va texnikasida namoyon bo‘ladi. Kasb ta‘limi o‘qituvchisining pedagogik mahorati kasbga o‘qitishda aniq mantiqiy tartibni, ketma-ketlikni, o‘zaro va fanlar orasidagi bog‘lanishlar tizimining bir butunligini saqlagan holda, talabalarda zamonaviy fan va texnika taraqqiyotidan mohirona foydalana olishni, kasbiy fikrlash, ijodkorlik va qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Lug‘atda mahorat atamasi “biror-bir sohadagi yuqori darajali san’atdir” deyilgan. A.I.Shcherbakov “Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining ilmiy bilimdonligi, metodik san’atining ko‘nikmalari va uning shaxsiy sifatlarining yig‘indisidan iboratdir”, deydi.

Pedagogik mahoratning mohiyati — bu o‘qituvchida professionallikning namoyon bo‘lishi, uning kasbiy faoliyatga har tomonlama tayyorgarligini ifodalovchi sifatlarining o‘ziga xos yig‘indisidir.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak, chunki faqat mahorat o'qituvchi faoliyatida samarali natijalarni bera oladi. O'qituvchining pedagogik mahorat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, har bir talabaning nazariy-amaliy bilim va ko'nikmalari shunchalik yuqori bo'ladi.

Pedagogik mahorat egasi kam kuch, kam mehnat va kam vaqt sarf qilib, yuqori natijaga erisha oladi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi, boshqa pedagoglar ham undan o'rganishga, ergashishga intiladilar. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagilarda ifodalanadi:

- pedagogik layoqat;
- pedagogik ijod;
- innovatsion faoliyat;
- kasbiy bilimdonlik;
- pedagogik texnika.

Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir xil va keng tarqalgan me'yor emas, u har bir o'qituvchining ijodiy ishiga va shaxsiy-individual sifatlariga bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Shuning uchun o'qituvchining professionalligi turli darajalarda namoyon bo'ladi. Haqiqiy pedagogik kashfiyotlar qiladigan, o'qitish va tarbiyalashning yangi samarali yo'llarini ochadigan, o'qitish jarayonini boyitadigan innovatsion o'qituvchilar zamon talabi ekanligi hammamizga ma'lum. Bu borada ko'plab o'qituvchilar mahorat bilan bir qatorda o'zlarining pedagogik ijodkorligini namoyon etib, ta'lim va tarbiya texnologiyalarini o'zlarining kashfiyotlari bilan boyitmoqdalar.

Pedagogik mahoratning umumiy belgilari: kuchli va chuqur bilimga egalik, rivojlangan ko'nikma va malakalar, ilmiy-tadqiqot va metodik ish uslubiga bo'lgan ishonch hamda hurmatga sazovorlik, dunyoqarashining kengligi va o'quv maqsadiga erishish uchun samarali metod, usul va yo'llarni topa olish qobiliyati.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- shaxsiy sifatlar;
- mutaxassislik (kasbiy) bilimlari;
- pedagogik qobiliyatlar;
- pedagogik texnika.

Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar juda ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi. Mahorat

– bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o‘qitish san’atidan iborat. Pedagog o‘z ishining ustasi, o‘z fanini chuqur biluvchi, fan va san’atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yosh davrlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o‘qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mutaxassis.

“Bizning pedagogik ishda hamma narsani oxir oqibat mahorat hal etadi”, – deydi Yu.P.Azarov. Aniq irsiy layoqati va moyilligi bo‘lgan talantli insongina haqiqiy mohir o‘qituvchi bo‘lishi mumkin, degan fikrlar mavjud. Deyarli ko‘pgina insonlar tabiatan o‘qituvchi va tarbiyachi sifatlariga ega bo‘lib tug‘iladi. Asosiy masala shundan iboratki, tug‘ma layoqatlariga asoslangan holda ularda pedagogik mahoratni qiyinchiliksiz rivojlantirish mumkin. “Mutaxassislik va bilishga asoslangan mahorat hamma pedagogik muammolarni hal qila oladi”, – degan edi A.S.Makarenko.

Haqiqiy o‘qituvchi istalgan murakkab savolga to‘g‘ri javob topa oladi, talabaga o‘ziga xos yo‘l bilan yaqinlasha oladi, uni rag‘batlantiruvchi fikrlar bilan faollashtiradi. Bunday o‘qituvchi o‘qitayotgan fanining asoslarini, uning rivojlanish istiqbollarini yaxshi biladi, shular bilan birga zamonaviy adabiyotni, madaniyat va yangiliklarni, xalqaro hodisalarni tahlil qila oladi, u ta‘lim oluvchilarning aktual ehtiyojlarini, ular orasida ommabop jurnallarni o‘qib boradi.

Mahoratning yana bir asosiy ko‘rsatkichi ta‘lim oluvchilarni faollashtirish, ularning qobiliyatlarini, mustaqilligini va talabchanligini o‘stirishdan iborat. Pedagogik mahoratning keyingi tashkil etuvchisi – bu o‘qitish jarayonida tarbiyaviy samarador ta‘sir o‘tkaza olish, ta‘lim oluvchilarda yuqori ma‘naviyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mustaqillikni shakllantirishdan iborat.

O‘qituvchining vazifasi – ta‘lim oluvchilarda o‘qitish jarayonida ijobiy his-tuyg‘ularni namoyon qilishga yo‘l topa bilish. Bular ish metodini o‘zlashtirish, hissiy holatni yaratish, o‘qituvchining faolligi, qiziqarli misollar keltirishi, ma‘noli tanbehlar va shu kabi usullardir. Bu kabi usullar faqat vaqtinchalik muvaffaqiyatni hosil qilmasdan, o‘qituvchiga nisbatan ijobiy munosabatni yaratadi hamda fanga turg‘un va doimiy intilishni yuzaga keltiradi.

Pedagogik mahoratning asosiy belgilaridan biri o‘qituvchi pedagogik texnikasining yuqori darajasi hisoblanadi. Mahoratli o‘qituvchi pedagogik usul va vositalarning barchasini bilgan holda, ulardan eng optimal va samaradorlarini ajratib oladi.

Pedagog o'z ovozi, tashqi qiyofasini boshqarishni, ruhiyatini va mimikasini nazorat qilishni bilishi zarur. "Men bir so'zni 15-20 xil ohangda gapira olganimdan, yuz, tashqi qiyofa va ovozni 20 xil ko'rinishda bera olganimdan so'nggina haqiqiy mahoratli o'qituvchiga aylandim", – deydi buyuk pedagog A.S.Makarenko.

Pedagogik muloqot – ta'lim-tarbiya maqsadlarida pedagog bilan tarbiyalanuvchilar orasidagi kontaktdir. U pedagogning ta'lim oluvchilarga kasbiy ta'siridan iborat bo'lib, o'quv-tarbiya faoliyatini va ular orasidagi munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan.

O'qituvchi deyarli har kuni ta'lim oluvchilar bilan munosabatda bo'ladi, savol-javob qiladi, bilimni baholaydi, ularni rag'batlantiradi, zarur hollarda tanbeh beradi. Albatta o'qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, subyektivlik alomatlari mavjud bo'lishi, hammaga aynan birdek to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin u ta'lim oluvchilarni ajratmasligi, ularga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli inson ekanligiga barchani ishonchi komil bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodiy fikrlashga ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashini, e'tiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalar yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai – pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, ta'lim oluvchilar ta'lim-tarbiyasining yangi, samarali yo'l va vositalarini qidirib topishi tushuniladi.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan ish shakli, usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarning eng yuqori natijalariga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatlil o'zgarishlar kiritadi, ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina talabalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko'nikma, malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini ta'lim oluvchilarga yetkaza olishini va nihoyat, o'qituvchining pedagogik odob va etikaga, axloqiy e'tiqodga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Bu axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, ta'lim oluvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazilishida ko'zga tashlanadi.

Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy axloq kategoriyalariga mos keladi va ularni o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar aniqlaydi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlilik, vijdonlilik, halollik, yaxshilik qilish kabilar o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Yaxshilik kishining ongi va axloqiy amaliyotida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib, ularga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan tushunchadir.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchining mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda uning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi, u ta'lim oluvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim.

Shu bilan birga, u ta'lim oluvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni aniqlab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarni o'stirishi zarur. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning huquqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch ta'lim oluvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda duch kelinadigan turli xil vaziyat va voqealarga pedagogik qoidalar nuqtayi nazaridan dogmatik munosabatda bo'lish emas, balki ularni o'z holicha idrok etish, adolatli baholash, munosabatda adolatli bo'lish o'qituvchining obro'sini oshiradi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga nisbatan talabchan bo'lishi bilan birga o'z shaxsiga tanqidiy nuqtayi nazardan qaray olishi kerak.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat va davlat oldida mas'ul, talabalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. O'qituvchilarning faoliyati inson shaxsini rivojlantirishga, uning kelajagi uchun muhim bilimlar va xususiyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ta'lim oluvchilarni har tomonlama tarbiyalashda ularning o'ziga xos xulq-atvori, xarakter xususiyatlarini o'rganish, hisobga olish nihoyatda murakkab ish. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarining murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shu jihatlari va xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosligining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma kasblarni o'rganish, ta'riflash va loyihalashtirish natijalarini, insonning kasbiy sifatlarini o'z ichiga oladi. Kasbning asosiy tayanch qadriyatlari professiogrammaning obykti hisoblanadi. Professiogramma bitiruvchi kadrlarni tayyorlashda sifatga erishish mexanizmi hisoblanadi.

Professiogramma quyidagi tashkiliy komponentlarni o'z ichiga oladi:

- kasbning obykti (soha);
- kasbning asosiy tayanch qadriyatlari;
- ishlab chiqarish jarayoni;
- shaxs sifatleri;
- psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- mehnat natijalari, mahsulotlari;
- asbob-uskunalar, moslamalar, texnika, material va vositalar;
- ijodning intellektual resurslari;
- muvaffaqiyatli kommunikatsiyalar;
- ishga joylashishga layoqatlilik;
- kasbiy rivojlanish;
- ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat;
- baholash mezonlari;
- maxsus psixofiziologik talablar.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

G'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy-axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagogik kasb sohasida: insonlarni, ta'lim oluvchilarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik tanqid, pedagogik tasavvur,

tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, samimiylik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Keng ilmiy saviya, ma'naviy-ijtimoiy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish bilish sohasiga kiradi. O'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish uchun kishida bu ishga layoqat, qobiliyat va qiziqish bo'lishi lozim. Boshqa ijtimoiy ahamiyatli kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham pedagogik faoliyatga layoqatli, yosh avlod bilan til topisha oladigan, ularga ta'sir o'tkaza oladigan shaxslarni tanlab olish kerak.

Ta'lim oluvchilarni ham ijodiy fikrlashga, ham tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan shu muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik mahorat o'qituvchining oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng asta-sekin to'planadi va real pedagogik faoliyat davrida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. Mahoratning rivojlanishida quyidagi kasbiy pedagogik bilimlar majmui yotadi:

- ta'limning maqsadlari, mazmuni, davlat ta'lim standartlari va talablari;
- ta'lim oluvchilarning psixologik-pedagogik diagnostik ma'lumotlari;
- pedagogik faoliyatga tizimli yondoshuv asoslari;
- o'qituvchi uchun zaruriy kasbiy va shaxsiy sifatlari;
- hozirgi zamon pedagogik jarayonining rivojlanish tendensiyalari.

Kasbiy-pedagogik bilimlar va ko'nikmalar umumiy holda quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- o'quv faoliyatining obykti sifatida ta'lim mazmunini tanlash, didaktik samarali pedagogik jarayonni tashkil etish;
- ta'lim oluvchilar bilan muloqotda bo'lish;
- o'qitish jarayonida rivojlantirish va tarbiyalash, ta'lim oluvchilarda faoliyat mazmunini o'zlashtirishni amalga oshirish;
- pedagogik qobiliyatlarni va kasbiy ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish.

Bilim va ko'nikmalar pedagogik mahorat asoslarining tarkibiy qismini tashkil etgani va amaliy faoliyat mahsuli bo'lgani uchun ular istalgan kasbiy faoliyatda katta rol o'ynaydi.

Shunday qilib, pedagogning bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik mahoratning tashkiliy qismi bo'lib, ular ikki xil bo'lishi mumkin:

- bo'lajak kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida hosil qilingan;

- kasbiy-amaliy pedagogik faoliyat jarayonida hosil qilingan.

Pedagogning kasbiy potentsiali. O'qituvchi mahoratining yaxlit tizimi, xarakteri, yangi integrallashgan tushunchasi – pedagogning kasbiy potentsialida (PKP) o'z aksini topadi. Bunday ta'rifning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u o'zida o'qituvchining turli tayyorgarlik darajasi va faoliyat aspektlarini birlashtiradi.

Kasbiy potentsial (lot. "potencia" – umumlashgan qobiliyat, imkoniyat, layoqat) o'qituvchining asosiy xarakteristikasidan iborat. U tabiiy va orttirilgan sifatlarning tizimli majmui bo'lib, muayyan holatda o'z vazifalarini bajara olish imkoniyatidan iborat.

Kasbiy potentsial kasbiy bilimlar va qobiliyatlarning asosi bo'lib, pedagogning faol fikrlash, yaratish, harakat qilish, o'zining qadriyatli mo'ljallarini hayotga tatbiq etib, rejalashtirilgan natijalarga erisha olish qobiliyatidan iborat.

Kasbiy potentsialni tabiiy va kasbiy tayyorgarlik jarayonida to'plangan sifatlarning tizimi sifatida qarash mumkin:

PKP (pedagogning kasbiy potentsiali) = Po'k+Pqo'k+Pmktk+Pkafek

Po'k – shaxsning umumiy tug'ma layoqatlaridan tashkil topgan potentsialning o'zgarimas komponenti.

Pqo'k – muhit ta'sirida, shaxsning kasbiy tayyorgarlik va amaliy faoliyat jarayonida rivojlangan tabiiy maxsus qobiliyatlardan iborat potentsialning qisman o'zgaruvchan komponenti.

Pmktk – oliy o'quv yurtidagi o'qish davomida hosil qilingan potentsialning maxsus kasbiy tayyorgarlik komponenti.

Pkafek – pedagogning kasbiy-amaliy faoliyatida egallaydigan potentsial komponenti (tajriba).

"Kasbiy potentsial" tushunchasining umumiy tuzilishi yetarli darajada murakkab va ko'p qismlardan iborat. Bir tomondan, PKP pedagogik faoliyatga va faoliyatning haqiqiy holatiga moyilligini aks ettiruvchi nisbatni o'z ichiga oladi. Bunday qarashda orttirilgan va tabiiy qobiliyatlarning kasbiy faoliyatdagi o'rniga urg'u beriladi. Ikkinchi

tomondan, PKP pedagogning kasbiy faoliyatiga munosabatini ifodalaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, mavjud mahoratning o'zi kasbiy faoliyat uchun yetarli emas. Uchinchidan, PKP o'z mehnat faoliyatini kasbiy ixtisoslik talabi darajasida bo'lishini talab etadi. Nihoyat, to'rtinchidan, PKP—bu hosil qilingan sifatlarning konsentratsiyasidan, ya'ni bilim, mahorat, ko'nikma, fikrlash usullari va faoliyatning tayyorgarlik jarayonida qabulqilingan sifatlardan iborat.

Pedagog kasbiy potensialining tuzilishi

Kasbiy tayyorgarlik	Pedagog ijodkorligi	Pedagogning kasbiy mahorati	Pedagogik mahorat
Kasbga yo'naltirish	Pedagogik intellekt	Innovatsion faoliyat	Pedagogik fikrlash stili
Kasbga yo'naltirilganlik	Faoliyatning shaxsiy stili	Kasbiy o'sish	Muloqot mahorati
Mehnatga tayyorgarlik	Mehnatga ijodiy yondashuv	Kasbiy yetuklik	Ijtimoiy faollik
Kasbga yo'naltirish majmui	Ilmiy tashabbusning rivojlanishi	Kasbiy faollik	Metodik mahorat

4.1-rasm.

PKPning eng yaqin umumiy tushunchasi pedagogning kasbiy bilimdonligidir. Kasbiy bilimdonlik bu fikrlashni bilish va kasbiy bilimdonlik bilan harakat qilishdan iborat.

PKP umumiy tuzilishining tashkil etuvchilariga intellektuallik, asoslanganlik, kommunikativlik, ijodiy va kasbiy qobiliyatlar kiradi.

Pedagogning kasbiy potensialini deal pedagog sifatlari bilan ifodalash ma'lum darajada osonlik tug'diradi. **Ideal (mukammal) pedagog** —

professional pedagogning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yuqori darajali fuqarolik, ishlab chiqarish va shaxsiy funksiyalarga ega bo‘lgan shaxs. Ideal pedagog – bu kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha solishtirish uchun eng yuqori etalon. Pedagogik potensialning ideal pedagog sifatлари tushunchasi bo‘yicha strukturasi (4.1-rasmda) ko‘rinib turibdiki, pedagogik sifatlar juda ko‘p bo‘lib, ularning ba‘zilari zamon talabiga muvofiq ravishda o‘zgarib turadi.

Ideal pedagog sifatleri

Mutaxassis sifatida	Ishchi-xodim sifatida	Inson sifatida
<ul style="list-style-type: none"> -Pedagogik nazariyani bilish -Psixologiyani bilish -Ta‘lim-tarbiya texnologiyalarini egallash -Kasbi va sohasini sevish -Talabalarga bo‘lgan mehr va ishonch -Pedagogik qobiliyatlar -Umumiy eruditsiya -Tez va aniq ta‘sir ko‘rsata olish -Emotsional vazminlik -Nutqining aniq va ishonchli bo‘lishi -Talabchanlik -Tashkiliy malakalar -Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj -Tinglash malakasi 	<ul style="list-style-type: none"> -Aniq maqsad qo‘yish va unga erishishni bilish -Vaqtни to‘g‘ri taqsimlash va unumli foydalana olish -Mehnat samaradorligini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj -Ijod qila olish -Doimiy ravishda malaka oshirish -Ishga, mehnatga va faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj -Jamoada ishlay olish -Qat‘iyatlilik -Intizom -Mas‘uliyat -Faollik -Javobgarlikka tayyorlik -Tetiklik 	<ul style="list-style-type: none"> -Yuqori ma‘naviy sifatlariga ega bo‘lish -Ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish -Faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish -Hammaga va hamma narsada namuna bo‘lish -Milliy iftixor -Sog‘lom turmush tarzi -Insonparvarlik -Optimizm -Empatiya -Diniy e‘tiqod -Samimiylik -O‘z harakatlariga tanqidiy yondoshish

Pedagogning muhim professional xislatlariga mas‘uliyat, javobgarlik, qat‘iyatlilik, maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini bilish malakasi, ishchanlik, hissiy barqarorlik, ijodkorlik, kasbiy sifatleri ustida muntazam ishlash, o‘zining kasbiy darajasini tizimli va rejali oshirib borish, o‘z mehnati sifatini doimo oshirishga intilish va b. kiradi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik maqsadga muvofiq munosabat yaratishning professional ahamiyatli manbalari hisoblanuvchi pedagogning insoniy xislatleri ham alohida muhimlik kasb etadi.

4.3. Kasb ta'limi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyati

Mamlakatimizda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati bo'yicha davr talablariga ko'ra muntazam samarali islohotlar amalga oshirib boriladi. O'zR Birinchi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli Farmonini amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2015-yil 24-avgustda 242-sonli qaror qabul qilgan. Bunda zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish maqsadi mujassamlangan. Ushbu tizim kurslari pedagog kadrlarning Kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari hamda huquqiy-me'yoriy tashkiliy asoslari, o'qitishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning didaktik asoslari, innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarini loyihalash, o'qituvchi va talabalarning pedagogik muloqoti, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga rahbarlik qilish va boshqa pedagogik muammolarni hal eta olishiga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantirilishini ko'zda tutadi.

Malaka oshirish va kadrlar tayyorlash faoliyatining maqsadi tinglovchilarni pedagogik faoliyatga nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Malaka oshirish va kadrlar tayyorlash faoliyatining vazifasi: tinglovchilarni pedagogik kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, ta'lim va tarbiya haqidagi hujjatlar, ilg'or ta'lim texnologiyalarining dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, pedagogik mahorat asoslari, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, axborot xavfsizligi, pedagog kadrlarning malakasini oshirish sifatini baholash ishlari mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.

288 soatlik dastur mazmuni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitiladigan modullar (o'quv fanlar):

I. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida jamiyat rivoji va ta'lim-tarbiya masalalari.

1.2. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari.

II. Ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat

2.1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.

2.2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.

2.3. Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar.

III. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash

3.1. Ta'limda multimedia tizimlari va masofaviy o'qitish metodlari.

3.2. Elektron pedagogika asoslari va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash.

IV. Amaliy xorijiy til

4.1. Amaliy xorijiy tilni o'rganishning intensiv usullari.

V. Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari

5.1. Tizimli tahlil asoslari.

5.2. Oliy ta'lim jarayonini boshqarishda qaror qabul qilish texnologiyalari.

VI. Maxsus fanlar

Har bir modul bo'yicha kunlik assesmentlar topshiriladi va modul yakunida test sinovlari o'tkaziladi.

Pedagogik amaliyotda:

- mutaxassislik fanlari bo'yicha ochiq darslar tashkil qiladi;
- bitiruv loyiha ishining ichki muhokamasi o'tkaziladi;
- birlashtirilgan kafedradan amaliyot uchun belgilangan ballni olganligi haqida bayonnomadan ko'chirma va loyiha ishini himoyaga

tavsiya etish uchun ichki taqriz, majlis bayonnomasidan ko'chirma olinadi.

Oraliq nazoratda barcha modullar asosidagi bilimlarni sinash uchun on-layn tizimida test sinovlari topshiriladi.

Yakuniy nazorat – Bitiruv loyiha ishining himoyasi bo'lib o'tadi. Pedagog o'zi olib boradigan fanning bitta modulini elektron majmuasini yaratadi, yangiliklarini bayon qiladi va taqdimot o'tkazadi.

Loyiha ishi 80–100 betdan iborat bo'lib, himoya uchun vaqt 10 minut beriladi.

Asosiy talab: pedagogning o'z fani bo'yicha malaka oshirish kursidan olgan natijasi bo'yicha yangiligi va amaliyotda qo'llash uchun tavsiyalarini ishlab chiqqanligi, notiqligi, berilgan savollarga aniq, qisqa va tushunarli javob berishi ko'zda tutiladi.

Baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

- Joriy nazorat (6 ta modul) – 15 ball
- Portfolio – 10 ball
- Pedagogik amaliyot – 5 ball
- Test sinovi – 50 ball
- Izoh: 4 ta jarayondan 80 ball ichida kami 44,8 ball to'plasa

Ya'ni qo'yiladi.

- BLI himoyasi – 20 ball

Rivojlangan xorijiy davlatlar va O'zbekistondagi ta'lim tizimi solishtirma tahlili o'rganilganda, unga ko'ra respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy hamda pedagogik kompetentligini takomillashtirishga mo'ljallangan elektron ta'lim platforma va portallari yetarli darajada emasligi ma'lum bo'ldi [1].

Reytingi yuqori oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining pedagogik mahoratini oshirish, kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda elektron ta'lim tizimidan keng foydalanadilar. Ayniqsa masofaviy malaka oshirish, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holdagi masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali malaka oshirishning onlayn (videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o'tkazish) va offlayn (masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) shaklidan keng foydalanishning afzalliklari ta'kidlanadi.

Elektron ta'lim tizimida masofaviy malaka oshirish afzalliklari:

– moslashuvchan o'quv grafigi, ish bilan o'qishni birgalikda olib borish imkoniyati;

- individual o‘quv dasturi va nazorat grafigi;
- AKT bilan ishlash bo‘yicha kompetensiyalarning shakllanishi;
- o‘quv materiallari va axborot manbalari bilan mustaqil tizimli ishlash; o‘z fikrlarini yozma ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish (takomillashtirish); iqtisodiy samaradorlik (transport va maishiy harajatlarning kamligi);
- masofaviy ta‘limning dinamikligi (o‘quv materialining elektron shaklini yangilash mumkin);
- Internet tarmog‘ining barcha ma‘lumot manbalariga yo‘l mavjud (elektron kutubxona, kataloglar, ma‘lumotnomalar va b.);
- axborot materiali bilan interaktiv muloqotda bo‘lish; turli xil hajm va ko‘rinishdagi ma‘lumotlarni saqlash, tezkor jo‘natish, tahrirlash, qayta ishlash va chop etish imkoniyati mavjud [4].

Demak, xorijiy rivojlangan davlatlarda professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda masofaviy – texnik ta‘lim kurslari va sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish samarali ekanligini e‘tirof etishmoqda. Ularning keng qamrovga ega ekanligi, erkin grafikning mavjudligi har bir pedagog uchun mehnat faoliyatidan ajralmagan holda o‘zining kasbiy pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, keng ko‘lamdagi metodik axborot materiallaridan foydalanish imkoniyatini berishi o‘z qiymatini oshirmoqda.

Shu bois, oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetensiyasini takomillashtirishda elektron ta‘lim platformalari va portallarida o‘qitish jarayonini amalga oshirish bugungi shiddatli axborot oqimi davrida hamda ommaviy ta‘lim sharoitida zarur imkoniyatlarni va kutilgan sifatli natijalarni beradi.

Pedagog portfoliosi va uni shakllantirish. Ta‘lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish ijodiy fikrlovchi, ta‘limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo‘llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda pedagoglarga nisbatan o‘zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o‘quv, ilmiy hamda madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni to‘g‘ri rejalashtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o‘zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, pedagog

kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog'liq.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ma'lumotlar bazasi va talabalar bilan o'quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunday vazifalar pedagog kadrlarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Portfolio” tushunchasi XV–XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va xomaki variantlarini «portfolio» deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatleri haqida taassurot hosil qilgan.

Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko'rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi.

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQSHda paydo bo'ldi. AQSH va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g'oya O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolio (ingl. “portfolio” – zarur ishlar va hujjatlar uchun papka; frans. “portfolio” – bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq; ital. “portfolio” – hujjatlar solingan papka) – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plamidan iborat.

Pedagogning portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- pedagogning ma'lum bir vaqt oralig'ida erishgan kasbiy yutuqlari va faoliyat natijalarini qayd etish usuli;
- faoliyati davomida kasbiy sohadagi erishilgan yutuqlarini namoyish etuvchi majmua;
- pedagogning dars berayotgan fani bo'yicha o'quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi vosita;
- pedagog va talabalar o'rtasidagi o'quv muloqotini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim;

- talabalar bilan teskari aloqani oʻrnatishga xizmat qiluvchi hamda bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini monitoring qilish tizimi.

Pedagogning portfoliosi taʼlim muassasalari rahbariyati uchun oʻqituvchilarning ish faoliyati unumdorligi monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni oʻqituvchilarni oʻz-oʻzini kuzatish va oʻz ustida ishlashi uchun muhim vosita hisoblanadi. Turli manbalardagi maʼlumotlarga koʻra pedagog portfoliosi – bu oʻqituvchining aniq faktlar asosida yozilgan pedagogik sifati va yutuqlari hisoblanadi. Bundan tashqari portfolioda oʻqituvchining individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, talabalarining fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda gʻolib boʻlganliklari qayd etib boriladi. Shu bilan birga pedagog portfoliosi pedagogik-psixologik diagnostika natijalari, talabalar uchun fanlar boʻyicha nazorat qilish topshiriq va testlarini qamrab oladi.

Portfolio joriy etilishi bilan pedagogik faoliyatni baholashning va oʻz-oʻziga baho berishning koʻp funksiyali vositasi shakllanadi. Bunda portfolio qator pedagogik masalalarni yechishda yordam beradi:

- taʼlim berishda yuqori motivatsiyani rivojlantirish;
- talabalarning mustaqil taʼlimi va oʻz ustida ishlashga intilishni oshirish;
- uzluksiz rivojlanishni ragʻbatlantiruvchi omilni joriy etish;
- bilimlarning samarali oʻzlashtirilishiga intilish;
- pedagogik faoliyat natijalarini tashxis qilish.

Bundan tashqari portfolio oʻqituvchiga oʻz yutuqlarini yanada kengroq va xilma-xil taqdim etish imkonini beradi.

«The Teaching Portfolio» kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga koʻra oʻqituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Portfolio – oʻqituvchining kasbiy faoliyatida turli pedagogik masalalarni hal eta olish malakalarini koʻrsatuvchi, shuningdek, oʻqituvchining professionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallarni qamrab oladi.

Portfolio quyidagi koʻrinishlarda boʻlishi mumkin:

- portfolio sayti (sayt koʻrinishidagi portfolio);
- veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- elektron taqdimot;
- natijalar papkasi.

Elektron portfolio koʻrgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha oʻziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega:

- zamonaviyligi;
- tezkorligi (kerakli o'zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- funktsionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb-mutaxassislariga, qiziquvchilarga o'z tajribasini namoyish etish imkoniyati) hamda o'z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o'zida doimiy ravishda to'ldirib borish mumkin bo'lgan raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- samaradorligi (o'qituvchini o'z-o'zini baholashi, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish).

Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet izimining o'quv jarayoniga keng joriy etish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo'lga qo'yish orqali samara berishi mumkin. Shuning uchun portfolioni tarmoqda saytportfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Portfolioning muhim jihati – pedagogning kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, talabalarining olimpiada va tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan ilmiy izlanishlari kabilarni) namoyish etishdan iborat. Portfolio o'qituvchiga o'z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash va qiyinchiliklarni bartaraf etishni rejalashtirish hamda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Portfolio resurslarini shakllantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

- tizimlilik;
- taqdimotlilik;
- yutuqlarni haqqoniy, to'g'ri baholash;
- taqdim etilayotgan axborotlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchligi;
- ma'lumotlarning obyektivligi.

Shunday qilib, portfolio pedagogik faoliyatning turli xil ko'rinishlarida (o'quv, tarbiyaviy, ijodiy, metodik, tadqiqot) o'qituvchi tomonidan erishilgan yutuqlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bir qancha mualliflar o'z maqolalarida elektron portfolioni bir nechta variantlarini taklif etishgan:

- yutuqlar portfoliosi – ushbu portfolioda ahamiyat faoliyatdagi yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlarga qaratiladi;
- taqdimot portfoliosi – o‘qituvchining eng yaxshi ishlari to‘plami, ushbu portfolio yangi ishga kirayotganda, suhbatdan o‘tish uchun yoki turli tanlovlarda qatnashish uchun kerak bo‘ladi;
- hisobot ko‘rinishidagi portfolio – biror-bir loyiha ishini tugatayotgan vaqtda bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlar haqida ma’lumot beradi;
- majmuaviy portfolio – yuqorida ko‘rsatilgan portfolio ko‘rinishlarini qamrab oladi va o‘qituvchi portfoliosini namoyish etishga xizmat qiladi.

Pedagogning elektron portfoliosi uning kasbiy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq resurslar, talabalarning fan bo‘yicha ma’lumotlarni olishlari, nazorat topshiriqlari hamda talabalar bilimini o‘zlashtirish monitoringi natijalarini qayd etish imkoniyatini beruvchi tizim sifatida shakllantirildi.

Mazkur jarayonda pedagoglarning elektron portfolio yaratishdagi faoliyatini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: birinchidan, pedagoglar portfoliosi dasturiy platformasi yaratiladi va uning imkoniyatlari bilan barcha pedagoglar tanishtiriladi; ikkinchidan, pedagoglar o‘zlariga tegishli kasbiy ma’lumotlar va ta’lim resurslarini shakllantirib dasturiy platformaga joylashtirishlari tashkillashtiriladi; uchinchidan, elektron portfolioning axborot xavfsizligini ta’minlagan holda uning doimiy, uzluksiz faoliyatini yo‘lga qo‘yish, resurslarini muntazam yangilanib borishini ta’minlash, foydalanuvchilar uchun maxsus kirishlarni tashkillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi portali tarkibida “Pedagog portfoliosi” dasturiy platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (<http://portfolio.bimm.uz/>).

Mazkur platformaning vazifasi oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining yagona markazlashgan portfoliosini joriy etish, ular uchun kasbiy faoliyat natijalari va tegishli fanlari bo‘yicha ta’lim resurslarini yaratish imkoniyatini yaratish va pedagogik faoliyatning kompleks monitoringini tashkil etishdan iborat. Portfolio uch qismdan tashkil topgan:

Birinchi qismda pedagogning malaka oshirish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlar joy olgan. Bu ma'lumotlar pedagog tomonidan kiritilmaydi. Oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarida tinglovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan pedagoglarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida ma'lumotlar tizimga avtomatik tarzda yig'ilib boriladi. Bu ma'lumotlarga tinglovchi anketasi, uning kunlik davomati, kirish va chiqish testi natijalari, malakani himoya qilish ishi mavzusi va bali, qoldirilgan dars soatlari, olingan diplom, sertifikat yoki ma'lumotnoma nomeri va hokazolar kiradi.

Portfolioning ikkinchi qism pedagogning kasbiy faoliyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu qismdagi ma'lumotlar berilgan login va parol asosida uning shaxsiy kabinetida tegishli bo'limlarga shaxsan pedagog tomonidan davriy to'ldirilib boriladi.

Bu ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarga bo'lingan. Asosiy ma'lumotlar pedagogning kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

O'quv va o'quv-metodik faoliyati:

- o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishdagi ishtiroki; dars beradigan fanlari ro'yxati; fanlarning namunaviy dasturlarini yaratishdagi ishtiroki;

- o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi faoliyati;

- nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining mavjudligi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati:

- ilmiy daraja va unvonining mavjudligi; monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi;

- Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalardagi tezislari mavjudligi;

- mablag' bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ishtiroki; patentlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflarining mavjudligi.

Tashkiliy-metodik faoliyati:

- umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va Xalqaro olimpiadasi, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarning mavjudligi; ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi.

Portfolioning uchinchi qismida pedagoglar o'zlarining fanlari bo'yicha sillabus va boshqa o'quv materiallarini kiritib boradilar.

Bu materiallardan faqatgina ruxsat etilgan talabalargina foydalana oladilar. Buning uchun talabalar ham albatta tizimga ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari talab etiladi. Shuningdek, talaba va pedagog o'rtasida virtual muloqotni yaratish maqsadida "chat" (yozishmalar) tizimi ham joriy qilingan.

Shunday qilib, taklif etilayotgan elektron portfolio pedagoglarning kasbiy faoliyatlari monitoringini olib borish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagoglar va talabalarning virtual muloqotini tashkillashtirish, ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagoglarda ahamiyatli kasbiy natijalarni namoyish etish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi hamda portfolioda to'plangan ma'lumotlar pedagogning kasbiy guvohnomasi sifatida shakllanadi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. O'qituvchining kasbiy faoliyati qanday turlarga bo'linadi?
2. Pedagog faoliyatining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
3. O'qituvchi kasbiy faoliyatining qanday uslublari mavjud?
4. Kasb ta'limi o'qituvchisi faoliyatida pedagogik mahoratning ahamiyatini izohlang.
5. Professiogramma nima?
6. O'qituvchi shaxsining xususiyatlarini aytib bering.
7. Pedagogning kasbiy potensiali qanday tizimda o'z aksini topadi?
8. Malaka oshirish va qayta tayyorlash faoliyati haqida so'zlang.
9. Kasb ta'limi pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish qanday amalga oshiriladi?
10. Pedagog portfoliosi nima?
11. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda elektron ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik mahorati.
2. Kasb ta'limida malaka oshirish va qayta tayyorlashning o'rni.
3. Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.

V BOB.

PEDAGOGIK QOBILIYATLAR, PEDAGOGIK TEXNIKA, MULOQOT VA NUTQ

Bobning qisqacha mazmuni: pedagogik qobiliyatlar, ularning klassifikatsiyasi, pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish yoʻllari, oʻqituvchining pedagogik texnikasi, uning tarkibiy qismlari: nutq texnikasi, mimika va pantomimika, ruhiy-hissiy holatni boshqarish, pedagogik muloqot, uning vazifalari, usullari va modellari, pedagogik takt va muloqot madaniyati, notiqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligi, pedagogik nutq vazifalari va sifatleri, pedagog nutqiga qoʻyiladigan talablar.

Tayanch iboralar: pedagogik qobiliyatlar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, pedagogik texnika, pedagogik muloqot, kommunikatsiya, pedagogik munosabat modellari, pedagogik takt, pedagog nutqi.

5.1. Pedagogik qobiliyatlar va ularning klassifikatsiyasi

Pedagogik qobiliyatlar deb ataluvchi qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri biri bilan oʻzaro bogʻlangan boʻlib, bir-biriga taʼsir etadi va bir butunlikni hosil qiladi. Pedagogik qobiliyatlar haqida soʻz yuritishdan oldin qobiliyat tushunchasiga toʻxtalish lozim.

Psixologiyada qobiliyatlarga shunday taʼrif beriladi:

Qobiliyatlar shaxsning maʼlum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, koʻnikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon boʻladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Qobiliyat — bu kishining u yoki bu faoliyatiga tayyorligi, yaroqliligi va shu kabi imkoniyatlari majmui. Azaldan qobiliyat kishining jismoniy, nasliy xususiyatlari bilan bogʻliq deb hisoblanadi.

Qobiliyat — shaxsning individual xususiyati boʻlib, u yoki bu mahsuldor faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish shartidir (R.Dekart, G.V.Leybnits).

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlaridir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar

mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. Qobiliyat shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasida bo‘lish bilan birga, u tabiiy manbaga ham ega. Mazkur tabiiy manba ko‘pincha zehn, uquv tushunchasi bilan yuritiladi.

Qobiliyat quyidagi turlarga bo‘linadi:

– **umumiy qobiliyat** – bunda yuksak aqliy imkoniyatlar (intellekt, kuchli xotira, nutq, tafakkur va b.) va rivojlanish tushuniladi. U tabiiy ravishda shakllanishi mumkin;

– **maxsus qobiliyat** – bu muayyan sohalarga oid tor doiradagi qobiliyatlar (matematika, musiqa, sport, texnika, san‘at va b.) bo‘lib, muayyan reja asosida rivojlantiriladi.

Qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo‘llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashishni umumiy talablar bilan uyg‘unlikda olib borish va shu kabi yo‘llar bilan rivojlantirish mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonidagina paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyatning yuqori darajasi iste’dod va daholikda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan, imkoniyat darajalarining ustunligini ifodalaydigan o‘qituvchining shaxsiy-individual xususiyatlari.

Pedagogga qo‘yiladigan asosiy talab – bu unda pedagogik qobiliyatlarning mavjud bo‘lishidir. Pedagogik psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Psixolog olim S.L.Rubinshteyn ta’kidlab o‘tganidek, pedagogik jarayon o‘qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o‘quvchi faoliyatiga qanchalik rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog‘liq. Bola shaxsining rivojlanishida o‘qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta’lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo‘yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko‘lami ortishiga bevosita bog‘liq.

O‘tgan asrning 70–80-yillarida o‘qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o‘rganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o‘rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o‘z

tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni: gnostik (bilishga oid), proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif beradi. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatorida kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu xislati o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo etadi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat.
2. Yo'nalishning aniq ifodalanganligi.
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat'iy va silliq xarakter.
6. Pedagogik qobiliyatlar.

Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qobiliyatlar.
2. Akademik qobiliyatlar.
3. Pertseptiv qobiliyatlar.
4. Nutq qobiliyatlari.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyatlar.
7. Kommunikativ qobiliyatlar.
8. Pedagogik xayolot (ijod).
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

O'zbek olimlari E.G'.G'oziyev, S.R.Rajabov va ularning yuzlab shogirdlarining ishlari ham o'qituvchining pedagogik-psixologik xususiyatiga qaratilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat — bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini, mavzu yoki muammoni talabalarga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartirib soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat — barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat — o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki ma'naviy dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish, pedagogik intuitsiya va empatiya bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati — ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishidir. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati — guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati — o'zining shaxsiy xususiyati,

bilimdonligi, aql-farosati, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirish malakasi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro‘ga ega bo‘lish o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat‘iyligi, talabchanligi va hokazo) shuningdek, o‘quvchilarga ta‘lim hamda tarbiya berish mas‘uliyatini his etishga, bu ishonchni o‘quvchilarga ham yetkaza olishiga bog‘liq bo‘ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondoshish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Diagnostik (psixologik va pedagogik tashxislay olish) qobiliyati – bu pedagogning muhim qobiliyatlaridan bo‘lib, o‘qitish jarayoni samaradorligi ko‘p jihatdan unga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Psixologik tashxis – ta‘lim oluvchilarning shaxsiy-individual xususiyatlari, ruhiy jarayonlari va holatlarini to‘g‘ri aniqlay olish, pedagogik tashxis – ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlari va darajasini aniq, xolis baholay olish qobiliyatidir.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – pedagogning bir vaqtning o‘zida bir necha obyektlarga diqqatini taqsimlay olishi va o‘z munosabatini bildirishi. O‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, barqarorligi, ko‘chuvchanligi, taqsimlanishining taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

10. Konstruktiv qobiliyat – o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojlanishini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat – tadqiqot ishlariga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyati jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

12. Suggestiv qobiliyat – talabalarga ruhiy va emotsional-irodaviy ta‘sir ko‘rsatish, ularni o‘z imkoniyatlariga ishontira olish mahoratida ko‘rinadi.

So‘nggi yillardagi ilmiy tekshirishlar “yetakchi” va “yordamchi” qobiliyatlarni aniqladi. Yetakchilarga, ko‘p sonli pedagoglar so‘rovnomasi natijasiga ko‘ra, pedagogik ziyraklik (kuzatuvchanlik), didaktik, tashkiliy, nutq qobiliyatlari kiradi, qolganlarini yordamchi, keyingi toifaga kiritish mumkin.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'ladi. Ulardan ba'zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba'zilari qattiqqo'ldiq, boshqalari yumshoqroq bo'ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo'lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan o'qituvchiga his-tuyg'ular, emotsiyalar yot narsa bo'lishi kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi, aksincha u bir-biriga zid bo'lgan ruhiy holatlarni kechirishi – quvonishi ham, g'azablanishi ham, xursandchiligini namoyon qilishi, qayg'uga tushib, xafa bo'lishi ham mumkin va lozim. Bunda o'qituvchining o'z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o'zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o'z kamchiliklariga barham berishi muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlarini farqlanadi:

- obyektga (o'quvchiga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, muomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar – kasbiy kuzatuvchanlik, empatiya, pedagogik his-tuyg'u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik – o'zini boshqara olish;
- kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'quv materialini mustaqil tanlab olish, o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni yetarli bayon qilish, uning barcha o'quvchilarga tushunarligini ta'minlash qobiliyati;

- o‘quvchilarning individualligini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- o‘quvchilarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o‘zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o‘zining tajribasini boshqalar bilan baham ko‘rish qobiliyati;
- mustaqil ta‘lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa insonning ichki holatini to‘g‘ri baholash, unga hamdard, hamnafas bo‘lish qobiliyati (empatiya qobiliyat);
- taqlid qilish uchun namuna bo‘lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan metodini, o‘z o‘rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, o‘quvchilar o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo‘lgan qobiliyat o‘ziga xos tarzda alohida ajralib turadi.

5.2. O‘qituvchining pedagogik texnikasi va uning tarkibiy qismlari

Hozirgi davr sharoitlari va talablaridan kelib chiqmaydigan har qanday qotib qolgan qoida har doim noto‘g‘ri qoida bo‘ladi,— deb yozgan edi A.S.Makarenko. Barcha pedagoglar uchun mutlaqo to‘g‘ri bo‘lgan universal pedagogik tadbirni yoki tizimni o‘rgatish mumkin emas.

Pedagogik san‘at vaziyat bilan bog‘liq. Bunda har doim hamma narsa yangidan sodir bo‘layotganday tuyuladi. Binobarin, kishi o‘zining har bir qadamini, ishining natijasini oldindan ko‘rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo‘lmaydi. Pedagogning mehnati — bu behad ko‘p izlanish va turli kechinmalar, ijodkorlik, o‘zgaruvchanlik, bir vaqtning o‘zida o‘qitish jarayonidan qoniqish yoki qoniqmaslikdir.

Pedagogik ijodkorlik faqat hissiy reaksiyalar asosida boshlanishi mumkin emas. Ta‘lim-tarbiya san‘atida pedagogik texnika madaniyati

borki, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishning butun tizimi ularni bilishi zarur.

Pedagogik texnika – har bir ta’lim oluvchiga va guruhga pedagogik samarali ta’sir o’tkazishda qo’llash uchun o’qituvchiga zarur bo’ladigan malaka va ko’nikmalar majmuidir.

Pedagogik texnika har bir o’qituvchida shaxsiy-individual tarzda namoyon bo’lib, bu uning yoshi, jinsi, temperamenti, fe’l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog’liqdir.

Pedagogik texnika – bir qancha samarali malakaviy usullar yig’indisi bo’lib, bularga:

- 1) o’qituvchining tashqi ifodaliligi;
- 2) o’qituvchining nutqi kiradi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari quyidagicha ifodalanadi:

1. Pedagogning nutq texnikasi – ovoz, tovush, tembr, nafas, diksiya, ritm, artikulyatsiya, modulyatsiya kabi nutqiy malaka va ko’nikmalar yig’indisini avtomatizm darajasiga yetkazishdir.

2. Pedagogning mimik va pantomimik ifodaliligi – aniq imo-ishora, ta’sirchan va xayrixoh yuz ifodasi, ma’noli qarash, rag’batlantiruvchi tabassum yoki ogohlantiruvchi nigoh, gavnani to’g’ri tutish, jestikulyatsiya, gavda harakatlarining o’quv-tarbiyaviy maqsadga mosligi. Bunda pedagogning aktyorlik va rejissorlik mahorati, improvizatsiya malakalari namoyon bo’lib, ular orqali ta’lim oluvchilar ongiga, ruhiy-emotsional holatiga kuchli ta’sir etishi mumkin.

3. Pedagogning o’z hissiy-ruhiy holatini boshqarishi – optimizm, samimiylik, o’zida qulay hissiy jiddiylik, ishonch, umidbaxshlik kayfiyatini saqlash, ruhiy erkinlik, o’zi va ta’lim oluvchilar uchun ijobiy kayfiyatni yarata olish, psixik zo’riqishni yengish, o’zining hissiy dam olishini tashkil etish malakasi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o’z-o’zini nazorat qilishini ta’minlaydi, ko’p yillar davomida sog’lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, jismoniy, hissiy va aqliy zo’riqishlardan asrashga yordam beradi.

Pedagog o’zining nutq texnikasini, ya’ni nutqiy malaka va ko’nikmalarini, nutq jarayonida ishtirok etadigan barcha a’zolar, elementlarning xususiyatlarini takomillashtirib borishi zarur.

Ovoz apparati uch bo’limdan iborat:

1. Generator – ovoz generatsiyasi ovoz paylarida hosil bo’ladi, bunda og’iz bo’shlig’ining roli kam. Ovoz paylari shovqin va tonlarni farqlaydi.

2. Rezonator tizimi – bunda tomoq, halqum, burun bo‘shlig‘i, og‘iz bo‘shlig‘i qatnashadi va ular ovozning kuchini va dinamikasini ta‘minlaydi.

3. Energetika tizimi – o‘pkadan kelayotgan kuchli nafasning miqdori va tezligini ta‘minlaydi.

O‘qituvchilar kasb kasalliklarining 40,2 %ini ovoz kasalliklari tashkil etadi. Ovoz kasalligining sabablari:

- a) yuqori, baland ovozda gapirish;
- b) ovoz apparatlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik;
- d) ovoz gigiyenasiga amal qilmaslik;
- e) ovoz apparatining tug‘ma kamchiliklari.

Bir xil tonda gapirish, chang, achchiq, issiq, sovuq taom yoki havo, spirtli ichimliklar, chekish ovoz paydo bo‘lish a‘zolarining qizarishiga, yallig‘lanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tovush – chiqarilayotgan havo hiqildoqdan o‘tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

Tovush kuchi – tovush apparati organlarning faol ishlashiga bog‘liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqashiga bo‘lgan bosimi qancha katta bo‘lsa, tovush ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Tovush parvozi – tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlab olish.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi – uni mazmuniga, tinglovchiga moslab o‘zgartira olish imkoniyatini bildiradi.

Diapazon – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi. Diapazon qisqarishi nutqni bir ohangli bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilinishini susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr – tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yoqimlilik va alohidaligidir.

Nafas olish turlari:

1. Yuqori nafas – yelka va ko‘krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu kuchsiz, yuzaki va bo‘sh nafas bo‘lib, unda o‘pkaning faqat yuqori qismi qatnashadi.

2. Ko‘krak nafasi – qovurg‘alararo muskullar yordamida hosil bo‘ladi. Bunda o‘pkaning eniga hajmi kengayadi, ko‘proq nafasning ko‘ndalang hajmi o‘zgaradi, nafas chiqarish yetarli bo‘lmaydi.

3. Diafragmal nafas – diafragmaning pastga (qorin tomoniga)

choʻzilishi yuz beradi, koʻkrak nafasining boʻylama hajmi oshishi hisobiga vujudga keladi, oʻpkaning nafas olishidagi roli uncha yetarli boʻlmasdan qoladi.

4. Diafragmal-qovurgʻa nafasi — oʻpka eniga va boʻyiga oʻzgarishi, diafragmaning qisqarishida, qovurgʻalararo muskullar va qorin muskullari ishtirokida vujudga keladi. Bu eng toʻgʻri nafas olish boʻlib, asosan nutqda nafasning ushbu turidan foydalanish lozim.

Diksiya — aniq talaffuz qilish. Talaffuzning aniqligi oʻqituvchi nutqining oʻquvchilar tomonidan toʻgʻri tushunilishini taʼminlaydi.

Ritm — bu ayrim soʻz va boʻgʻinlarning aytilish muddati, toʻxtash (pauza), nutq va ifodalarning navbat bilan oʻz oʻrnida ishlatilishini bildiradi. Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki, nutq ohangi va toʻxtashlar ham tinglovchilarga beixtiyor oʻzgacha hissiy taʼsir koʻrsatadi.

Nutqdagi organik kamchiliklar jarrohlik va logopedik uslublar bilan bartaraf etiladi. Noorganik kamchiliklar — toʻngʻillab gapirish, soqovlanish, duduqlanish, baʼzi bir tovushlarni talaffuz eta olmaslik, burunda gapirish — manqalik, tez gapirish, chala gapirishni bartaraf etish uchun nutq organlari harakatini — artikulyatsiya mashqlari — artikulyatsiya gimnastikasi oʻtkaziladi. Bu ikki yoʻl bilan amalga oshiriladi:

a) nutq apparatlarini mashq qildirish;

b) har bir unli va undosh tovushlarning toʻgʻri artikulyatsiyasini mashq qilish.

Mimika — bu yuz muskullari orqali oʻz sezgisi, his-tuygʻulari, fikri va kayfiyatini ifodalashdir. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni yengilroq va puxtaroq oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Yuz ifodasida eng kuchli maʼlumot koʻz orqali beriladi. Bunda soʻzsis talabalarga maʼlum informatsiyalarni yetkazish, masalan, ogohlantiruvchi yoki ragʻbatlantiruvchi nigoh tashlash mumkin. Mimika va qiyofa soʻzning, nutqning, fikrning taʼsirchanligini oshiradi. Oʻqituvchining mimikasi albatta yoqimli va ijobiy kayfiyat ulashuvchi xususiyatga ega boʻlishi, har qanday shaxsiy hayotiy muammolar unda aks etmasligi zarur.

Pantomimika — bu gavda, qoʻl va oyoqlarning harakati boʻlib, asosiy fikrni ajratib koʻrsatishga, yorqinroq ifodalashga, yaqqol qiyofalarni gavdalantirishga imkon beradi. Gavda tutish estetikasi: dars jarayonida oldinga-orqaga tebranish, u yoqdan-bu yoqqa silkinib turish, ogʻirlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa tez-tez oʻtkazish, stul

suyanchig'iga tayanib turish, qo'lda ortiqcha narsa o'ynab turish, boshni qashlash, tez-tez tomoq qirish, burunni artish, quloq kavlash kabi xunuk odatlar pedagogik talablarga umuman to'g'ri kelmaydi. O'qituvchining gavda harakatlari tabiiy va erkin bo'lgan holda, chegarali va bosiq bo'lishi, keskin harakatlardan xoli bo'lishi, qo'l harakatlari ham ortiqcha va keskin bo'lmasligi kerak.

O'z-o'zini hissiy-ruhiy boshqarish o'qituvchi faoliyatining muhim jihati hisoblanadi, chunki o'qituvchilik kasbiga xos kasalliklarda asab kasalliklari juda ko'p uchraydi. Uning quyidagi turlari mavjud:

a) o'z-o'ziga ishonch, optimizm;

b) o'z xatti-harakatini nazorat qila olish (jismoniy zo'riqish, charchash, muskullarning zo'riqishi va o'ta bo'shshishining oldini olishga erishish, jismoniy faolligini nazorat qilish, nutqda to'g'ri nafas olish);

d) pedagogik-psixologik zo'riqishni yengillashtirish (negativ hissiyotlardan saqlanish, musiqa, kitob o'qish, hazil-mutoyiba, yoqimli muloqot, dam olish, sayr qilish, xarid qilish, turli xil o'yinlar, cho'milish, yugurish, sport va b.);

e) o'z-o'zini ishontirish, ta'sir ko'rsatish (relaksatsiya, meditatsiya, affirmatsiya va autotrening mashqlari).

Yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida quyidagi kamchiliklar uchraydi:

– o'ziga nisbatan ishonchsizlik va uni yenga olmaslik;

– auditoriyadan qo'rqish;

– o'ta talabchanlik, qattiqqo'llik yoki o'ta yumshoqlik, ko'ngilchanlik pozitsiyasini namoyon qilish;

– xushmuomala bo'lishdan qo'rqish, jahldorlikni ko'p namoyon qilish (qo'rqitish asosida boshqarish maqsadida), uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;

– ta'lim oluvchi bilan bemalol muloqotga kirisha olmaslik;

– ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib turish, qo'llar harakatini bilmaslik;

– o'z gavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayish, yerga qarab yurish, keraksiz ortiqcha harakatlar);

– tovushdagi kamchiliklar: bir ohangli, past, jonsiz ovoz, aniq talaffuzning yo'qligi, xona uchun zarur tovush balandligini tanlay bilmaslik;

– nutqdagi kamchiliklar: nutqning ravon, jonli emasligi, ifodali gapirish malakasi, diksiyaning yo'qligi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari quyidagicha:

- o'qituvchi rahbarligida pedagogik texnikani o'rganishga oid mashg'ulotlar;

- mustaqil ishlash, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash.

Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida professional o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Tashkiliy, metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruhiy yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin.

Masalan, zarur bilimlarni ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallash mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to'g'ri artikulyatsiya, diksiya, fonatsion nafas olish usullari va shu kabilar) mustaqil o'qishda egallanishi mumkin. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish ko'proq individual ishlashni talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruhiy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda, pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, xulq-atvor va muomalaning yangi shaklini izlash va sinab ko'rish, o'zini odamlar bilan munosabati xususiyatlarini anglash va kasbiy faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Guruh shaxsning o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagog vazifalarini hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maktabi bo'lib qolishi mumkin.

Pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rganish samarali natija beradi. Tajriba ishlarida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10–14 kishidan iborat bo'lishi belgilab berilgan. Qatnashuvchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqalar bilan birga ishlash, individual pedagogik ziyraklikni rivojlantirish, atrofda qilargalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi. Yana shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha

chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Ba'zi hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim.

5.3. Pedagogik muloqot. Pedagogik takt va muloqot madaniyati

Pedagog ta'lim oluvchilarni, ya'ni kelajak yaratuvchilarini tarbiyalar ekan, davlat va jamiyat oldidagi ta'lim-tarbiya ishini, vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishi va o'z mahoratini doimiy takomillashtirib borishi zarurdir.

O'qituvchining faoliyatida eng muhim narsa – bu uning nutqi va ta'lim oluvchilar bilan muloqotidir. Nutq – bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yoki ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki biron-bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin.

Kommunikatsiya (lot.communication – umumlashtirish, bog'lash) – guruh yoki jamoa ichidagi alohida shaxslar o'rtasida axborot almashish jarayonini o'z ichiga oladi. Bunday jarayon asosan muloqot yordamida amalga oshiriladi.

Muloqot – axborot jarayoni bo'lib, axborot ikki yo'nalishda boshqarish subyektidan (pedagog) boshqarish obyektiga (ta'lim oluvchiga) boradi va aksincha obyektidan subyektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muloqotdan o'z talabalari, umuman jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida turli xil axborotlarga ega bo'ladi. O'z navbatida pedagog muloqot jarayonida o'z talabalariga ham maqsadga qaratilgan axborotni ma'lum qiladi.

Muloqot – pedagog faoliyatining eng muhim professional qurolidir.

Pedagogik muloqot – qulay ijobiy psixologik muhit yaratish maqsadida o'qituvchining ta'lim oluvchi bilan dars va darsdan tashqaridagi muloqotidir.

Hozirgi zamon psixologiyasi shaxslararo muloqotning ahamiyatini chuqur o'rganmoqda. Ayniqsa, muloqot qonuniyatlarini bilish hamda muloqot o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun muhimdir. Negaki, uning kasbiga ko'ra vazifasi ham agar u ta'lim oluvchilarni o'zi bilan birgalikdagi faoliyatga unumli jalb qila olsa, tarbiyaning maqsadlari va vazifalariga javob beradigan tarzda

o‘zaro birgalikdagi harakat va o‘zaro hamjihatlikni yo‘lga qo‘ya olsa, ya’ni to‘laqonli pedagogik muloqotni o‘rnata olsa muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik muloqot deganda pedagog va ta’lim oluvchilar jamoasi o‘rtasida o‘zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o‘quv-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish va o‘zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar jamoasi o‘rtasidagi sermahsul muloqot jarayonini tashkil etmasdan turib yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqot:

birinchidan, o‘quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida;

ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-psixologik jihatdan ta’minlovchi tizim sifatida;

uchinchidan, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o‘zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida;

to‘rtinchidan, buningsiz ta’lim oluvchining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo‘lmaydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi.

Pedagogik muloqot — o‘quv-tarbiya maqsadlarida pedagog bilan talabalar orasidagi o‘zaro aloqadir. U pedagogning talabalarga kasbiy ta’sir ko‘rsatishidan iborat jarayon bo‘lib, pedagog va talaba orasidagi munosabatlarni hamda o‘quv-tarbiya faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan.

Izlanishlarning ko‘rsatishicha, pedagogning talabalarga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabati, ularga tiniq, bosiq tonda murojaat qilishi talabalarda erkinlikni his qilishda va fanga nisbatan ham ijobiy munosabat paydo bo‘lishiga yordam beradi. Pedagogning ta’lim oluvchilarga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishi ularda ishonchsizlik, loqaydlik, kamgaplik va fanga qiziqmaslik kabi salbiy sifatlar shakllanishiga olib keladi.

O‘qituvchida ba’zan auditoriyadan qo‘rqish yuzaga keladi. Buning sabablari 2 ta: 1) jismoniy to‘siq — ta’lim oluvchilardan o‘zini uzoq tutish; 2) ijtimoiy to‘siq — o‘zini ta’lim oluvchilardan yuqori qo‘yish bilan yuzaga keladi. Har qanday to‘siqni muloqot bilan bartaraf etish mumkin.

Pedagog B.A.Kan-Kalik muloqot tuzilishini 4 bosqichga bo'radi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. Guruhda bo'ladigan muloqotni oldindan modellashtirish: o'tiladigan material har tomonlama, fikran har xil vaziyatda o'ylab ko'riladi. O'ylab ko'rish faqat o'qituvchi rovida emas, balki ta'lim oluvchining o'rniga o'zini qo'yib fikrlab ham ko'riladi. Masalan: O'qituvchi "Men talabaman, menga berilayotgan dars, tushunchalar, bilimlar tushunarlimi?" deb talabanning o'rniga o'zini qo'yib fikrlaydi.

2. "Kommunikativ hujum" bosqichi: guruhni tez ishga kiritish texnikasi, ta'lim oluvchilarga tez ta'sir eta olish malakalari tushuniladi.

3. Muloqotni boshqarish bosqichlari: ta'lim oluvchilarning muloqot tashabbusini qo'llab-quvvatlash, dialogik muloqotni tashkil etish, sinfda yuzaga kelgan vaziyatga qarab o'zining muloqot shakli va mazmunini o'zgartira olish.

4. Muloqotni tahlil etish. Muloqotning maqsadi, vositasi va natijalarini tahlil qilib, yutuq va kamchiliklar haqida xulosa chiqarish.

Pedagogik muloqotning funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsni o'rganish.

2. Axborot almashish.

3. Faoliyatni tashkil etish.

4. Rollarni almashish.

5. O'zini birovning o'rniga qo'yish, hamdardlik.

Shaxsni o'rganish funksiyasi muloqot jarayonida o'qituvchi o'zi uchun talaba shaxsi haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi, uni har tomonlama o'rgana olishi, shaxsiy-individual sifatlari, ruhiy xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini bilib olishida namoyon bo'ladi.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi rivojlantirish uchun ma'naviy boylik va yangiliklar bilan o'rtoqlashish jarayoni bo'lib, ijobiy ishtiyoqlar, hamkorlik va fikrlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Dars jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchi orasida ma'naviy, moddiy qadriyatlar haqida fikr almashinadi. Muloqot ma'lumki, har doim ikki tomonlama amalga oshadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga faqat fanlardan ma'lumotlar berib qolmasdan, balki, ularni o'zlaridagi tushuncha, dunyoqarashlarini qo'rqmasdan, tortinmasdan aytishga, fikr almashishga o'rgatadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarda ta'lim motivatsiyasini, ichki intilishlarini hosil qiladi. Ularni o'qituvchi o'zi bilan birga ijodiy izlanishga yetaklaydi.

Rollar almashinishi yordamida muloqot o'rnatish esa ularda u yoki bu ijtimoiy shakllanib qolgan xatti-harakatni dasturlaydi. O'qituvchilar

o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs-rol shaklidan foydalanadilar: darsning ayrim elementlarini bajarishga ta'lim oluvchilarni taklif qiladilar. Bunda ta'lim oluvchilar tomonidan o'z shaxsi (men)ni, o'z qadr-qimmatini, shaxsini munosib baholash va kelajagini tasavvur eta bilish uchun intilishlarini ta'minlash imkoniyati tug'iladi.

Faoliyatni tashkil qilish funktsiyasi o'qituvchining muloqot yordamida ta'lim oluvchilarning pedagogik maqsadga muvofiq faoliyatini, o'quv-tarbiyaviy xatti-harakatlarini tashkillashtira olishi, ularni faollashtirishida ko'rinadi.

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri *hamdard* bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtayi nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda ta'lim oluvchining istaklarini tushunish va bular asosida unga ta'sir etish zarurligini anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir.

Dasrga tayyorgarlik ko'rilayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishni rejalashtirish zarur. Bunda eng muhimi ta'lim oluvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlari va o'z qobiliyatlarini ko'rsata olishlariga erishish mumkin.

Pedagogik munosabat modellari. Ko'pgina yosh o'qituvchilar pedagogik faoliyatlarining boshlang'ich davrlarida ta'lim oluvchilar bilan munosabatini va muloqotini qaysi uslubda qurishni bilmasdan qiynaladilar. Shu kabi noto'g'ri munosabatlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

1-model “Qattiq intizom” pozitsiyasi. Bunday o'qituvchi o'z faoliyatining birinchi kunidan boshlab ta'lim oluvchilarni qattiqqo'llik bilan, avtoritar usulda boshqarishga o'tadi. Lekin, u guruhdagi barcha ta'lim oluvchilarning ruhiy, asabiy holatlarini inobatga olmaydi. Bunday o'qituvchining darslarida faqat qobiliyatli, tez o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilargina faol qatnashadi. Asabi va ruhiyati kuchsiz, tortinchoq, qo'rqoq o'quvchilar esa passivlashib, o'qish faoliyati va darslardan bezishi kuzatiladi.

2-model o'qituvchilariga shartli tarzda “cho'qqi” deb nom qo'yish mumkin. Bunday o'qituvchi ta'lim oluvchilar ustida qoyaga o'xshab turadi. Ya'ni o'z bilimi, qiziqishlari bilan mashg'ul, guruh bilan, o'quvchilar shaxsi bilan, ularning ichki dunyosi bilan qiziqmaydi. O'z vazifasini faqat bilim berish deb biladi. Bunday o'qituvchilardan ta'lim oluvchilar uzoqlashadi, ular orasida psixologik iliq munosabatlar bo'lmaydi.

3-modelni “Xitoy devori” deb atash mumkin. Bunday munosabatlarda o‘qituvchi va ta’lim oluvchi orasida to‘siq paydo bo‘lib, uni yaratuvchi, yuzaga keltiruvchi pedagogning o‘zidir. Bunga sabab o‘qituvchining o‘zini katta tutishi, ta’lim oluvchilar bilan o‘ta rasmiy munosabatda bo‘lishi, doimo kamsitishi, tanqid qilishidir. Ta’lim oluvchilarning holati bilan qiziqmasligi va beparvoligi o‘zaro munosabatlarni yanada chigallashtiradi, ular orasida to‘siq paydo bo‘lishiga olib keladi.

4-model “Lokator shakli” deb yuritiladi. Bunday o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni tanlab, ajratib muomala qiladi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishiga (boyliqi, ota-onasining mavqei va b.) e’tibor bermaydi. Pedagog guruhdagi kuchli yoki kuchsiz ta’lim oluvchilarga o‘z diqqatini qaratadi, ular bilan ko‘proq ishlaydi, doimo yordam beradi, qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazadi, rag‘batlantiradi, boshqalar esa uning diqqat-e’tiboridan chetda qoladi, ularni faollashtirishga kam e’tibor beradi. Natijada ta’lim oluvchilar orasidagi bilimlar darajasi har xil bo‘lib qolishi mumkin.

5-modelni shartli tarzda “Robot” deb nomlash mumkin. O‘quv dasturlari va rejalarini bajarishga butun kuchi va vaqtini sarflaydi, lekin ta’lim oluvchilarning o‘zaro munosabatlari, ularning ruhiy holatiga kam e’tibor beradi. O‘quv jarayoni davomida o‘quv vazifasining o‘zgarishini, yangi sharoitlar paydo bo‘lishini hisobga olmaydi. Bunday o‘qituvchining kamchiligi shundaki, real hayotda, sharoitda rejaga qo‘shimchalar, o‘zgarishlar kiritish kerakligini hisobga olmaydi. Bunday o‘qituvchilar hamma ishlarga formal, rasmiy, yuzaki munosabatda bo‘lishlari boshqa ta’lim oluvchilarga ham ta’sir etadi. Ta’lim oluvchilar ham shu munosabatga o‘rganib, o‘quv vazifalarini formal bajarishga moslashib qoladilar. Dars qanchalik a’lo rejalashtirilgan bo‘lishiga qaramasdan, real pedagogik sharoitni hisobga olmasdan o‘tkazilsa, uning samaradorligi kam bo‘lishi mumkin.

6-model “Hammasini o‘zim bajaraman” deb nomlanadi. Bunday o‘qituvchi hamma ishni o‘zi bajaradi, o‘quv faoliyatini o‘z olib boradi. Ta’lim oluvchilarga shaxsiy tashabbus, mustaqil faoliyat ko‘rsatishni o‘rgatmaydi, lekin ularning o‘zi shu harakatlarni boshlasalar, bunga yo‘l qo‘ymaydi. Pedagog — yagona harakatlantiruvchi kuch bo‘lib qoladi. Bunday guruh ta’lim oluvchilari juda ham passiv, inert bo‘lib tarbiyalanadilar.

7-modelni “Gamlet” deb nomlash mumkin. Bunday o‘qituvchi doimo o‘zaro munosabatlarda, faoliyatda ikkilanish va ishonchsizlikni his qiladi. Har bir harakati va qilayotgan ishidan to‘g‘rilik yoki xato izlaydi. Bunday o‘qituvchilarning shaxsida aytib o‘tilgan kamchiliklar o‘z vaqtida to‘g‘rilanmasa, buning oqibatida ikkilanish, shizoidlik xususiyatlari paydo bo‘lishi mumkin. Bu kasallik bo‘lmasa ham, pedagogning faol ish yuritishiga salbiy ta‘sir etib, uning ruhiy holatini yomonlashtirishi mumkin.

8-modelni “O‘rtoq”, “Do‘st” deb atash mumkin. Bunday munosabatlarda ta‘lim oluvchi va o‘qituvchi orasida do‘stona munosabatlar o‘rnatiladi. Lekin bu shakldagi munosabatlarda o‘qituvchi talabchanlik, intizom, mas‘uliyat kabi zarur bo‘lgan holatlarni diqqatdan chetlashtirishi mumkin. Demak, bu tahlilda ish yuritish ham ijobiy natijalarga olib kelmasligi ma‘lum bo‘ladi.

Pedagogik muloqot usullari. Pedagogik muloqot pedagogik jarayonda o‘z vazifalari va rollarini bajaradi. Pedagogik muloqot va boshqarish usullari ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligi va shaxs rivojlanishini belgilaydi.

Avtoritar usul. Bu usul qattiqqo‘llik, o‘ta talabchanlik, majburlash bilan boshqarish va nazorat qilishdan iborat. Buyruq, ko‘rsatma berish, jazolash va ogohlantirishdan ko‘proq foydalaniladi. Talabalarga, ularning mustaqil faoliyatiga, mas‘uliyatiga ishonchsizlik bilan ifodalanadi. Avtoritar pedagog har bir tashabbusni o‘zboshimchalik deb hisoblab, uni qat‘iy inkor etadi. Chunki tashabbus va mustaqillik uning avtoritetiga va o‘ziga nisbatan ishonchiga salbiy ta‘sir qiladi. Pedagog o‘z obro‘-e‘tiborini juda yuqori tutadi, talabalardan uzoqroq bo‘lishga intiladi (o‘zaro munosabatda distansiya saqlaydi). U talabalarga ta‘sir qilish kerak bo‘lgan obyekt sifatida qaraydi. Talablarining bajarilishini qattiq nazorat qiladi. O‘z huquqlaridan kuchli foydalangan holda vaziyatlarni o‘zi hal qiladi, o‘zi qaror chiqaradi va faoliyatni o‘zi belgilaydi. Muloqotda talabalarni tanlaydi, ularning bilimi va yutuqlarini past baholashga moyil. Bu usul talabada qo‘rquv, irodasizlik, qat‘iyatsizlik, himoyasizlik hissi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va o‘ziga past baho berishni keltirib chiqaradi. Bunda talabalarining bor kuchi, diqqat-e‘tibori bilim egallab, rivojlanishga emas, balki o‘zini psixologik himoya qilishga qaratiladi. Bu usul orqali pedagog ta‘lim-tarbiya maqsadlariga samarali erishmoqchi bo‘ladi, lekin buning aksi bo‘lib, talabalar faqat pedagog nazorati va talabi ostidagina majburan

faollashadilar. Bu usulning birgina afzalligi tartib va mas'uliyat (majburiyat ostida bo'lsa ham) yuzaga kelishidir.

Demokratik usul. Pedagog talaba bilan muloqotda talabaga teng huquqli hamkor sifatida qaraydi. Guruh bilan birgalikda ishlaydi. Talabalar bilan muloqotda hammaga teng, ularni kuchli va kuchsizlarga ajratmaydi. Talabalarning erkin fikri va mustaqil faoliyatini, tashabbusini rivojlantiradi va rag'batlantiradi. Diqqatini faqat talabaning o'zlashtirishiga emas, balki uning shaxsi, ruhiy holati, faoliyati, shaxsiy-individual sifatlarini o'rganishga, ularni hisobga olishga qaratadi. Bu usulning asosiy xususiyati – hamkorlikdagi faoliyat, guruhning faol ishtiroki, o'zaro yordam va umumiy yutuqlardan faxrlanishga imkoniyat yaratiladi. Bu usul talabalarda psixologik qoniqish hissini, o'z qadr-qimmatini va o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini hosil qiladi. Natijada o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki ijobiy motivatsiya, qiziqish va mas'uliyat rivojlanadi. Bunday o'qituvchining asosiy ta'sir etish shakli maslahat berish, iltimos qilish, yo'naltirish va axborot berishdan iboratdir.

Liberal usul. Pedagog pedagogik jarayon uchun javobgarlik va mas'uliyatdan qochadi. O'ta beparvolik, kechiruvchanlik, ko'ngilchanlik, qat'iyatsizlik va ikkilanishni namoyon qiladi. Talabalarga o'ta erkinlik va mustaqillik muhitini yaratib beradi, guruh hayotiga aralashmaslikka harakat qiladi, ta'lim oluvchilar savollariga hamda qiziqishlariga yuzaki qaraydi. Ularning istak-xohishlariga yon beradi, o'zi faollik ko'rsatmaydi. Asosiy o'quv faoliyatini amalga oshirishni, qaror chiqarishni talabalar ixtiyoriga qo'yib beradi. Pedagog guruhni birlashtira olmaydi, ichki nizolarni bartaraf eta olmaydi. Natijada guruhda tartibsizlik, dangasalik, faoliyatsizlik va mas'uliyatsizlik kelib chiqadi. O'quv vazifalari kam bajariladi, sifat va natija qoniqarsiz bo'ladi. Bu usul mustaqil rivojlanish malakasi mavjud talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'l keladi. Shu sababli bu usulni guruhga nisbatan emas, balki ayrim talabalar shaxsiga nisbatan qo'llash lozim.

Bu usullarning barchasi o'z afzallik va kamchiliklariga ega. Shuning uchun ulardan o'z vaqtida, talabaning shaxsiy-individual xususiyatlarini hisobga olib, sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik takt. O'qitish jarayonida talabalar va pedagog o'rtasida 2 xil emotsional muloqot turlari mavjud:

- a) salbiy his-tuyg'ularga asoslangan muloqot;
- b) ijobiy his-tuyg'ularga asoslangan muloqot.

Pedagogik takt tarbiyachi pedagogga talabalar bilan ijobiy emotsional muloqotda bo'lishga va ular bilan psixologik aloqani o'rnatishga yordam beradi. Pedagogik taktning talablariga rioya qilgan o'qituvchi o'zida muloqotning demokratik usulini ishlab chiqadi va haqiqiy madaniy aloqaga erishadi (muloqot madaniyatini egallaydi). Pedagogik takt o'qituvchiga talabalar bilan muloqot jarayonida har qanday nizolardan xoli bo'lishga va o'zaro munosabatlarni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Takt so'zi "to'qnashish" ma'nosini bildiradi. Takt bu odamlarning o'zaro munosabatini tartibga keltiruvchi axloqiy kategoriyadir. Pedagogik takt o'qituvchining professional sifati va pedagogik mahoratining bir qismi bo'lib, ta'lim oluvchilarga nisbatan to'g'ri munosabatni tanlash yo'llaridan biridir. O'qituvchining usuli va metodlari optimal tatbiq qilinishi kerak. Haddan tashqari talabchanlik itoatsizlikka, muruvvat esa qo'pollikka olib kelishi ham mumkin. Talabalar o'zlariga nisbatan hurmatni his etgan zahoti o'z qadr-qimmatlarini his etadilar. Tarbiyachi tomonidan o'quvchilarga nisbatan vazminlik va munosabatning soddaligi muhimdir.

Pedagogik takt tarbiyachining turli xil vaziyatlardagi vazmin xulqida namoyon bo'ladi. O'qituvchining madaniy aloqasi, takti, uning talabalar bilan bo'lgan o'zaro munosabatining turli shakllarida, darsda, darsdan tashqari ishlarda, dam olish jarayonida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining takti darsning barcha bosqichlarida kerak. Ayniqsa ta'lim oluvchilar xulqini va bilimini baholayotganida bunga katta e'tibor berishi lozim. Talabalar ularning javoblarini diqqat, qunt va hurmat bilan eshita oladigan o'qituvchiga javob berishni yoqtiradilar. Ularning javoblarini ma'qullash maqsadida jilmayish, imo-ishora bilan ma'qullash juda muhimdir.

O'qituvchi ziddiyatli vaziyatdan chiqish uchun pedagogi taktga oid quyidagi qoidalarni hisobga olishi lozim:

1. Tarbiyachi ziddiyatni bartaraf etishi kerak.
2. O'z xatti-harakati bilan sherigiga ta'sir qila olishi kerak.
3. Suhbatdoshining xatti-harakatini va yuz bergan vaziyatni tushunmasdan turib, xulosa chiqarishga shoshilmasligi kerak.
4. Maqsadda kelishish, ya'ni ta'lim oluvchi bilan bog'liqlikni iloji boricha avvalroq anglash muhimdir.
5. Xulosa to'g'ri chiqarilganiga hammani ishontira olish.

Eng muhimi o‘z-o‘zini anglay bilishdir. Kishi o‘zini qanday anglashi mumkin? U faqat ijodiy faoliyatda, kasb-hunarda, kundalik mehnat faoliyatida o‘z burchini bajarib o‘z-o‘zini anglashi mumkin. Har bir inson mushohada bilan emas, balki harakatda, qilinishi lozim bo‘lgan ishga kuch-g‘ayrat, mablag‘, vaqt sarflagandagina o‘z-o‘zini anglaydi. Kishi o‘z qobiliyatini amalda tatbiq etgan taqdirdagina o‘zini bilishi mumkin. O‘z burchi va mas‘uliyatini bajarishdan mamnun odamgina erkin va oqilona yashaydi. Burchdan va mas‘uliyatdan voz kechib, o‘z vazifasini tan olmagan, bajarmagan holda o‘zi uchun hamma huquqlarni talab qilish insoniylikka, ayniqsa pedagogga xos narsa emas.

5.4. Pedagog nutqi va unga qo‘yiladigan talablar

Bugungi kunda o‘qituvchining nutq mahorati va madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, o‘rta maktablar va umuman dars o‘tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog‘liq. Shuni qayd qilish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati barcha o‘quv yurtlarida o‘rgatilmog‘da. Chunki notiqlik san‘ati sirlarini o‘rganish, o‘z fikrini bayon qilayotgan har bir til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo‘llash mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. Nutqning rivojlanish qonuniyatlarini, nutq me‘yorlarining umumiy holatini, undagi hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib nutq madaniyati haqida gapirish mumkin emas.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, odamlar ko‘pincha to‘planib, bir-birlariga nimalarnidir uqtirish, o‘rgatishga ehtiyoj sezganlar. Ko‘pincha ana shunday paytlarda kimdir o‘rtaga chiqib, qolganlarga murojaat qilgan. Qadimgi yunon xalqlari odamlarni o‘rtaga chiqib o‘z fikrlarini muxtasar bayon qilishga maxsus o‘rgatganlar va bu san‘at ritorika deb atalgan. Ritorika – bu notiqlik madaniyati va san‘ati bo‘lib, u insonda gapirish va o‘zgalarga murojaat qila olish mahoratini shakllantiradi.

Qadimgi Yunon-Rim faylasuf va notiqdari Sitseron, Dionis Galikarnas, Diogen, sharq mutafakkirlari Jaloliddin Rumiy, Husayn Voiz Koshifiylar qadimgi davrlardayoq yaxshi namunaviy nutqning qoidalarini ishlab chiqqanlar.

Nutq vositasida boshqalarga fikr, mulohaza va o‘ylarini yetkazish jarayoni quyidagicha tasavvur qilinadi:

I. Kim gapiryapti? (fikr egasi).

II. Nima haqida gapiryapti? (fikrning predmeti).

III. Qanday gapiryapti? (fikrni ifodalash mahorati).

So‘nggisi ritorikadagi eng muhim jihat hisoblanadi va u mukammalligi, tilning ravonligi, so‘zlar boyligi va ularning o‘rinli ishlatilishidan tashqari, gapirish jarayonida notiqning o‘zini tutishi, madaniyati va harakatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu sifatlar o‘qituvchining pedagogik faoliyatida va talabalarga pedagogik-psixologik ta’sir ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega.

Insonning nutqiy faoliyati 3 ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bular so‘zlash, mutolaa (o‘qish) va eshitish. So‘zlashda insonning ma’lumot yoki maslahat berishi, buyurishi, o‘ziga noma’lum narsalar haqida so‘rashi anglanadi. So‘zlaganda insonning bilimi, madaniyati, axloq-odobi yuzaga chiqadi.

So‘zlash monologik va dialogik ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savol-javoblarsiz bir tomonlama yuzaga chiqadi, suhbatdoshi tomonidan bo‘linmaydi. Dialogik nutqda muloqot qiluvchi shaxslar navbat bilan goh tinglovchi, goh so‘zlovchi bo‘lib turadi.

Mutolaa ta’lim oluvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli ta’lim oluvchi yozma nutqda aks etgan voqea-hodisalardan xabardor bo‘ladi, ular ta’sirida xulqida qandaydir o‘zgarish paydo bo‘ladi. Mutolaa ma’lumot olishning eng muhim yo‘lidir. Kitob o‘qish orqali kishi ma’naviy yetuklikka erisha boradi.

Mutolaa oddiy o‘qish, ilmiy o‘qishdan iborat. Oddiy o‘qiganda ta’lim oluvchi uchun yozma nutq mazmuni bilan tanishuvning o‘zi maqsad qilib qo‘yiladi. Ilmiy o‘qishda ta’lim oluvchi asarni tahlil qilishni, undan foydalanishni, uning mazmunini qayta bayon qilish kabilarni maqsad qilib qo‘yadi.

Taniqli notiqlar ham o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta’minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e’tibor berganlar:

1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish, o‘zlashtirib olish, undagi masalaga o‘z munosabatini aniq belgilab olish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mazuga mas’uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, ma’ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash, ma’lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalish.

Shu o‘rinda taniqli olim N.Mahmudovning aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Ta’lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma’qul, ammo, unutmazlik kerakki, nutqiy madaniyatni o‘rgatish, chiroyli so‘z zavqini o‘stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir”.

Nutq qobiliyati tug‘ma yoki orttirilgan qobiliyatmi? Ayrimlar notiqlik – tabiiy layoqat, odam shu qobiliyat bilan tug‘iladi, deb e’tirof etishadi. Boshqalar esa – bu odamning hayoti davomida o‘z ustida ishlashi, bilimlarini boyitib, tajribasini orttirib borishi natijasidir, deb ta’kidlaydilar. Bu ikki yondashuv ham to‘g‘ri bo‘lib, notiqlik san’ati eng avvalo quyidagilarga bog‘liq:

– tabiiy qobiliyat, ya’ni ruhan o‘zgalarga o‘z fikrlarini bayon etish, uni chiroyli va o‘rinli qilib yetkazishga moyillik bo‘lishi kerak;

– topqirlik sifati keyinchalik rivojlanadi va uning rivoji uchun bilim hamda tajriba zarur;

– chidam va bardosh irodaga aloqador sifat bo‘lib, uning ustida muttasil ishlash, o‘z qobiliyatlarini mukammal o‘stirib borish va mehnatdan cho‘chimaslik uchun zarur bo‘ladigan sifat;

– jasorat ham hissiy-irodaviy sifat, unda ham tug‘malik, ham orttirilganlik belgilari bor. Kichkinagina, oddiy bir fikr ham o‘zingniki bo‘lsa, uni birovlar o‘rtasida ayta olish va ta’sir ko‘rsatish uchun insonda mardlik, tavakkalchilik va jasorat kerak.

Nutq ikki xil bo‘ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Nutq kishi ongida ham hosil bo‘lishi mumkin. Bunda hali reallashmagan til unsurlaridan tashkil topadi. Bu ichki nutqdir. Kishilarning og‘iz ochmasdan fikrlashi, munozara yuritishi, o‘ylashi ichki nutqqa misol bo‘ladi. O‘pkadan chiqayotgan havoning nutq organlariga ta’siri, shu ta’sir natijasida

ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir.

Nutq tilga tegishli narsalarni ma'lum vaqt bo'lagida bir-biriga qo'shadi, harakatga keltiradi. Nutq so'z shakllari, erkin birikmalar, so'z tartibi va gapning turli ko'rinishlaridan tashkil topadi. Nutq jarayoni tugab, fikr tinglovchiga yetib borgach, nutq ham tugaydi. Tildagi ifoda vositalari chegaralangan bo'lishiga qaramasdan nutq cheksizdir.

Ta'lim oluvchilar bilimlarni eng birinchi navbatda o'qituvchining jonli nutqi orqali oladi. Shuning uchun o'quvchilarning fanlarni puxta o'zlashtirish darajasi o'qituvchi nutqining sifatiga ham bog'liqdir. O'qituvchining leksika, fonetika, talaffuz, gaplarni to'g'ri tuzish, so'zlarda urg'ularni o'z joyiga qo'yib gapirish va hokazolar jihatidan to'g'ri bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya ishida o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi nihoyatda kattadir. O'qituvchining nutqi ta'lim oluvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvorlari va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir. O'qituvchining nutqida uning shaxsi, hissiyoti, intilishlari, iroda va e'tiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan ta'lim oluvchilarda xursandlik, ruhlanish, muhabbat, sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hislarini tug'dira oladi. Nutqning ta'sir ko'rsatuvchi funksiyasida intonatsiya katta rol o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab his va harakat xususiyatlari, norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi ta'lim oluvchilarni dars materiallarini puxtaroq o'zlashtirib olishga da'vat etmoqchi, ma'lum bir harakatda yo'llamoqchi bo'lganda, o'z nutqida talaffuzga alohida e'tibor beradi.

O'qituvchi nutqining asosiy vazifalari quyidagilar:

a) Ta'lim oluvchilarga bilimlarni yetkazish. O'qituvchining nutqi ta'lim oluvchilarga tushunarli bo'lishi kerak, shundagina berilayotgan bilimlar ta'lim oluvchilar tomonidan yaxshi idrok qilinadi. Yaxshi idrok etilgan bilim va ma'lumotlar ongli ravishda mustahkamlanadi, xotirada yaxshi saqlanadi. Nutqning mazmuni va ma'nosi mavzuning o'ziga xos tomonlari, mantiq, ta'lim oluvchilarning idrok etish tempi va ritmini hisobga olib tuziladi.

b) O'quv faoliyatini samarali tashkil etish. O'qituvchi nutqi orqali ta'lim oluvchilarning o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etadi va guruh ishini boshqaradi, ya'ni nutq idrok eta oladigan darajada aniq (konkret) va ko'rsatmali, obrazli bo'lishi va ta'lim oluvchining xotirasini, fikrlash

qobiliyatini va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Nutqni turli ko‘rinishlarda amalga oshirish mumkin: iltimos, buyruq, da‘vat, nasihat, maqtov, ta‘na, kinoya, tanqid va b.

c) O‘qituvchi va ta‘lim oluvchi orasidagi o‘zaro muloqotni amalga oshirish. O‘zaro munosabatlarning hamma tomoni, salomlashishdan boshlab jazo choralarigacha, o‘qituvchining talab va xohishlari, o‘zini tutishi, nutq ohangi, jarangdorligi, yuz qiyofasi va boshqalar muhim ahamiyatga ega.

d) Ta‘lim oluvchilarning ongi, istak va motivlariga, his-tuyg‘ulariga ta‘sir etish, ularning kamchiliklarini to‘g‘rilash (korreksiyalash); nutq yordamida faqat bilimlar berilmasdan, balki bu bilimlarga hissiy, axloqiy qadriyatlar tarzidagi munosabatlarni ham tarbiyalash mumkin.

O‘qituvchi o‘z nutqi bilan ta‘lim oluvchini ishontira oladi, buning uchun u ta‘lim oluvchilarning ongiga, his-tuyg‘usiga, vijdoniga murojaat qiladi. Ularni birgalikda o‘ylashga, izlanishga da‘vat qiladi. O‘qituvchi har bir ta‘lim oluvchiga gapiradigan gapini oldindan rejalashtiradi.

Pedagogning odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos, vaziyatga mos (adekvat), adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi.

Ma‘lumki, nutq og‘zaki va yozma shakllarga ega. Og‘zaki nutq so‘zlovchi gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo‘lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Ammo nutq ta‘sirida uyg‘ongan hayajon, berilgan axborot ma‘lum vaqtgacha tinglovchi ongida saqlanishi, uning xulqiga ta‘sir etishi mumkin.

O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan pedagogik talablar. Nutq har tomonlama talabga javob berishi uchun o‘z oldiga ma‘lum talablarni qo‘yadi:

a) nutqning lug‘aviy, stilistik, grammatik va punktuatsion to‘g‘riligi, zamonaviy adabiy til me‘yorlariga rioya qilish;

b) nutqning ifodaliligi: emotsionalligi, yorqinligi, obrazliligi va shiraliligi;

c) nutqning madaniy jihatdan tozaligi: ortiqcha (parazit) so‘zlarning (“Xo‘sh”, “Demak”, “Endi...”) yo‘qligi yoki kam ishlatilishi, mahalliy shevalar va zamonaviy slenglarning bo‘lmasligi;

d) o‘qituvchining ilmiy nutqi talabalar uchun tushunarli bo‘lishi.

O‘qituvchining nutqi hamma vaqt o‘zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go‘zal va ta‘sirchanligini o‘zida saqlaydi.

Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo'llanishdagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek xarakterida bo'ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi. O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Uning nutqi ilmiy pedagogik mazmunga ega, ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar, qoida va nazariyalar aks etadi, shu sababli har bir narsa o'z o'rnida, me'yorida bo'lishi lozim.

Nutqqa qo'yiladigan bu talablar nutqning sifatlarida namoyon bo'ladi. Ular nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, tozaligi, tushunariligi va maqsadga muvofiqligidir.

1. Nutqning to'g'riligi. "To'g'rilik deganda, – deb yozadi V.G.Kostomarov, – nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo'ladi". Gap tarkibidagi bir so'zga tushadigan mantiqiy (logik) urg'uning ham ma'noni farqlashdagi xizmati katta.

Grammatik normaga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish konuniyatlari tushuniladi.

2. Nutqning aniqligi – bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblanganlar.

Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa nutq aniq bo'ladi.

3. Nutqning mantiqiyliqi uning asosiy sifatleri to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langan. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va ta'lim oluvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e'tiborsizlik natijasida

ba'zan, hatto, mantiqsizlik yuz beradi. Nutqning mantiqiyligida yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji ketma-ket, mantiqiy izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutq tushuniladi.

4. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til normalariga muvofiq kelish yoki kelmasligi tushuniladi. Yaxshi, ideal nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli tillar, g'ayri adabiy til unsurlaridan, dialektizmlar va varvarizmlardan xoli bo'lishi kerak. Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi, nutqining shakllanmaganligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan: ayrim kishilar o'zlari sezmaganda, ongsiz ravishda "demak", "xo'sh", "ya'ni" kabi "bekorchi" so'zlarni ko'p takrorlashga o'rganib qolganlar.

5. Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutilgan va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhimdir. Ya'ni, notiq tinglovchilarni hisobga olishi kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, o'z nutqining tinglovchilar eshitayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turishi, ular tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim bo'ladi. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajadagi ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish noto'g'ri. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi. Nutqning ta'lim oluvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sanaladi.

Agar o'qituvchi o'z fikrlarini hayotdan olingan misollar asosida to'ldirishga harakat qilsa, mavzuga doir subyektiv fikr-mulohazalarini bildirsa, nutqi yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogik qobiliyatlar tushunchasiga ta'rif bering.
2. Umumiy va maxsus qobiliyatlar qanday ajratiladi?
3. Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasini tushuntiring.
4. Pedagogik texnika nima?
5. Pedagogik texnika qanday tarkibiy qismlardan iborat?
6. Yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida qanday kamchiliklar kuzatiladi?
7. Pedagogik muloqot va uning vazifalarini ayting.
8. Pedagogik muloqotning qanday modellari va usullari mavjud?
9. Pedagogik takt tushunchasining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
10. Pedagog nutqi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
11. Pedagog nutqiga qanday talablar qo'yiladi?

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Kasb ta'limi o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari.
2. Kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik texnikasi talablari.
3. Kasb ta'limi o'qituvchining muloqot madaniyati.
4. Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.

VI BOB.

TA'LIM OLUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Bobning qisqacha mazmuni: kasbiy mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, tibbiy ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari kasb-hunar ta'limida innovatsion o'qitish texnologiyalari, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha noan'anaviy o'qitish usullarini qo'llash.

Tayanch iboralar: kasbga o'qitish mazmuni, ta'limda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, VR texnologiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion muhit, noan'anaviy o'qitish, interaktiv o'qitish, interaktiv faoliyat, kichik guruhlarda ishlash.

6.1. Kasbiy mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Ta'lim oluvchilarni kasbga tayyorlashda kasb ta'limining metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot usullari, tamoyillari, o'qitish jarayonini tashkil etish, olib borish, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, ularni baholash usullari, kasbiy yo'naltirishga oid ko'nikmalarni shakllantirish asosiy muhim masala hisoblanadi.

Kasbga o'qitishda ta'lim mazmunining quyidagi komponentlari belgilanadi:

- shaxsning kognitiv tajribasi;
- amaliy faoliyat tajribasi;
- ijodiy faoliyat tajribasi;
- shaxs munosabatlari tajribasi.

Shaxsning kognitiv tajribasi. Bu komponent tabiat, jamiyat, tafakkur, texnika, faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu asosiy komponent hisoblanadi, chunki shaxsning shakllanish asosini bilim tashkil etadi. Bilimlar borliqni, tabiat, jamiyat, tafakkurning rivojlanishi qonunlarini bilish natijasi sifatida belgilanadi. Bilimlarning asosiy funksiyalari dunyoning umumiy manzarasini yaratish, bilim va amaliy faoliyatni ta'minlash, yagona ilmiy dunyoqarashni yaratishdan iboratdir.

Ta'lim mazmunining amaliy faoliyat tajribasi komponenti malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tashqi yoki amaliy va ichki yoki intellektual malaka va ko'nikmalar mavjud.

Malaka va ko'nikmalar barcha o'quv fanlari uchun umumiy bo'lishi mumkin va har bir o'quv fani uchun o'ziga xos va xarakterli bo'ladi. Malaka va ko'nikmalar muayyan faoliyat turining asosini tashkil etadi. Faoliyatning esa bilish, mehnat, badiiy, ijtimoiy, qadriyatlarga yo'naltirilgan va kommunikativ turlarini qayd qilish mumkin.

Ijodiy faoliyat tajribasi. U yangi muammolarni hal qilish va voqelikni ijodiy qayta yaratishga tayyor bo'lishda namoyon bo'ladi.

Shaxs munosabatlari tajribasi. Bu asoslash (motivatsiya) – baholash, hissiylik, irodalilik munosabatlar tizimidan iboratdir. Bu tajriba dunyoga, voqelikka, odamlarga baho berish munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning qanday kasbiy sifatlari uning har qanday ishda mehnatga moslashib ketishni ta'minlab beradi? Har doim shaxsiy sifatlar insonning hayotda tutgan o'rnini belgilab bergan. Biroq ko'p yillar davomida sifatsiz, raqobatbardosh bo'lmagan, talab bo'lmagan mahsulotni ishlab chiqarish odatiy hol bo'lib qolgan va ahvolni to'g'rilash bo'yicha favqulodda choralar ko'rish uchun bahona ham bo'lmagan. Hattoki kosmik kemalarni yasashda ham qo'pol xatolarga yo'l qo'yilganligi tarixdan ma'lum. Bozor munosabatlari bunday psixologiyani o'zgartirmasdan, muhim kasbiy sifatlarni shakllantirmasdan turib dunyo bozorlaridagi raqobat kurashida yutuqqa erishish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Sir emaski, ko'pgina rivojlangan davlatlarda kuchlarni ishlab chiqarishdagi nazorat apparatlarini ko'paytirishga emas, balki har bir ishchi o'rinda nuqsonga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirish istiqbolli ekanligi tan olingan. Qisqacha aytganda, ishlab chiqarishda band bo'lganlarning ish sifati uchun mas'uliyati ortib borishi bilan xarakterlanadigan yangi turdagi madaniy-ishlab chiqarish munosabatlari yaratilmoqda. Agar amerikacha tizimda standartlarga qat'iy rioya qilish masalasi qo'yilsa, yaponlarning sifat to'garaklarida (faqat ko'ngillilardan tuziladigan) standartda ko'rsatilgandan yuqoriroq sifatga erishish vazifasi qo'yiladi.

Kelajakda mehnatga layoqatli mamlakat aholisining asosini tashkil qiladigan avlodda kasbiy sifatlarni shakllantirish muhim milliy vazifaga aylangan. Mutaxassislikka o'qitish davrida bo'lajak jamiyat a'zolarida qanday kasbiy muhim sifatlar shakllantirilishi lozimligi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Eng avvalo – mehnat qilishga intilish. Bu ham orzudan lazzatlanish, ham sezilarli moddiy natijani kutish, bajarilgan majburiyatni anglash, zarur ishni bajarish uchun mas’uliyat hissi, va nihoyat, mehnat jarayoniga o’zidan yangi biror narsa qo’shish istagidir.

Pedagog shu o’rinda yosh mutaxassislar tomonidan bajarilgan ishlarni misol qilib keltirishi mumkin. Bu o’quvchilarni ijodiy izlanishlarga undaydi.

Har qanday ishchi-mutaxassisning ish sifati uning texnologik intizomga rioya qilishi va uning mehnat mahsuloti sifati bilan baholanadi. Aytib o’tganimizdek, rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishidagi qat’iy texnologik intizom chiqarilayotgan mahsulotning sifati, ishonchliligi va uzoq muddatlilikini ta’minlab beradi.

Bir necha o’n yilliklar davomida atrofdagi hamma narsa “umumiy” bo’lgani sababli unutilgan “egalik” hissi juda kuchli insoniy omildir. O’z sha’nini o’ylaydigan haqiqiy ishchi-mutaxassis o’z faoliyati natijalari uchun kuchli mas’ullikni his qiladi.

O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi asosida bo’lg’usi mutaxassislarda kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish vazifasini hayotning o’zi taqozo etmoqda, yurtimiz taraqqiyoti aynan shu vazifalarni yechish bilan bog’liqdir.

Ta’lim oluvchilarda haqiqiy shifokorni – oliy ma’lumotli, yuqori madaniyatli, ko’p qirrali sifatlarga ega insonni tarbiyalash tibbiy ta’limning asosiy vazifasidir. U bemorning ham jismoniy, ham ruhiy salomatligi haqida qayg’urishi, inson organizmida kechayotgan kimyoviy jarayonlar bilan qiziqishi, murakkab va zamonaviy tibbiy manipulyatsiyalarga doim tayyor bo’lishi, tibbiy bayonotga qat’iy rioya qilishi, biror-bir a’zoning davosi boshqa a’zolar holati va organizm tuzilishiga ta’sir ko’rsatishini nazorat qilishi, butun kasbiy faoliyati davomida o’z malakasini muntazam oshirishga tayyor bo’lishi lozim. Shifokor o’z xarakteri va xatti-harakatida turli xil qarama-qarshi sifatlarni birlashtira olishi kerak: empativ, emotsional bo’lgan holda ruhiy holatini stresslardan himoya qila olishi, o’zi toza va ozoda bo’lgan holda turli xil holatdagi bemorlardan, yiring yoki yaralardan irganmasligi, madaniyatli bo’lgan holda, muayyan vaziyatlarda qattiq pozitsiyada tura olishi kerak. U o’tkir kasalliklarda, shoshilinch holatlarda tezkor choralar ko’ra olishi uchun tezkor, reaktiv bo’lish bilan birga, uzoq vaqt davom etadigan davolash jarayoni yoki tadqiqotlarni olib borishga chidamli, bardoshli va sabr-toqatli bo’lishi ham kerak. Hamkorlikda o’qitish texnologiyalarini qo’llash orqali

talabalarda shu kabi sifat va xususiyatlarni rivojlantirishga erishish mumkin.

Kasb ta'limi o'qituvchisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:

- jamiyat rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olishi;
- muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallagan bo'lishi;
- pedagogik faoliyatni sevishi;
- o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi;
- zakovatli bo'lishi;
- pedagogik tuyg'u;
- yuksak yetuklik;
- umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;
- pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi.

6.2. Tibbiy ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari

Ilgari ta'lim oluvchilar biror savolga javob topmoqchi bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotga ehtiyoj sezsa, faqatgina o'qituvchi va bosma kitoblar yordamga kelishgan. Bugungi kunda internet orqali bir zumda turli xil ko'rinishdagi ta'limiy yordamga murojaat qilish imkoni mavjud. O'qitishning innovatsion shakllari sifatida trening, davra suhbat, interaktiv ma'ruza, interaktiv ekskursiya, videokonferensiya, VR-darslar, virtual ma'ruza, virtual ekskursiya, veb-mashg'ulotlar, chat-botlar, vebinar, blended learning (aralash o'qitish), sun'iy intellektli – raqamli o'qituvchilar, ommaviy ochiq onlayn kurslar va boshqalarni misol qilish mumkin. O'quv jarayonidagi innovatsion o'qitish metodlari sifatida interaktiv usullar, grafik organayzerlar, muammoli usullar, debatlar, o'yinli texnologiyalar kabilarni qo'llashni aytish mumkin. Ta'limning innovatsion vositalariga esa interfaol doska, Smart-partalar, prezentatsiya, multimedia, elektron darslik, virtual atlaslar, virtual trenajyorlar, virtual universitet, virtual kampus, texnologik platformalar, ta'lim portali, simulyatorlar, virtual kutubxonalar, 3D-, 4D-, 5D texnologiyali dasturlar kabilarni kiritish mumkin.

VR (ingl. “virtual reality” – virtual yoki sun'iy reallik) – virtual reallik bugungi kunda ma'lum bir kasblarga o'rgatishda, ya'ni real sharoitda ishlash yuqori xavf tug'diradigan yoki katta mablag' bilan

bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga (masalan, xirurg, samolyot uchuvchisi, poyezd mashinisti, haydovchi, qutqaruvchi, harbiy va b.) o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Jahonga mashhur IT kompaniyalari tomonidan talabalarni o‘qitishda faol qo‘llash mumkin bo‘lgan juda ko‘plab innovatsion texnologiyalar taklif etilmoqda.

Aldebaran Robotics tomonidan ishlab chiqilgan Nao roboti 2010-yildan beri test rejimida ta‘lim oluvchilar bilan mashg‘ulot olib boradi. Ushbu androidning gaplashish va harakatlanishdan tashqari asosiy xususiyati emotsiyalarni tanish va ko‘rsatishdir. Bu unga insonlar bilan muloqotda katta yordam beradi hamda robotning odamlar tomonidan jiddiy qabul qilinishini yengillashtiradi.

MIT Media Lab tomonidan yaratilgan Tega roboti ta‘lim oluvchilar bilan umumiy til topisha oladi. Ko‘rinishidan dasturlashtirilgan planshetli yoqimtoy momiq o‘yinchoq bo‘lib, u nafaqat o‘qituvchi, balki robot-do‘stdir. Tega o‘quvchilarga o‘qish bo‘yicha yordam beradi, kun tartibiga rioya qilishini nazorat qiladi va darslar o‘rtasidagi tanaffuslarda ularning vaqtini chog‘ o‘tkazib ko‘nglini ko‘tara oladi. O‘quvchi agar uyga vazifalarni juda uzoq vaqt bajarsa, robot hattoki u bilan birga zerikishini ham namoyon qilishga qodir. O‘quvchilar uchun odatiy o‘qituvchidan tashqari robot-o‘qituvchilarni kuzatish va ulardan o‘rganish ham qiziqarli tuyuladi.

2018-yili rossiyalik va amerikalik ishlab chiqaruvchilarning hamkorlikdagi ishlari natijasida Android-telefonlarda Parla X dasturi paydo bo‘ldi. Bu standart savol-javobli chat-bot emas, balki to‘laqonli sun‘iy intellektli o‘qituvchidir. Hozircha Parla X texnologiyasi faqat ingliz tilini o‘rgatadi, ishlab chiquvchilar rejasida ta‘lim safini yanada kengaytirish hamda ta‘limni hammabop qilish xohishi borligi ta‘kidlanmoqda. Ushbu dasturda foydalanuvchi tilni bilish darajasini tanlaydi va shundan so‘ng topshiriqlarni bajaradi. Sun‘iy intellekt foydalanuvchining topshiriqlarni qanday bajarayotganini tahlil qilib uning uchun nima murakkab yoki nima oson ekanligini, qaysi bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirdi, qaysi bilimlarni yana ko‘proq o‘zlashtirishi kerakligini bilib oladi. U har bir foydalanuvchi uchun individual yondoshuvni topa oladi hamda mos va kerakli topshiriqlarni tanlay oladi. Parla X smartfondagi haqiqiy cho‘ntak repetitori bo‘lib ommalashmoqda. Repetitor uchun katta mablag‘ sarflanadi, bunday ilovalar esa bepul ta‘lim olish imkoniyatini beradi. Ta‘lim darajasi juda past va qashshoq davlatlarda bu kabi texnologiyalar ko‘pgina

ta'limiy muammolarni hal qilish uchun yechim bo'lishi mumkin. Kelajakda bunday texnologiyalardan har kim istagancha foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2016-yilda Jorjiya universiteti professori Ashok Goel ma'ruzalardan so'ng talabalarda yuzlab savollar tug'ilishini, ularga individual yondoshish zarurligini inobatga olgan holda, mashg'ulotlar uchun smartfon cho'ntak yordamchisini yaratdi. U talabalar agar uy vazifalarini bajarishda individual yordam olishsa, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va sifati yanada ortadi, deb hisoblaydi. Goel eng yaxshi talabalaridan 8 nafarini taklif etib, birgalikda chat-bot yaratdi va unga Jill Uotson deb nom berdi, u talabalarga topshiriqlarni yechishda telefon orqali savol-javob tarzida yordam bera boshladi. Goelbot – elektron assistentga universitet forumlaridan olingan 40 mingdan ortiq xabarlarini yukladi, bu Jillning nutqi jonli bo'lishi va javoblarning talabalar uchun tushunarli bo'lishini ta'minladi. Talabalarning eng ahmoqona savollariga ham Jill nazariy javoblarga asoslangan holda javob berar, uy vazifalarini yechishda amaliy maslahatlar berardi. Besh oy davomida olib borilgan tadqiqot talabalarning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ham muvaffaqiyatli qatnashishiga olib keldi. Talabalardan hech kim Jill Uotsonning chat-bot ekanligini bilmagan, hattoki talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnomada u eng yaxshi o'qituvchi sifatida eng ko'p ovoz to'plagan. Hozirgi kunda ushbu raqamli o'quv assistenti butun dunyo bo'yicha turli kampuslarda talabalarga o'quv jarayonida yordam bermoqda.

Chat-botlar imkoniyatlari kompaniyalarning ishlab chiqaruvchilarini ilhomlantirdi. 2016-yil Duolingo xorijiy tillarni o'rganish uchun ilovani ishga tushirdi. Bunda foydalanuvchilarga messenjer interfeysi taklif etiladi va ta'lim savol-javob shaklida olib boriladi. Shu kabi AndyRobot chat-boti ham foydalanuvchilar bilan davomli suhbatlashishi, test va o'yinlarni taklif etishi mumkin. Talabalarga o'zining lug'at boyligini oshirish, grammatik konstruksiyalarining to'g'riligini tekshirish imkoniyati taqdim etiladi. Edwin, Teflbot kabi chat-botlar ham shular qatorida keng qo'llanilmoqda.

Authorbot xizmati mualliflarga o'z ijod mahsullari, ishlarini internet orqali ilgari surishga va kengaytirishga yordam beradi. Authorbot kitobxonlar uchun kitob haqida taassurotlarni, qahramonlar va syujetlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni bo'lishishga, suhbat olib borishga

imkon beradi. Bot yaqin oradagi kutubxonalarni topishga, uning ish vaqti, fondi, eng mashhur va ommabop top-kitoblarni yoki turli davrlarda chop etilgan istalgan kitoblarni topishga yordam beradi.

Bostonlik startaperlar abituriyentlar uchun yo'nalish tanlash, universitetga kirish uchun imtihonlarga tayyorlanish, talabalik hayoti haqida ma'lumot beruvchi bot ishlab chiqilgan. Jorjiya universitetida AdmitHub servisi dastlab birinchi kurs talabalarini universitet hayoti bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan edi. Hozir ushbu botning yordamidan turli davlatlarning abituriyent va talabalarini foydalanishi mumkin. Prepathon robotlari bir nechta: biri motivatsiya uchun javob beradi va talabalarga ruhlantiruvchi iboralar, eslatmalarni yuboradi, boshqasi o'quv jarayoniga eng samarali yondoshuvlarni topishga yordam beradi, yana biri imtihonlarga tayyorlaydi.

2017-yili Microsoft kompaniyasi xitoy tilini o'rganish uchun ilova chiqardi. Asosiy vazifa to'laonli raqamli o'qituvchini yaratish edi. Ishlab chiqilgan sun'iy intellekt o'quvchilarning javoblaridan kelib chiqqan holda topshiriqlarni tanlab beradi. Microsoft ilovasi foydalanuvchining o'zlashtirishiga moslashib, individual o'qitish dasturini yaratadi.

Kelajakda raqamli yoki virtual o'qituvchilar individual ta'limiy yondoshuvni yaratgan holda keng ommalashib boradi, ular hattoki ta'lim oluvchini topshiriqni to'g'ri bajargani uchun maqtab rag'batlantirishi yoki dangasaligi uchun tanbeh berishi ham mumkin. TMT Investments asoschisi German Kaplun fikricha, 10–15 yillar ichida rivojlangan davlatlarda o'quvchilar o'qituvchi-robotlar tufayli maktabga muntazam bormasdan, uyda smartfon yoki planshet orqali ta'lim olishlari mumkinligiga kattalar ko'nikib borishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ta'limni texnologiyalar bilan bog'lab o'quvchilarni qiziqtirish mumkin. Ilg'or o'qituvchilar Telegram, Instagram, WhatsApp va b. orqali ta'lim oluvchilarga topshiriqlar berib, ularni yo'naltirib, rag'batlantirib, rivojlantirib borishmoqda.

Ilmiy ixtisoslashtirilgan Arlington maktabi o'quv jarayonida Oculus Rift texnologiyasi qo'llaniladi. Tarix, geografiya, biologiya fanlarida o'quvchilar VR-shlem orqali bir lahzada istalgan reallikda – Qadimgi Yunonistonda, savannalarda, qo'riqxonalarda, Xitoy devorida, Antarktidada bo'lishi hamda tabiatni, jonivor va o'simliklarni o'rganishi mumkin. Bu kabi texnologiyalar imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun, ayniqsa, autizm sindromli bolalar uchun eng yaxshi yechim

bo'la oladi. Polshada Sileziya texnologiya universitetida autist bolalar bilan virtual reallik texnologiyalari yordamida terapevtik mashqlar o'tkazilib muvaffaqiyatli natijalarga erishilmoqda.

AQSHda talabalar va o'quvchilarga endilikda savollarga tezda javob topishda Vikipediya emas, balki Google Home, Amazon Echo (Alexa), Siri kabi texnologiyalar eng yaxshi yordamchi bo'lmoqda.

Wikipedia voicebot – Vikipediya bo'yicha ovozli qidiruv funksiyasiga ega bot, istalgan kerakli ma'lumotni kundalik ishlardan chalg'imagan holda so'rab topish imkoniyatini beradi.

Woebot – Stenford universiteti mutaxassislari tomonidan (Coursera asoschisi Endryu N. ham qo'shildi) ishlab chiqilayotgan bot bo'lib, dastur Facebookda ishlaydi, chat orqali har qanday his-tuyg'u va emotsional holatlar bilan o'rtoqlashish mumkin. Woebot foydalanuvchilarga nafaqat yaxshi so'zlar bilan dalda beradi, balki qo'shimcha savollar asosida uning psixologik holatiga baho berib, zarur hollarda mutaxassisga murojaat etish kerakligini ham maslahat beradi.

2019-yilning aprel oyida London Qirollik Gospitalida saraton o'smasini olib tashlash bo'yicha operatsiya o'tkazildi. Bu operatsiya boshidan oxirigacha, xirurg taqqan Google Glass ko'zoynaklari orqali internet tarmog'ida translyatsiya etildi. 13 000 talaba-shifokorlar nafaqat to'g'ridan to'g'ri efirda xirurg ko'zlari bilan kuzatib turishdi, balki xirurgga savollar bilan ham murojaat qila olishdi. Xirurg ko'zoynagida savollar matn shaklida ko'rish maydoni periferiyasida namoyon bo'lgach, u savollarga og'zaki javob berib bordi. Ushbu operatsiyani butun dunyo real vaqtda istalgan mobil vositalarida ko'rishi mumkin bo'ldi. Doktor Shofiy Axmad texnologiyalarni yaxshi tushunadigan mutaxassis sifatida talaba-shifokorlar uchun yanada samarali o'rgatuvchi videolarni yaratish imkoniga ega 360 gradusli tasvirlar ustida tadqiqot olib bormoqda.

Videoyozuvlarni ko'rishda ham talabalar passiv kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun Medical Simulation Corp. tomonidan Simantha simulyatsiyali manekenlari ishlab chiqilgan. Ushbu texnologiya orqali talabalarning bemorlarni ko'ruvdan o'tkazish va davolash ko'nikmalarini yanada kuchaytirish mumkin. Talabani har bir harakati monitorda aks etib turadi, muolajaning ta'siri, maneken-bemorning holati haqida ham axborot berib turiladi.

VR texnologiyalar ayniqsa xirurgiyada keng tatbiq etilmoqda, chunki aynan ushbu sohada vizuallik va shifokor xatti-harakatida qaytuvchan aloqa ko'proq muhim rol o'ynaydi. Xirurgiyada mahorat tajriba asosida shakllanadi. Hech qanday maneken virtual trenajyorlarda sifatli bajarilgan operatsiya effektini bera olmaydi. Virtual trenajyorlar istagancha virtual tanalarni, namunalarni berishi, talabalarning xatolarini ko'rsatishi mumkin.

Stenford Universitetida tana a'zolari va tana qismlarining yuqori darajadagi dasturiy-apparat komplekslari ishlab chiqilmoqda va qo'llanilmoqda, bu talabalar uchun nafaqat vizual, balki taktil qaytuvchan aloqani ham ta'minlamoqda.

Inson tana a'zolarining raqamli modellari bilan ishlash jarayonida yetuk xirurglar ham juda nozik va murakkab muolajalarni mashq qilishadi. Bu shifokor harakatlarining aniqligini oshiradi, diagnostika va davolashga o'rgatadi, xatolarning va asoratlarning oldini olishga yordam beradi. Davolash ba'zida malakali shifokorlar ham duch kelmagan kamyob muolaja turlarini qo'llashni talab qiladi, real tajribaning yetishmasligini esa virtual trenajyorlar orqali to'ldirish mumkin.

VR texnologiyalar xirurgiya, terapiya, psixiatriya, psixoterapiya, oftalmologiya, stomatologiya, reabilitatsiya, anesteziologiya, radiologiya kabi sohalarda ham talabalarni o'qitishda, ham kasbiy-tibbiy faoliyatda keng qo'llanib kelinmoqda.

6.3. Kasb-hunar ta'limida innovatsion o'qitish texnologiyalari

Ta'limda zamonaviy innovatsion o'qitish texnologiyalarining qo'llanilishi masalalari va muammolari ko'pgina pedagog-olimlar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilar izlanishlarida o'z ifodasini topgan. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga ham innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish davr talabi bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim hujjat bo'ldi.

O'zR Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi bilan tanishish davomida "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi", deb ta'kidlagan edilar.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'lgan "Innovatsion yondashuv", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion pedagogika", "Innovatsion ta'lim" tarzidagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat⁶.

"Innovatsiya" (lot. **"novatio"** – yangilash, ingl. "innovation" – yangilik kiritish) yangilash, o'zgartirish, tatbiq etish, qo'llash degan ma'nolarni bildiradi. Har qanday yangilik ham innovatsiya bo'lavermaydi, balki mavjud tizimning samaradorligini yuqori darajada oshirishga olib keladigan o'zgarish, yangiliklarga innovatsiya hisoblanadi. "Innovatsiya" tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo'lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushunilgan. XX asrga kelib esa, yangi soha – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo'ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatlari o'rganila boshlandi.

Yangiliklar kiritish haqidagi fan faoliyati yangicha ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj innovatsiya, innovatsion xizmat ko'rsatish g'oyalarini tatbiq etishga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqqan.

Yangilanishlarni pedagogika faniga nisbatan qo'llaganda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish va uning natijalarini yaxshilashga qaratilgan pedagogik tizim ichida o'zgarishlar kiritish tushuniladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan noan'anaviy yondoshuv va metodlardan to'liq foydalaniladi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Saidahmedov, B.Farberman, N.Azizxo'jayeva, Sh.Shodmonov, G.Baubekova, G.Xalikova va boshqalar pedagogik yangilanishlarga ilg'or tajribaning xususiy shakli tarzida qaraydi. Ularni radikal yangiliklar bilan tenglashtirib, quyidagilar bilan bog'lab tushuntiradi: dolzarb muammoning yangi yechimi, ulardan foydalanish yangi sifat o'zgarishlariga olib keladi, ularni qo'llash tizimdagi boshqa komponentlarni ham sifat jihatidan o'zgartiradi. Bunda yangilanishlar tizimining bir sifatli holatdan ikkinchi holatga o'tishi tarzida tushuniladi.

Yangilik muayyan ta'lim tizimi ichida mavjud bo'lib, yangilanish asosida yuzaga keladi. Shu tarzda yangilanishni yangilik yaratish,

⁶ Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. – Т., 2000.

qo'llash va o'zlashtirish hisobiga ta'lim rivojlanishi jarayoni sifatida tushunish mumkin. Yangilanish ta'lim jarayonining qaysi bo'lagiga o'zgartirish kiritishni aniqlashdan boshlanadi.

Pedagogik yangilanish predmeti yangilanish jarayoni samaradorligi va ularni aniqlovchi omillar orasidagi bog'liqlik, shuningdek, o'zgarishlar samaradorligini oshirish maqsadida shu omillarga ta'sir etish usullaridan iborat.

Innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlarga ajraladi:

1. Yangi g'oyalarning tug'ilishi va yangilanish konsepsiyasining paydo bo'lish bosqichi. Bu shartli ravishda fundamental va amaliy izlanishlar natijasi tarzida yangilik yaratish deyiladi.

2. Yaratish bosqichi. Muayyan obyektga amalga oshirilgan yangilik-moddiy yoki ma'naviy narsa-namuna.

3. Yangilik kiritish bosqichi. Yaratilgan yangilik amaliyotga tatbiq etiladi, qayta ishlanadi. Bu bosqich kiritilgan yangilikdan yuqori samaraga erishish bilan yakunlanadi. So'ngra yangilikning mustaqil harakatlanishi boshlanadi. Yangiliklar qo'llanilish jarayonida yanada boshqa bosqichlarga ajraladi.

4. Yangiliklarni hayotga tatbiq etish bosqichi. Yangiliklarni boshqa sohalarga ham keng qo'llashda namoyon bo'ladi.

5. Muayyan sohada yangilikning turg'un xizmat qilish bosqichi. Yangilikni qo'llash davomida u o'zining yangilik xususiyatini yo'qotib boradi. Mazkur bosqich yangilik o'rniga undan ham samarali yangiliklarni tatbiq etish bilan yakunlanadi. Bir yangilik o'rnini undan ham samaraliroq bo'lgan boshqasi egallaydi.

6. Yangiliklarni boshqa yangilik bilan almashtirish maqsadida yangiliklar ko'lamini qisqartirish bosqichi.

Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar ikki turda kechadi:

1. Stixiyali ravishda amalga oshadigan innovatsiyalar.

Innovatsion jarayonni amalga oshirish shartlari, vosita va yo'llari tuzilishini to'liq anglamagan yoki uni tug'dirgan ehtiyojga bog'lanmagan holda amalga oshiriladi. Bu tarzidagi innovatsiyalar ko'pincha ilmiy asoslar bilan bog'liq bo'lmay, empirik asosda vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday innovatsiyalarga novator o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar faoliyatlarini misol keltirish mumkin.

2. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar ongli, maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy ishlab chiqilgan fanlararo faoliyat natijasi hisoblanadi. Ta'lim

sohasidagi innovatsiya ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, pedagogik jarayonni tashkil etishda yangiliklar kiritishni nazarda tutadi.

Ta'limdagi innovatsiyalar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar.** 1997-yil "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan asoslanadi. Uning natijasida ta'lim-tarbiya tizimi tubdan isloh etilib, ta'lim tizimining uzluksizligi shakllandi, 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi, yangi fanlar kiritildi va h.k.

- **O'qitish jarayonidagi innovatsiyalar.** O'qitishning innovatsion shakllari (trening, davra suhbat, interaktiv ma'ruza, interaktiv ekskursiya, videokonferensiya, virtual ma'ruza, virtual ekskursiya va b.), metodlari (Aqliy hujum, Klaster, Assesment, Qarorlar shajarasi va b.) va vositalari (interfaol doska, prezentatsiya, elektron darslik, grafik organayzerlar, virtual trenajerlar va b.) shakllandi.

- **O'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatidagi innovatsiyalar.** Aksiologik yondashuv (shaxsga oliy qadriyat sifatida qarash); akmeologik yondashuv (oliy nuqta, gullagan davr, rivojlanish cho'qqisi); kreativ yondashuv (yaratuvchanlik, ijodkorlik); refleksiya (ortga nazar).

Innovatsion jarayon bir necha bosqich va vositalar majmui yordamida ilmiy yangilik yoki g'oya, ijtimoiy yangilikka, shu qatorda ta'lim yangiligiga aylanadi. Bunda yangilik kiritishga innovatsiya natijasi sifatida qaraladi, innovatsion jarayon esa, umumiy tarzda quyidagi uch bosqichning rivojlanishi sifatida tushuniladi: g'oyalarni berish (ilmiy yangilik ochish), g'oyalarni amaliy jihatdan ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish.

Boshqaruvga ko'ra innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Funktsional imkoniyatlariga qarab, barcha pedagogik innovatsiyalar: yangiliklar samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydigan shartlar (ta'limning yangi mazmuni, innovatsion ta'lim muhitlari, ijtimoiy-madaniy sharoitlar); yangilik-pedagogik vosita, texnologik ta'lim loyihalari, metodik tavsiyalar va hokazo; ta'limning tashkiliy boshqaruviga oid yangiliklar (ta'limning sifatli xizmat qilishini ta'minlaydigan metodik kengashlar, ijodiy-ilmiy guruhlar tashkil etish, yechimlar).

2. Tizimli innovatsiyalar – novatorlikni qo'llab-quvvatlash, intellektual imkoniyatlardan foydalanishni kengaytirish, talabalarning qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalardir.

2. Innovatsiyalarni amalga oshirish va tatbiq etish sohasiga qarab: ta'lim mazmunida; o'qitish texnologiyalari, ta'lim tizimining tarbiyaviy sohasida; pedagogik jarayon qatnashchilari o'zaro ta'siri tizimida, pedagogik vositalar tizimida.

Ta'lim innovatsiyalari – bu muayyan muammo doirasidan kelib chiqadigan, aniq maqsad, vazifalarga ega innovatsiyalardir. Bular o'qituvchi va talabalar qiziqishlari asosida tuzilib, uzviylik xarakteriga ega bo'ladi. Bunday innovatsiyalar puxta tayyorlanib, ekspertlardan o'tadi va zarur vositalar bilan ta'minlanadi (kadrlar, moddiy, ilmiy-metodik ta'minot).

Innovatsion ta'lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

“Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan. Pedagogikada “Novatsiya”, “Innovatsiya” tushunchalari ko'p qo'llaniladi va ular bir-birini to'ldirib boradi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Ta'limga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha O'zR Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-fevraldagi PQ-3504-sonli qarori asosida “Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti” tashkil etildi.

O'z navbatida mazkur institut oldiga mutlaqo yangi, zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy innovatsion shakl va uslublarda tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlantirish institutida “Innovatsion muhit” yaratildi va barcha ta’lim muassasalariga keng tatbiq etilmoqda.

Ta’limni innovatsion rivojlantirish sohasida taraqqiy etgan davlatlarning tajribasini chuqur o’rganish va tatbiq etish, Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Xalqaro loyihalarni amalga oshirish bugun har qachongidan ham muhimlik kasb etadi.

Jumladan, bugungi kunda turli ta’lim loyihalari bo’yicha 14 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelinmoqda, shundan 5 tasi bilan turli yo’nalishlarda loyihalar olib borilmoqda (xususan, Shveysariya Hukumatining “Kasb ko’nikmalarini rivojlantirish” loyihasi, Britaniya Kengashining “Bandlikni ta’minlash bo’yicha kasb ko’nikmalari” dasturi, GIZning “Markaziy Osiyoda kasb-hunar ta’limi” regional loyihasi, YeTFning “Turin jarayoni” loyihasi, YUNESKOning “Pedagoglarning AKT ko’nikmalarini rivojlantirish” loyihasi).

YUNESKOning O’zbekistondagi vakolatxonasi, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Shveysariyaning O’zbekistondagi Elchixonasi (Kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirish loyihasi), Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa ta’lim fondi, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Koreya Elchixonasi huzuridagi Koreya ta’lim markazi, Xitoyning CCN Universitetlar uyushmasi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan turli yo’nalishlarda ta’lim loyihalari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xalqaro ekspertlar jalb qilinib, o’zbekistonlik mutaxassislar bilan tajriba almashish va malaka oshirish ishlari tizimli yo’lga qo’yilmoqda.

Kelajakda, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik sohalarini yanada kengaytirish, xorijiy investitsiya va grantlarni jalb qilib, birgalikda loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, bugungi kunda Yevropa Ittifoqining grant mablag’larini qishloq xo’jaligi sektorida kadrlar tayyorlash bo’yicha ta’lim tizimiga jalb qilish, Osiyo taraqqiyot bankining imtiyozli kredit va grant mablag’lari hisobidan Loyihani amalga oshirishda faol ishtirok etish, GIZ tashkiloti bilan “Markaziy Osiyoda kasbiy ta’lim” dasturi yangi fazasini amalga oshirish shular jumlasidandir. “Yevropa ta’lim fondi” bilan hamkorlikni rivojlantirib, “Turin jarayoni” loyihasi doirasida malakali xorijiy ekspertlar bilan tajriba almashishni kengaytirish maqsad qilib qo’yilgan.

Bularning barchasi ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishning yangi tendensiyalarini joriy etish, taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'limda erishgan bilim va tajribalarini o'rganish hamda tatbiq etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan maksimal darajada foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Ushbu institutda "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning ahamiyati", "Pedagoglar uchun yangi malaka talablari", "Ta'limda innovatsion muhit", "Kelajak ta'lim muassasalari", "Worldskills" harakati, "Amaliy kvalifikatsiya markazi", "Ta'limda malaka oshirish tizimining yangi modeli", "Ta'limning o'quv metodik ta'minoti", "Ta'lim tizimini baholash va malaka sertifikatini", "Kasb-hunar ta'limida davlat va xususiy sektor hamkorligi", "Ta'lim tizimida mutaxassislarining kasb etikasi", "Ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy metodlari", "Ta'lim tizimida innovatsion ta'lim resurslari", "Elektron ta'lim resurslari", "Open Educational Resource, MOOC in TVET", "Ta'lim tizimida sifatni ta'minlash", "Ta'lim tizimiga "Sanoat 4.0" strategiyasini joriy etish" masalalari bo'yicha taqdimotlar o'tkaziladi.

Mazkur taqdimotlarni amalga oshiradigan "Innovatsion auditoriya", "Innovatsion laboratoriya", "Raqamlashtirish laboratoriyasi", "Ijtimoiy lift", "Osma kitoblar", "Innovatsion kutubxona", "Innovatsion ta'lim muzeyi" tashkil etilgan.

Institutning har bir xonasidagi ta'limning yangi elementlari – interaktiv doskalar, planshet doskalar, planshet partalar, aylanadigan kitob javonlari tinglovchilarda yangi innovatsion muhit kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda – ilm o'rganish, ta'lim olish, ijod qilish insonga rohat baxsh etishi uchun, unda yangi g'oyalar, kreativlik, tashabbuskorlikka rag'bat uyg'otish uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratildi.

Institutga kirishda uch tilda "Kirish faqat ongini o'zgartirishga qodir insonlar uchun", chiqishda esa "O'qidingmi, angladingmi, idrok qildingmi, ta'lim oldingmi?" so'zlari zamonaviy ko'rinishda bitilgan. Har bir so'z inson omilini tubdan isloh qilish, rivojlanish sari o'zgarishga, idrok qilish, tafakkur qilish, kreativ yondashishga, xorij davlatlaridagi ta'lim tizimi bilan raqobatbardosh bo'lishga undaydigan ramziy ma'no anglatishini ko'rish mumkin.

Interaktiv doskalar yangi pedagogik texnologiyalar orqali dars o'tishga imkon beradi. Pedagog kompyuterida, noutbukida bajaradigan barcha amallarni ushbu interaktiv doska orqali bajaradi. Dasturlarni ochish, dasturlarga ma'lumot kirgizish, tahrir qilish va taqdimot qilish jarayoni orqali axborot texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari ketma-ketlikda oshirib boriladi.

Ma'lumki, pedagogik innovatsiya faoliyatining sub'ekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga ega bo'ladi.

Innovatsion jarayonning mohiyati – o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog talabalarga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati innovatsion uslubning tavsifi, uning maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Talabalarning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subyekti sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarni anglay bilish; intellektual mehnatning yangi turlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining ijtimoiy roli funksiyasini bajarishga faol munosabatda bo'lish va hokazo.

O'qitish jarayonining asosi bu – o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etish, har ikki tomon ijobiy natijaga erishishi, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olishi, ijodiy ishlay olishi, izlanishi, tahlil eta olishi, xulosa qila olishi, o'zini va guruhni, guruh esa ularni baholay olishi uchun imkoniyat va sharoit yaratilishi hisoblanadi. Har bir ta'lim sohasi, o'quv predmeti, mavzu va mashg'ulot turining o'ziga xos innovatsion o'qitish texnologiyasini yaratish mumkin.

Innovatsion pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonini faollashtirishni, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatining ongli tahlili; me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish; o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'lishi lozim.

6.4. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha noan'anaviy o'qitish usullarini qo'llash

O'qitishning noan'anaviy texnologiyalari talabalar faolligini oshirishga, pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlik va qaytuvchan aloqa o'rnatilishiga, yangi zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan. Bunda noan'anaviy o'qitish orqali talabalarni majburiy itoatkorlikdan ongli mas'uliyatlilikka yo'naltirish amalga oshiriladi.

Noan'anaviy ta'limda talabalar quyidagilarni o'rganadilar:

- nazariy bilimlarni amaliy qo'llash usullarini izlab topishni;
- o'quv materialini birgalikda muhokama qilishni;
- tashabbus ko'rsatish, shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifodalash va asoslashni;
- individual farqlarga qaramasdan hamkorlik qilishni, layoqatlarini namoyon qilishni;
- bir-birining muvaffaqiyatini ko'rsatish, bir-birini qo'llab-quvvatlashni;
- umumiy vazifani bajarish uchun tuzilgan kichik guruhda mahsuldor ishlashni.

Markazda talaba bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- talabaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- talaba tashabbusi va mas'uliyatini qo'llab-quvvatlash;
- lider-yetakchilar sonini ko'paytirish;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- o'qituvchi-talabalar uchun o'quv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs;
- o'quv jarayonini baholash.

O‘qitishning noan’anaviy modellarini shartli ravishda 3ga ajratish mumkin:

– hamkorlikda o‘rganish modeli – talabalarning guruhlarda o‘zaro ishlashi asosida ta‘lim olishini ko‘zda tutadigan metod;

– modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddallashtirilgan ko‘rinishini (modelini) auditoriyada yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyati asosida ta‘lim olishini ko‘zda tutuvchi metod.;

– o‘rganishning tadqiqot modeli – talabalarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metod.

Interaktiv o‘qitish texnologiyalari. Bugungi kun pedagoglarining asosiy vazifasi talabada erkin fikrlash, mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik, faollik, mustaqil o‘qish va rivojlanish malakasini hosil qilishdir. Ma‘lumki, materialni yaxshi o‘zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o‘tirish yetarli emas, balki ushbu material ustida faol ishlash, o‘ylash, muhokama qilish, takrorlash, yordamchi vazifalarni bajarish kerak.

Interaktiv (ingl. “interaction”, “inter” – o‘zaro, “action” – harakat, faollik bo‘lib, o‘zaro faoliyat, o‘zaro harakat) o‘qitishda o‘qituvchidan mashg‘ulot davomida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir darajasining bir ko‘rinishidan ikkinchisiga mavzu maqsadiga bog‘liq holda ustamonlik bilan ravon o‘tishi talab etiladi. Ta‘lim oluvchi mashg‘ulotda “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi, jamoa bo‘lib fikrlashi va ishlashi orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv faoliyat turlari quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi:

- pedagog – talaba
- talaba – talaba
- pedagog – talabalar guruhi
- talaba – guruh
- guruh – guruh
- talaba – kompyuter

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

• talabani mustaqil fikrlash, ijodiy yondoshish va izlanishga yo‘naltiradi;

- talabanning o‘quv jarayonida o‘qishga bo‘lgan doimiy qiziqishini va motivatsiyasini ta’minlaydi;
- pedagog va talabanning doimiy hamkorlikdagi faoliyatini, qaytuvchan aloqani tashkillashtiradi.

Interaktiv usullar ta’lim oluvchilarni mustaqil bilish jarayonlarini faollashtirish asosida, ularning tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi turli xil strategiyalar majmuasidan iborat. Bu usullarda bilimlarni egallash, o‘zlashtirish uchun o‘quv maqsadi aniq qo‘yiladi, motiv hosil qilish va talaba tomonidan materialni o‘zlashtirishga imkon beradigan turli xil sharoit yaratiladi.

Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki, o‘quv faoliyatini turli xil shaklda, qiziqarli, jonli, sermazmun, mahsuldor qilib tashkil qilish hamda jadallashtirish, faollashtirishdir. Bunda talabanning mustaqil fikrlashi rivojlanadi, bilimi ortadi, mustahkamlanadi, muloqot malakalari takomillashadi, shaxsiyati shakllanadi va o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi.

Interaktiv usullardan foydalanilganda shaxsning barcha psixik bilish jarayonlari (sezgi, diqqat, idrok, tasavvur, xotira, aql, tafakkur, nutq, xayol), psixik holatlar (his-tuyg‘u, emotsiya, qiziqish, iroda, ruhlanish) faol ishga tushib, talaba vazifani bajarish, muammoni yechish uchun mustaqil ravishda izlanishga, qidirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga va rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Pedagogik adabiyotlarda 100 dan ortiq interaktiv metod, texnologiya va strategiyalar bayon qilingan. Xususan:

- “Miya hujumi” (“Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”)
- “Kim ko‘proq, kim tezroq?” / “Blits-so‘rov”
- “Muammoli vaziyat”
- “Akademik munozara”
- “Bahs-munozara” / “Debat”
- “Buni bilasizmi?” / “Differensial diagnostika”
- “Rolli o‘yin”
- “Bumerang” / “Charxpalak”
- “Qor bo‘ron”
- “Akvarium”
- “Uch bosqichli intervyu”
- “Qora quti”
- “Sinkveyn”
- “Galereyani aylanish” / “Pinbord”

- “Asalari galasi”
- “3x4”
- “Nazariya va amaliyot”
- “SCORE”
- “Chaynvord”
- “Esse”
- “Muzyoror”
- “Kubik”
- “Intervyu”
- “Press-konferensiya”
- “Intellectual futbol”
- “Toifalash jadvali”
- “Zinama-zina”
- “Rezyume” / “Yelpig‘ich”
- “Venn diagrammasi”
- “Pinbord”
- “Klaster” (Tarmoqlar)
- “Nima uchun?”
- “Qanday?”
- “Baliq skeleti”
- “Nilufar guli”
- “Insert”
- “SWOT-tahlil”
- “FSMU”
- “Konseptual jadval”
- “BBB”
- “Kaskad”
- “Piramida” / “Ierarxiya”
- “T-sxema”
- “Assesment”
- “Aql xaritasi” (“Mind map”)
- “Tushunchalar tahlili”
- “Loyiha”
- “Keys-stadi”
- “Skarabey”
- “Rotatsiya”
- “OSKI” (“OSCE”)
- “Blits-o‘yin” (tartiblashtirish)
- “Tayanch konspekt” va b.

Ushbu metod, texnologiya, grafik organayzer va strategiyalarning har biri o'zining yaratilish tarixi, mualliflari, maqsad-vazifalari va qo'llanilish xususiyatlariga ega. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ham kasbga o'qitish samaradorligiga erishishda, ta'lim oluvchilarni faollashtirishda, ular uchun o'qitishning turli xil usul va shakllarini taqdim etishda noan'anaviy o'qitish usullarini keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Kichik guruhlarda ishlash metodlarining xususiyatlari.

Ushbu metodlar bo'yicha ishlash uchun 3–5 kishidan iborat kichik guruhlar tuzilib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish va ish vaqtini ko'pi bilan 1–1,5 soat qilib belgilab olish zarur.

Ushbu kichik guruhda ishlash metodika yoki strategiyalari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni biroz unutib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o'quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning qiymati yangi o'quv axboroti ustida faol ishlash va mustahkamlashdan iborat.

Maqsadi:

1. Talabalarni o'qish jarayoniga qiziqtirish, faol qatnashishga jalb etish va bir-biridan o'rganishiga imkon berish.

2. Talaba-pedagog rollarini o'zgartirish.

Afzalliklari:

1. Talabalar uchun o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashishga imkon beradi.

2. Kichik guruhlarda talabalar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo'lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

3. Diqqat markazini pedagogdan (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi) talabalarga (faol qatnashuvchi) ko'chiradi.

4. Talabalarni guruhiy ish uchun ko'proq mas'uliyat his qilishga, faollashishga, hamkorlikka yo'naltiradi (sog'lom raqobat).

Kamchiliklari:

1. Ko'p vaqt va qulay qo'shimcha joy bo'lishini talab qiladi.

2. Talabalardan birortasi boshchilik qilishga o'ta boshlashi, guruh qarshilik qilmasa, nazoratni o'z qo'lga olishi, tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin.

3. Guruh o'ziga berilgan topshiriqdan chalg'ib, mavzudan chetga chiqishi, topshiriqni noto'g'ri tushinishi yoki yo'l-yo'riqlarga aniq amal qilmasligi mumkin.

4. Talabalarni individual baholash imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

Kichik guruhlar bilan ishlashda pedagog quyidagilarga amal qilishi lozim:

– talabalarni guruhlariga shunday taqsimlash zarurki, o‘zlashtirish darajasi turlicha, bir-biri bilan tanishligi, yaqinligi kam talabalar birga bo‘lishsin, ayrim hollardagina ularning o‘zlari guruhlariga birlashib olishlariga imkon berish mumkin;

– ish maqsadi, yo‘l-yo‘riqlarni, topshiriqni aniq va ravshan qilib ta‘riflab berish, uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qilish lozim;

– talabalarning yo‘l-yo‘riqlarga qanchalik aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqdan chetga chiqishmayotganini nazorat qilib tekshirib turish zarur.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari.

Mumkin va bajarilishi shart:

- Yangi bilim va ma‘lumotlarni egallashga intilish
- Ish maqsadini
- Ijobiy kayfiyatda bo‘lish
- Tartib-intizomga rioya qilish
- Vaqtdan unumli foydalanish
- Guruhning barcha a‘zolari ishtirok etishi va fikr bildirishi
- O‘zgalar fikrini hurmat qilish va eshitish
- Mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik, faollik va ijodkorlikni namoyon qilish

- Fikrlarning sifat va miqdoriga e‘tibor berish
- Fikrni qisqa, aniq va ravshan ifodalash
- Savol berish madaniyatiga rioya qilish
- Hamjihatlikda ishlash, o‘zaro yordamni amalga oshirish

Mumkin emas:

- Fikrni bo‘lish
- Tanqid qilish
- Mavzudan chetga chiqish
- Boshqalarning ishtirokiga yo‘l bermaslik
- Bildirilgan fikrlarni takrorlash
- O‘zaro hurmatsizlik

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. Kasbiy mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Kasbga o'qitishda ta'lim mazmunining qanday komponentlari mavjud?
3. Tibbiy ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalariga misollar keltiring.
4. Sun'iy intellekt yordamida o'qitishning qanday xususiyatlarini bilasiz?
5. Innovatsion ta'lim tushunchasiga ta'rif bering.
6. Kasbiy ta'limda innovatsion jarayonlarning o'rnini izohlang.
7. Kichik guruhlarda ishlash qanday xususiyatlarga ega?
8. Kichik guruhlarda ishlash qoidalarini ayting.

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Tibbiy ta'limda innovatsion o'qitish texnologiyalarining dolzarbligi va ahamiyati.
2. O'zbekistonda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari.
3. Mavzu bo'yicha tayanch iboralarga ta'rif bering va mohiyatini tushuntiring.

VII BOB.

KASB TA'LIMI JARAYONIDA “KEYS-STADI” VA “LOYIHA” USULLARINI QO'LLASH

Bobning qisqacha mazmuni: “Keys-stadi” texnologiyasi haqida tushuncha, “Keys-stadi”ning o'ziga xos xususiyatlari, “Keys-stadi” maktablari va turlari, keyslar tipologiyasi, kasb ta'limida keys-topshiriqni bajarish strategiyalari, loyihaviy ta'lim texnologiyasining dolzarbligi, kasb ta'limida loyihaviy ta'lim texnologiyalari, o'quv-loyihaviy faoliyat: tuzilishi va mazmuni, o'quv loyihalari turlari va qiyosiy tavsifi.

Tayanch iboralar: pedagogik texnologiyalar, keys-stadi texnologiyasi, hamkorlik pedagogikasi, muammoli ta'lim, keys-topshiriqlar, strategiya, faollik, loyihaviy ta'lim, pedagogik vaziyat, loyihalash usuli.

7.1. “Keys-stadi”ning o'ziga xos xususiyatlari.

Kasb ta'limida keys-topshiriqni bajarish strategiyalari

O'qitish jarayonida vaqt davomida sinovdan o'tgan, dunyo ta'limida unumli qo'llanilayotgan ko'plab zamonaviy yondashuvlar va samarali usullar keng tatbiq etilmoqda. Bu asosan pedagogik texnologiyalarda to'la namoyon bo'ladi. Pedagogik texnologiyalar — shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba-yoshlarda mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, intellektual qobiliyatlar, tanqidiy yondashuv xususiyatlari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda harakatlarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o'qitish texnologiyasi”, “ta'lim texnologiyasi”, “ta'limda o'qitish texnologiyalari”, “ilg'or pedagogik texnologiyalar” shakllari pedagogik adabiyotlarda keng foydalanila boshlandi hamda mualliflar tomonidan ta'lim texnologiyasi jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga ko'ra ko'plab (uch yuzdan ortiq) ta'riflar yaratildi.

Pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijalarini kafolatlash va xolisona baholash, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish usul va metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi ta'lim-tarbiya amaliyotida eng samarali va tejimli o'quv jarayonlarini tanlashdan iboratdir.

Pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida ta'lim-tarbiya oluvchilarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirishni kafolatlash jarayonidir (N.S.Sayidahmedov).

Zamonaviy pedagogik texnologiya loyihalari quyidagi qonuniyatlar va amaliyotning tarkibiy tuzilmasi asosida amalga oshiriladi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni tuzilishi va mazmuni jihatdan yaxlitligi va birligining saqlanishi.

2. Ta'lim jarayonini qulaylashtirish (oz vaqt va kam kuch sarflab yuqori natijaga erishish).

3. Pedagogik amaliyotda milliy asoslangan didaktik yangiliklar, yangi tartib-qoidalarni joriy etish asosida zamonaviylikni ta'minlash.

4. Ta'lim-tarbiyada yangi shakl va vositalarning faol uslublarini didaktik talablarasosida qo'llash, izlanish va tadqiqotlar olib borish orqali ilmiylikni ta'minlash.

5. O'quvchi va o'qituvchi faoliyatini oqilona uyushtirish, ularni ta'lim uchun maqsad birliklarini yuqori axloqiy fazilatlar asosida tashkil etish.

6. Axborot texnologiyasi va texnika vositalaridan foydalanishning didaktik qonuniyatlari asosida pedagogik faoliyatni jadallashtirish.

7. O'quv jarayoni uchun zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish.

8. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallash hamda butun pedagogik jarayon natijalarini xolisona baholash uchun test va reyting uslublaridan samarali foydalanish.

9. Ta'limning didaktik qonuniyatlariga asosan ta'lim-tarbiyani tabiatga mosligini ta'minlash.

10. Ta'lim-tarbiya jarayonini jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti istiqbollarga moslashtirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha o'quvchilarning bilish jarayonlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi va u quyidagilar bilan farqlanadi:

a) oldindan loyihalashtirish;

b) yakuniy ijobiy natijalarni kafolatlash.

Zamonaviy pedagogik texnologiya komponentlari:

a) ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish, har bir o'quvchining imkoniyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya berish;

b) ta'lim-tarbiya jarayonini tabaqalashtirish. Har bir o'quvchilarni aqliy imkoniyatlari, qobiliyatlari, iqtidorlari, qiziqishlari va shaxsiy sifatlari asosida tabaqalashtirilgan ta'lim-tarbiya berish;

d) o'quvchi ta'lim-tarbiya jarayonining ham obyekti, ham subyekti ekanligini inobatga olib unga yaqindan turib ko'mak berish.

Keyingi o'n yillikda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorligidagi faoliyatga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. "Hamkorlik pedagogikasi"ga asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan yana biri interaktiv usullardir. Ta'lim oluvchi bilan ta'lim beruvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan bunday o'qitish uslubi o'quvchilarning faolligini oshirishga, bir-birlarini tushunishga, o'qitishga, birgalikda rivojlanishga imkon beradi.

a) Interfaol usullarning maqsadi va vazifalari:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlarini bajarish.

3. O'quvchilarni mustaqil fikrlashlarini shakllantirish.

4. O'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirish.

5. O'qituvchilarning tashkilotchilik va yo'naltiruvchilikka undash.

Bugungi kunda muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarni bo'lajak kasbga tayyorlashda "Keys-stadi" va loyihaviy ta'lim texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. "Keys-stadi" (lot. "casus" – hodisa, ingl. "case" – aniq vaziyat, amaliy holat, yig'ma, to'plam, "study" – o'qish, ta'lim) o'quv uslubi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat asosida talabalarni muammoni aniqlash va uni maqsadga muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks

ettiruvchi yasama (sun'iy) vaziyatga asoslangan. U ta'lim oluvchilarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

“Keys-stadi” birinchi bor 1870-yilda Garvard universitetining huquq maktabida qo'llanilgan. Hozirgi kunda uning 2 xil yo'nalishi mavjud: Garvard (muammoga yagona yechim qabul qilinadi, ish hajmi katta) va Manchester (muammoga bir nechta variantlarda yechim qabul qilinadi, ish hajmi kichik).

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: ta'lim oluvchiga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Keys ta'lim oluvchilarga tahlil yo'llarini izlashda erkinlikni, muammolarni identifikatsiya (aynan o'xshash qilib) qilish va yechish yo'llarini taqdim etadi.

“Keys-stadi” ta'lim usuli sifatida quyidagi funksiyalarni (vazifalarni) amalga oshiradi:

- ta'limiy: (nazariy bilimlarni egallagandan so'ng) o'rganilgan mavzu (kurs) bo'yicha bilimlarni mustahkamlash; amaliy vaziyatlar tahlili sxemasi bilan tanishish malakasini (seminar mashg'ulotlari davomida, asosiy kurs jarayonida) hamda guruh yoki individual ravishda muammoni tahlil qilish va qarorga kelish (trening tartibi doirasida) ko'nikmalarini qayta mustahkamlash;

- rivojlantiruvchi: bilim orttirish, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, nutq, o'z-o'zini yo'naltirish, real sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- motivatsion: yangilikka tayyor turish va mustaqil qaror qabul qilishga qiziqtirish;

- tarbiyaviy: javobgarlik, mas'uliyat, mustaqillik, kommunikativlik, empatiya, refleksiyaning shakllantirish;

- nazorat-analitik: o'quv axborotini egallash sifatini nazorat qilish (ta'lim dasturi so'ngida).

“Keys-stadi” texnologiyasining negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning

usul va vositalari, o'qituvchi va talaba (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

“Keys-stadi” texnologiyasi talabalarda o'quv predmetini mustaqil o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

“Keys-stadi” yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi:

1. Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va zarur emasga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikr lay olishi kerak).

2. Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

3. Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).


4. Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishonitirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

5. Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim).

6. O'z-o'zini tahlil qilish (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim).

Samarali “Keys-stadi” quyidagi talablarga javob bera olishi zarur: maqsad aniq ifoda etilishi; muayyan darajada murakkab bo'lishi; ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish; tezda samarasizga chiqmasligi; milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi; biznes, ta'lim yoki boshqa sohalarga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi; bugungi kun dolzarb bo'lishi; talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi; bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi; bir necha yechim (qaror)ga ega bo'lishi.

“Keys-stadi” metodining texnologik modeli quyidagichadir:



7.1-rasm.

Odatda keyslar bir necha turda bo'ladi, masalan:

- 1) talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar;
- 2) muammoning yechimi va qarorlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar;
- 3) qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar.

Ularni tayyorlashda ommaviy axborot vositalari, darslik va o'quv qo'llanmalarning materiallaridan foydalanish mumkin.

Keyslar qog'oz variant (jadval, diagramma va sxemalar vositasi)da, multimedia va video ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida keys: ochiq muhokama yoki individual, guruhli so'rov asosida qo'llaniladi. Undan ta'lim jarayonida, talabalar bilimni baholashda foydalanish imkoniyati mavjud. Muammoli vaziyatlarni yechishda quyidagi tuzilmaga ega hisobot taqdim etiladi:

1. Annotatsiya.
2. Kirish.
3. Muammoning bayoni.
4. Muammoni yechish uchun topshiriq.

Taqdim etilayotgan keys bo'yicha pedagogik annotatsiya quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi:

1. O'quv predmeti.
2. Mavzu.
3. Keysning asosiy maqsadi.

4. O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar.

5. Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

5.1. Talaba bilishi kerak.

5.2. Talaba amalga oshirishi kerak.

5.3. Talaba ega bo'lishi kerak.

6. Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.

7. Texnologik xususiyatlarga ko'ra keysning tavsifnomasi.

Keys bo'yicha topshiriq bajarilgach, talabalar taqdimot (u og'zaki yoki ko'rgazmali (vizual) shaklda bo'lishi mumkin) va hisobot tayyorlaydi.

Taqdimotga tayyorgarlik ko'rishda quyidagiga e'tibor qaratilishi zarur:

1) taqdimotning jihozlari va vaqti;

2) taqdimotning tarkibiy tuzilmasi;

3) taqdim etilish darajasi;

4) vizual vositalar;

5) repetitsiya;

6) chiqishni rejalashtirish;

7) erkin chiqish qilish.

Keyslarni qo'llashda o'qituvchi ham faol, ham sust ishtirok etishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda globallashuv ta'lim sohasida turli mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishiga imkoniyat yaratdi. Buning natijasida O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy mamlakatlar amaliyotida faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash imkoniyati yuzaga keldi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning zamonaviy ta'limi asosini muammoli ta'lim texnologiyalari tashkil etmoqda. Muammoli ta'lim texnologiyalari talabalarni o'zida muayyan muammoni xarakterlovchi real hayotiy voqealarni tahlil qilish, fikrlash, uning yechimini topish asosida o'quv fanlarining asoslarini puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

7.2. Kasb ta'limida loyihaviy ta'lim texnologiyasi

Ta'lim jarayoni har bir resursdan, jumladan, inson uchun eng cheklangan resurs vaqtdan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Demak, har bir faoliyatimizni oldindan har tomonlama samarali rejalashtirishimizni talab qiladi. O'quvchi-talabalarda bunday ko'nikma va malakalarni loyihaviy ta'lim texnologiyalari yordamida hosil qilish mumkin.

O'qituvchilarning umumkasbiy va maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindan ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichida o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin tutadi.

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi.

Loyihalash (lot. "projectus", ingl. "project" – olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz, asos, reja) – kelajakdaamalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrning mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini to'la ochib beradi.

Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchiga talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtdan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy mutaxassislik fanlarini chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;

– o‘z faoliyati natijasiga mas’ul bo‘lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to‘g‘rilash;

– turli yechim, takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);

– jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag‘batlantiradi.

Loyihalash metodini qo‘llab, dars o‘tish jarayonida o‘quvchi, talabalarning vazifasi:

– iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O‘qituvchining vazifasi:

– o‘quvchi, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlari unumli bo‘lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni tibbiyotga oid fanlarni o‘rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biror-bir kasallikka tashxis qo‘yishi, turli tanlovlarda qatnashish uchun bir tashhis doirasida loyihalar ishlab chiqishni o‘rganadilar. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya’ni darsni qanday o‘tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o‘z faoliyatlarini rejalashtirishni o‘rganadilar. Shu bilan birga mazkur metodning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni albatta hisobga olish zarur.

Birinchidan, loyihalash metodini mavzular, alohida predmetlar bo‘yicha qo‘llash juda qiyin. Chunki, bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, ularni bir fan doirasida hal qilish mumkin emas. Ikkinchidan, barcha talabalar ham loyiha tayyorlab, qo‘yilgan muammoni yecha olmaydi. Uchinchidan, bu metod o‘qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o‘z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishni talab qiladi.

Loyihalash metodini qo‘llash uchun birinchi navbatda loyihalash obyektini aniqlash lozim. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasi qanday bo‘lishi belgilanadi. Bu o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo‘lishi mumkin. Loyiha talabalarning o‘z xohishlari, qiziqishlariga ko‘ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo‘lishi mumkin yoki o‘qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to‘plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo‘yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

Maqsad aniqlangach, loyihaning mazmuni belgilanadi:

1. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi, loyihaning umumiy tavsifi oydinlashadi, aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

2. Loyiha qatnashchilari belgilanadi.

Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir-birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ularning guruhiga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketmasligi, loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq belgilab qo'yilishi zarur.

3. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uning barcha muddatlari bilan ko'rsatiladi.

4. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1-bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2-bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar, material va axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar, jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar, namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3-bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xonaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida taxlanadi.

4-bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqrizga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavalantirishi kerak. Matnda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5-bosqich. Ish taqrizga beriladi, loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasi e'lon qilingach, tugallangan hisoblanadi.

6-bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida hay'at yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Hay'at a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi.

Hay'at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlari mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.

Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari

7.1-jadval

№	Mezonlar	Eng yuqori ball
1	Tanlangan muammoning dolzarbligi	5
2	Muammoning o'rganilganlik darajasi	5
3	Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi	5
4	Tanlangan muammoning qisqacha mazmunining yoritilishi	5
5	Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi	5
6	Ko'rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanish	5
7	Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalari ko'rsatilishi va asoslanishi	5
8	Rasmiylashtirish sifati	5

Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o'rganadilar. Ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri strategiya tanlash, aniq masala-muammolarni yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi ularning ishini kuzatadi, maslahatlar beradi va qo'llab-quvvatlaydi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga ko'ra uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlar mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi.

Ishchi guruhlar ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari tuzgani ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi. 2- va 3-ishchi guruhidan 1-ishchi guruhga o'tishga imkon beriladi. Kichik guruhlarda har bir o'quvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanish mumkin.

Individual usulning laboratoriya usulidan farqi, talabalar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani hal etishga harakat qiladi. Ushbu usul talabalar bilimini chuqurlashtiradi, mahoratini oshiradi, shuningdek, ularning o'rganish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

Loyihalash metodini amalga oshirish bosqichlari

7.2-jadval

Bosqichlar	Mazmuni	Metodi, shakli
1-bosqich, tayyorgarlik	O'qituvchi talabalarga tibbiyotda qanday muammolar bor, o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan muammolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlarni o'zi tayyorlaydi.	Aqliy hujum. Mustaqil ish
	O'quvchi talabalarga loyihalash mazmuni, loyihalash ob'ekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi.	Bayon qilish
2-bosqich	O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan muammoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi.	Ixtiyoriy
3-bosqich	O'qituvchi loyihani qanday tayyorlashni tushuntiradi. Talabalar faqat loyiha tayyorlaydilar. Uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki uni bir dars jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi).	Bayon qilish
Asosiy qism	Talabalar loyiha tuzishga kirishadilar. Loyihalar taqdimoti	Mustaqil kichik guruh
Yakuniy qism	O'qituvchi o'quvchi-talabalarni baholaydi. Xato va kamchiliklarni ko'rsatadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi.	

Bu metodni qo'llash, kurs ishi, diplom ishi, bitiruv malakaviy ishi bajarishda yaqqol namoyon bo'ladi. Buni har bir talaba individual tarzda bajaradi.

Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyat; oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlarni namoyon bo'ladi. Tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozda taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks ettiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali hal etilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur.

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq.

Agar pedagogik vaziyat yetarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda pedagogik vazifalarning hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigina kasbiy faoliyatni boshlagan o'qituvchi tajribasizligidan pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi.

Ammo ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qaraydilar. Natijada pedagogik faoliyatda nomutanosiblik vujudga keladi: pedagog o'z faoliyatining pedagogik maqsadlarni hal etilishini ta'minlay olish-olmasligini o'ylab o'tirmay,

o'quvchilarni faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi. Pedagogik faoliyatning yana bir nomutanosiblik tomoni shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni ikkinchi darajali, funksional, o'tkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar.

Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlarning tahlili vaziyat o'rnini aniqlashdan tashqari, butun pedagogik jarayonda tarbiyachi, tarbiyalanuvchi va ular o'rtasidagi munosabat hamda ta'lim mazmuni, samarali vosita va pedagogik shart-sharoitlar kabi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ma'lumotlarning tahlili pedagogik jarayon mohiyati, jamoa va alohida o'quvchilar harakatlari holatini aniq vaziyatlarda rejali o'rganish kabi ilmiy dalillarga ega bo'lishga yordam beradi. Ushbu dalillar amaliy faoliyat asosini tashkil etadi. Mavjud dalillar pedagog faoliyat jarayonining kechishi va kutilgan natijaning kafolatlanishini tashxislashga imkon beradi. Bizning nazarimizda mazkur o'rinda "tashxis" tushunchasining mohiyatini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tashxis (yunon. "diagnosis" – bilish, tez anglab olish) dastlab tibbiyotda qo'llanilgan tushuncha hisoblanib, kasallik mohiyati va bemor holati har tomonlama izchil o'rganilganini anglatuvchi shifokor xulosasi sifatida e'tirof etib kelingan.

So'nggi yillarda "tashxis" tushunchasi amaliy pedagogikada ham keng qo'llanilmoqda. Pedagogik tashxis odatda pedagogik jarayonning psixologik, subyektiv xususiyatlarini inobatga olish (psixodiagnostik tekshiruv) asosida qo'yiladi. Psixodiagnostik tekshiruv o'quvchi shaxsi hamda uning faoliyatini yaxlit yoki ma'lum jihatlarini alohida qamrab olishga asoslanadi.

Malakali pedagogik tashxisning zaruriyati o'qituvchidan o'quvchi shaxsini o'rganish metodlari va maxsus metodikalarni, jamoa, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayon xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Tashxis qo'yish ta'lim (yoki tarbiya) maqsad va vazifalarini hal etishning umumiy talabi hisoblanadi. U maqsadlarning aniqligi, bir xilligi, ularni bajarish usullari, o'lchash va baho berish bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik tashxis asosini o'quvchi shaxsini har tomonlama bilish, jamoa sifatida guruhning xususiyatlarini o'rganish, aniq pedagogik vaziyatlarda ma'lumotlarni tahlil etish kabi holatlar tashkil etadiki, ular

ta'lim jarayonini loyihalashning keyingi muhim bosqichiga o'tish, ya'ni, pedagogik jarayonni oldindan ko'ra bilish imkonini yaratadi. Bu holat pedagogik maqsadning shakllanishiga olib keladi va maqsad asosida puxta o'ylangan pedagogik vazifalarni belgilash imkonini beradi. Shaxsning rivojlanish darajasi ta'lim maqsadlari bilan uyg'un bo'lgandagina pedagogik maqsadga erishmaslikning oldini olishga erishiladi. Ya'ni, pedagogik maqsad pedagogik tizimning muhim omili sifatida muammolarni muqarrar hal etadi.

Pedagogik oldindan ko'ra bilish obyekt haqidagi ma'lumotlarni oldindan o'rganish jarayoni sanaladi. Bunda obyekt sifatida guruh, o'quvchi, bilim, munosabat va hokazolar tanlanadi.

Oldindan ko'ra bilish metodlari turli-tuman bo'lib, o'qituvchi ularni mukammal o'zlashtira olishi kerak. Oldindan ko'ra bilish metodlari sirasiga modellashtirish, faraz qilish, sintezlash, dalillash, fikriy tajriba va boshqalar kiradi.

Ushbu metodlar bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Oldindan ko'ra bilish pedagogning u tomonidan pedagogik vazifalarni fikran bajarishda qo'llaniladigan samarali usullarini faraz qilishida namoyon bo'ladi.

Oldindan ko'ra bilish qobiliyati o'qituvchiga xos bo'lgan muhim kasbiy fazilat hisoblanadi. Garchi erishish yo'llari murakkab bo'lsada, pedagogik faoliyat maqsadi hali amalga oshmagan faoliyatning modellashtirilgan natijasi va pedagogik jarayon miqdor va sifat o'zgarishlarining loyihasi sifatida aks etadi.

Pedagogik oldindan ko'ra bilish maqsadga intiluvchanlik bilan bog'liq holda pedagogik vazifalarni aniqlashtirishning va ularni pedagogik vazifalar tizimiga yo'naltirishning so'nggi natijasi hisoblanadi. Bunda pedagogik tashxisda ifoda etiluvchi ma'lumotlar, ya'ni shaxs va jamoaning qo'shimcha imkoniyatlari va tayyorgarligi hisobga olinishi kerak. Ilmiy jihatdan asoslangan oldindan ko'ra bilish natija sifatida pedagogik vazifani, pedagog va o'quvchi faoliyatining mazmunini, motivatsiya va qisqa muddatda hal etilishi zarur bo'lgan jihatlarni sintez qiladi. Pedagogik vazifa pedagog tomonidan, avvalo, o'zi uchun shakllantiriladi, so'ngra e'tibor o'quvchilarning imkoniyatlariga tayangan holda pedagogik vazifaning hal etilishiga qaratiladi.

Pedagogik loyihalashda pedagogik vazifaning yaxlit holda mazmunan, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik hamda ijtimoiy-psixologik (hissiy, kommunikativ va h.k.) jihatdan hal etilishini ta'minlash talab etiladi.

O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1) o'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;

2) o'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

3) o'qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

Bu o'rinda o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi.

O'quv materiali materiallar tizimidan iborat bo'lib, u didaktik materialning moddiy yoki moddiylashgan modellarida aks etadi hamda o'quv faoliyatida ishlatish uchun mo'ljallanadi.

Modomiki, o'quv faoliyati o'quv vazifalarini hal etish jarayoni sifatida qaralar ekan, tabiiyki, o'quv vazifasi o'quv materialining ma'lum qismlariga muvofiq tuzib chiqiladi. Shu bilan birga o'quv materialini pedagogik jihatdan maqsadga erishishga yo'naltirilgan tizim sifatida e'tirof etish mumkin. Demak, o'qituvchi faoliyatida o'quv vazifalari tizimi o'quv materialini loyihalash va didaktik materialni shakllantirish sifatida aks etadi.

Tajribalar tahlilining ko'rsatishicha, pedagogik jarayonni loyihalash murakkab jarayondir. Murakkablik pedagogik jarayonni loyihalashda asosan ikki omil: cheklov va ko'rsatmalarni hisobga olish lozimligida ko'rinadi. Ta'lim mazmuni ilmiylik va amaliy ahamiyat talablarini to'ldirishi, o'quv jarayoniga ajratilgan vaqtga muvofiq tashkil etilishi, shuningdek, ta'lim mazmuni va uning o'quvchilar tomonidan qabul qilinish darajasining o'zaro mosligi inobatga olinadi. Shu bois vaziyatning murakkabligi, o'quv fani asoslarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari avvaldan aniqlab olinishi shart.

Odatda, ijobiy yakuniy natijalarga erishishga intilgan pedagog o'quv dasturida belgilangan mazmun bo'yicha ish ko'radi. Shu asosida o'zining shaxsiy faoliyat dasturini yaratadi.

Demak, pedagog loyihalash texnologiyasini qo'llashda o'quvchilarning ehtiyojlari, ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida darsga tayyorlash imkoniyati, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'stirishni asosiy masalalar sifatida tan olsagina muvaffaqiyat qozonadi.

O'qituvchi faoliyatida kelajakka mo'ljallangan va tezkor loyihalash turli darslarda turlicha moslashtiriladi. Pedagog loyihalashga kirishda xoh u dars, xoh u tarbiyaviy tadbir bo'lsin, har bir pedagogik vazifaning yaxlit pedagogik jarayon tizimidagi o'rnini bilishi lozim.

Malakali, tizimli modellashtirish layoqatiga ega pedagoglar davomli texnologiyalarni yarata oladilar. Ular muayyan sharoitga mos (lokal) modellashtirishni amalga oshira olish layoqatiga ega pedagoglardan keskin farqlanadilar. Binobarin, ikkinchi guruh pedagoglari faoliyatida yaxlit fan (yoki pedagogik jarayon) emas, balki dars (yoki tarbiyaviy tadbir) texnologiyasi yetakchi o'rin tutadi.

Agar pedagog faoliyati o'quvchilarning talablarini qondirish, ya'ni yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda pedagog yaxlit pedagogik jarayonni yoki alohida dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda ham qiyinchilikka duch kelmaydi.

Ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda o'quvchilar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va o'quvchi faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini o'quvchilarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) subyekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Subyekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur.

O'quvchilar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, o'quvchining yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, shuningdek, ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyati)ni asoslash.

2. Refleksivlik tamoyili subyektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash

jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihagini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – subyektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

3. Natijaviylik tamoyili – pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kam kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik – ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda subyektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4. Ko'p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, o'quvchilarning o'quv imkoniyatlari, guruhning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

5. O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'rganidan boshlab uning faoliyat ko'lamini (o'yin, o'qish, o'z-o'ziga xizmat, mehnat) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni o'quvchilar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur.

Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, sezitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan

holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, o'quvchilar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

O'qituvchi faoliyatini tashkil etishda e'tibor birinchi navbatda faoliyat usullari va jarayonlarining o'zaro muvofiq bo'lishiga qaratiladi. Bu holat me'yoriy talab sifatida qabul qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchiga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati o'quvchini qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni o'quvchiga taklif etish maqsadga muvofiq.

Loyihalashda o'quvchini o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Texnologik jarayonni boshqarishda o'qituvchining faoliyati texnologik operatsiyalar tarzida tashkil etiladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan barcha vositalar o'zaro bog'liq moddiy (darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali hamda namoyishli vositalar, laboratoriya jihozlari va h.k.lar) va ma'naviy (qaytuvchan aloqa, o'qituvchi yoki o'quvchi namunasi, xatti-harakatlari, nutqi va b.) kabi guruhlariga ajratiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatлари, ya'ni kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o'z-o'zini anglashi va hokazolar namoyon bo'ladi, ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Axborot ta'minotini loyihalash tamoyillari ta'lim jarayoni loyihasida axborot ta'minoti shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni ta'minlashni anglatadi. Ta'lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy loyihalash ta'lim menejerining vazifasidir. Barcha ta'lim muassasalari faoliyatini loyihalashda ta'lim jarayoni ishtirokchilari, jamiyat hamda davlat (ijtimoiy buyurtma)ning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni to'ldirishi zarur.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1. “Keys-stadi” texnologiyasi haqida tushuncha bering.
2. “Keys-stadi”ning qanday o‘ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
3. “Keys-stadi”ning qanday maktablari mavjud?
4. Keyslar tipologiyasi va turlarini ayting.
5. Kasb ta’limida keys-topshiriqni bajarish strategiyalarini tushuntiring.
6. Loyihaviy ta’lim texnologiyasining dolzarbligini izohlang.
7. Kasb ta’limida qanday loyihaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash mumkin?
8. O‘quv-loyihaviy faoliyat qanday tuzilish va mazmunga ega?
9. O‘quv loyihalari turlarini va qiyosiy tavsifini bayon eting.

Mustaqil ish uchun mavzu va topshiriqlar:

1. Kasb ta’limida “Keys-stadi” texnologiyalarining qo‘llanilishi.
2. Kasb ta’limida loyihaviy ta’lim texnologiyasi yordamida talabalarni faollashtirish.
3. Mavzu bo‘yicha tayanch iboralarga ta’rif bering va mohiyatini tushuntiring.

GLOSSARIY

Avtoritar usul — o‘zaro muloqotda ustunlik, yakkahokimlik pozitsiyasini egallash, guruh faoliyatini cheklash, qattiqqo‘llik, kuchli talabchanlik, qat’iy intizom, so‘zsiz bo‘ysunishni talab qilish, boshqaruvchanlik, buyruq va ko‘rsatmalar berishga asoslanish, ta‘lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbusini inkor etish, e‘tirozlarni qabul qilmaslikda namoyon bo‘ladi.

Adaptatsiya — (moslashish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaytirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

An’anaviy ta‘lim — XVII asrda Ya.P.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyoning aksariyat maktablarida eng ko‘p qo‘llanayotgan sinf-dars tizimi.

Anketalashtirish — anketa-so‘rovnoma yordamida ilmiy tadqiqotlar uchun ommaviy ravishda dastlabki materiallarni yig‘ish jarayoni.

Assistent — mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlovchi, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turuvchi shaxs.

Aql — inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo‘lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati.

Baholash — ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiallari o‘zlashtirilganligini, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligini tekshirish va baho berish ta‘lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Baholash — ta‘lim jarayonining ma‘lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilim — borliqning, bilish jarayonining amalda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat (o‘xshashlik) aks etishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). Kundalik bilim, sog‘lom fikr va amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi.

Bilish — obyektiv borliqni ongda aks ettirishning oliy darajasidagi shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni.

Bilish faoliyati — idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Bilish jarayoni — qabul qilish, eshitish, his qilish, tushunish, anglash, umumlashtirish, mustahkamlash, qo‘llash jarayoni.

Binar dars — ikki ta‘lim beruvchi shaxs (mas.: pedagog-professor va yordamchi assistent, nazariyachi va amaliyotchi) tomonidan olib boriladigan dars.

Boshqarish — jarayonni reja asosida tashkil etish, amalga oshirish, qaror qabul qilish, nazorat qilish, tartibga solish, tahlil qilish va yakun yasashga qaratilgan faoliyat, ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan pedagogik faoliyat.

Vazifa — maqsadni amalga oshirish shakllari va bosqichlarining aniqlashtirilishi.

Vosita — o‘quv jarayonini olib borishda yordam beruvchi, bunga o‘qituvchi nutqi, muloqoti, uning mahorati, darsliklar, qo‘llanmalar, didaktik tarqatma materiallar, sinf jihozi, AKT va boshqalar kiradi.

Guruhiy ta‘lim — o‘qituvchi bir necha o‘quvchilar guruhi bilan ishlaydigan ta‘lim shakli. Guruhlar o‘quvchilar soniga qarab kichik (3–6 o‘quvchi), o‘rta (7–15 o‘quvchi), katta (15 dan ortiq o‘quvchi) guruhlarga bo‘linadi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta‘lim oluvchilarning yoshiga, ta‘lim yo‘nalishiga, ta‘lim topshiriqlari va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo‘llash jarayonida yakka va juft bo‘lib ishlash, frontal shakllari ham amalga oshiriladi.

Davlat ta‘lim standarti — uzluksiz ta‘limning muayyan bosqichida ta‘limning mazmun-mohiyatiga, kadrlar tayyorlash sifati va darajasiga davlat tomonidan qo‘yiladigan minimum talablarni belgilaydigan hujjat, o‘quv yuklamalarining zaruriy hajmi.

Dars — aniq maqsadni ko‘zlab, belgilangan vaqtda ma‘lum xususiyatlariga ko‘ra birlashtirilgan ta‘lim oluvchilar guruhi bilan o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan asosiy o‘quv shakli; ta‘lim maqsadlarini amalga oshirish, o‘qitish shakllari, metodlari va vositalari yordamida o‘quv dasturida belgilangan mavzuning o‘zlashtirilishini ta‘minlash jarayoni.

Demokratik usul – o‘qituvchining hamkorlikda ishlashi, o‘zaro hurmat va ishonchni namoyon qilishi, talabalarning faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini rag‘batlantirishi, individual yondoshishi, guruh fikriga tayanib ish ko‘rishi, muhokamaga barchani jalb qilishi hamda axborot, maslahat va yo‘llanmalar berishida ifodalanadi.

Diagnostika – ma‘lum ilmiy asoslangan metodlar asosida ta‘lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligi, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratlari, o‘quvchilarning olgan bilimlarini o‘zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini atroflicha o‘rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiya berish jarayoni.

Didaktika – pedagogikaning tarmog‘i, ta‘lim-tarbiya maqsadlari, metodologiyasi, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini o‘rganish va ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Ijodkorlik – insonning ongli, ma‘lum maqsadga qaratilgan, yaratuvchanlikka yo‘nalgan faoliyati.

Izlanuvchi – biror tadqiqot obyekti tahlili bilan shug‘ullanuvchi, biror jarayonni kuzatish orqali muammoning sabab-omillarini aniqlovchi, chora-tadbirlar va yangi tavsiyalarni ishlab chiquvchi shaxs.

Inklyuziv – (tenglik) o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

Inson toifalari – ma‘lumotlarni qabul qilish, tushunish va xotirasida saqlab qolishi bo‘yicha quyidagi toifalarga bo‘linadilar:

1. Audial – ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimida eshitish ustunlik qiladi (ovoz, nutq, ritm, tembr, musiqa), eshitish orqali yaxshi qabul qiladi va eslab qoladi.

2. Vizual – ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimida ko‘rish ustunlik qiladi (shakl, ko‘rinish, rang, joylashuv), ko‘rish orqali yaxshi qabul qiladi va eslab qoladi.

3. Kinestet – ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimida hissiyot ustunlik qiladi (harakat, ta‘m, hid, taktil sezgi, emotsiya), amalda qo‘llash orqali yaxshi qabul qiladi va eslab qoladi.

4. Digital – ma'lumotlarni qayta ishlash tizimida mantiq va bog'liqliklar ustunlik qiladi (sabab-oqibat munosabatlari, mazmun-mohiyatni anglash, umumlashtirish), fikrlash orqali yaxshi qabul qiladi va eslab qoladi.

Innovatsiya – yangilik kiritish, o'zgarishlarni joriy etish jarayoni va faoliyati.

Innovator – ta'lim mazmuni va o'qitish jarayonida yangiliklarni joriy qiluvchi shaxs.

Integrativ – (yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Intellekt – insonning shaxsiy-individual sifati, bilish, tinimsiz izlanish faoliyati, fikrlashi, aqliy mushohadasi, tug'ma va orttirilgan qobiliyatlari to'plami.

Interaktiv mashg'ulot – o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'zaro faol ishtirok etadigan jarayon (o'zaro faol harakatda, hamkorlikda kechadi).

Interaktiv metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro faollikni amalga oshirish orqali o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan usul.

Iste'dod – har tomonlama rivojlangan, kuchli, noyob va takrorlanmas qobiliyatga ega bo'lgan shaxs.

Ixtisoslik – birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

Ishchanlik o'yinlari – turli vaziyatlarda o'yin va noto'g'ri qilingan reglament qoidalari asosida o'quv topshiriqlarini imitatsiya qilish orqali bajarish.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi inson mehnat faoliyatining turi.

Kasb – muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi bo'lib, ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining

eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisosliklar bor. Masalan, shifokor kasbiga jarroh, oftalmolog, pediater, terapevt, nevropatolog, onkolog va b. Kasb-hunar egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot, amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Kasb-hunar ta'limi – umumiy ta'lim maktablari (11-sinf)ni yoki akademik litseylarni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. Ta'lim muddati 6 oydan 2 yilgacha. Kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir mutaxassislik va 2-3 ishchi – kasb malaka ko'nikmalarini egallash imkonini beradi. KHTida ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklariga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv darsliklari oldingi o'quv bosqichi – umum ta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsipiga amal qiladi. Kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi. Bu diplom ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Kasbiy bilimdonlik – muayyan faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kasbiy mahorat – bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi, shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasini aks ettirishida namoyon bo'ladi. Kasbiy mahorat yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o'zlashtirishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olish kabi kasbiy sifatleri bilan belgilanadi.

Kasbiy-pedagogik muloqot – pedagog va talabaning o'zaro ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy ta'lim — maxsus tayyorgarlik ko'rgan pedagoglar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan o'quvchilarning o'zaro ta'sirida avlodlar kasbiy tajribasining uzatilish va qabul qilib olinish jarayoni hisoblanib, u o'zaro aloqador, bir-birini taqozo qiluvchi ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: kasbiy o'qitish va kasbiy o'qish.

Kasbiy o'qitish — kasbiy bilim va ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy faoliyat tajribasining uzatilish jarayoni hisoblanib, u maxsus fanlar o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini tavsiflaydi.

Kasbiy o'qish idrok qilish, fikrlash, qayta o'zgartirish, mustaqil izlanish, foydalanish kabilar orqali ijtimoiy kasbiy tajribani o'zlashtirish jarayoni hisoblanib, u o'quvchilar faoliyatini tavsiflaydi.

Kafolat — shaxslarga yuklatilgan vazifalarni yaratilgan vositalar, yo'llar, shart-sharoitlar asosida davlat talablariga (standartlari) mos bajarilishini to'la ta'minlash.

Keys texnologiyasi — ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni o'rganishi hamda tahlil qilishi orqali mustaqil qaror qabul qilishi, muammolar yechimini topishga qaratilgan, o'qituvchi kuzatuvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradigan ta'lim texnologiyasi.

Kognitiv — bilishga oid, bilish jarayoni.

Komil inson — aqlan, axloqan va jismonan yetuk, mustaqil fikrlay oladigan, ma'rifatli shaxs.

Koordinator — loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik qiluvchi, ularni amalga oshirishni rejalashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etuvchi shaxs.

Kommunikatsiya — insonlar orasidagi o'zaro muloqotda axborot almashinuvi amalga oshiriladigan jarayon.

Kommunikativ ko'nikma — muomala, munosabat o'rnatish va muloqotga kirishish malaka va ko'nikmalari tushunchasi.

Kommunikativ faoliyat — pedagogning ta'lim oluvchilar, boshqa pedagog hamkasblar, jamoatchilik vakillari, rahbariyat va ota-onalar bilan pedagogik maqsadga muvofiq o'rnatgan muloqot harakatlari.

Kommunikator — o'zaro muloqotning sifati va samaradorligini oshiruvchi, takomillashtiruvchi, axborot uzatuvchi shaxs.

Kouch — ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor trener.

Kreativlik — shaxsning ijodiy fikrlashi, betakror qadriyatlar yarata olish qobiliyati, vaziyatga o'zgacha va nostandart yondoshuvi, tadqiqotga moyilligi.

Kuzatish — biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning o'ziga xos shakli.

Ko'nikma — egallangan bilimlar asosida ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va ruhiy kuch sarflagan holda bajarish. Harakat turlari bo'yicha 3 turga bo'linadi: harakat (psixomotor), sensor-hissiy (affektiv), aqliy-bilish (kognitiv) ko'nikmalarga.

Ko'nikma — o'zlashtirilgan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq xatti-harakatlarda, muayyan tayyorgarlikda ifodalangan ongli faoliyat. Ko'nikmaning fiziologik asosi bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'ladigan murakkab refleksi.

Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar ixtiyoriy diqqat bilan bajariladi. Keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish va takrorlash orqali zarur darajada shakllanadi.

Laboratoriya ishi — maxsus jihozlangan sharoitda asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Liberal usul — anarxik, javobgarlikdan qochish, o'z pozitsiyasiga ega emaslik, ish natijasiga befarqlik, e'tiborsizlik va beparvolik, yuzakilik, murosasozlikda namoyon bo'ladi. O'qituvchi guruh hayotiga aralashmaslikka harakat qiladigan, faollik ko'rsatmaydigan, qarama-qarshi ta'sirlarga bo'ysunadigan, ta'lim oluvchilarning har qanday fikrlari bilan kelishib ketaveradigan, o'ta erkinlik va mustaqillik muhitiga yon beradigan, obro' uchun kurashmaydigan, o'rinsiz rahmdillik ko'rsatadigan usul.

Lider — (ingl. "leader" — boshlovchi, rahbar) jamoada o'zining shaxsiy sifat va fazilatlarini bilan jamoa a'zolariga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan, yetakchi shaxs.

Liderlik — shaxsning odamlarni o'ziga ergashtira olish, ularni boshqara olish xususiyati; tashkilotchilik, rejalashtirish hamda nazorat qilish qobiliyati.

Mazmun – ilmiy bilimlar yig‘indisi, amalda qo‘llash uchun beriladigan ko‘nikma va malakalar jarayonida o‘quvchilar anglash, fikrlash, o‘ylash, mulohaza yuritish orqali amalga oshiriladi.

Malaka – egallangan bilim va shakllangan ko‘nikmalar asosida avtomatlashgan, muayyan usul bilan yuqori darajada bajariladigan harakat, mashq qilish va tajriba hosilasi.

Malaka – shaxsning ma‘lum kasbga yaroqlilik, tayyorgarlik darajasi, shu kasbda ishlashi uchun zarur bilim, ko‘nikmalar yig‘indisi.

Kasbiy bilim va ma‘lumotlarning tez ko‘payib borayotgani hamda hayot tempining jadalligi ilgari o‘zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmovchilik qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to‘ldirib boriladi. Bu jarayon uzviy va uzluksiz davom etgandagina zamon talablari darajasidagi malakani kafolatlaydi.

Malaka oshirish – mutaxassislarining kasb bilimlari hamda ko‘nikmalarini yangilash va chuqurlashtirish, ularni zamon talablariga javob bera oladigan qilib qayta tayyorlash. Mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash universitetlarida, malaka oshirish institutlarida va professional qayta tayyorlash huquqiga ega bo‘lgan o‘quv markazlarida amalga oshiriladi.

Mutaxassislarni professional qayta tayyorlash jarayoni yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi. O‘quv rejasining barcha talablarini bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan tinglovchilarga qayta tayyorgarlik va malaka oshirishdan o‘tganligi haqida belgilangan namunadagi diplom yoki sertifikat beriladi.

Malaka tavsifnomasi – ishchi-mutaxassisning nazariy va amaliy bilimlari hamda kasbiy saviyasiga qo‘yiladigan asosiy talablar mujassamlangan normativ hujjat bo‘lib, unda ishchi-mutaxassis u yoki bu kasb faoliyati doirasidagi ishlarni ongli va to‘g‘ri bajarishi uchun egallashi zarur bilimlar ifodalanadi.

Malaka talablari – uzluksiz ta‘limning tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yilgan talablar.

Ma‘ruza – odatda oliy o‘quv yurtida biror fan mazmunini og‘zaki va ko‘rgazmali bayon qilishga asoslangan o‘quv mashg‘uloti turi, jarayoni va metodi.

Masofaviy ta'lim – masofalararo radio, televidenie, kompyuter, internet vositalari asosidagi ta'lim jarayoni.

Maqsad – o'qitishdan ko'zda tutilgan natijalarga erishishni amalga oshiruvchi mo'ljal, aniq yo'nalishni belgilab beruvchi yetakchi g'oya. Ta'limiy maqsad – ta'lim oluvchilarni muayyan fanga oid tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning ta'lim mazmunini o'zlashtirishi hamda amaliyotga tatbiq qila olishini ko'zda tutish. Tarbiyaviy maqsad – ta'lim oluvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishi orqali ularda odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqod, axloqiy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, mas'uliyat, maqsad, ideal, qiziqish, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirishni ko'zlash. Rivojlantiruvchi maqsad – o'qitish jarayoni ta'sirida ta'lim oluvchi shaxsini intellektual, irodaviy, emotsional va jismoniy jihatdan rivojlantirish, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, mustaqil fikrlash va muloqot malakalarini shakllantirishni nazarda tutish.

Mahorat – o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha kasbiy amaliy harakatlarni kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Mediapedagog – zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mediata'limni amalga oshirish bo'yicha kompetensiyaga ega o'qituvchi.

Mediata'lim – ta'lim oluvchilar tomonidan ommaviy axborot vositalari – matbuot, televidenie, radio, internet, adabiyot, san'at, kino, teatr ma'lumotlarini o'zlashtirish, tahlil qilish va bilim olishga asoslanadi.

Mentor – ustoz, tarbiyachi, o'qituvchi (yakka va guruhli tartibda).

Metod – grekcha so'z bo'lib, “yo'l”, “usul”, “axloq” ma'nolarini bildiradi. Tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish faoliyati, harakat yo'li, usuli, uslubi, tarzi yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Metodist – ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlar, metodikalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida metodik maslahat beruvchi shaxs.

Metodik – metodikaga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka, oldindan ishlab chiqilgan rejaga, tizimga aniq rioya qilish.

Metodika – biror jarayon yoki faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish metodlari, yo'llari majmuasi, ma'lum o'quv predmetini o'qitish qonuniyatlari.

Metodologiya — bilishning ilmiy metodi haqidagi, biror fanda qoʻllaniladigan metodlar majmuasiga oid taʼlimot.

Moderator — taʼlim mazmunini yaratuvchisi, modullarni ishlab chiquvchi shaxs.

Moderator — maʼmuriy huquqga ega boʻlgan forum taʼlimi qatnashchisi, boshqaruvchi, maslahatchi, yoʻnaltiruvchi, faollashtiruvchi, taʼlim uchun sharoit yaratuvchi.

Modul — pedagogik texnologiyani oʻz ichiga olgan tarkibiy qism boʻlib, oʻquv materialini mazmuni hamda dars jarayoni modullaridan tashkil topadi.

Monitoring — korxonada, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash hamda uning faoliyati sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida tashxis qilingan maxsus tizimli kuzatuv-tahlil. Meʼyoriy hujjatlar, buyruq va qarorlar, dastur yoki standartlar, taʼlim-tarbiya usullarining qanday sifat hamda darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi. Taʼlim sohasidagi monitoring — pedagogik kategoriya boʻlib, oʻquv jarayoni sifati va uni boshqarishning uzluksiz kuzatuvini olib borish. Monitoring natijasida olingan axborotlar tahlili asosida mazkur sohadagi boshqaruv faoliyatini tartibga solib borish, pedagogik jarayon va uni boshqarishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish, samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ilmiy asoslangan holda belgilash imkoniyati hosil boʻladi. Axborotlar tahlili va xulosalar asosida taʼlim muassasasi, oʻqituvchi faoliyatiga tuzatish hamda oʻzgarishlar kiritib boriladi.

Motiv — lotincha soʻz boʻlib, “turtki”, “harakatga keltiruvchi, undovchi kuch”, “sabab”, “xohish”, “mayl” kabi maʼnolarni bildiradi, shaxsning oʻz ehtiyojlarini qondirish uchun ichki uygʻonishi, maqsadga erishish uchun aniq maqsad sari intilishi.

Motivatsiya — motivlar yigʻindisi, maqsadga erishish uchun qoʻzgʻata olish, harakatga keltira olish faoliyati.

Muammoli taʼlim — taʼlim jarayonida oʻquvchilar oldiga oʻquv muammosini qoʻyish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashgʻulot davomida uning yechimini topish.

Muammoli taʼlim texnologiyalari — oʻquvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli taʼlim texnologiyasining asosi — insonning fikrlash jarayoni muammoli vaziyatni hal etishdan

boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Multimedia – ko'p axborotli ma'nosini bildirib, qo'llanmalar, ya'ni ma'lumotlar 3-, 4-o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida beriladigan o'quv vositasi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilganda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

Munozara – 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, muzokara, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

Mustaqil ta'lim – o'z-o'zini o'qitish, shaxsiy dastur asosida ta'lim olish.

Mutaxassislik – ma'lum kasb doirasida mehnat faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasidir. U kasbga nisbatan tor tushuncha hisoblanadi. Mutaxassislik mehnat predmetiga (qo'llaniladigan mehnat qurollari, usullari va mahsulotlariga), shuningdek, mehnat faoliyati turlariga (texnologik, tashkiliy, loyiha-konstruktorlik, ilmiy-tadqiqiy va pedagogik) bog'liq holda ham aniqlanadi. Faoliyatning istalgan turi mehnat mahsulotining miqdori va sifati aks etadigan turli darajadagi mohirlik bilan bajarilishi mumkin. Boshqacha aytganda, kasbni turli darajada egallash mumkin.

Natija – ta'lim jarayoni yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha, belgilangan ta'limiy maqsadni amalga oshirishda hosil qilingan tushuncha, egallangan bilim, shakllangan ko'nikma va malakalarda ifodalanadigan pirovard mahsul.

Obyekt – yunoncha so'z bo'lib, 1) bizdan tashqarida mavjud va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan tashqi olam bo'lib, bilishning, shuningdek, subyektning amaliy ta'sir predmeti hisoblanadi. 2) qaysidir faoliyatga yo'naltirilgan hodisa.

Pedagog – tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi, rivojlantiruvchi shaxs.

Pedagog portfoliosi – bu pedagog haqidagi ma'lumotlarni: uning hujjatlari, ish namunalari, erishgan kasbiy yutuqlari, faoliyat natijalari

jamlanmasini o‘z ichiga olgan va o‘qituvchining professionallik darajasini baholash imkoniyatini beradigan tizim.

Pedagogik jarayon — ta‘lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va talabalarning maqsadli o‘zaro munosabatlari.

Pedagogik innovatsiya — 1) pedagogik faoliyatga uning samaradorligini oshirish maqsadida yangiliklarning kiritilishi, ta‘lim-tarbiyaning mazmun va texnologiyalaridagi o‘zgarishlar; 2) ta‘lim faoliyatida bola shaxsini rivojlantirish jarayoniga oid madaniy an‘analarga asosanib ta‘lim jarayoniga yangicha qarash va yondashuvlar.

Pedagogik mahorat — pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi o‘qituvchining kasbiy sifatleri va shaxsiy xususiyatlari majmui.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtayi nazarlardan yondashish mumkin.

Pedagogik takt — o‘qituvchining professional sifati va pedagogik mahoratining bir qismi bo‘lib, ta‘lim oluvchilarga nisbatan to‘g‘ri munosabat shaklini tanlash yo‘llaridan biridir. Pedagogik takt turli vaziyatlarda o‘qituvchining vazmin holatni saqlay olishida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnika — har bir ta‘lim oluvchiga va guruhga pedagogik samarali ta‘sir o‘tkazishda qo‘llash uchun o‘qituvchiga zarur bo‘ladigan malaka va ko‘nikmalar majmuidir.

Pedagogik texnologiya — axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma‘no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya ta‘lim oluvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi va o‘zlashtiradi.

Pedagogik texnologiya — o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini, ijodiy izlanishlarini, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash, mushohada yuritishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya

berishning faol shakl, usul va vositalari majmuasi. U pedagogik jarayonni mazmunli, samarali amalga oshirish texnikasi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat – ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik qobiliyat – pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan, imkoniyat darajalarining ustunligini ifodalaydigan o’qituvchining shaxsiy-individual xususiyatlari.

Professiogramma – kasblar yoki mutaxassisliklar to’g’risidagi tushunchalar bir tizimga solingan, mehnatning pedagogik-psixologik tomonlarini ochib beradigan, tartiblangan va o’zaro uzviy bog’langan, umumiy vazifani bajarish uchun zarur bo’ladigan shaxsiy, umuminsoniy va kasbiy sifatlarni o’zida mujassam etgan, o’quvchining kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishiga qaratilgan qisqa va asosli talablar majmuasi hisoblanadi.

Reyting – o’quv faoliyatining miqdoriy xarakteristikasi hisoblanadi. O’quvchilarning barcha faoliyat turlarini ballarda (qoidaga ko’ra 100 ballgacha) butun baholash.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o’z harakatlari va holatlarini tahlil qilish, o’z-o’zini baholash.

Samaradorlik – sifatning umumlashgan o’lchovi. Samara deganda qo’yiladigan maqsadga to’la, mahsuldor yoki qisman natijali erishish tushuniladi. Ta’lim sifatining oqilona darajasiga erishish ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Standart – ta’lim oluvchiga qo’yilgan minimal bilim, ko’nikma va malaka talablari bo’lib, uning barkamol inson bo’lishining kafolati sifatida belgilanadi.

Strategiya – (yunon. “strategos” – generalning san’ati) harbiy boshliq tarkibining harbiy operatsiyalarini rejalashtirish san’atini bildiradi. Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo’lib, u izchillik bilan va to’liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Strategiya, bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli taqlil qilish natijasidir.

Subyekt – yunoncha 1) tashqi borliq (olam)ni bilishga intiladigan va o’z amaliy faoliyati bilan unga ta’sir ko’rsatadigan inson, 2) qandaydir xususiyatlarni tashuvchi inson, shaxs.

Sun'iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt – mashinalarga aql ato etadigan fan va texnologiyalar yaratishga qodir bo'lgan sun'iy ongdir. Neyrotarmoq so'zi esa insonga xos bo'lgan ijodiy funksiyani ham bajara oladigan “sun'iy aql tizimi“ ma'nosini beradi.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarni axloqiy, intellektual, jismoniy, kasbiy, madaniy rivojlantirishning yuqori darajasiga erishish maqsadida amalga oshiriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayoni.

Ta'lim dasturi – ta'limning maqsadlari va aniq vazifalaridan kelib chiqqan holda, ma'lum daraja va yo'nalishdagi ta'lim mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan dastur.

Ta'lim sifati – ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi tushuniladi.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, atrof-olamdagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish, muammolarni hal etish, mavhum voqea-hodisalarni anglash. Tafakkur hissiy bilish, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Tasniflagich – tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Tashkilotchilik – darsda didaktik jarayonni tartibga, tizimga tushirish, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning muvofiq, faol usullarini shakllantirish.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini ifodalaydigan tug'ma individual xususiyatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, reaktivlik, temp, psixik jarayonlari va holatlari.

Test – (ingl. “test” – tekshirish, sinov, nazorat) aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo‘lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan sinov; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma‘lum sifat baholarini oldindan berilgan ba‘zi standart – test me‘yorlari bilan qiyosiy o‘rganishga mo‘ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Test topshiriqlari – ta‘lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalari hisoblanadi. Test savollari yordamida barcha o‘quvchilarning bilimini bir vaqtda tekshirish, ularni mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

Test usulida baholash – ta‘lim jarayoni natijalarini obyektiv, ishonchli aniqlashga yordam beradigan pedagogik diagnostika metodlaridan biri.

Texnolog – pedagogik texnologiya mutaxassisi, dasturlarni ishlab chiquvchi, amalga oshirishni ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etuvchi shaxs.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini sifatli o‘zgartirish tizimi, mahsuldor metodlar to‘plami.

Texnologik xarita – integrallashgan darslarni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o‘rganish usullari, yo‘llari, ko‘rsatmalari hamda ko‘rgazmali – texnologik topshiriqlar yig‘indisi.

Tizim – unsurlar (qismlar, elementlar, predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar, harakatlar va b.)ning ma‘lum bir bog‘lanishda, ketma-ketlikda, o‘ta izchillikda, rejali hamda to‘g‘ri joylashish tartibi.

Trener – ma‘lum yo‘nalishda ta‘lim oluvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.

Tushunish – axborotning ma‘no-mazmunini idrok qilish, qayta ishlash, undan ko‘rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

Tushuntirish – axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo‘llab, tushuntiruvchining o‘zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tyutor – lot. “tueor”, ingl. “tutor” – xonaki o‘qituvchi, repetitor, murabbiy so‘zlaridan olingan bo‘lib, hozirgi vazifasiga ko‘ra konsultant-o‘qituvchi, masofaviy ta‘lim orqali o‘rgatuvchi ma’nosida tushuniladi.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Faollik – biror maqsad yo‘lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Fasilitator – dars samaradorligini oshirish maqsadida guruh ishini tashkil etuvchi, ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, mashg‘ulot uchun qulay sharoit va samarali ishlash muhitini yaratuvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

Fasilitatsiya – shaxslarning ta’siri, ishtirokida mehnat unumdorligini oshirish, natijaga erishishga yordam berish, yangiliklarni qo‘llash orqali sifat va samaradorlikka erishish.

Shakl – dars jarayonini amalga oshirishning eng qulay usullari, vositalari, ketma-ketligi, ta‘lim oluvchilar soni, sarflangan vaqt, joy qulayliklarini o‘z ichiga oladi.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, foydali faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘la oladigan, o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlar, muayyan xulq-atvor, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan inson.

Evristik – yo‘naltiruvchi savollarni berib borishga asoslangan o‘qitish tizimi, topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim, o‘quv izlanishli, optimallashtirilgan (qulaylashtirilgan) tafakkurni rivojlantiradi.

Eksperiment – yaratilgan yangilik, gipoteza, g‘oyalarni sinov-tajribadan o‘tkazish metodi.

Ekspert – kuzatuvchi, tahlil qiluvchi, tekshiruvchi, xulosa chiqaruvchi, tavsiya beruvchi, taklif va mulohaza bildiruvchi shaxs.

Yangi axborot texnologiyalari – kommunikatsiya texnologiyalari asosida turli metod, vositalar asosida olingan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash asosida ta‘lim jarayoniga yo‘naltirish.

O‘zlashtirish – tushunish, o‘rganish orqali axborotning mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, muayyan xatti-harakat va xulq-atvor usullarini egallash jarayoni.

O‘rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallash, takrorlay olish faoliyatidan iborat jarayon.

O‘rgatish – o‘quvchilarda axborotdan foydalanish, xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan harakat, turli vosita va usullarni qo‘llab tushuntirish, amaliy mashqlar orqali ko‘rsatish jarayoni.

O‘qitish – ta‘lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o‘qituvchining faoliyati.

O‘qituvchi – pedagogik-psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma‘lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega, ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya berish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega, o‘quvchilar tomonidan ta‘lim mazmunining o‘zlashtirilishini ta‘minlovchi, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiluvchi shaxs.

O‘quv-uslubiy majmua – muayyan fan yoki kasbni to‘liq va sifatli o‘rganish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlar va o‘qitish vositalari majmui bo‘lib, davlat ta‘lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida ta‘lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta‘minlaydigan, talabning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta‘lim resurslari, baholash metodlari va mezonlari jamlanmasi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim – o‘quvchining o‘quv-shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta‘lim texnologiyasida har bir o‘quvchini o‘rganish, tushunish, hurmat qilish, unga ishonish, ta‘limni unga moslashtirish katta ahamiyatga ega.

Qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) – mutaxassislarga qisqa muddatlarda bazaviy kasbiy tayyorgarliklarini boshqa bir mos

mutaxassislik faoliyatini amalga oshirish uchun malaka talablarida belgilangan, mutaxassislikning muayyan turini sifatli yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan kasbiy tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish va takomillashtirish imkonini beruvchi ta'lim turi.

Qiziqish — shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Qobiliyatlar shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

G'oya — tushuncha, tasavvur, fikrlar paydo bo'lgan muammolarni yechishga yordam beradi. Agar u innovatsion yo'nalishda kechsa, ta'lim rivoji tezlashadi.

Hamkorlik pedagogikasi — ta'lim oluvchining shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratadigan, ta'lim oluvchida bilishga bo'lgan intilishni rivojlantiradigan, keng va chuqur bilim hamda malakaga ega bo'lish uchun sharoit tug'diradigan, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltiradigan, o'zaro muloqot hamda birgalikdagi faoliyatga asoslangan yondashuv. Uning metodik usullari: insonparvarlik, shaxsiy yondashuv, muloqot mahorati, o'quv faoliyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. – T.: «Sharq». 2001.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: «Sharq», 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PQ-2956-sonli “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (1998-yil 5-yanvar). Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: «Sharq», 2001.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
10. Abduquddusov O. Malaka oshirish tizimida pedagogik innovatsiyalar. «Xalq ta’limi», 1999.
11. Abduquddusov O.A., Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2009. 238-b.

12. Avazov Sh. Amaliy kasbiy ta'lim metodikasi. II qism. / Kasb-hunar kollejlarining amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilari (ishlab chiqarish ta'limi ustalari) uchun chizmalar va jadvallar ko'rinishidagi o'quv-metodik qo'llanma). - T.: O'MKHTRM, 2003. -73-b.
13. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari: O'quv qo'llanma. - B.: "Muallif" nashriyoti, 2001.
14. Avliyakov N.H., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
15. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. - Toshkent, 2000.
16. Aldjanova I. O'quv portfoliosi - bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida. Pedagogik ta'lim jurnali, 2012-yil 4-son, 46-bet.
17. Ashurova S.Y. Kasb-hunar ta'limida maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning faol usuli. // Kasb-hunar ta'limi. - T.: 2004.
18. Ayupov T.X., Ahmadjonov X.I., Imomqoriyeva Sh.R. Samarali ta'lim berish usullari. -T., 2003.
19. Ahrorova Z. O'qitishning yangicha usullari. // Ta'lim va tarbiya, 2003-yil, 3-4-sonlari.
20. Bayboyeva A. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbga yo'naltirilganlik. // Kasb-hunar ta'limi, 2005-yil 5-soni.
21. Bozorova S. Kasbiy yo'naltirilgan muammoli o'qitish samaradorligini oshirish // Kasb-hunar ta'limi, 2006-yil 5-soni.
22. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. - T.: Tasis 2001.
23. Dehqonova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 2-soni.
24. Djuraev R.X. va boshqalar. "Pedagogik atamalar lug'ati". - T.: "Fan" nashriyoti, 2008.
25. Дианкина М.С. Профессионализм преподавателя высшей медицинской школы (психолого-педагогический аспект). Москва, 2000.
26. Ismoilova M.Yu. Kasbiy mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 4-soni.

27. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T. 2002.
28. Muhridinova M.T., Kasb ta'limi metodikasi. O'quv qo'llanma. TATU. – Toshkent, 2011.
29. Мирзаева Н.А., Мирзаева Ш.Р. Психолого-педагогические дисциплины в подготовке врачей и медсестер высшей квалификации. Научно-практический журнал "Экономика и социум" №2(15)-2015, Россия, Саратов, 580 -582 с.
30. Mirzayeva Sh.R. O'qituvchining pedagogik mahorati o'quv faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida. "Гармонично развитое поколение - условие стабильного развития, благополучия и процветания общества" №5, Toshkent, 2013-yil, 75-77 betlar.
31. Mirzayeva Sh.R. Talaba shifokorlarni kasbiy tayyorlashning psixologik- pedagogik xususiyatlari. "Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi" Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi maqola va tezislar to'plami. ToshPTI, 2016-yil, 220–223-betlar.
32. Мирзаева Ш.Р., Рахматова З.М. О совершенствовании системы повышения квалификации педагогических кадров в Узбекистане // Международный научно-практический журнал "Теория и практика современной науки" №10(16), октябрь 2016 йил, Россия, 236 - 239 б.
33. Mirzayeva Sh.R. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda test imkoniyatlaridan foydalanish // "Oliy tibbiy ta'limda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi va samaradorligi" Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi maqolalar va tezislar to'plami. – Toshkent, 2017. 377-382 b.
34. Mirzayeva Sh.R., Mirzayeva N.A., Fayzullayev Z., Murodxujayev S. "Assesment" – o'qitish jarayoni samaradorligini oshiruvchi texnologiya sifatida // Internauka: nauchnyy jurnal. № 10(14). Chast 4. – M., Izd. «Internauka», 2017, 48-50 b.
35. Mirzayeva Sh.R. Yangi avlod talabasi xususiyatlari ta'lim muammolari sifatida // "Tibbiy ta'limdagi islohotlar – mamlakatimiz tibbiyot sohasining taraqqiyot mezonlari" Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi. ToshPTI, 2018-yil 8-yanvar, 132-b.
36. Mirzayeva Sh.R. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish // "Tibbiy ta'limdagi islohotlar – mamlakatimiz tibbiyot sohasining taraqqiyot mezonlari" Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi ToshPTI, 2018-yil 8-yanvar, 133-b.

37. Musaeva S. Portfolioning maqsad va mohiyati. *Pedagogik ta'lim jurnali*, 2013-yil 1-son, 20-bet.

38. Olimov Q.T., Mirzaxmedov B.M., G'afforov A.X. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2007.

39. Olimov K.T., Abdukuddusov O.A., Uzoqova L.P. Kasb ta'limi uslubiyoti. – Toshkent, 2006.

40. Современная методология практического занятия в медицинских ВУЗах (методические рекомендации). Под редакцией проф. Алимova A.B., Ташкентский педиатрический медицинский институт. 2002.

41. “Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari” mavzusidagi seminar trening materiallari. OTB UZB-1737 loyihasi. –T., 2002.

42. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T., 2007.

43. Tolipova J.O., To'rayev A.B. “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi. –T., 2016.

44. Umarov B.U., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika. Psixologiya. –Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: «IJOD-PRINT» 2019, -332 bet. .

45. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: «LESSONPRESS», 2018, -278 bet.

46. Usmonova Sh., Rahimov B. Muammoli ta'limni tashkil etishning psixologik asoslari. // Xalq ta'limi, 2005-yil 5-soni.

47. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000.

48. Farberman B.L., Musina R.G. Jumaboyeva F.R. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T., 2002.

49. Xodjaboyev A., Nishonov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2006.

50. Xodjaboyev A.R., Xusanov I.A., Nishonaliyev U.N. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.

51. Xodiyev B.Yu., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma –T.: TDIU, 2010.

52. Эрганова Н.Е. Методика профессионального обучения: учеб. Электронно-методический комплекс: Учебно-методическая программа, курс лекций, практикум, методика проведения самостоятельной работы Красноярск. СФУ. 2009.

53. Ergashev R.X. Interaktiv usullarni ta'lim tizimiga joriy etish tajribasi. // Uslub va vositalari. //Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 2-soni.

54. Yahyoyev M.S., Tojiyeva F. Masofadan o'qitish va o'qitish tamoyillari to'g'risida // Ta'lim texnologiyalari, 2006-yil 4-soni.

55. Шойимова Ш.С., Гузачёва Н.И. Психология педагогической деятельности. Международный научно-практический журнал "Теория и практика современной науки", Россия, Саратов, № 6 (12), 2016 г., с 411-414.

56. Shoyimova Sh.S. Zamonaviy o'quv jarayonining psixologik jihatlari. Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi. Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi maqola va tezislari to'plami. ToshPTI, 2016. 350–356-betlar.

57. Shoyimova Sh.S. Pedagogning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari. "Pediatriya sohasida yosh olimlarning yutuqlari" respublika ilmiy-amaliy anjumani, tezislari to'plami, I qism, Toshkent, 2017-yil, 18-aprel, 91–92-betlar.

58. Shoyimova Sh.S. Pedagogik muloqotning psixologik xususiyatlari. Oliy tibbiy ta'limda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi va samaradorligi. Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi maqolalar va tezislari to'plami. – Toshkent, 2017-yil. 699–704-betlar.

59. Shoyimova Sh.S., Isaxodjayeva S.D. Kasbiy-pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari. Internauka №7 (89), chast 2, 2019, Rossiya, 82–83-betlar.

60. Шойимова Ш.С., Мехманова С.У. Психологические барьеры в профессионально-педагогическом общении. Международный научно-практический журнал "Мир педагогики и психологии". №2 (7), 2017 й., с.76- 79.

61. Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A., Mirzayeva Sh.R. Pedagogning kommunikativ tolerantligi masalalari. Xalqaro hamkorlik va innovatsiyalar – tibbiy ta'lim islohotlarining asosidir Respublika o'quv-uslubiy konferensiyasi. ToshPTI, 2018-yil 28-dekabr, 218–221-bet.

62. Shoyimova Sh.S., Rasulova Z.S., Kurbonova G.B. Kasbiy-pedagogik faoliyat strukturasi psixologik xususiyatlari. «Internauka»:

nauchnyy jurnal – № 20(54). – M.: Izd. «Internauka», 2018, – Moskva. S. 63-65.

63. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ta'lim yo'nalishlari va kasblar tasniflagichi. – T.: «Arnaprint», 2015. –144-b.

64. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlari amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. -160 b.

65. G'oziyev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi» 6-son, 1999.

66. Hasanov P., Botirov M. Masofaviy ta'lim uchun yangi texnologiyalar.// Jamiyat va boshqaruv, 1999-yil 1–2-sonlari.

67. Assessment, monitoring and evaluation. UNESCO International Institute for Educational Planning. www.iiep.unesco.org. 2010.

68. Augustin M. How to learn effectively in medical school: test yourself, learn actively, and repeat in intervals. *Yale J Biol Med.* 2014; 87(2):207.

69. Dinesh D Khedkar. Pedagogical advances in Teaching, Learning and Evaluation processes for undergraduate students, *SCHOLARS IMPACT Multidisciplinary Multilingual Refereed Journal*, 21-27 p, January 2018

70. Goncalves, L.M., Osorio, H.S., Oliveira, L.L., Simonetti, L.R., dos Reis, E., & Lucchetti, G. (2016). Learning from listening: helping healthcare students to understand spiritual assessment in clinical practice. *Journal of Religion & Health*, 55(3), 986-999. <https://doi.org/10.1007/s10943-015-0146-y>

71. Losh, D.P., Mauksch, L.B., Arnold, R.W., Maresca, T.M., Storck, M.G., Maestas, R.R., et al. (2005). Teaching inpatient communication skills to medical students: an innovative strategy. *Academic Medicine*, 80(2), 118-124. <https://doi.org/10.1097/00001888-200502000-00002>.

72. Lucinda Wynter, Annette Burgess, Eszter Kalman, Jack Edward Heron and Jane Bleasel. Medical students: what educational resources are they using? *BMC Medical Education* (2019) 19:36, <https://doi.org/10.1186/s12909-019-1462-9>.

73. Maria G. Baier-D'Orazio, Vital Banywesize Mukuza Muhini. *Guide for Practitioners of Vocational Training*. 2016.

74. TEACHING AND LEARNING IN MODERN VOCATIONAL EDUCATION AND TRAINING SYSTEMS.

Prepared by Evelyn Viertel. European Training Foundation, 2009.

75. N.A. Mirzaeva, Sh.S. Shoyimova, Sh.R. Mirzaeva, Psychological features of distance learning, Journal Of Biomedicine And Practice 2020, Special Issue, pp.1002-1005.

76. Sh.R. Mirzaeva, Sh.S. Shoyimova, N.A. Mirzaeva, Innovative opportunities for monitoring and evaluating the progress of students in distance learning, Journal Of Biomedicine And Practice 2020, Special Issue, pp. 998-1001.

77. Sh.S.Shoyimova, Sh.R.Mirzaeva, N.A.Mirzaeva, Advantages of e-learning in improving the professional competence of university teachers, Journal Of Biomedicine And Practice 2020, Special Issue, pp. 1009-1012.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I BOB. KASBIY TA'LIM METODIKASI FANIGA KIRISH

1.1. “Kasbiy ta’lim metodikasi” fanining shakllanish tarixi.....	6
1.2. “Kasbiy ta’lim metodikasi” fanining kasbiy va tibbiy ta’lim mutaxassislarini tayyorlashda tutgan o’rni.....	14
1.3. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari va metodologik asoslari.....	18
1.4. Fanning ilmiy-tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan bog’liqligi.....	27
1.5. O’zR uzluksiz ta’lim tizimida kasbiy ta’lim islohotlari.....	34

II BOB. KASBIY TA'LIM O'QITUVCHISINING USLUBIY ISHLARI

2.1. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo’yicha o’quv-uslubiy majmua yaratish talablari.....	41
2.2. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish.....	50
2.3. Darsni tahlil qilish xususiyatlari va ahamiyati. Dars tahlili turlari.....	69

III. BOB. BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI NAZARIY O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

3.1. Kasbiy ta’limning didaktik tamoyillari.....	74
3.2. Kasbga yo’naltirish, kasb tanlash xususiyatlari va kasbga tayyorlashning muhim masalalari.....	80
3.3. Kasbiy ta’lim mazmuni. Kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi.....	91
3.4. Umumkasbiy va maxsus fanlarni nazariy o’qitish, bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashning didaktik tizimi.....	103

3.5. Kasbiy ta'limda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil qilish hamda o'tkazish.....105

IV BOB. O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATI VA PEDAGOGIK MAHORATI

4.1. O'qituvchining faoliyat turlari va uslublari.....114

4.2. Kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik mahorati.....121

4.3. Kasb ta'limi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyati.....131

V BOB. PEDAGOGIK QOBILIYATLAR, PEDAGOGIK TEXNIKA, MULOQOT VA NUTQ

5.1. Pedagogik qobiliyatlar va ularning klassifikatsiyasi.....142

5.2. O'qituvchining pedagogik texnikasi va uning tarkibiy qismlari.....148

5.3. Pedagogik muloqot. Pedagogik takt va muloqot madaniyati....154

5.4. Pedagogik nutqi va unga qo'yiladigan talablar.....162

VI BOB. TA'LIM OLUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA INNOVATSION O'QITISH TYEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

6.1. Kasbiy mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.....170

6.2. Tibbiy ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari.....173

6.3. Kasb-hunar ta'limida innovatsion o'qitish texnologiyalari.....178

6.4. Umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha noan'anaviy o'qitish usullarini qo'llash.....186

VII BOB. KASB TA'LIMI JARAYONIDA "KEYS-STADI" VA "LOYIHA" USULLARINI QO'LLASH

7.1. "Keys-stadi"ning o'ziga xos xususiyatlari. Kasb ta'limida keys-topshiriqni bajarish strategiyalari.....193

7.2. Tibbiy ta'limda loyihaviy ta'lim texnologiyasi.....199

GLOSSARIY213

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....231

Nashriyot litsenziyasi AI № 223, 16.11.2012.
Bosishga 01.12.2020-y.da ruxsat etildi.
Bichimi 60x84¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset bosma usulida
bosildi. 13.9 shart. b.t. 13.7 hisob nashr tabog'i.
Adadi 50. 7-raqamli buyurtma.

«Shuhrat matbuot servis» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Uchtepa tumani, Farhod ko'chasi, 58-uy.